



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

IQTISODIY BILIM ASOSLARI KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”

O`quv ishlari bo`yicha prorektor

N.X.Raxmankulova

“ ” 2020 yil



**TARMOQLAR IQTISODIYOTI FANIDAN
O`QUV-USLUBIY MAJMUA**

Bilim sohasi:

100000 – Gumanitar

Ta`lim sohasi:

110000 – Pedagogika

Ta`lim yo`nalishi: 5112200 - Iqtisodiy bilim asoslarini o`qitish metodikasi

TOSHKENT – 2020

Fanning ishchi o`quv dasturi O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 20__ yil ____ ____ dagi __ sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan “Tarmoqlar iqtisodiyoti” o`quv fani dasturi asosida ishlab chiqildi

Tuzuvchi:

B.S.Berdiyev– Nizomiy nomidagi TDPU “Iqtisodiy bilim asoslari” kafedrasida dotsenti.

Ya.B.Mustafaqulov - Nizomiy nomidagi TDPU “Iqtisodiy bilim asoslari” kafedrasida katta o`qituvchisi

I.X.Allayorov - Nizomiy nomidagi TDPU “Iqtisodiy bilim asoslari” kafedrasida o`qituvchisi

Taqrizchilar:

M.Yu.Isakov- Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasida dotsenti.

MUNDARIJA

№	Bo'lim nomlari	Betlar
1.	O'QUV MATERIALLAR	4- 304
2.	MUSTAQIL TA'LIM MASHG'LOTLARI	305-308
3.	GLOSSARIY	309-316
4.	"TARMOQLAR IQTISODIYOTI" FAN DASTURI	317-330
5.	"TARMOQLAR IQTISODIYOTI" FAN ISHCHI DASTURI	331-346
6.	TARQATMA MATERIALLAR	347-360
7.	TESTLAR	361-366
8.	BAHOLASH MEZONLARI	367-369

***O'QUV
MATERIALLAR***

***“TARMOQLAR
IQTISODIYOTI”
FANIDAN
MA'RUZALAR
MATNI***

1-mavzu. “TARMOQLAR IQTISODIYOTI” FANINING PREDMETI VA USLUBI


Reja:

1. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fanining ob’ekti, tarmoqning ta’rifi va tavsifi
2. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fanining predmeti va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi
3. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fanini o‘rganish metodologiyasi va usullari

1. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fanining ob’ekti, tarmoqning ta’rifi va tavsifi

Har qanday fan o‘zining o‘rganish ob’ektiga ega bo‘ladi. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fani ob’ekti umuman tarmoqlar, xususan, O‘zbekistondagi mavjud tarmoqlar hisoblanadi. shu bois eng avvalo, ushbu fanning ob’ekti hisoblangan tarmoq haqidagi ta’limot bilan tanishish zaruriyati tug‘iladi.

Tarmoq ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Demak, tarmoq ob’ektiv reallik (borliq)ning in’ikosi va yuksak umumlashmasidir. Uning alohida tarmoq, ya’ni ijtimoiy ishlab chiqarishning alohida sohasi bo‘lib yuzaga kelishi ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy mehnat taqsimotining rivoji bilan tarixiy jihatdan bog‘liqdir. Tarmoq ham ob’ektiv borliqning muhim hodisalari qatorida ma’lum davr (vaqt va fazo)da dunyoga kelgan, muayyan qonun va qoidalar asosida rivojlangan, ma’lum miqdor va sifatlarga, zarurat va imkoniyatlarga ega bo‘lgan hamda ziddiyatlar qurboni ham bo‘lgan.



1.1-rasm. O‘zbekistondagi tarmoqlar taraqqiyoti bosqichlari¹

O‘zbekistonda: hunarmandchilikning juda ko‘p turlari, ya’ni kulolchilik, duradgorchilik, tosh-taroshlik, binokorlik, o‘ymakorlik, kashtado‘zlik, ko‘nchilik, to‘quvchilik va tikuvchilik, temirchilik, misgarlik va zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo‘zlik, bo‘yoqchilik, tunukaso‘zlik va boshqalar keng tarqalgan.

¹ Muallif ishlanmasi

Hunarmandchilik ("xonaki sanoat") bronza asrida dehqonchilikdan ajralib chiqqan. **Milodning dastlabki asrlarida** hozirgi O'zbekiston hududida anchagina hunarmandchilik markazlari tashkil topgan.

9—10 asrlarda ip, mato, gilam bo'yicha Xiva va Shosh mis va temirdan aslaha, pichoq tayyorlash bo'yicha Farg'ona, shoyi matolar, shisha mahsulotlar tayyorlash bo'yicha Buxoro dunyoga tanilgan.

12—13 asrlarda rivojlanish pasayib, Temuriylar davlatining vujudga kelishi bilan hunarmandchilik yana rivoj topgan. Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent, Shaxrisabz kabi shaharlarning ishlab chiqarish munosabatlarida hunarmandchilik alohida ahamiyat kasb etgan.

18-asrning 60-70-yillarda Angliyada ro'y bergan sanoat to'ntarilishidan keyin O'zbekistonda asta-sekin manufakturadan mashinalashgan industriyaga o'tish boshlandi. Xom ashyoga birlamchi ishlov beradigan sanoat sohalari (paxta tozalash, ipak tortish, vino, konserva, moy zavodlari) vujudga keldi.

19-asrda O'zbekiston tarmoqlarida juda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Agar asr boshlarida tarmoqlar mahsulotining eng muhim turlaridan 5-10 xili (paxta tolasi, xom ipak, o'simlik moyi, uzum vinosi, g'isht, ganch va boshqalar) ishlab chiqarilgan bo'lsa, asr oxiriga kelib yuzlab-minglab turlari tayyorlangan.

19-asr oxiriga kelib, O'zbekistonda hunarmandchilikning 30 ga yaqin turi rivojlangan. 20-asr boshlarida esa hunarmandchilikning asosiy qismi artellarga, keyinchalik zavod va fabrikalarga, badiiy buyumlar korxonalariga aylantirilgan.

1.2-rasm. O'zbekistondagi tarmoqlar taraqqiyoti bosqichlari²

Tarmoq moddiy ishlab chiqarishning asosiy va etakchi tarmog'idir. Sanoatning vujudga kelishi va rivojlanishi ishchilar sonining oshishi va uning jamiyatdagi mavqeining ko'tarilishiga olib keladi.

Tarmoq mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy asosi, el-yurtda tinchlik va barqarorlikni saqlashning muhim omili, qo'shni mamlakatlar mustaqilligini, hamkorligi va birdamligini ta'minlovchi muhim sohadir. O'zbekiston davlati mudofaasini kafolatlashda tarmoqning roli bebahodir.

Tarmoqlarning iqtisodiyotga ta'siri barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan birlashishi, ya'ni iqtisodiy integratsiya tavsifida o'z ifodasini topadi. Natijada barcha mamlakatlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan, fan-texnikaning barcha yutuqlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta'minlovchi buyuk harakatlantiruvchi kuch — raqobat, ya'ni bellashuv, raqiblar kurashi ham **sanoat**

² Muallif ishlanmasi


sohasida rivoj topadi. Ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanish, materiallarning yangi turlarini yaratish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini yuqori darajaga ko'tarish, ishlab chiqarishning boshqa bir qator texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash asosida uning samaradorligini ko'tarish uchun harakat va boshqa mehnat an'analari ham **avvalo, tarmoqlarda vujudga kelgan va kelmoqda.**

2. “Taqmoqlar iqtisodiyoti” fanining predmeti va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi

Iqtisodiyot sohasida ro‘y berayotgan barcha voqeliklardan habardor bo‘lish, ularning mohiyati va ahamiyatini to‘g‘ri tushunish, iqtisodiy muammolarni oqilona hal etish korxonalar, firmalar, tarmoqlar va komplekslar oldida turgan vazifalarni o‘z vaqtida amalga oshirish uchun iqtisodiy bilimlar bilan qurollanmoq, ularni chuqur egallamoq kerak. Bunday bilimlarni bizga iqtisodiy fanlar tizimi o‘rgatadi (1.2 va 1.3-rasmlar).

Birinchi guruhga eng avvalo «Iqtisodiyot nazariyasi» fani kiradi. Uning o‘zi o‘z nomi bilan boshqa fanlardan ajralib turadi va umum iqtisodga nazariy jihatdan yondashadi, unga xos qonun va qoidalarni o‘rganadi.

«Iqtisodiyot nazariyasi» — insonlarning ishlab chiqarish munosabatlarini ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan o‘zaro aloqada o‘rganuvchi fandır.



1.3 -rasm. Iqtisodiy fanlarning guruhlari³


Lekin «Iqtisodiyot nazariyasi» iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va tarmoqlararo komplekslarida iqtisodiy qonunlarning namoyon bo‘lish, ro‘y berish shakllari va xususiyatlarini o‘rganmaydi. Bu bilan aniq iqtisodiy fanlar shug‘ullanadi. Ana shunday fanlardan biri “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fani hisoblanadi. Bu fan jamiyatning iqtisodiy qonunlari va zaruriy qoidalari sanoat va uning tarmoqlari sohasida namoyon bo‘lishi, ro‘y berishi, tuzilmaviy

³Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-11 bet.

o'zgarishlarning «falsafasini», boshqarishning ilmiy asoslarini, rejalashtirish va bashoratlashning metodologiyasi va metodikasini, fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, sanoat resurslarining mohiyati, ahamiyati va turlari hamda ulardan foydalanishni yaxshilash shart-sharoitlari va sanoatning boshqa qator muammolarini o'rganadi.

“Tarmoqlar iqtisodiyoti” fani bir qator iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog‘langan. Ular jumlasiga “Ekonomiks”, «Iqtisodiyot nazariyasi», «Makroiqtisodiyot», «Mikroiqtisodiyot», «Statistika», ayniqsa, «Iqtisodiy statistika», «Mehnat iqtisodiyoti», «Marketing», «Menejment», «Buxgalteriya hisobi va audit», «Moliya va kredit» va boshqa bir qator fanlar kiradi.

“Tarmoqlar iqtisodiyoti” fanining predmeti deganda jamiyatning ob'ektiv iqtisodiy qonunlari va zaruriy qoidalarining shu sohada namoyon bo'lish shakllarini, mahsuloti ishlab chiqarish jarayonida jonli va buyumlashgan mehnatning eng optimal xarajatlari asosida eng yaxshi natijalarga erishishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar va omillarni o'rganish tushuniladi.



1.4-rasm. Iqtisodiy fanlar tizimi⁴

⁴ Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-11 bet.

3. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fanini o‘rganish metodologiyasi va usullari

Ilm-fan metodologiyasi va usullari deyilganda, uni bilish va o‘rganish faoliyatining shakllari va usullari majmuasi tushuniladi.

Metodologiya - tadqiqot yoki bilish, anglash yo‘li, voqelikni amaliy va nazariy o‘zlashtirish usullari majmuasidir.

“Tarmoqlar iqtisodiyoti” fanining nazariy, metodologik asosini sanoatning vujudga kelishi va rivojlanish muammolari bo‘yicha hozirgi nazariya, o‘zbekistonlik va xorijiy mamlakatlar iqtisodchilarining ilmiy asarlari, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Respublika Prezidentining asarlari tashkil etadi.

1	• mushohada
2	• abstrakt tafakkur
3	• induksiya va deduksiya
4	• analiz va sintez
5	• monografik usul
6	• statistik usullar
7	• iqtisodiy - matematik modellashtirish
8	• optimallashtirish
9	• iqtisodiy - matematik modellashtirish
10	• muvozanatni aniqlash
11	• «Aqliy hujum»

1.5-rasm. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fanining o‘rganish usullari⁵

Dialektika usuli muammolar o‘rganilayotgan omillar, shart-sharoitlarning namoyon bo‘lishi va yuz berishi ziddiyatlarga, qarama-qarshiliklarga boy ekanligini inobatga olishni taqozo etadi.

⁵ Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-11 bet.

Fanning vazifalari



1.6-rasm. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fanining vazifalari⁶

⁶ Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-11 bet.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fani nima uchun o‘qitiladi?
2. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fanining obyekti deganda nimalarni tushunasiz?
3. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fani yordamida qanday qonunlar va qonuniyatlar o‘rganiladi?
4. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fani qanday fanlar bilan chambarchas bog‘liq?

2-mavzu. Sanoat – moddiy ishlab chiqarishning etakchi tarmog‘i

Reja:

1. Sanoatning milliy iqtisodiyot rivojidadagi roli va o‘rni.
2. Sanoat tarmoqlari va ularning rivojlanishi.
3. Sanoat korxonalarining belgilari, funksiyalari va vazifalari
4. Sanoat korxonalarini tasniflash.
5. Sanoat korxonalarini ta’ sis etish va davlat tomonidan ro‘yxatga olinish.
6. Sanoat korxonalarini tugatish va qayta tashkil qilish.

1. Sanoatning milliy iqtisodiyot rivojidadagi roli va o‘rni

Sanoat–moddiy ishlab chiqarishning eng yirik, yetakchi tarmog‘idir. Unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste’mol tovarlarining ko‘pchilik qismi yaratiladi; mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab chiqariladi; yer osti boyliklari qazib olish amalga oshiriladi; mineral, o‘simlik va hayvon xom ashyosiga ishlov beriladi, keng iste’molmollari tayyorlanadi va h.k.lar.

Sanoat xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan ta’minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog‘liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji sanoatning taraqqiyot darajasiga bog‘liq.

Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli uning rivoji va samaradorligi qanchalik yuqori bo‘lsa, davlatning mavqei shunchalik kuchli bo‘ladi va aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi.

Sanoat jamiyatning yetakchi kuchi bo‘lgan ishchilar sinfini o‘zida birlashtiradi. Sanoat rivoji tufayli unda band bo‘lgan xodimlarning soni ko‘payadi, ularning bilimi va ilmi, mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko‘tariladi.

Sanoat sohasida mehnatni ijtimoiy tashkil etishning eng oliy turi bo‘lgan Konsentratsiyaning yuqori darajasi va shu asosda ijtimoiy ishlab chiqarishni uyushtirishning ilg‘or usullari - mahalliyashtirish, ixtisoslashtirish va diversifikatsiyalash, kooperativlashtirish va kombinatlashtirish sohasida ustunlik qiladi.

Faqat yirik mashina industriyasigina fan va texnika hamda innovatsiyaning barcha yutuqlarini mujassamlashtirib, mehnatni texnika bilan qurollantirishi va unumdorligini yuqori darajaga ko‘tara oladi.

Sanoat va ayniqsa, uning eng muhim sohasi bo'lgan og'ir sanoat mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. U moddiy-texnika vositalarini o'zi va boshqa tarmoqlar uchun takror ishlab chiqarish bilan bir vaqtda jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy-ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirib ham boradi.

Sanoat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini qayta qurishning negizi hisoblanadi. Uni yangi texnika bilan ta'minlash orqali fermer, shirkat, dehqon xo'jaliklarini va boshqa shakllarda faoliyat ko'rsatayotgan subyektlarni iqtisodiy va madaniy jihatdan yuqori darajaga ko'tarishga, shahar bilan qishloq o'rtasidagi muhim tafovutlarni yo'qotishga, dehqon mehnatini industrial mehnatga aylantirishga yordam beradi.

Sanoat mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy manbai, dunyoda tinchlikni saqlashning muhim omili, mamlakatlar mustaqilligini va birdamligini ta'minlovchi muhim sohadir. Chunonchi, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda sanoatning roli va ahamiyati beqiyosdir.

Barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, xo'jalik jihatidan hamkorligi sanoat sohasida ham o'z ifodasini topadi. Tabiiy va mehnat resurslaridan, fan va texnika yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlari kengayishida sanoatning ahamiyati kattadir.

Sanoat uchun fan-texnikaning uzluksiz taraqqiyoti va ishlab chiqarishning yutuqlari bilan qurollanishi darajasining o'sishi xarakterlidir. Unda elektrlashtirish va elektronizatsiyalash, kompyuterlashtirish va kimyolashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta qurish sohasidagi ilg'or yutuqlardan keng foydalaniladi. Ularni faqat tinchlik maqsadlarida qo'llaydi.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning bosh tarmog'i, iqtisodiyotning poydevoridir. Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qayta qurishga qodir bo'lgan yirik mashinalashgan sanoatgina mustaqillikning birdan – bir moddiy negizi bo'lishi mumkin.

Mamlakat aholisining ish bilan bandligini oshirishda sanoatning roli beqiyosdir.

O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining 13 foizi sanoat ishlab chiqarishida band. Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, respublika sanoatining jadal sur'atlar bilan ta'minlanishi yanada yaxshilanib, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi, ya'ni bandlik darajasi anchagina yuksaladi. Tarmoqning yanada jadal rivoji sanoat kadrlari soni va ularning jamiyatdagi mavqei yanada oshishiga olib keladi.

Mamlakatimiz sanoatining taraqqiyoti yuqori malakali ishchi kadrlar, muhandis va texnik xodimlar safini kengaytirdi. Hozirgi paytda O'zbekiston sanoatida 1,6 millionga yaqin xodim ishlamoqda. Ulardan 650 ming nafari oliy, 950 ming nafardan ortig'i o'rta va o'rta maxsus ma'lumotli xodimlardir.

Taraqqiyot qonunlari xodimlarning madaniy – texnik saviyasi o'sishini, ishlab chiqarish malakasi va tajribasi tinmay oshib borishini ta'minlaydi. Bu O'zbekiston sanoatida ham namoyon bo'lmoqda.

Ijtimoiy –iqtisodiy taraqqiyot jadallashuvini ta’minlovchi kuch –raqobat ham avvalo, respublika sanoatida vujudga keldi va rivojlana boshladi. Tadbirkorlar, ishbilarmonlar bellashuvning bayroqdori bo‘lib maydonga chiqdilar. Respublika sanoatida ham raqobat o‘zining oddiy bosqichidan eng yuqori bosqichiga ko‘tarilib, chinakam umumiy dastakka aylanmoqda.

Mustaqillikning afzalliklari davlat iqtisodiy siyosatining yetakchilik rolini yanada oshirmoqda. Oliy Majlis Senatining qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, eng avvalo, sanoat sohasida amalga oshirilmogda va sezilarli samara bermogda.

Sanoat tabiatda uchraydigan moddiy boyliklarni qazib chiqarish va tayyorlashni, ularni va qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlashni o‘z ichiga qamrab oladi.

Sanoat barcha xalq xo‘jaligi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish kuchlarining asosiy elementlaridan biri hisoblangan jamiyatning tabiat ustidan hukmronligini bir muncha orttiradigan, texnika taraqqiyotini belgilaydigan, inson mehnatining unumdorligini oshirishga imkon beradigan mehnat va ishlab chiqarish qurollarini yaratadigan sohadir.

Sanoat taraqqiyoti ishlab chiqarish kuchlarining bir tomonlama rivojlanishiga xotima beradi, mamlakat va uning ajralmas qismi bo‘lmish viloyatlarda tabiiy boyliklardan, xom ashyo va mehnat resurslaridan kengroq va har tomonlama foydalanish imkoniyatini yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasining birinchi qismida 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida amalga oshirish davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar, umuman, 2017 yil davomida turli sohalarda erishilgan natijalar atroflicha tahlil qilinib, zarur xulosalar chiqarildi⁷.

Mazkur xulosalar 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini⁸, jumladan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishdagi sanoat tarmoqlarining o‘rni va rolini ochib beradi.

2017 yilda iqtisodiyot sohasida zamon talablariga javob beradigan, yangicha ma’no-mazmundagi va samarali islohotlarni amalga oshirish yo‘lida birinchi qadamlarni qo‘ydik⁹.

Iqtisodiyotimizni mutlaqo yangi asosda tashkil etish va yanada erkinlashtirish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo‘yicha qator qonunlar, farmon va

⁷O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so‘zi, 23 dekabr, 2017 yil

⁸O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so‘zi. 8 fevral 2017 yil.

⁹Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so‘zi, 23 dekabr, 2017 yil

qarorlar, puxta o'ylangan dasturlar qabul qilindi va ular izchil amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda qisqa muddatda 161 ta yirik sanoat ob'ekti ishga tushirildi.

Bu biz uchun kelgusi yilda qo'shimcha 1,5 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi.

Masalan, Toshkent issiqlik elektr stantsiyasida bug'-gaz qurilmasi barpo etildi.

Bu esa qo'shimcha ravishda 2,5 milliard kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi.

SHuningdek, Navoiy issiqlik elektr stantsiyasida ikkinchi bug'-gaz qurilmasi, Qizilqum bag'ridagi Avminzo-Amantoy oltin konlari negizida gidrometallurgiya zavodi qurish bo'yicha ishlar davom etmoqda.

2.1-rasm. 2017 yildagi iqtisodiyot sohasida islohotlar natijalari¹⁰

Yana bir yirik ob'ekt – Qandim gazni qayta ishlash kompleksi ishga tushirilishi hisobidan 2018 yilda qo'shimcha ravishda 4 milliard 100 million kub metr tabiiy gazni qayta ishlash, 67 ming tonnadan ziyod kondensat, 106 ming tonnadan ortiq oltingugurt ishlab chiqarish imkoni yaratiladi.

Olmalik kon-metallurgiya kombinati tomonidan “Yoshlik – 1”, “Yoshlik – 2” konlarini o'zlashtirishga kirishildi.

Sardoba, Markaziy Farg'ona va To'palang suv omborlarini qurish bo'yicha ishlar jadal olib borilmoqda.

Farg'ona – Marg'ilon yo'nalishidagi temir yo'l tarmog'i ayni paytda elektrlashtirilmoqda.

2.2-rasm. 2017 yildagi sanoat sohasida islohotlar natijalari¹¹

¹⁰ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so'zi, 23 dekabr, 2017 yil

¹¹Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi. stat.uz

2. Sanoat tarmoqlari va ularning rivojlanishi

Sanoat ishlab chiqarishining tarixiy rivojlanishi va uning asosiy yakunlari to'g'risida so'z yuritilganda shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi O'zbekiston hududida «Uy sanoati»ning rivoji bundan 12-15 ming yil muqaddam-mezolit davrida boshlangan. Bu davrda juda oddiy mehnat qurollari va buyumlari tayyorlangan.

Yangi tosh asri (neolit, miloddan avvalgi 5-ming yillikning boshi) davrida kemachilik, to'qimachilik vujudga kelgan. Neolit davrining oxirida metallardan qurol yasash boshlangan.

Arxeologik topilmalardan ma'lum bo'lishicha, miloddan avvalgi 3 ming yillikning oxiridayoq hozirgi O'zbekiston hududida yashagan aholi misdan qurol yasashni bilgan.

Quldorlik tizimi (miloddan avvalgi 1-mingyillik o'rtalari, V asr) davrida mehnat qurollarini yasash jarayonining taraqqiy etishi, metalga ishlov berishning takomillashuvi hunarmandchilikning yuksalishiga, ayirboshlash va savdo-sotiq kuchayishiga olib keldi.

Feodalizm tuzumining boshlarida (VI-VIII asrlarda) Farg'ona bilan So'xda oltin, mis, temir, Ilokda qo'rg'oshin, kumush, oltin, Shahrisabzda tosh tuz qazib chiqarilgan.

IX asrda Samarqand sifatli qog'ozi va lampa shishasi bilan mashhur bo'lgan, Shosh viloyati ko'pchilik mahsulotlari bilan dong taratgan. O'sha davrda O'rta Osiyodan Sharqiy Yevropa, Xitoy va boshqa yurtlarga Buyuk Ipak yo'li orqali charm, mato, ipak, jun, kiyim-kechak chiqarilgan.

X-XIII asrlarda yuz bergan feodal tarqoqlik, qabila va elatlar o'rtasidagi nizolarning avjiga chiqishi tufayli hunarmandchilikda yirik o'zgarishlar ro'y bermagan.

XIV asrning 2-yarmida Amir Temur Samarqandda hokimiyatni qo'lga kiritib, markazlashgan davlatga asos soldi va natijada davlatning iqtisodiy va ijtimoiy ravnaqiga katta yo'l ochib berdi.

XI asrning oxiriga kelib Movaraunnahrda yuzaga kelgan ziddiyatlar tufayli Temuriylar davlatining iqtisodiy negiziga putur etadi va rivojlanish to'xtab qoldi.

XVI-XVIII asrlarda Buxoro, XIVa, Qo'qon xonliklarining vujudga kelishi iqtisodiyotning, shu jumladan, sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi XIX asrga kelib Turkistonda hunarmandchilikda yog'och va metall o'ymakorligi, idishlarga naqsh solish, matolarga gul bosish, qurollarni badiiy bezash rivojlandi. Bu asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston hududida taraqqiyot tezlashib sanoat, ayniqsa, ip-gazlama sanoati rivoj topdi.

XX asr boshlarida ko'plab paxta tozalash, yog'-moy zavodlari qurilib ishga tushirildi. 1925-1926 yillarda elektro stansiyalar qurila boshlandi. Birinchi bo'lib Toshkent yaqinida qurilgan Bo'z suv gidroelektro stansiyasi 1926 yil 1 mayda ishga tushirildi.

Samarqand, Buxoro, Qo‘qon, Termiz va Asaka shaharlarida issiqlik elektro stansiyalari qurilishi boshlandi. Bunday elektro stansiyalar soni 1930 yilda 30 ga yetdi. O‘tib borayotgan energetika bazasi bir qancha yangi sanoat korxonalari qurishga imkoniyat yaratdi.

Ikkinchi jahon urushigacha bu yerda 500 dan ortiq sanoat korxonalari, jumladan, «Tashselmash», Toshkent to‘qimachilik kombinati, Chirchiq elektro kimyo kombinati, Kattaqo‘rg‘on yog‘ zavodi, Bekobod va Quvasoy tsement korxonalari qurildi. Neft va rangli nodir metallar qazib chiqarish, qurilish sanoati mahsulotlarini tayyorlash rivoj topdi.

Sanoat taraqqiyotida yoqilg‘I energetika majmuasining o‘rni alohida. Uning tarkibiga energetika, neft va neftni qayta ishlash, gaz va gaz kondensati, ko‘mir qazib olish va boshqa bir qator kichik sohalar kiradi. Bu majmua sanoat ishlab chiqarishining $\frac{1}{4}$ qismini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi jahonda gaz ishlab chiqaruvchi 10 ta mamlakatdan biridir.

Bu yerda qudratli issiqlik Elektro stansiyalari va gidro elektrstansiyalar mavjud. Energetika tarmog‘I respublika xalq xo‘jaligining negizi, iqtisodiyot va fan-texnika taraqqiyotining mustahkam poydevori hisoblanadi. O‘zbekiston energetika tizimi umumiy quvvati 12,5 ming. Mvt bo‘lgan 37 issiqlik va gidravlik elektro stansiyalarni o‘z ichiga olgan. Ular yiliga 53 mlrd. kvt/soatdan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. O‘zbekiston energetik tizimining barcha kuchlanishlardagi elektr tarmoqlari umumiy uzunligi qariyb 300 ming km.ni tashkil etadi. Tarmoq transformatorlarining umumiy quvvati 42,6 ming Mvt.ga teng. Hozir respublika energetika tizimida 47 mingga yaqin xodim ishlaydi.

Yoqilg‘I sanoati. Respublika yoqilg‘I sanoati yer qa‘rida topilgan va qazib olinayotgan ko‘mir, neft, gaz konlari negizida shakllangan va rivojlanib bormoqda. Respublikada 160 dan ortiq neft va gaz konlari ochilgan, ularning 115 tasi Buxoro va XIV arxeologik provinsiyasida, 27 tasi Farg‘ona vodiysi, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurtda joylashgan. Hozir 71 ta neft, gaz va gaz kondensat, 3 ta ko‘mir konidan foydalanilmoqda. 50 dan ortiq neft, gaz va gaz kondensat koni esa kelajakda ishga tushirish uchun tayyorlab qo‘yilgan.

Yoqilg‘I sanoati respublika yoqilg‘i-energetika majmuasining asosiy tarmog‘ini tashkil etadi va barcha turdagi yoqilg‘ini qazib olish, tabiiy gazni tozalash va yetkazib berish, neft mahsulotlarini qayta ishlash korxonalaridan iborat. Ular xalq xo‘jaligining barcha bo‘g‘inlarida xizmat ko‘rsatadi. Yoqilg‘I sanoatining yirik korxonalari Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida joylashgan.

Neft sanoati yoqilg‘I sanoatining eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi va neftni qayta ishlash korxonalaridan tashkil topadi. Hozirgi davrda sanoatning bu tarmog‘I mamlakat xalq xo‘jaligi va aholining neftga bo‘lgan talabini to‘la qondirish imkoniyatlariga ega bo‘ldi. Shu sababdan ham bu tarmoqning ahamiyati beqiyosdir.

Neftni qayta ishlash sanoati sohasida Oltiariq, Farg‘ona, Buxoro neftni qayta ishlash zavodlari ishlab turibdi. Farg‘ona zavodi surkov moylar va yonilg‘I ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, ishlab chiqarish bo‘yicha 50 ga yaqin texnologik qurilmaga ega. Oltiariq neft zavodi esa yonilg‘I yo‘nalishida, Ko‘kdumaloq neft-gaz koni ochilgandan keyin 1993 yildan Fransiyaning TEKNEP firmasi bilan hamkorlikda Buxoro viloyatining Qorovul bozor tumanida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi qurilishi boshlandi. Uning yiliga 2,5 mln. Tonna gaz kondensatini qayta ishlash quvvatiga ega bo‘lgan 1-navbati 1997 yil avgustda ishga tushirildi. Neftni qayta ishlash zavodlarida yuqori oktanli benzin, dizel yoqilg‘isi, koks, parafin, motor moylariga qo‘shilmalar, engil mashinalar uchun motor va surkov moylari (kompressor, turbina, urchuq moylari), kerosin, bitum, suyultirilgan neft gazlari (butan, texnik propan va bosh.), mazut kabi 50 dan ortiq turdagi neft mahsulotlari ishlab chiqariladi. Yangi mahsulot turlari ishlab chiqarish dasturiga muvofiq yangi texnologiyalar o‘zlashtirilmoqda.

Yoqilg‘I sanoatining eng muhim tarmoqlaridan biri gaz sanoatidir. Gazyoqilg‘ining juda arzon turlari, iqtisodiyotning barcha sohalarida keng foydalanish mumkinligi hamda ekologik jihatdan ustunligi tufayli unga bo‘lgan talab kundankunga o‘sib bormoqda. Agar 1940 yilda respublikada atigi 0,7 mln. m³ tabiiy gaz qazib olingan bo‘lsa, hozirgi paytda u 68 mlrd. m³ ni tashkil etadi. Gazning respublikada qazib olinayotgan yoqilg‘I balansidagi hissasi 90,1 foizga teng.

Respublika neft va gaz sanoatini rivojlantirishning uzoq, davrga mo‘ljallangan konsepsiyasi ishlab chiqilgan va u izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Yoqilg‘I sanoatining yana bir muhim tarmog‘I bu ko‘mir sanoatidir. O‘zbekiston Respublikasida qidirib topilgan 2 milliard tonna ko‘mir zahiralari ega. Ko‘mir qazib olish va yetkazib berishlari bilan «Ko‘mir» aksiyadorlik birlashmasi shug‘ullanadi. Angren konida qo‘ng‘ir ko‘mir, Sharg‘un va Boysun konlarida tosh ko‘mir qazib olinadi. Ko‘mir konlari korxonalar tomonidan turli usullarda o‘zlashtirilayotir: ochiq usulda, yer osti va yer ostini gazlashtirish usuli bilan (Nou-Xau). Ko‘mir energetika maqsadlarida va maishiy yoqilg‘I sifatida ishlatiladi. Ko‘mirni qayta ishlashdan chiqqan chiqindi organik va mineral o‘g‘itlarga aylantiriladi.

Konlardan chiqqan ko‘mirlar sifatli yonilg‘i, qimmatbaho hamda kamyob materiallarning turli xillarini olish uchun xom ashyodir. U masalan, koks briketa, motory onilg‘isi, kalsiy karbidi, sorbent qora va rangli metallurgiyada uglerodli qo‘shimchalar sifatida ishlatiladi.

Ko‘mir qazib olish jarayonida kaolin, ohak, kvars qumlari, ko‘mir kukuni, kamyob erelementi(germaniy), shag‘al va boshqa foydali qazilmalar olinadi.

Yaxshi xom ashyo, ko‘pdan sinalgan ekin maydonlarning bisyorligi, suv hamda elektr va issiqlik energiyasi, temir yo‘llarning mavjudligi, stansiyalarning yaqinligi va xalqaro ayeroportlar borligi ishlab chiqarish sanoat kompleksini bunyod etishda qo‘l keladi. Shuningdek, qazib olingan va boyitilgan kaolin, chinni fayans va sopol buyumlar, o‘tgachidamli va qurilish g‘ishtlari, tom yopqichlar, drenaj va kanalizatsiya quvurlari, xo‘jalik va manzarali chinni buyumlar, shisha va shisha idishlar, elektrizolyatorlari ham bu ishda yordam beradi. Bundan tashqari,

kaolin qog'ozsozlik, rezina-texnika, plastmassa sanoatida, shuningdek, kosmetika va boshqa maqsadlarda ishlatish uchun xizmat qiladi.

O'zbekiston hududining geologik xususiyatlari qo'shimcha foydali qazilmalarni o'zlashtirish va ularni qayta ishlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, yonuvchi slanets, ohak, bezakli tosh konlarini o'zlashtirish ko'pchilikni qiziqtiradi. Keramzit, absorbent, o'g'it va g'isht ishlab chiqarish uchun yuqori sifatli loylar tayyorlash mumkin.

Metall urgiya sanoati. Hozirgi O'zbekiston hududida rudadan metal olish 4-5 ming yildan ziyod tarixga ega. Qadimda misdan turli buyumlar tayyorlangan. Keyinroq rudadagi metallardan qalay, kumush, oltin va boshqalarni eritish, quyish va qizdirib ishlash o'zlashtirilgan, dastlabki tanga pullar zarb qilingan. Ilk o'rta asrlarda Farg'onada, Zarafshon, Chirchiq, Ohangaron vodiylaridagi bir qancha hududlarda zargarlik, misgarlik, temirchilik, degrezlik, rixtagarlik rivojlangan. Ruh, surma, margimush, vismut, kobalt kabi rangli metallar ma'lum bo'lmasada, ularning qotishmalaridan keng foydalanilgan.

Qora metallurgiya sohasida faoliyat ko'rsatayotgan yagona korxonalar Bekobod shahridagi "O'zbekiston metallurgiya kombinati" Aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasidir. Unda po'lat va po'lat prokatlar, turli aylanma xajmdagi po'lat soqqalar, va po'lat trubalar hamda chiroyli va bejirim sirli idishlar ishlab chiqariladi.

Rangli metallurgiya-respublika metallurgiyasining eng muhim, yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sanoatning bu turi O'zbekistonda XX asrning 25-yillaridan jadal rivojlana boshladi. Rangli, nodir va qimmatbaho metall (mis, qo'rg'oshin, ruh, volfram, molibden, kumush, oltin, simob) konlari topildi.

Rangli metallar sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish jarayonlarini intensivlashtirish, turli foydali qazilmalarning yangi konlarini o'zlashtirish hisobiga rangli metallurgiya ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish mo'ljallanmoqda, shu bilan birga, yangi fabrika va konlar barpo etiladi. Jizzax viloyatida O'zquloq ko'rg'oshin ruh koni, Surxondaryo viloyatida Xonrizm kon boyitish korxonasi quriladi. Olmaliq kon – metallurgiya kombinatida mis, ruh, sulfat kislotasi va yo'ldosh elementlarni ishlab chiqarish ko'paytiriladi.

Oltin qazib olish sanoati. Markaziy Osiyoda, xususan, hozirgi O'zbekiston yerlarida miloddana vvalgi VI–V asrlarda yo'ltin qazib olingan va undan turli taqinchoqlar, zargarlik buyumlari, bezaklar yasalgani mavjud arxeologik topilmalardan ma'lum. Tug'ma (erkin uchraydigan) oltin konlarini o'zlashtirishga qadar oltin asosan sochma konlarda juda ibtidoiy usullarda oltin zarralari aralash qummi qo'y terisi qore-jagan yog'och tog'oralarda yuvib, ajratib olingan. Sochma oltin olish X-XI asrlarda Chotqol, Chirchiq, Norin, Koson, So'x, Zarafshon, Darvoz daryolari vodiylarida olib borilganligi haqida ma'lumotlar bor.

O'rta asrlarda oltinli qumlarni yuvish bilan birga mo'g'ullar bosqiniga qadar kovlangan Chotqol-Qurama, Nurota tog'larida, markaziy Qizilqumdagil konlarda tug'ma oltin konlari hozirgacha saqlanib qolgan. O'zbekistonda ma'lum bo'lgan konlarning ko'pchiligidan qadimgi konchilar qisman foydalanganlar.

XIX asrning 80-yillaridan boshlab, Markaziy Osiyoning xom ashyo resurslarini o‘rganila boshlandi. O‘lkaning barcha joylarida tadqiqotlar o‘tkazildi, geologik kartalar tuzildi, ayrim konlar tavsiflandi. Chirchiq, Piskom va Chotqol daryolari vodiylarida kichik-kichik oltin izlovchi korxonalar oltin olish bilan shug‘ullana boshladilar, 1913-1917 yillarda esa Obirahmat darasi (Toshkent viloyati) dagi oltin konidan foydalanildi.

Noyob metall konlarini qidirib topish va ulardan foydalanish muammolarini hal qilish ishlarida markaziy ilmiy muassasalar faol ishtirok etdilar. 30-yillar boshida «O‘zbekoltinnoyobmet» tresti tashkil etildi. O‘sha yillari Ohangaron, Chirchiq daryolari vodiylarida, Qurama tog‘larida oltin izlovchilar oltin qumini yuvish usulida ajratib olganlar, lekin yillik oltin olish birnecha o‘n kilogrammdan oshmagan.

1941-1945 yillarda oltin izlovchilik (artel) yo‘li bilan oltin ajratib olish jadal olib borildi, olingan yillik oltin miqdori qariyb 50 kg.ga yetdi. Rudali oltin izlash va qidiruv bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qora qo‘ton, Bichanzor, Pirmurob, G‘o‘saksoy, so‘ngra Ko‘ch buloq, Muruntov, Chormiton, Maryayun buloq, Kauldi, Qizil olmali soy, Sarmich va boshqa rudali oltin konlari topildi. 1965 yilda Metallurgiya vazirligiga bo‘ysinuvchi «O‘zbekoltin» birlashmasi va boshqa oltin qazib olish korxonalari tashkil etildi. Birlashma qazib olgan flyus rudalaridan Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining kimyo eritish zavodida oltin ajratib olish yo‘lga qo‘yildi. 1970 yili Chodak oltin koni ishga tushirildi. O‘sha vaqtdan respublikada oltin qazib olish sanoati shakllandi, oltin olish oldingi yillardagiga nisbatan uch marta ko‘paydi. 1972 yilda Ko‘chbuloq koni va Angren oltin ajratish fabrikasi loyiha quvvatlarida ishlay boshladi. 1977 yili Kauldi, 1980 yili Marjon buloq oltin qazib olish majmui, 1989 yili Zarafshon va Qizil olmachi soy konlari foydalanishga topshirildi.

Respublika mustaqillikka erishishi bilan O‘zbekiston hukumati uzoq yillar davomida sobiq ittifoq ixtiyorida bo‘lgan oltin qazib olish sanoatini respublika mustaqilligini mustahkamlash yo‘lida rivojlantirish bo‘yicha bir qancha tashkiliy choralar ko‘rdi.

Respublikada 40 dan ortiq oltin koni aniqlangan. Oltinning asosiy zahiralari Markaziy Qizilqumdagi oltin konlarida mujassam. O‘zbekoltini jahonning eng yuqori sifat standartlariga mos bo‘lib, to‘rtta to‘qqiz raqami bilan baholanadi va u oxirgi 25 yilda e‘tiroz (reklamatsiya) olgani yo‘q. So‘nggi yillarda u sifati uchun bir necha bor xalqaro sovrinlar bilan taqdirlandi.

Yevro osiyo qit‘asida eng katta hisoblanadigan, rudasi tarkibida oltin ko‘p bo‘lgan Muruntov koni dunyodagi gigant konlari jumlasiga kiradi. Ushbu konning topilishi xalqaro geologiya jamoatchiligi tomonidan oltin qazib chiqarish bo‘yicha XX asr ikkinchi yarmining eng katta kashfiyoti deb e‘tirof etildi.

Muruntovdagi affinit korxonasida zamonaviy oltin tozalash texnologiyasi joriy etilgan bo‘lib, u bir qancha nou-xauni o‘z ichiga oladi. Bu esa, juda yaxshi tovar ko‘rinishiga ega bo‘lgan yuqori probali oltin olish imkoniyatini beradi.

Mamlakat mustaqilligining dastlabki yillarida infratuzilmasi yuqori darajada rivojlangan Samarqand va Toshkent viloyatlarida oltin rudali konlar aniqlandi va

razvedka qilindi. Dunyoning eng yirik oltin rudali provinsiyasi bo'lgan Qizilqumdagi Muruntov koni bilan bir qatorda Aji-bugut, Bulutkon, Balpantov, Aritontov, Turbay va boshqa yangi konlar aniqlandi va o'rganildi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, oltin qazib chiqarish bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirildi. Natijada O'zbekiston oltin qazib chiqarish bo'yicha dunyoda sakkizinchi, MDHda esa ikkinchi (Rossiyadan keyin) o'ringa chiqib oldi! Aholi jon boshiga oltin ishlab chiqarish hajmi bo'yicha O'zbekiston MDHda birinchi va dunyoda beshinchi o'rinda turadi.

Respublika kumush konlariga ham ega. Bular Navoiy viloyatidagi Visokovoltnoye, O'qjetpes, Kosmonavtchi va Namangan viloyatidagi Oqtepa konlaridir. Katta miqdordagi tasdiqlangan zaxiralar oltin va mis-porfir konlarida mavjud. Oqtepa koni kumush qazib chiqarish bo'yicha eng istiqbolli va chet ellik investorlar uchun jozibali kondir.

O'zbekistonda qimmatbaho metallar bilan bir qatorda uran ham qazib olinadi. Uni olish uchun mineral xom ashyo bazasi mavjud. Uran eng samarali va ekologiya nuqtai nazaridan optimal hisoblangan usul –yer ostida ishqorlarni yuvish usuli bilan olinadi.

Mis, qo'rg'oshin, ruh sanoati asosan Ohongaron-Olmaliq kon sanoati rayonida Qo'rg'oshin kon-Oltin topgan polimetall konlari, Qalmoq qirmis konlari negizida shakllana boshlagan. Ushbu sanoat tarmog'ining yetakchi korxonasi tugal metallurgiya tsikliga ega bo'lgan Olmaliq kon-metallurgiya kombinati hisoblanadi. Kombinatning mismajmuasi Qalmoq qirmis koni, ruda boyitish fabrikasi, metallurgiya zavodidan, qo'rg'oshin – ruh majmuasi Qo'rg'oshin kon, Oltin topgan, Chalaga va boshqa konlar, ruda boyitish fabrikasi, metallurgiya zavodlarini o'z ichiga oladi. Ular asosan tozalangan misni eksport qilmoqda. Har yili bir necha o'n ming tonna mis ishlab chiqarayotgan O'zbekiston mis zahirolari bo'yicha dunyoda 10-o'rinda turadi. Ruda konidagi rangli metallar qatlamlari asosan Toshkent viloyatining Olmaliq rudali maydonida joylashgan. Bu erdagi uchta konda bir necha mis zahirolari bor deb taxmin qilinmoqda. Bundan tashqari, Dalneye koni razvedka qilingan. Zahiralarining kattaligi, qazib chiqarish tannarxi, rudadagi misning tarkibi jihatidan MDH mamlakatlarida hali unga teng keladigan kon yo'q. Volfram, molibden, litiy sanoatining yirik korxonasi O'zbekiston qattiq qotishmalar va o'ta chidamli Chirchiq metallar kombinati hisoblanadi. Kombinat ingichka volfram (Samarqand) va Qo'ytosh volfram, molibden (Jizzax) konlari rudalari hamda mis rudalaridan ajratib olinadigan molibden negizida ishlaydi. Kombinatda birinchi molibden quyilmasi 1956 yili olingan. 1957 yilda esa qattiq qotishmalar ishlab chiqarish boshlangan. Kombinat mahsulotlari (100 turdan ortiq) elektro texnika, po'lat eritish, kon burg'ilash sohalarida keng qo'llaniladi.

Respublikada yana bir qator nodir va sochma metallar-reniy, selen, tellur, skandiylar ishlab chiqariladi, rangli metallarning ikkilamchi quyilmalarini olish yo'lga qo'yilgan. Alyuminiy parchalarini qaytadan eritib, yiliga bir necha o'n ming tonna ikkilamchi alyuminiy xalq xo'jaligiga yetkazib berilmoqda.

Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati-iqtisodiyot uchun mashina va mexanizmlar, jihozlar, agregat va apparatlar, asbob-uskunalar, madaniy-maishiy

mollar, shuningdek, mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi og'irsanoat tarmoqlari majmuidir. Ushbu sanoat butun xalq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashda moddiy asos hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti, xalqning moddiy-madaniy farovonligi va mamlakat qudrati mashinasozlik sanoati taraqqiyotiga bog'liq. Uning ahamiyati, eng avvalo, fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga va insonlar hayotining barcha sohalariga joriy etish asosida qo'l mehnatini mashina mehnatiga aylantirish, yengillashtirish, mashinani mashina bilan yaratish, tejamkorlikni ta'minlash va mehnatning mazmuni va xarakterini o'zgartirishdan iborat. Mashinasozlik sanoati mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarishning samaradorligini yuqori darajaga ko'tarishga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi kunda mashinasozlik sanoatining 10 dan ortiq tarmog'i mavjud.

Ular qatoriga avtomobilsozlik, samolyotsozlik, traktorsozlik va qishloq xo'jalik mashinasozligi, elektro texnika va vagonsozlik, asbobsozlik va kabelsozlik kabi yirik tarmoqlar kiradi.

Ushbu sanoat tarkibida metallni qayta ishlash sohasi ham mavjud bo'lib, bu soha o'z navbatida, metall buyumlar tayyorlash, metall kostruksiyalar hamda mashina va asbob-uskunalar ta'miri tarmoqlaridan iborat. Bunday faoliyat bilan 2,5 ming dan ortiq korxonalar shug'ullanmoqda.

Qurilish materiallari sanoati. Respublika qurilish materiallari ishlab chiqaradigan ko'p tarmoqli sanoatga ega. Tsement, asbest-tsement, devorbop materiallar, yumshoq yopqich va gidroizolyasiya materiallari, tabiiy toshlardan qoplama material (plita)lar, noruda qurilish materiallari, qurilish keramikasi, issiqlik izolyasiyasi materiallari, ohak, gips, bog'lovchi materiallar va ulardan buyumlar, sanitariya-gigena jihozlari, polimer xom ashyodan qurilish materiallari va buyumlar, temir-beton kostruksiyalari va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari mavjud. O'zbekistonda tabiiy xom ashyodan qurilish materiallari sifatida foydalanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ayniqsa, binolar qurilishida xom g'isht, guvala, yog'och sinch, oddiy tuproq(loy)dan tiklanadigan paxsa asrlar davomida asosiy qurilish material bo'lib kelgan. Xumdonlarda pishirilgan g'isht, sopol, chinni koshin, ganch, yo'nilgan granit, marmar toshlar saroy, madrasa, masjid, rabotlar qurilishida keng qo'llanilgan.


Yengil sanoat. Hozirgi davrda O'zbekiston engil sanoati ko'p tarmoqli industrial kompleks bo'lib, uning tarkibida paxta tozalash zavodlaridan tashqari, to'qimachilik, trikotaj, shoyi to'qish, tikuvchilik, poyabzal, gilamchilik, chinni-fayans buyumlari va attorlik mollari ishlab chiqarish sohalarida 300 ga yaqin yirik korxonalar bor. Respublika sanoat mahsulotlari umumiy hajmida yengil sanoat hissasi 13,0 % ni tashkil etadi. Bu tarmoqda 145 mingga yaqin xodim ish bilan band.

Oziq-ovqatsanoati. Sanoatning bu tarmog'i asosan xom ashyoni qayta ishlashga asoslangan. Uning korxonalarida go'sht va go'sht mahsulotlari, yog'moy, sut va sut mahsulotlari, shakar, non va non mahsulotlari, makaron, mevasabzavot konservalari, qandolat, choy qadoqlash, uzum va shampan vinosi, spirt,

aroq, pivo, chanqoq bosar ichimliklar, tamaki, sovun va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan ko‘plab sanoat korxonalarini faoliyat ko‘rsatmoqda.

Sanoat tarmoqlarini isloh qilish, tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiyalash dasturlarining amalga oshirilishi, moddiy-texnika bazasini mustahkamlanishi, respublika sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga zamin yaratdi.

1995 yilda sanoat ishlab chiqarishning hajmi 1990 yilga nisbatan 0,2 foizga kamayganiga qaramay, 2000 yildan boshlab (1990 yilga nisbatan) o‘shish 1,2 m., 2005 yilda – 1,8 m., 2010 yilda – 3,0 m. va 2016 yilda esa 4,6 m. oshganini ko‘rsatmoqda.



2.3-rasm. Sanoat ishlab chiqarishning o‘shish sur‘atlari dinamikasi¹²

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2017 yil yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalarini tomonidan 144,2 trln.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 107,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o‘shishining asosiy omili bo‘lib, qayta ishlash sanoatida ishlab chiqarish hajmining 6,4 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o‘shishiga qo‘shgan hissi 5,2 punkt), tog’- kon sanoati va o‘chiq konlarni ishlashning - 12,9 % ga (o‘shishga qo‘shgan hissi 1,3 punkt), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashning 4,9 % ga (o‘shishga qo‘shgan hissi 0,4 punkt) va suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning - 13,5 % ga (o‘shishga qo‘shgan hissi 0,1 punkt) o‘shishi hisoblanadi.

¹²Manba: O‘zbekiston Respublikasining statistika qo‘mitasi. stat.uz


Sanoat ishlab chiqarish hajmi 144,2 trln.so'mni, o'sish 7,0 % ni tashkil etdi

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati -102,7 %

Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - 38,9 %

Sanoatda kichik biznesning ulushi – 39,6 %

Sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi – 26,7 %



2.4-rasm. Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi¹³

Rasmdan ko'rinadiki, korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) sanoatda 112,7 trln.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 78,1 % ni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 18,3 trln.so'mni (12,7 % ni), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 12,1 trln.so'mni (8,4 % ni) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda 1,1 trln.so'mni (0,8 % ni) tashkil etgan.

¹³Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi. stat.uz

2.1- jadval

Natura ko'rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, (kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz)¹⁴

	2017 yil	2016 yil	O'sish sur'ati, foizda
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash			
ko'mir, ming tonna	4038,6	3867,3	104,4
neft, ming tonna	806,0	860,1	93,7
tabiiy gaz, mln.kub.metr	56417,6	56132,1	100,5
chaqiq tosh, ming tonna	2090,9	1503,2	139,1
shag'al, ming tonna	1310,4	1074,3	122,0
Qayta ishlash sanoati			
shakar, ming tonna	473,3	535,0	88,5
ko'k choy, tonna	2050,0	1682,0	121,9
o'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	207,9	197,1	105,4
paxta tolasi, ming tonna	951,9	1034,5	92,0
avtomobil benzini, ming tonna	1106,2	1134,6	97,5
dizel yoqilg'isi, ming tonna	962,9	1008,4	95,5
portlandtsement, ming tonna	8497,3	8222,3	103,3
yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilganlarsiz), dona	135471	85674	158,1

Tog'-kon sanoatida chaqiq tosh qazib olish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 39,1% ga, shag'al - 22,2 % ga, ko'mir - 4,4 % ga, tabiiy gaz - 0,5 % ga oshganligini va neft ishlab chiqarish hajmining 6,3% ga kamayganligini kuzatish mumkin.

¹⁴Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi. stat.uz

2.2- jadval

Natura ko'rinishida yengil avtomobillar hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ishlab chiqarish hajmi¹⁵

(kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz)

	2017 yil	2016 yil	O'sish sur'ati, foizda
yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilganlarsiz), dona	135471	85674	158,1
shu jumladan:			
"Nexia"	34544	32166	107,4
"Damas"	22496	16817	133,8
"Spark"	22360	17735	126,1
"Gentra"	19164	9443	2,0 m.
"Cobalt"	18014	3880	4,6 m.
"Matiz"	13002	2933	4,4 m.
"Kaptiva"	4540	2148	2,1 m.
"Malibu"	963	216	4,5 m.
"Orlando"	388	336	115,5
yuk avtomobillari, dona	3778	3516	107,5
avtobuslar, dona	1057	908	116,4
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash			
elektr energiyasi, mln.kVt/s	60092,3	58319,1	103,0
issiqlik energiyasi, ming Gkal.	27365,0	28648,8	95,5

Qayta ishlash sanoatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish 58,1 % ga, ko'k choy - 21,9 % ga, avtobuslar - 16,4 % ga, yuk avtomobillari - 7,5 % ga, o'simlik moylari - 5,4 % ga oshganligini va shakar, paxta tolasi, dizel yoqilg'isi va avtomobil benzini ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada pasayganligini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda elektr energiya ishlab chiqarish hajmining 3,0 % ga oshib, 60 mlrd. kVt/s tashkil etganligini, issiqlik energiyasini esa 4,5% ga kamayganligini kuzatish mumkin.

¹⁵Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi. stat.uz

2.3- jadval

O'zbekiston elektr stansiyalarida o'rnatilgan quvvatlarining tarkibi¹⁶

O'zbekiston elektr stansiyalarining o'rnatilgan quvvatlari (MVt), jami	13002,2
1. «O'zbekenergo» AJ shu jumladan: Issiqlik elektr stansiyalar (IES) Gidravlik elektro stansiyalar (GES)	12526,7 11097,0 1429,7
2. Blokstansiyalar	475,5

O'zbekiston Respublikasida gidroenergetika resurslari salohiyati va ulardan foydalanish

Respublikaning daryolari oqimining nazariy gidroenergetik umumiy salohiyati 88,5 mlrd.kVt s ni tashkil etadi, shundan texnik gidroenergetik umumiy salohiyati esa 21,09 mlrd. kVts.ni tashkil etadi.

Xozirgi paytda gidroenergetikaning texnik salohiyatining 25 % (yiliga 5,5-6 mlrd.kVts.) miqdordan foydalanilmoqda.

Quyosh kollektorlarining ishlab chiqarilishini tashkillashtirish

Quyosh kollektorlaridan foydalanilganda 1 kv m kollektor yiliga:

214 kg shartli yoqilg'ini

183 kub m tabiiy gazni

1684 kVt soat elektroenergiyasini

1,45 Gkal issiqlik energiyasini tejash imkoniyatini yaratadi.

Respublikamiz quyosh nurining umumiy salohiyati 700 mlrd kVt soatdan yuqoriroqdir.

SHamol energiyasining umumiy salohiyati

2015 yil nemis mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida Respublikamiz xududlaridagi umumiy shamol energiyasining salohiyati 400 mlrd. kVt soatdan ortiq deb baholangan.

¹⁶Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi. stat.uz

Neft va gaz kondensatini qayta ishlash 2 ta zavodda amalga oshiriladi:

Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi (1959 yilda ishga tushirilgan, 2000 yilda rekonstruksiya qilingan)

Buxoro neftni qayta ishlash zavodi (1997 yilda ishga tushirilgan)

Gazni qayta ishlash 3 ta zavodda amalga oshiriladi:

Muborak gazni qayta ishlash zavodi (1971 yilda ishga tushirilgan bo'lib, gaz kondensati, suyultirilgan gaz, gazli texnik oltingugurt kabi mahsulotlarni ishlab chiqaradi)

SHo'rtan gazni qayta ishlash zavodi (har yili 20 mlrd. kub m gazni qayta ishlaydi)


SHo'rtan gaz-kimyó kompleksi (2001 yil ishga tushirilgan)

Ustyurt gaz-kimyó kompleksi kelgusida respublikada to'rtinchi gazni qayta ishlash zavodi bo'ladi (har yili 4,5 mlrd. kub m gazni qayta ishlaydi, 2016 yilga ishga tushirilgan)

3. Sanoat korxonalarining belgilari, funksiyalari va vazifalari

Zamonaviy korxonalar *mulkchilik shakliga* ko'ra, davlat va nodavlat, *tarmoq belgilariga* ko'ra, mashinasozlik, energetika, metallurgiya, neft va gaz sanoati, qurilish kompleksi, oziq-ovqat, engil sanoat, savdo va hokazolar, *ishlab chiqarish miqyosi va xodimlar soniga* ko'ra, yirik, mikrofirma va kichik, *faoliyat yuritish muddatiga* ko'ra, uzluksiz, mavsumiy va uzlukli korxonalariga bo'linadi.

Ayni paytda respublikada 49 mingdan ortiq sanoat korxonalari faoliyat yuritayotgan bo'lib, shu jumladan 10,2 mingta korxonalar 2017 yil yanvar – dekabr oylarida tashkil etilgan bo'lib, ulardan: Toshkent shahriga 2,6 mingta korxonalar, Farg'ona viloyatiga 1144 ta korxonalar, Toshkent viloyatiga 1057 ta korxonalar, Samarqand viloyatiga - 895 ta, Namangan va Andijon viloyatlariga 800 tadan ortiq korxonalar, Buxoro viloyatiga 500 taga yaqin korxonalar, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlariga 400 tadan ortiq korxonalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo va Xorazm viloyatlariga 300 tadan ortiq korxonalar, Navoiy va Sirdaryo viloyatlariga 200 tadan ortiq korxonalar to'g'ri keladi.



2.5-rasm. 2018 yil 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

Sanoat korxonalarini turli belgilariga ko'ra tavsiflash mumkin:

- *ishlab-Chiqarish va texnika munosabatlarida korxonalar* – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi;
- *ijtimoiy munosabatlarda korxonalar* – bu, turli kategoriyadagi xodimlar o'rtasida ularning huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar ;
- *tashkiliy-huquqiy munosabatlarda korxonalar* huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadi;
- *moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda korxonalar* – bu, tarmoqning mustaqil bo'g'ini bo'lib, o'z-o'zini moliya bilan ta'minlash, o'z-o'zini boshqarish, ya'ni bozor munosabatlari tamoyillarida faoliyat yuritadi.

Zamonaviy korxonalarining faoliyati quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilishi zarur:

- korxonalar egasining daromad olishi;
- iste'molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan ta'minlash;
- xodimlarni ish haqi bilan ta'minlash;
- korxonalar yaqin joylarda yashovchi aholi uchun ish joylari yaratish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- korxonalar faoliyatida to'xtab qolishga yo'l qo'ymaslik;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish shakllarini mukammallashtirish;
- ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida tejamkorlikka rioya qilish.

Xo‘jalik faoliyatining joriy va istiqboldagi vazifalarini bajarish korxonalaridan quyidagi funksiyalarni amalga oshirishni talab qiladi:

- ishlab chiqarish va shaxsiy iste‘mol uchun mahsulotlarni tayyorlash;
- mahsulotlarni iste‘molchilarga etkazib berish va sotish;
- sotuvdan keyin xizmat ko‘rsatish;
- ishlab chiqarishning moddiy-texnika asosini ta‘minlash;
- xodimlar mehnatini tashkil qilish va boshqarish;
- soliqlarni to‘lash, byudjetga to‘lanuvchi ixtiyoriy yoki majburiy badal va to‘lovlarni amalga oshirish ;
- amaldagi standartlar, normativlar va davlat tomonidan chiqarilgan qonun-qoidalarga rioya qilish.

4. Sanoat korxonalarini tasniflash

Xususiy korxon deb, mulkdor Yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot e‘tirof etiladi¹⁷. Xususiy korxon tadbirkorlik sub‘ektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Mas‘uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta‘sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta‘sis hujjatlari bilan belgilab qo‘yilgan miqdordagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat tan olinadi¹⁸. Mas‘uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zarar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

Qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyat sifatida bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta‘sis etilgan, ustav fondi ta‘sis hujjatlarida belgilangan miqdordagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat tan olinadi va uning ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo‘yicha o‘z mol-mulklari bilan qo‘shgan hissalar qiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo‘lgan, jamiyatning ta‘sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo‘ladilar.

Xo‘jalik shirkati deganda muassislarning (ishtirokchilarning) ulushlariga (hissalariga) bo‘lingan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ega bo‘lgan tijorat tashkiloti tushuniladi, bunday shirkatda muassislar (ishtirokchilar) yoki ulardan ayrimlari shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati yuritishda shaxsan ishtirok etadilar¹⁹.

Xo‘jalik shirkati to‘liq shirkat yoki kommandit shirkat turlariga bo‘linadi.

Aksiyadorlik jamiyati deb ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan

¹⁷ «Xususiy korxonalar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Qonun va qarorlar. – T.: O‘zbekiston, 2004, №3

¹⁸ «Mas‘uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2001 yil 6 dekabr // Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to‘plami. 1-tom. - T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2002.

¹⁹ «Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 2001 yil 6 dekabrda Qonuni.

xo‘jalik yurituvchi sub’ekt hisoblanadi²⁰.

Sho‘ba xo‘jalik jamiyati. Agar bir (asosiy) xo‘jalik jamiyati yoki shirkati ikkinchi xo‘jalik jamiyatining ustav fondida undan ustunlik mavqeiga ega bo‘lgan holda ishtirok etishi tufayli yoxud ular o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yo bo‘lmasa boshqacha tarzda ikkinchi xo‘jalik jamiyati tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilab berish imkoniga ega bo‘lsa, ushbu ikkinchi xo‘jalik jamiyati sho‘ba xo‘jalik jamiyati hisoblanadi.

Qaram xo‘jalik jamiyati. Xo‘jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat xo‘jalik jamiyatiga qarashli ovoz beradigan aksiyalarning yigirma foizidan ko‘prog‘iga ega bo‘lsa, bunday xo‘jalik jamiyati qaram jamiyat deb hisoblanadi. Qaram xo‘jalik jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi.

Unitar korxonona. O‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot unitar korxonona hisoblanadi.

Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxonona. Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxonona mulkdorning yoki u vakil qilgan organning qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

Operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, davlat organining qaroriga muvofiq davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi (davlat korxonasi) tashkil etilishi mumkin.

Qaysi tarmoqqa qarashliligiga ko‘ra korxonalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish (mashinasozlik, ko‘mir qazib chiqarish, sug‘urta va hokazo) sohalariga mansub bo‘lishi mumkin.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va ko‘rinishiga ko‘ra, korxonalar traktor zavodi, makaron zavodi va boshqa shu kabilarga bo‘linadi.

Texnologik umumiylikiga ko‘ra, korxonalar ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz va diskret ravishda, kimyoviy yoki mexanik jarayonlarning ustunligi asosida yurituvchilarga bo‘linadi.

Tayyor mahsulotning maqsadlariga ko‘ra, barcha korxonalar ikkita katta guruhga bo‘linadi: ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchilar va iste‘mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar.

Foydalaniluvchi xom ashyo turiga ko‘ra, sanoat korxonalari qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarga taqsimlanadi.

Yil davomida ishlash muddatiga ko‘ra, korxonalar mavsumiy va yil bo‘yi faoliyat yurituvchilarga bo‘linadi.

Hajmiga ko‘ra, korxonalar yirik, mikrofirma va kichik korxonalarga taqsimlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra²¹ kichik tadbirkorlik sub’ektlari quyidagilardir:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar;

²⁰ «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 may, O‘RQ-370-sonli Qonuni // «Xalq so‘zi» 2014 yil 7 may, 88 (6018)-soni.

²¹ «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 may, O‘RQ-328-sonli Qonuni // «Xalq so‘zi» 2012 yil 3 may, 86 (5506)-son

2) ishlab chiqarish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma kishi, xizmat ko'rsatish sohasidagi va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa tarmoqlardagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan o'n kishi, ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan besh kishi bo'lgan mikrofirmalar;

3) quyidagi tarmoqlardagi:

engil, oziq-ovqat sanoatidagi va qurilish materiallari sanoatidagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan ikki yuz kishi;

metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochsozlik, mebel sanoatidagi, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohasidagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yuz kishi;

mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish va ularni qayta ishlash, qurilish hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohasidagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan ellik kishi;

fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa sohalardagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma besh kishi bo'lgan kichik korxonalar.

Faoliyatning bir necha turini amalga oshiruvchi (ko'p tarmoqli) yuridik va jismoniy shaxslar yillik aylanma hajmida ulushi eng ko'p bo'lgan faoliyat turi mezonlari bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlariga kiradi

Ixtisoslashuv darajasiga ko'ra, korxonalar ixtisoslashgan, universal va aralash korxonalarga bo'linadi.

Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish usullarigako'ra, korxonalar ishlab chiqarishning oqim, partiyali va donalab ishlab chiqarish usullari ustuvor turuvchi korxonalarga bo'linishi mumkin.

Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish darajasiga ko'ra, korxonalar to'liq va qisman avtomatlashtirilgan yoki mexanizatsiyalashtirilgan, qo'l-mashina va faqat qo'l mehnatiga asoslangan korxonalarga bo'linadi.

Kooperatsiya jarayonida konsern, konsorsium, xo'jalik asotsiatsiyasi kabi tashkiliy shakllar vaqtinchalik yoki doimiy ravishda tuzilishi mumkin. Ushbu tuzilmaviy birliklarining mohiyatini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Korporatsiya yirik aksioner jamiyatlar birlashmasi hisoblanib, bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchilarni birlashtiradi. Natijada ishlab chiqarish monopollashadi. **Korporatsiya** atamasi lotincha «**korporatio**» so'zidan olingan bo'lib, birlashma, hamjamiyat ma'nosini beradi.

Konsern umumiy manfaatlarga ega hamda shartnomalar, kapital va qo'shma faoliyatda ishtirok etish bilan bog'liq bo'lgan korxonalarining yirik birlashuvini aks ettiradi.

Konsern – bu ishlab chiqarish diversifikatsiyasi, ya'ni korxonalarining faoliyat sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi asosida tarkib topadigan yirik ko'p tarmoqli korporatsiya.

Konsorsium – bu aniq iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilgan korxonalarining umumiy kelishuvlar asosida yuzaga keladigan muvaqqat birlashmasidir. Konsorsium buyurtmachilar oldidagi majburiyatlar uchun javobgar hisoblanadi.

Xo'jalik assotsiatsiyasi jismoniy yoki huquqiy shaxslarning o'zaro hamkorlik yuritish maqsadida ko'ngilli ravishda birlashuvini anglatadi va unda birlashuvga kiruvchi sub'ektlar o'z mustaqilligini saqlab qoladilar.

Korxonalarining konsentratsiya asosida birlashuvi kartel, sindikat, xolding va moliya-sanoat guruhlarini ko'rinishida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish sohasidagi **kartellar** ishlab chiqarish masalalari, narxlar, tovarlarni sotish, ishchi kuchini yollash va shu kabi masalalar bo'yicha kelishuvga asoslanib faoliyat yuritadi. Integratsining bu shaklida korxonalar mustaqillikni saqlab qolgan holda kooperatsiya asosida birlashadilar.

Sindikat – tijorat faoliyatini (ta'minot, buyurtmalarni taqsimlash, xom ashyo sotib olish, mahsulot sotish, bahoni shakllantirish) hamkorlikda tashkil qilishga asoslangan birlashmadir. Sindikat tarkibiga kiruvchi korxonalar huquqiy hamda xo'jalik yuritish mustaqilliklarini saqlab qoladilar.

Trestlar yuqori darajada markazlashganligi bilan ajralib turadi. Uning tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish, tijorat va huquqiy mustaqilliklarini yo'qotib, Yagona reja asosida faoliyat yuritadi.

O'z tarkibidagi aksiyadorlik jamiyatlarni nazorat paketlarini egallash bilan korporatsiyalar **xolding kompaniyalariga** aylanadi.

5. Sanoat korxonalarini ta'sis etish va davlat tomonidan ro'yxatga olish

Korxonalar qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda maxsus davlat organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab tashkil qilingan hisoblanadi va huquqiy shaxs maqomiga ega bo'ladi.

Korxonalar ustavi uning huquqiy maqomini, huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

Ta'sis shartnomasi korxonaning tashkil qilinishi va yakka tarzda yoki hamkorlikdagi faoliyatning boshlanishini tavsiflovchi hujjatdir. U shuningdek, tashkil etilayotgan korxonaning ustavini to'ldiruvchi hujjat ham hisoblanadi.

Xususiy korxonaning ta'sis hujjati sifatida uning ustavi qabul qilinadi.

Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar ta'sis hujjatlari sifatida jamiyatning ta'sis shartnomasi va ustavi qabul qilinadi.

Aksiyadorlik jamiyatining ta'sis hujjati sifatida ta'sis yig'ilishi (muassis) tasdiqlagan ustav qabul qilinadi.

Xo'jalik shirkatining ta'sis etish hujjati bo'lib, uning ta'sis shartnomasi hisoblanadi.

Tadbirkorlik sub'ektlari - yuridik shaxslar ustav fondining eng kam miqdoriga qo'yiladigantalablar²²

Tadbirkorlik sub'ektlarining - yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shakli	Ustav fondining eng kam miqdori
Aksiyadorlik jamiyati	1 600 mln. so'm
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	Eng kam oylik ish haqining 40 baravari miqdorida
Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat	Eng kam oylik ish haqining 40 baravari miqdorida
To'liq shirkat	Eng kam oylik ish haqining 50 baravari miqdorida
Kommandit shirkat	Eng kam oylik ish haqining 50 baravari miqdorida
Unitar korxonalar, Davlat unitar korxonasi, Xususiy korxonalar, Fermer xo'jaligi, Ishlab chiqarish kooperativi, yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaligi	-
Oilaviy korxonalar	Eng kam oylik ish haqining 10 baravari miqdorida
Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar	600 mln. so'm
Chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar	Tegishli tashkiliy-huquqiy shakli uchun belgilangandan kam bo'lmagan miqdorda

Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va qayta ro'yxatdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2486-sonli qarorini amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi 2017 yil 9 fevraldagi 66-sonli Hukumat qaroriga muvofiq Davlat xizmatlari markazlari tomonidan amalga oshiriladi²³.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish quyidagi usullardan biri bilan amalga oshiriladi:

1. Internet jahon axborot tarmog'i orqali tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi vositasida Yagona portalda;

²²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son Qarori

²³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son qarori

2. Ariza beruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun tegishli ro'yxatdan o'tkazuvchi organga o'zlari kelib murojaat qilgan holda.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish va qayta ro'yxatdan o'tkazish "Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"da nazarda tutilgan muddatlarda amalga oshiriladi (2.4-jadval).

2.4-jadval

Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan muddatlar²⁴

T/r	Tadbirkorlik faoliyati Shakllarining nomi	Davlat ro'yxatidan o'tkazishning belgilangan muddatlari
I. Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish		
1.	YAkka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan dehqon xo'jaligi, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyati sub'ektlari	real vaqt rejimida, lekin 30 minutdan oshmagan vaqtda
2.	Tadbirkorlik faoliyatining boshqa shakllari	real vaqt rejimida, lekin 30 minutdan oshmagan vaqtda
II. Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan qayta o'tkazish		
3.	Ta'sis hujjatlariga ustav fondi miqdorining oshirilishi, ulushning (hissaning) boshqa shaxsga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganda	16 ish soatidan oshmagan vaqtda
4.	Ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlariga (ta'sis hujjatlariga) kiritilayotgan boshqa o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritilganda	real vaqt rejimida, lekin 30 minutdan oshmagan vaqtda

Yuridik shaxsni (tijorat tashkilotini) ro'yxatdan o'tkazishda taqdim etilayotgan hujjatlar soni 6 tadan 2 tagacha qisqartirilgan, ya'ni faqatgina ariza va ta'sisi hujjatlari talab etiladi, yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT) uchun zarur bo'lgan hujjatlar soni 7 tadan 1 tagacha qisqartirilgan, ya'ni faqatgina ariza taqdim etish talab etiladi.

²⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son qarori

2.5-jadval

Tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat bojlari stavkalari²⁵

Tadbirkorlik sub'ektlari	davlat bojlari stavkalari
xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun	hozir bo'lish tartibida murojaat etilganda eng kam oylik ish haqining 32 barovari, Internet butunjahon tarmog'i orqali davlat ro'yxatidan o'tkazilganda esa - eng kam oylik ish haqining 16 barovari miqdorida;
sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari, auditorlik tashkilotlari, soliq maslahatchilari tashkilotlari, birjalar, lombardlar, investitsiya fondlarini, "O'zbekoziqovqatzaxira" meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash va g'amlash korxonalari uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalarni, bozorlarni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining tegishli qarorlari bilan aksiyadorlik jamiyatlari (shu jumladan xolding) shaklida tashkil etilayotgan xo'jalik boshqaruvi organlarini ro'yxatidan o'tkazganlik uchun	hozir bo'lish tartibida murojaat etilganda eng kam oylik ish haqining to'rt baravari, Internet butunjahon tarmog'i orqali davlat ro'yxatidan o'tkazilganda esa - hozir bo'lish tartibida murojaat etganlik uchun belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida";
yuridik shaxslarni - tadbirkorlik sub'ektlarini, yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni hamda yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazganlik uchun	hozir bo'lish tartibida murojaat etilganda eng kam oylik ish haqining bir baravari, Internet butunjahon tarmog'i orqali davlat ro'yxatidan o'tkazilganda esa - hozir bo'lish tartibida murojaat etganlik uchun belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida";

Biznes yuritishni boshlash bilan bog'liq bo'lgan barcha rasmiyatchiliklarni inobatga olgan holda korxonani ochish jarayoni (*ushbu vaqtga firma nomini zaxiraga olib qo'yish, ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat bojini to'lash, davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma va ro'yxatdan o'tkazilgan ta'sis hujjatlarini olish, muhrni tayyorlash, soliq organlarida, statistika*

²⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son qarori

organlarida hamda Xalq bankida hisobga qo'yish, shuningdek bankda hisob raqamini ochish kiradi) bir kundan kam vaqtni talab qiladi.

6. Sanoat korxonalarini tugatish va qayta tashkil qilish

Korxonani **qayta tashkil qilish** – bu, uning birlashib ketishi, qo‘shilishi, bo‘linishi, ajralib chiqish va shaklini o‘zgartirishi degani. Korxonani qayta tashkil qilish ta’sischi (ta’sischilar) qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Qayta tashkil qilish korxonaning ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlari avvalgiga nisbatan yaxshilanishiga xizmat qilishi lozim.

Korxonani **tugatish** huquqiy xatti-harakat bo‘lib, ishlab chiqarish va xo‘jalik yuritish faoliyatining to‘xtatilishini anglatadi. Korxonani tugatish uning ta’sischilari tomonidan qabul qilinadigan qaror asosida ixtiyoriy tugatish shaklida yoki xo‘jalik sudi qarori asosida amalga oshiriladi.

Korxonaga tugatilganda u davlat ro‘yxatidan chiqariladi, uning bankdagi hisob raqami yopiladi hamda muhr, shtamp va boshqa rekvizitlari haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Korxonani tugatishga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot(ish, xizmat)ga bo‘lgan talabning pasayib ketishi yoki umuman yo‘qolishi;
- ishlab chiqarishning zarar keltirishi;
- ishlab chiqarishning atrof-muhit hamda aholi hayotiga xavf tug‘dirishi;
- korxonaning bino va inshootlari, asbob-uskunalari va boshqa vositalaridan iqtisodiy jihatdan unumliroq, yanada sifatli va iste’molchilar talabiga javob beruvchi mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatining yuzaga kelishi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

- 1.Sanoat – milliy ishlab chiqarishning yetakchi tarmog‘i.
- 2.Sanoatning asosiy xususiyatlari va sanoat ishlab chiqarishining xalq xo‘jaligining boshqa sohalar bilan o‘zaro bog‘liqligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
- 3.O‘zbekiston sanoatining rivojlanish bosqichlari va sanoat tarmoqlarining taraqqiyoti.
- 4.Sanoat va bozor xo‘jaligi hamda uning xorijiy bozorga chiqish imkoniyatlari va yo‘llari nimalardan iborat?
- 5.Sanoat ishlab chiqarishning xalqaro hamkorlik sohasidagi vazifalari nimalarni taqozo etadi?

3-mavzu. Qishloq xo'jaligi va agrosanoat majmui

Reja:

1. Qishloq xo'jaligining O'zbekiston respublikasi iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati.
2. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida agrar sohani rivojlantirish tamoyillari.
3. Agrosanoat majmuasining maqsadi, vazifalari va tarkibi.
4. Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining o'zaro ishlab chiqarish munosabatlari.
5. Agrosanoat majmuasini mamlakatni oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni.
6. O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasini boshqarish tizimi

1. Qishloq xo'jaligining O'zbekiston respublikasi iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati.

Qishloq xo'jaligining O'zbekiston respublikasi iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati.

Mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda agrar sektor va uning asosiy o'zagi hisoblangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning rivoji ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar samarasiga bog'liq. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini isloh etish qishloqda mulkdorlar sinfini shakllantirish, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishini ko'paytirish va qishloq aholisining moddiy farovonligini ko'tarish garovidir. Respublikamizning yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini muntazam ko'paytirib borish dolzarb ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab qishloq xo'jaligi tarmoqlarida bozor munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan keng ko'lamdagi iqtisodiy islohotlar o'tkazila boshlandi. Natijada tarmoqda xo'jalik yuritish va ishlab chiqarishni tashkil qilishning iqtisodiy- tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlarini tubdan o'zgartirib, iqtisodiyotda reja taqsimotli - ma'muriy boshqarish uslubi o'rniga bozor munosabatlariga asoslangan yangi tizim shakllandi. Pirovardida, tarmoqda o'tkazilib chuqurlashtirilayotgan iqtisodiy islohatlar xo'jalik yuritishni xususiy mulkchilikka asoslangan teng huquqli raqobat sharoitida faoliyat yuritishini ta'minlay boshladi.

Hozirgi kunda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish to'lig'i bilan nodavlat sektori zimmasiga yuklatilib mahsulot ishlab chiqarish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash barqaror o'sib bormoqda. Xo'jalik yuritish shakllari orasida fermer xo'jaliklari har tomonlama o'zining afzalligini amaliyotda ko'rsatmoqda va kelgusida u asosiy xo'jalik yuritish shakli bo'lib qoladi. Endilikda qishloq xo'jaligining asosiy yuki fermer xo'jaliklari zimmasiga tushmoqda. Respublika qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va ularni chuqurlashtirish borasidagi chora-tadbirlar dehqonlarni

yerga bo'lgan munosabatini o'zgartirishni va yer munosabatlarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmini amalga oshirishni dolzarb masala sifatida yuzaga chiqardi. Chunki, iqtisodiy islohotlarning xususiyati, uning yo'nalishi va chuqurlashtirish jarayoni pirovard natijada yer islohоти bilan bog'liq.

Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan islohotlar natijasida dehqon va fermer xo'jaliklarining mavqei yil sayin ortib bormoqda.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning muhim tarmog'idir. U mamlakat aholisi uchun hech bir narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan oziq-ovqat mahsulotlarini va sanoat uchun xom ashyoning asosiy manbai hisoblanadi. Hozirgi davrda, bu tarmoqda aholi iste'mol qilayotgan tovarlarning 85 foizidan ko'prog'i ishlab chiqarilmoqda. Ular dehqonchilik hamda chorvachilik mahsulotlaridan iboratdir. Respublika aholisining 60 foizi qishloqlarda yashaydi Barcha turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda respublika iqtisodiyotida band bo'lgan mehnat resurslarining 40 foizga yaqini qatnashmoqda.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari va ulardan tayyorlangan tovarlar eksportidan keladigan valyuta tushumi jami valyuta tushumining 50 - 55 foizini tashkil etadi. Paxta tolasi eksportining xalqaro savdodagi hajmi jami eksportning qariyb 9-10 foizini tashkil etmoqda. Shuningdek, don mustaqilligiga erishilishi mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan yutuq bo'lib, hozirga kelib Afg'oniston, Tojikiston kabi davlatlarga don eksport qilish imkoniyatini yaratdi.

To'qimachilik va engil sanoat tizimida esa, paxta tolasini qayta ishlash hajmi keskin ortib, pirovard mahsulotni eksport qilish doirasi kengaymoqda. 2009 yilda qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i 18 foizni tashkil etgan. 2009 yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8,1 foizni tashkil etgan xolda qishloq xo'jaligidagi o'sish 5,7 foizni tashkil etdi, mamlakatimizda 7,3 million tonnadan ortiq don, shu jumladan, 6 million 600 ming tonna bug'doy yetishtirildi, 3,4 million tonna paxta xomashyosi tayyorlandi. Mamlakat bo'yicha amaldagi baholarda 12 trln 642,6 mlrd so'mlik yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarildi.

Qishloq xo'jaligida dehqonchilik va chorvachilik oddiy tarmoqlar hisoblanmasdan, unda mehnat qilayotgan fuqarolar mamlakatimizda ma'lum bir ahloqiy va ma'naviy boyliklarni saqlovchi va tarqatuvchi yirik kuch sifatida alohida qadrlanadi. Uning asosini esa shaxsning erkinligi, oila va o'z yeriga muhabbat tashkil etadi. Jahon qishloq xo'jaligi tajribalarining ko'rsatishicha, oilaviy fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishdagi yangiliklarga bo'lgan qiziqish oshib bormoqda, yer va mulkning qadriga yetish, oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan munosabatida mehr - muhabbat yetakchi o'rin tutadi, ahloqiy urf-odatlar mustahkam saqlanadi va avloddan avlodga o'tib boradi.

2. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida agrar sohani rivojlantirish tamoyillari.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida respublikamiz qishloq va suv xo'jaligi tizimidagi korxonalar va tashkilotlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida bozor munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan keng ko'lamdagi iqtisodiy islohotlar olib borildi va ularni chuqurlashtirish amalga oshirildi. Natijada tarmoqda xo'jalik yuritish va ishlab chiqarishni tashkil qilishning iqtisodiy-tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlari tubdan o'zgarib, iqtisodiyotda reja taqsimotli ma'muriy boshqarish uslubi o'rniga bozor munosabatlariga asoslangan yangi tizim shakllandi. Pirovardida, tarmoqda o'tkazilib chuqurlashtirilayotgan iqtisodiy islohatlar xo'jalik yuritishni xususiy mulkchilikka asoslangan shakllarini teng huquqli raqobat sharoitida faoliyat yuritishini ta'minladi. Respublikada bozor islohotlariga o'tishning tamoyillari asosida qishloq xo'jaligi rivojlanishida tub burilish yasaldi.

Qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishning huquqiy va me'yoriy asoslari

O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida" qonuni 1998 yil; O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida" qonuni (yangi tahriri) 2004 yil; O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastrini to'g'risida" qonuni 1998 yil; O'zbekiston Respublikasining "Er kodeksi" 1998 yil; O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" qonuni 1993 yil; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi "Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-3226-sonli Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-3342-sonli Farmon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 8 noyabrdagi "2006 yilda qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari)ni fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 215-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 mart "Shaxsiy yordamchi va dehqon-fermer xo'jaliklarida chorva mollari ko'paytirish to'g'risida"gi Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 11 yanvardagi "Meva sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni; Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 sentyabrdagi "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 383-sonli qarori; Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 476-sonli qarori; Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 5 noyabrdagi "Qishloq xo'jaligida ijara munosabatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 486-sonli qarori; Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 23 iyuldagi "Suv resurslarini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori; Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 dekabrdagi "2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-

tadbirlari to'g'risida”gi 607-sonli qarori; “2006-2010 yillarda qoramolchilikni rivojlantirishni rag'batlantirish” dasturi 2008 yil 6 oktyabrdagi «Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalarini maqbullashtirish chora tadbirlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish maqsadida maxsus komissiyani tashkil qilish to'g'risida»gi 3077 farmoyishi;

2008 yil 20 oktyabrdagi «Oziq ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko'paytirish chora tadbirlari to'g'risida»gi 404 sonli Farmoni; «Iqtisodiyotni real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora tadbirlari dasturi to'g'risida»gi 4058 sonli Farmoni qishloq va suv xo'jaligi tizimidagi korxonalar va tashkilotlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakat qishloq xo'jaligini hamda u bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarni boshqarish bilan:

- O'zbekiston qishloq xo'jaligi vazirligi;
- Respublika melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi;
- Ormon xo'jaligi vazirligi;
- Meva sabzavot uzum sanoati aksiyadorlik jamiyati;
- Davlat suv xo'jaligi qurilishi qo'mitasi;
- Davlat yer resurslari qo'mitasi;
- O'zgo'shtsanoati aksiyadorlik jamiyati va boshqa tashkilotlar shug'ullanganlar.

Ushbu tuzilmalarning faoliyati bozor iqtisodi tamoyillari asosida samarali boshqarish talablariga mos kelmay qoldilar. Shuning uchun ham ularning faoliyatini uyg'unlashtirish natijasida boshqarilishi qulay bo'lgan ixcham vazirliklar, kompaniyalar hamda davlat qo'mitalari shakllantirildi. Hozirgi davrda O'zbekiston Qishloq va Suv xo'jaligi vazirligi, Respublika dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi, O'zmevasabzavotuzum xolding kompaniyasi, O'zqishloqmashlizing kompaniyasi, O'zdonmahsulot aksiyadorlik kompaniyasi, O'zagromashservis kompaniyasi va boshqa tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Ularni kelajakda yanada takomillashtirish talab etiladi.

Qishloq va suv xo'jaligi tizimidagi korxonalar va tashkilotlarni ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatlarini rivojlantirish, uning samaradorligini yuksaltirish maqsadida tarmoqda moliya, kredit, soliq va baholar islohoti amalga oshirilmoqda, erkin bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida nodavlat mulkchiligiga asoslangan sub'ektlarni moliyalashtirish tartibi tubdan o'zgardi. Ularning faoliyatini moliyalashtirish asosan o'z mablag'lari evaziga amalga oshirilmoqda. Uning manbasi bo'lib mahsulot yetishtirib sotish, xizmat ko'rsatish natijasida olayotgan pul daromadlari, asosiy vositalarning eskirishi oqibatida shakllanayotgan amortizatsiya fondi, ishlab chiqarish vositalarini sotishdan olinayotgan pul tushumlari hamda ularning foydalari hisoblanadi. Davlat buyurtmalari miqdoridagi paxta hamda g'allani ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mablag'lar davlat tijorat banklari tomonidan beriladigan imtiyozli kreditlar evaziga qoplanmoqda. Shu manbalardagi mablag'lar yetishmagan hollarda qishloq xo'jalik korxonalarini davlatning, tijorat banklarining, xorij davlatlarining

nodavlat korxonalar va tashkilotlari, homiylar va boshqalarning vaqtincha bo'sh bo'lgan mablag'larini jalb etmoqdalar.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish, oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko'paytirish, erlarning meliorativ holatini yaxshilash, tuproq unumdorligini oshirish va qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini ko'paytirish, shuningdek melioratsiya ishlarini tashkil qilish va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 20 oktyabrdagi «Oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni hamda 2008-2012 yillarga mo'ljallangan sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturini amalga oshirish bilan bog'liq.

Ushbu dasturlarga muvofiq 2008-2012 yillarda umumiy uzunligi 3,5 ming km.dan ziyod bo'lgan magistral, tumanlararo va xo'jaliklararo kollektorlarni, mingdan ortiq melioratsiya quduqlarini barpo etish va rekonstruksiya qilish, 7,6 ming km.lik drenaj tarmoqlarini qayta tiklash vazifalari qo'yilgan. 2008 yilda 75 mlrd. so'mdan ortiq mablag' kollektor-drenaj tarmoqlarini qayta tiklash va tozalash, pudratchi va suv xo'jaligi tashkilotlarini lizing asosida zamonaviy texnika bilan ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lsa, 2009 yilda 120 mlrd. so'mdan ortiq mablag' mazkur ishlarni amalga oshirishga sarflandi.

3. Agrosanoat majmuasining maqsadi, vazifalari va tarkibi.

Ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishda ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiya, texnika va uskunalar, mineral o'g'itlar, yoqilg'i va maxsus kimyoviy vositalar, kreditlar bilan taminlash, urug'chilik muammolarini o'rganish va yechish, mintaqaga xos urug'chilikni tashkil etish, urug' samaradorligini baholash, xo'jaliklarni urug' tayyorlovchi va saralovchi korxonalar va nav yaratuvchi muassasalar bilan aloqalarini ta'minlash, agroservisni yo'lga qo'yish va rivojlantirish, biznes maktablar, malaka oshirish markazlari, fermerlarni o'qitish kurslari faoliyatini muvofiqlashtirish va talab darajasiga yetkazish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshiradi ko'p jihatdan boshqa tarmoqlar ishlab chiqarish faoliyatini chambarchas bog'liqligini taqozo etadi.

Bir tarmoqning pirovard mahsuloti boshqa bir tarmoq uchun ishlab chiqarish vositasi yoki xom-ashyosi bo'lib xizmat qiladi va uning tarmoq uchun birlamchi qayta ishlash yoki mahsulotni iste'molchiga yetkazib berish xizmatini vujudga keltiradi. Qishloq xo'jaligi bir tomondan, texnika, qishloq xo'jalik mashinalari, yoqilg'i moylash materiallari, zaharli kimyoviy vositalar, mineral o'g'itlar, qurilish materiallari va transport vositalari yetkazib beruvchi sanoat bilan, ikkinchi tomondan, ta'mirllovchi, saqllovchi, yetkazib beruvchi, ya'ni xizmat qiluvchi tarmoqlar va ishlab chiqaruvchilar bilan bog'langan. Shu

vaqtning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan xom-ashyo sifatida foydalanuvchi sanoatning oziq-ovqat, yengil, to'qimachilik kabi tarmoqlari bilan ham mustahkam aloqalari mavjud.

Sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasidagi bunday bog'liqlik qishloq xo'jaligi va sanoatga tubdan tegishli bo'lgan yagona pirovard maqsadga ega bo'lgan agrosanoat majmuining shakllanishiga sabab bo'lgan.

Agrosanoat majmuasining maqsadli faoliyati minimal xarajatlar hisobiga mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari va sanoatni xom-ashyo bilan to'laroq qondirishga qaratilgan. Respublikada agrosanoat majmuasiga kiruvchi barcha tarmoqlarni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Respublika agrosanoat majmuasida:

agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi barcha tarmoqlarning tashkiliy, texnologik, texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy bog'lanishini ta'minlash;

majmua tarkibidagi korxonalarining faoliyat yo'nalishlarini e'tiborga olgan holda ularni maqsadga muvofiq oqilona joylashtirish;

majmua tarkibidagi korxonalarining ixtisoslashuvi va integratsiyalashuvini ta'minlash;

majmua tarkibidagi korxonalarini zamonaviy texnikalar bilan jihozlash, ilg'or texnologiyalarni joriy etish;

agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar ixtiyoridagi barcha resurslardan (tabiiy, kapital, mehnat) tadbirkorlik bilan oqilona foydalanib, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mexanizatsiyalashtirish, elektrlashtirish va kimyolashtirish;

agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar o'rtasida ularning mahsulotlarini o'zaro samarali ayriboshlanishini ta'minlaydigan narxlarni belgilash;

majmuada faoliyat ko'rsatayotgan rahbar, ishchi va xizmatchilarning malakalarini oshirish, ular mehnatlarining miqdoriga, pirovard natijasiga ko'ra rag'batlantirilishini ta'minlash borasida katta ishlarni amalga oshirish.

Agrosanoat majmuasi maqsadining tarkibi.

- agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jaligi mashinasozlik, traktorsozlik sanoati; kimyo sanoati; neft mahsulotlari sanoati, mikrobiologiya sanoati; oziq-ovqat mashinasozlik, stanoksozlik sanoati; qurilish materiallari sanoati va boshqalardan iborat bo'lib, bu sanoat korxonalarining asosiy maqsadi - agrosanoat majmuasi tarkibidagi, xususan, qishloq xo'jaligi va unga irrigatsiya-melioratsiya, texnika ta'minoti va ta'mirlash, kimyolashtirish, zooveterinariya, elektrlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi paxta tozalash sanoati, don mahsulotlari, meva, sabzavot, uzum sanoati, go'sht-sut sanoati, yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarini va nihoyat, tayyor mahsulotlarni yetkazib berishda zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari (mashina, traktor, stanok, kimyoviy vositalar, yoqilg'ilar, ozuqa

moddalari) bilan ta'minlash orqali ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik va korxonalarining moddiy-texnika bazasini barpo etishga ulkan hissa qo'shish. Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining talab darajasida shakllantirilishi natijasida ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilib, mexanizatsiyalashtirilib, elektrlashtirilib, jonli mehnat sarfi qisqarib, mehnat unumdorligining ko'tarilishi ta'minlanadi. Ular shu tarmoqlardagi mehnat jarayonining o'zgarishiga ta'sir etadi, ya'ni oddiy mehnat industrlashgan mehnatga aylanib boradi. Agrosanoat majmuasining bu bo'g'ini tarkibidagi tarmoqlarda minglab korxonalar faoliyat ko'rsatib, jami ichki mahsulotning 65-70 foizi yaratilmoqda.

- agrosanoat majmuasining asosiy tarmog'i hisoblanib qishloq xo'jaligidan tashkil topadi. Qishloq xo'jaligining dehqonchilik hamda chorvachilik tarmoqlarida sanoat tarmoqlari uchun xom-ashyo (paxta, don, kanop, zig'ir, qand lavlagi, jun, teri, kunjut, uzum), aholi iste'moli uchun esa oziq ovqat mahsulotlari (go'sht, sut, sabzavot, poliz, meva, kartoshka mahsulotlari) yetishtiriladi.

Qishloq xo'jaligi agrosanoat majmuasining asosiy, ya'ni markaziy tarmog'i hisoblanadi. Uning barqaror rivojlanishi ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi, yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi, saqlovchi hamda iste'molchilarga yetkazib beruvchi barcha tarmoqlar faoliyatiga bog'liq. Ular qishloq xo'jalik korxonalarini barcha turdagi texnikalar, kimyoviy vositalar, yoqilg'i, qurilish materiallari, stanoklar bilan o'z vaqtida ta'minlab, mavjud qishloq xo'jalik texnikalarini arzon va sifatli ta'mirlab, tarmoqning rivojlanishini ta'minlaydigan xizmatlarni ko'rsatib, unda yetishtirilgan mahsulotlarni yig'ib-terib, qayta ishlab, iste'molchilarga sifatli holda yetkazib bersalar, qishloq xo'jaligining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan bo'ladilar. Qishloq xo'jaligining rivojlanishi natijasida majmua tarkibidagi tarmoqlarning ham kengayishi ta'minlanadi, ya'ni ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan talab ortadi. Bu talabni qondirish uchun sanoat tarmoqlari intensiv faoliyat ko'rsatish bilan ishlab chiqarish hajmining kengayishga ham erishiladi. Tarmoqda qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmining barqaror ravishda o'sishi ularni qayta ishlovchi tarmoqlar samarali faoliyat ko'rsatishini talab etadi. Demak, agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha tarmoqlar qishloq xo'jaligi bilan bevosita bog'liq. Shu sababli respublika qishloq xo'jaligini maqsadga muvofiq tashkil etish va zamon talabi asosida boshqarishga alohida e'tibor berilmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi, saqlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar, jumladan, paxta tozalash, don, kanop, qand lavlagi, go'sht va sut, tamaki, sabzavot va poliz mahsulotlari, meva, uzumni qayta ishlash, yengil va boshqa sanoat tarmoqlari; bozor talabini e'tiborga olgan holda tayyor mahsulotlarni ulgurji va chakana holda yetkazib beradigan savdo tarmoqlari kiradi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining ko'payishi mos ravishda pirovard mahsulotni tayyorlash,

saqlash, tashish, qayta ishlash va sotish bo'yicha tarmoqlarni rivojlantirishni talab qiladi, bu esa agrosanoat majmuasining 3- bo'g'inining rivojlanishi orqali amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish hamda uning rivojlanishiga xizmat ko'rsatadigan tarmoqlar, ya'ni qishloq xo'jaligi infratuzilmasi bo'lib, bu sohalarga:

-ekinlarni, chorva hayvonlarini suv bilan ta'minlaydigan, yerlarning meliorativ holatini yaxshilanishini ta'min etuvchi chora-tadbirlar tizimini amalga oshiradigan suv xo'jaligi tarmog'i;

- qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan barcha texnikalarga servis xizmati ko'rsa-tadigan tarmoq;

-tarmoqda yirik bino-inshootlarni quruvchi va mavjudlarini ta'mirlovchi tarmoq;

-tarmoqqa zooveterinariya xizmati, shuningdek, hashoratlarga, zararkunandalarga, begona o'tlarga qarshi kurashish maqsadida kimyoviy xizmat ko'rsatadigan tarmoq;

-qishloq xo'jaligini yoqilg'i va yog'lovchi materiallar hamda elektroenergiya bilan ta'minlaydigan tarmoqlar va shu kabi ko'plab tarmoq va sohalar kiradi.

Bu tarmoqlar qishloq xo'jaligiga barcha turdagi ish va xizmatlarni o'z vaqtida, sifatli ko'rsatishlari natijasida turli xildagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda katta hissa qo'shadilar. Texnikalarni ta'mirlab, ekinlar ekiladigan maydonlarni agrotexnik muddatlarda sifatli haydab, ekishga tayyorlab, ekib, unib chiqqan o'simliklarga ishlov berib, yetishtirilgan hosilni belgilangan muddatlarda sifatli yig'ib olish natijasida qishloq xo'jalik mahsulotlarining miqdorini oshirishga, ularning sifatini yaxshilashga agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi bu bo'g'in korxonalari bevosita katta ta'sir ko'rsatadilar. Qishloq xo'jaligi korxonalarining mahsulotlarini oqilona, o'z vaqtida iste'molchiga yetkazib berish natijasida esa qishloq xo'jalik korxonalari foyda miqdorini ko'paytirishga erishishlari mumkin.

Bu tarmoq tarkibidagi korxonalar qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish natijasida o'z ixtiyoridagi zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyaviy yutuqlar natijasida qishloq xo'jaligida olib boriladigan barcha turdagi ish va xizmatlarni mexanizatsiyalash-tirilishini, avtomatlashtirilishini, elektrlashtirilishini hamda kimyolash-tirilishini ta'minlab, jonli mehnat sarfini kamaytirish evaziga mehnat unumdorligini oshishiga, sarf xarajatlarning kamayishi hisobiga ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga sabab bo'ladi.

Agrosanoat majmuasi tarkibidagi bu bo'g'in tarmoqlarining asosiy maqsadi - qishloq xo'jaligi korxonalariga barcha turdagi xizmatlarni, ishlarni muddatida, sifatli bajarishdir.

Respublika agrosanoat majmuasini barqaror rivojlantirishda mamlakatda mavjud bo'lgan iqtisodiy hamda ijtimoiy infratuzilmalar ulkan ahamiyatga ega. Ular agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha tarmoqlarning rivojlanishini ta'minlash maqsadida bank, sug'urta, investitsiya, soliq, lizing, sog'liqni saqlash,

ta'lim-tarbiya, ma'naviy, madaniy, san'at, kommunal xizmatlarni amalga oshiradilar. Shuning uchun barcha majmualar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro manfaatli holda amalga oshirilgani ma'qul.

4. Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining o'zaro ishlab chiqarish munosabatlari.

Erkin bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish ta'minlanayotgan yillarda mamlakat aholisining o'rtacha soni bir yilda 310-320 ming nafarga yoki 1,3 foizga o'smoqda. Shu bilan birga sanoat korxonalarini soni va ishlab chiqarish quvvatlari ham yil sayin oshib bormoqda. Bu holat respublikada xom -ashyo, oziq-ovqat mahsulotlari va xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishni rivojlantirilishini taqozo etmoqda. Bu muammolarni yechish uchun eng avvalo qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish hamda qayta ishlash tarmoqlarining mutanosib ravishda rivojlanishini ta'minlashga erishish, so'ngra tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va ularni iste'molchilarga yetkazuvchi tarmoqlarning tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy bog'lanishini ta'minlash lozim.

Qishloq xo'jaligini barqaror ravishda rivojlantirish va samaradorligini yuksaltirish uchun uni yangi qishloq xo'jalik mashinalari, texnikalari, transport va kimyoviy vositalar, mineral o'g'itlar, yoqilg'i hamda yog'lovchi materiallar, qurilish materiallari, ozuqa moddalari bilan to'liq va mutanosib ravishda ta'minlab, mustahkam moddiy-texnika bazasini barpo etish kerak. Demak, qishloq xo'jaligining kelajakdagi rivoji dastavval uning uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari faoliyatiga bevosita, shuningdek, agrar sohaning ravnaqi unga xizmat ko'rsatuvchi, ya'ni qishloq xo'jaligi korxonalarini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi, tarmoqdagi mashina-traktor va boshqa texnikalarni ta'mirlovchi, xo'jalik ob'ektlarini quruvchi, irrigatsiya-melioratsiya va kimyoviy, transport xizmatlarini bajaruvchi tarmoqlar faoliyatiga ham bog'liqdir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi tarmoqda yetishtirilgan xom - ashyolar bilan aholining barcha talablarini to'liq va sifatli qondira oladigan oziq-ovqat, gazlama, kiyim-bosh, oyoq kiyim va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarining serqirrali faoliyatiga ham bog'liq.

Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining o'zaro ishlab chiqarish munosabatlari qishloq xo'jaligi, unga ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan, xizmat qiladigan va uning mahsulotini iste'molchiga yetkazib berish bilan shug'ullanadigan barcha tarmoqlarning iqtisodiy -ijtimoiy aloqalaridan iborat.

Ko'p tarmoqli ishlab chiqarish tizimining samarali faoliyati resurslar ta'minotiga, ular ko'lamining kengayishiga, mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo'yicha tarmoqlarning moslashuviga, pirovard natijani maqsad qilib qo'ygan agrosanoat majmuasi tarmoqlarining faoliyatiga bog'liq..

Agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalarda ishlab chiqariladigan har bir oraliq mahsulotni ishlab chiqarish hajmi, shu mahsulotni iste'mol qiluvchi korxonalar va tashkilotlarning talabi bilan aniqlanadi, bu bilan butun bir majmuani rivojlan-tirishning zaruriy mutanosibligi va bir tekisligi ta'minlanadi.

Ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, o'z mahsulotlarini qishloq xo'jaligiga va qayta ishlovchi korxonalariga yetkazib beradilar. Ularning e'tibori nafaqat majmuaning har bir bo'g'inining talabini qondirishga, balki ularning agrosanoat ishlab chiqarishining bosqichlari bo'yicha nisbatlarining optimalligini ta'minlashga ham qaratilgandir. Aks holda, agrosanoat majmui rivojlanishida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashish, saqlash va iste'molchiga yetkazib berish jarayonida katta yo'qotishlarga olib keluvchi nomutanosiblik kelib chiqaradi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini tayyorlashni, saqlashni va qayta ishlashni amalga oshiruvchi agrosanoat majmui uchinchi bo'g'inining tarmoqlarini moddiy- texnika bazasini takomillashtirilishi talab etiladi. Ishlab chiqarish vositalarini yetkazuvchi tarmoqlar dehqonchilik va chorvachilik bilan tarmoqlararo aloqalarda optimal nisbatga rioya qilishlari zarur.

Agrosanoat majmuasi tarmoqlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar mahsulot va xizmatlarga ob'ektiv o'rnatiladigan baholarning optimal darajasi yordamida amalga oshiriladi. Sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari baholari o'rtasidagi farq natijasida me'yoriy iqtisodiy aloqalar va ishlab chiqarish hajmining o'sishi va pirovard mahsulotni sotish qiyinlashadi.

Agrosanoat ishlab chiqarishida tarmoqlar va ular tarkibidagi korxonalarining o'zaro aloqadorligi:

- agrosanoat majmuasining barcha bo'g'inlari tarkibidagi korxonalar uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi;

- qishloq xo'jaligi xom-ashyosidan tayyorlanadigan iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish;

- tezkor ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga ishlab chiqarish-texnikaviy va texnologik xizmat ko'rsatish;

- pirovard mahsulotni sotish bilan belgilanadi:

U yoki bu tarmoqni agrosanoat majmuiga tegishliligini aniqlash ancha murakkab masala bo'lib, sanoatning ayrim tarmoqlari qishloq xo'jaligi yo'nalishida faoliyat ko'rsatadi. Ko'pchiligi esa qishloq xo'jaligi uchun qisman mahsulot ishlab chiqaradi. Agrosanoat majmuini yagona bir tizim shaklida xarakterlab shuni ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligi sanoat, qurilish, transport, savdo va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari bilan doimo mustahkam aloqada bo'lib kelgan.

Respublika fuqarolarining tayyor oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini to'liq qondirilishi barcha tarmoqlarga turli xildagi ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, unga xizmat ko'rsatuvchi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlab, tayyor

mahsulot darajasiga yetkazuvchi va ularni iste'molchilarga yetkazib beruvchi barcha tarmoqlarning texnikaviy, texnologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy bog'lanishini ob'ektiv holda taqozo etadi. Shuning uchun ular maqsadga muvofiq ravishda joylashtirilib, ixtisoslashtirilib, xalq xo'jaligi miqyosida mehnat taqsimotini amalga oshirilishini ta'minlashlari zarur. Tarmoqlar yagona maqsad yo'lida o'zaro bog'lanishlari natijasida respublika agrosanoat majmuasi shakllanadi.

5. Agrosanoat majmuasini mamlakatni oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni.

Mamlakat agrosanoat majmuasining asosiy maqsadi - aholini sifatli oziq-ovqat va xalq iste'moli tovarlari bilan talab darajasida ta'minlashdir. Bu muammo ulkan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, uning talab darajasida hal etilishi aholining turmush darajasini yuksaltiradi, farovon yashashini ta'minlaydi.

Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakatni mavjud salohiyatlar, resurslar bilan ta'minlash va aholini ichki va tashqi sharoitlarga bog'liq bo'lmagan holda, ilmiy jihatdan asoslangan tibbiy me'yorlar darajasida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni kafolatlashdir.

- bu davlatning ichki extiyojini oziq-ovqatning barcha turlari hamda alohida maxsulot turlari bilan ta'minlash, qoplash qobiliyatidir.

Oziq-ovqat xavfidan keladigan iqtisodiy zarar bevosita va bilvosita yo'qotishlardan iborat bo'lib, u quyidagilar bilan bog'liq:

-ta'minlovchi tarmoqlar va agrosanoat majmuasi tarmoqlari faoliyatlarining buzilishi;

-oziq-ovqat maxsulotlari baholarining oshishi bo'yicha import to'lovlari;

-mehnatga yaroqli aholining kamayishi hisobiga mehnatning iqtisodiy samaradorligining pasayishi;

-oziq-ovqat qaramliligi va oziq-ovqat mustaqilligi.

Mamlakatda oziq-ovqat qaramliligi shunday holatda vujudga keladiki, unda jamiyat o'zining oziq-ovqat xavfsizligini o'zi mustaqil hal qilish qobiliyatiga ega bo'lmaydi. U qishloq xo'jaligi, sanoat va transport kabi tarmoqlar majmuining buzilishiga, shuningdek zaruriy oziq-ovqat maxsulotlari importiga mamlakat iqtisodiyotining to'lov qobiliyatining yo'qligi asosiy sabab bo'ladi. Oziq-ovqat qaramliligining paydo bo'lishi uchun asosiy sharoit davlatning xususiy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlamasligi va oziq-ovqat maxsulotlari importining haddan tashqari kupayib ketishida ifodalanadi.

Oziq-ovqat mustaqilligi bu aholini o'rnatilgan ovqatlanish me'yorlari bo'yicha oziq-ovqatlar bilan ta'minlash uchun energiya, yer resurslari, qishloq xo'jaligi mashinalari, moddiy resurslarning strategik zaxiralarining mavjudligidir. Uni amalga oshirish uchun agrosanoat majmuasi aholining asosiy oziq-ovqat maxsulotlari turlariga bo'lgan talabini zaruriy miqdorda va

assortimentda mustaqil ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va ta'minlashga qodir bo'lishi kerak.

Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash omillari.

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi davlatning oziq-ovqat xavfsizligiga ham bog'liq. Chunki mamlakat miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi unga bo'lgan mamlakat ehtiyojini tashqi omillarga (xorijiy davlatlarga) bog'lanmagan holda ta'minlashi lozim. Shuning natijasida mamlakat miqyosida siyosiy iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi sobiq SSSR tarkibida bo'lgan davrda uning un va un mahsulotlariga bo'lgan talabi asosan respublikaga chetdan keltiriladigan mahsulotlar evaziga qondirilardi. Bu holatni respublika mustaqilligi davrida saqlab qolish mutlaqo maqsadga muvofiq emas edi. Respublikada o'tish davrining birinchi yillaridan boshlab g'alla mustaqilligi siyosati izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Bunga erishish uchun samarali hisoblangan paxta xomashyosi ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga harakat qilindi.

2009 yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8,1 foizni tashkil etgan holda qishloq xo'jaligidagi o'sish 5,7 foizni tashkil etdi, mamlakatimizda ilk bor 7,3 million tonnadan ortiq don, shu jumladan, 6 million 600 ming tonna bug'doy yetishtirildi. «Ikkinchi non» hisoblangan kartoshka yetishtirish ham rivojlantirildi. Hozirgi davrda mahsulotning bu turi chet eldan sotib olinayotgani yo'q. Respublika aholisining go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, yog' mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasini tibbiy me'yorlar darajasiga yetkazish borasida katta ishlar qilinmoqda. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari bosh sonini ko'paytirishni rag'batlantirish, servis xizmatlari tarmog'ini tashkil etish va chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar dasturining amalga oshirilishi natijasida tarmoqni majmuaviy rivojlantirishda ijobiy siljishlar qayd etilmoqda. Oziq - ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasini hal etish maqsadida agrosanoat majmuasining markaziy bo'g'ini hisoblangan qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarini intensiv rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bunda chorvachilik tarmoqlarini ustuvor sur'atlarda rivojlantirishga harakat qilinmoqda. Parrandachilikni sanoat negizida rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Qoramolchilik, qo'ychilik bilan shug'ullanadigan nodavlat korxonalarini uchun har tomonlama iqtisodiy imkoniyatlar yaratilmoqda. Ularni moliyaviy mablag'lar bilan barqaror ravishda ta'minlash maqsadida imtiyozli kreditlar berish yo'lga qo'yilmoqda, soliq imtiyozlari berilmoqda, ularning ishlab chiqarishlari uchun zarur bo'lgan chet ellardan keltirilayotgan vositalar bojxona to'lovlaridan ozod etilmoqda. Bularning hammasi xalq iste'moli mollari miqdorini ko'paytirishga yo'naltirilgan tadbirlar hisoblanadi.

Aholining oziq-ovqat va xalq iste'moli tovarlari bilan ta'minlanishini yuksaltirish uchun eng avvalo, agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha tarmoqlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlanishi, fan-texnika

yangiliklari hamda ilg'or, samarali texnologiyalar ishlab chiqarishga izchil joriy etilishi o'zaro bog'liq holda ta'minlanishi zarur. Shu bilan birga majmua tarkibidagi qayta ishlash tarmoqlari ko'lamini kengaytirib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentini ko'paytirib, ularning raqobatbardoshligini ta'minlab, sifatli saqlab aholiga o'z vaqtida yetkazib berishga erishish lozim.

Bu tadbirlar tufayli aholining oziq-ovqat hamda iste'mol tovarlari bilan tibbiyot me'yorlari darajasida ta'minlanishiga erishiladi. Bu holat O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanganligidan dalolat beradi.

6.O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasini boshqarish tizimi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha turdagi erkin munosabatlarning huquqiy asosi yaratilishi zarur. Shuning uchun ham respublikamizda bu masalaga alohida e'tibor berilmoqda. Bunga mamlakat Oliy Majlisi tomonidan qonunlar bosqichma-bosqich qabul etilayotganligi yaqqol dalil bo'ladi. Ularga agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha xo'jaliklar rioya etishlari lozim. Shuning uchun ulardagi rahbar va mutaxassislar barcha qonunlarning mazmunini hamda ularni amalga oshirish yo'llarini yaxshi bilishlari kerak.

Respublikada agrosanoat majmuasini boshqarishdan maqsad uni samarali rivojlantirish, har bir soha, tarmoq va ishlab chiqarish xodimlariga me'yoriy sharoitlarni ta'minlash, zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va mamlakatning oziq ovqat xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir. Bu mehnat, moddiy resurslaridan foydalanishni yaxshilash, ishlab chiqarishdagi shikastlanishlarni, xodimlar kasallanishini kamaytirish bilan xarakterlanadi. Agrosanoat majmuiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarda ijtimoiy-madaniy ob'ektlarni qurish, ishlash va dam olishga ijtimoiy sharoitni yaxshilash, kadrlarni takror ishlab chiqarish uchun imkoniyatlarni yaratish hozirgi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuining raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish muammosi strategik ahamiyatga ega bo'lib, uni faqat ilmiy asosda yechish mumkin. Raqobat strategiyalari konsepsiyasi ilmiy ishlab chiqilmasa, shuningdek davlat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatilmasa, agrar sektorda mahsulotni takror ishlab chiqarish jarayoni sust kechadi va muqarrar tarzda raqobatbardoshlik va oziq-ovqat xavfsizligining yo'qolishi, agrosanoat majmui mahsulotlari narxlarining nomutanosibligi kabi salbiy oqibatlarga sabab bo'ladi.

Agrosanoat majmuasini rivojlantirish uchun davlat yordamini oshirish, yangi texnologiyalar va texnikani joriy etish, xarajatlarni kamaytirish, mehnatga haq to'lash darajasini oshirish, ichki narxlar va jahon narxlarining o'rtasidagi tafovutni kamaytirish borasida mamlakatimizda katta ishlar qilinmoqda. Agrosanoat majmuasi tuzilmalarining ustunligini ta'minlashning strategik jihatdan muhim manbalaridan biri bu innovatsion takror ishlab chiqarishdir. U hozirgi zamon strategik tadbirkorligining o'zagini tashkil etadi.

Agrosanoat majmuasi bozorining haqiqiy bo'lishi, xaridorlar va sotuvchilar uchun foydali innovatsion tovarlar hamda ularga bo'lgan talabni o'z ichiga olishi uchun bozor kuchlari shakllanishiga shart-sharoit yaratish va ularning raqobatini institutsional ta'minlash lozim.

Agrosanoat majmuini rivojlantirish yo'nalishlari.

Respublika hukumatining eng muhim vazifalaridan biri aholining iste'mol tovarlariga nisbatan o'sib borayotgan talabini qondirishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 27 yanvardagi "2009 yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi to'g'risida"gi 1048-son qaroriga muvofiq qishloq va suv xo'jaligi tizimidagi korxonalar o'z faoliyatlarini kundan - kunga kengaytirmoqdalar. Aholini oziq-ovqat hamda nooziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlanishi natijasida ularning farovon hayot kechirishlari uchun asos yaratiladi. Bu muammoni agrosanoat majmuasi hal etadi. Agrosanoat majmuasida barcha tarmoqlar o'zaro integratsiyalashuvi hamda ixtisoslashishi natijasida aholining ikki xil ehtiyojini qondiradigan mahsulotlar ishlab chiqarilib, iste'molchilarga yetkazib berilishi zarur. Bular:

-birinchisi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish. U oziq-ovqat mahsulotlari majmuasini tashkil etadi. Unga non va non mahsulotlari, qandolat, shakar, go'sht va go'sht mahsulotlari, choy, uzum vinosi, kon'yak, aroq, turli xildagi konservalar va boshqa mahsulotlar kiradi. Bu oziq-ovqat mahsulotlari inson organizmi uchun zarur moddalarni berib, uning sog'lom o'sishini ta'minlaydi.

-ikkinchisi agrosanoat majmuasi aholi uchun hayot kechirish jarayonida foydalaniladigan tovarlarni ishlab chiqaradi. U xalq iste'moli mollari majmuasini tashkil etadi. Unda oyoq kiyimi, kiyim-bosh, gazlamalar, sanoat spirti, texnika yog'lari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Majmua rivojlanishi bilan aholining yashash sharoiti o'zgaradi. Bu yerda aholining zarur bo'lgan boshqa buyumlar, vositalar, shuningdek, uy-joy bilan ta'minlanishi, unga turli xildagi xizmatlar ko'rsatilishi va boshqalar ham e'tiborga olinishi kerak.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlash deganda nimani tushunasiz?
2. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash nima?
3. Oziq-ovqat qaramliligi va oziq-ovqat mustaqilligiga izoh bering.
4. Agrosanoat majmuasini boshqarishdan maqsad nima?

4-mavzu. Qurilish majmiuni rivojlantirish

Reja:

1. Qurilish ishlarini mexanizatsiyalashtirish va sanoatlashtirish bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi tahlili.
2. Qurilishni moddiy resurslar bilan ta'minlanishi va ulardan samarali foydalanish tahlili.
3. Qurilish montaj ishlari tannarxi tahlili.

4. Qurilishda moliyaviy natijalar va rentabellik ko'rsatkichlarining tahlili.

1. Qurilish ishlarini mexanizatsiyalashtirish va sanoatlashtirish bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi tahlili

Qurilishda mehnat unumdorligining uzluksiz o'sishi mexanizatsiyalashtirish vositalarini kiritishdan, harakatdagi mashinalar quvvatini oshirishdan, ularning vaqt bo'yicha ishlatilishidan va yig'ma tuzilmalarning qo'llanilishiga bog'liq. Dastlabki baho mexanizatsiyalashtirish darajasi ko'rsatkichi bo'yicha beriladi.

Mexanizatsiyalashtirish darajasi – mashina va mexanizmlar tomonidan bajarilgan ishlar hajmining umumiy ishlar hajmiga nisbati tariqasida aniqlanadi. Tahlilda umumiy ishlar hajmi asosiy turlarining rejadagi va haqiqatdagi mexanizatsiyalashgan darajasi, shu jumladan alohida ishlarning kompleks mexanizatsiyalashtirish darajasi taqqoslanadi. Bunda mexanizatsiyalashtirilgan ishlar darajasi (MID) ham qisman, ham to'liq mexanizatsiyalashgan ishlarni hisobga oladi, kompleks mexanizatsiyalashtirish darajasi (KMD) ko'rsatkichi esa – faqatgina barcha asosiy va yordamchi operatsiyalari mashina va mexanizmlar yordamida bajarilgan ishlarni hisobga oladi. Binobarin, farq $[100 - MID]$ –qo'lda bajarilgan ishlar darajasini tavsiflaydi. Masalan: yer ishlari umumiy hajmi 83 ming m³ . Ulardan 80 ming m³ I ekskavatorlar tomonidan bajarilgan. Bundan yer ishlarining mexanizatsiyalashtirish darajasi quyidagicha: 80000 m³

$$\frac{80000 \times 100}{83000} = 96,5\%$$

Mexanizatsiyalashtirish darajasi tahlili alohida mashina va mexanizmlar mavjudligi hamda qo'llanilishi tahlili bilan to'ldiriladi. Shu maqsadda harakatdagi mashina va mexanizmlarning o'rtacha ro'yxatdagi ko'rsatkichlari, hisobot davrida bitta mashinaga to'g'ri keladigan ish mahsuli aniqlanadi va mashinalar soni va ularning ish mahsulining ishlar hajmiga o'zaro ta'siri o'rganiladi (2.5-jadval).

Alohida mashinalar, mexanizmlar mavjudligi va qo'llanilishi tahlili T/r Ko'rsatkichlar Biznes-reja bo'yicha Hisobot bo'yicha Farq (+,-) 1. Yer ishlari hajmi, m³ 79000 83000 +4000 2. Ekskavatorlarning o'rtacha ro'yxat soni 25 28 +3 3. Bitta ekskavatorga to'g'ri keladigan o'rtacha ish mahsuli (1-qator/2-qator) 3160 2964 -196 1) Mashinalar soni o'zgarishining ta'siri mashinalar sonidagi farqning bitta mashinaga to'g'ri keladigan rejadagi o'rtacha yillik ish mahsuliga ko'paytirish orqali aniqlanadi. 2) Ish mahsulining ta'siri hisobot va

biznes-rejadagi ushbu ko'rsatkich bo'yicha farqni mashinalarning haqiqatdagi o'rtacha ro'yxatdagi soniga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Bundan kelib chiqadiki, yer ishlari biznes-rejasining ortig'i bilan bajarilishiga quyidagilar ta'sir etadi: 1. Ekskavatorlar sonining o'zgarishi: $+3 \times 3160 \text{ m}^3 = +9480 \text{ m}^3$ 2. Bitta ekskavatorga to'g'ri keladigan o'rtacha ish mahsulining o'zgarish: $-196 \text{ m}^3 \times 28 = -5488 \text{ m}^3$ Jami farq: $(+9480) + (-5488) = +4000 \text{ m}^3$ Shunday qilib, qurilish tashkilotining mexanizmlarni qo'llashdagi faoliyatini salbiy baholash lozim, yer ishlari hajmi 4000 m^3 ga ortig'i bilan bajarilgan bo'lsa ham, bu o'sish faqat ekstensiv omil hisobiga, ya'ni ekskavatorlar sonini oshirish natijasida olingan, bitta ekskavatorga to'g'ri 36 keladigan o'rtacha ish mahsulining kamayishi sababli yer ishlari hajmi 5488 m^3 ga kamaydi.

Mashinalar, mexanizmlar, asboblardan, transport bilan ta'minlanganlik qurilishni mexanizatsiyalashtirishga jiddiy ta'sir qiladi. Bu qismda ishlab chiqarish va mehnatning mexanik qurollanganlik, asosiy fondlar tuzilishi, ularning eskirishi, yangilanishi, muomaladan chiqarilishi va shunga o'xshash ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil o'tkaziladi. Qurilish ishlab chiqarishi texnik rivojlanishining asosi uning sanoatlashtirilishidir, ya'ni bloklar, qurilmalar hamda bino va inshootlarning yirik o'lchamli tarkibiy qismlarini keyinchalik qurilish maydonchalarida mexanizatsiyalashtirilgan yig'ilishini ko'zda tutgan holda zavod sharoitlarida tayyorlashdir.

Sanoatlashtirish darajasi qo'llanilgan yig'ma tuzilmalar va qismlar qiymatining moddiy xarajatlar umumiy summasiga bo'lgan foizli nisbati. Qurilish mahsulotining yig'ilish darajasi qanchalik baland bo'lsa, uning sanoatlashtirilish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Sanoatlashtirish mehnat unumdorligini bir necha bor oshirish, qurilish muddatlarini tezlashtirish imkonini beradi, uning sifatini oshirishga va QMI tannarxining pasayishiga olib keladi.

2. Qurilishni moddiy resurslar bilan ta'minlanishi va ulardan samarali foydalanish tahlili

Qurilish tashkilotining ishlab chiqarish dasturini muvaffaqiyatli bajarish sezilarli darajada aniq moddiy-texnika ta'minotiga, ya'ni materiallar, yig'ma tuzilmalar, qismlar va boshqa mehnat vositalari mavjudligi va qo'llanilishiga bog'liq. Qurilishda avvalo ularning obyektga ishga tushirishga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, quyidagi xususiyatlarni ham hisobga olish kerak:

qurilishni materiallar bilan ta'minlashda buyurtmachilar, bosh pudratchilar va subpudratchilarning ishtiroki va majburiyatlari, pudratchilarda eritma, beton, yig'ma temir-beton mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha xususiy bazasi

mavjudligi va h.k. Moddiy-texnika ta'minoti (MTT) bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi va uning qurilish tashkilotining ishlab chiqarish faoliyatiga ta'siri sanoatdagi kabi amalga oshiriladi. Shunday qilib, moddiy resurslardan foydalanish samarasini tavsiflovchi ko'rsatkich QMIning umumiy sermaterialligi bo'lib, u sarf qilingan moddiy resurslar qiymatining qurilish tashkilotining o'z kuchi bilan bajarilayotgan QMI hajmiga nisbati bilan aniqlanadi. Moddiy resurslardan foydalanish samarasini tavsiflash uchun material samarasi ko'rsatkichiga qarama-qarshi bo'lgan material sig'imi ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Moddiy resurslardan foydalanish samarasini tahlil qilish manbalari quyidagilar:

- M-29-sonli shakl "Qurilishda materiallar sarfi to'g'risida hisobot" bo'lib, unda qurilish obyektlari va ishlar turlari, haqiqatda bajarilgan ishlar miqdori, har bir ish turining birligi va umumiyish hajmiga xarajat me'yori sanab o'tiladi;

- 2-S-sonli shakl "QMI tannarxi to'g'risida hisobot"; - 2-sonli shakl "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot". 2.6-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha moddiy resurslardan foydalanish samarasini ko'rib chiqamiz. 2.6-jadval Qurilish tashkilotida moddiy resurslardan foydalanish samarasini tahlili T/r Ko'rsatkichlar O'lchov birligi Biznes-reja bo'yicha Haqiqatda Mutlaq farq (+,-) A B V 1 2 3

1. O'z kuchi bilan bajarilgan QMI hajmi ming so'm 111400 109220 -2180

2. Moddiy xarajatlarning ming so'm 59350 62800 +3450

3. Material sig'imi (2-qator/1-qator) tiyin 53 57 +4

4. Moddiy xarajatlarning bir so'miga bajarilgan QMI hajmi (material samarasi) (1-qator/2-qator) so'm 1,8770 1,7392 0,1378

2.6-jadvalning ma'lumotlaridan ko'rinib turganidek, hisobot yilida o'z kuchi bilan bajarilgan QMI hajmi biznes-rejaga qaraganda 2180 ming so'mga yoki 2,1%ga kamaygan. Bu kamayishga quyidagi ikkita omil ta'sir ko'rsatgan:

1) moddiy xarajatlarning o'zgarishi (ekstensiv omil): $+3450 \times 1,8770 = +6475,6$ ming so'm;

2) material samarasining o'zgarishi: $-0,1378 \times 62800 = -8653,8$ ming so'm, jami farq $(+6475,6) + (-8653,8) = -2178,2$ ming so'm.

Moddiy xarajatlarning o'sishi hisobiga QMI hajmi 6475,6 ming so'mga oshdi, material samarasining kamayishi natijasida ishlar hajmi 8653,8 ming so'mga kamaydi. Bu shuni bildiradiki, QMI hajmi bo'yicha biznes-rejaning bajarilishiga faqatgina ekstensiv yo'l bilan, ya'ni moddiy xarajatlarni oshirish hisobiga erishilmoqda. Shuningdek, jadvaldan ko'rinib turibdiki, qurilish tashkiloti bo'yicha hisobot yilida bajarilgan QMIning bir so'miga moddiy xarajatlarning ortiqcha sarfi 4 tiyinni tashkil qildi.

Materiallarning ortiqcha sarfi natijasida QMI hajmi 4368,8 ming so'mga $(0,04 \times 109220)$ kamaydi. Bu qurilish tashkilotida moddiy xarajatlarni

kamaytirish bo'yicha kurash olib borilmayotganligini bildiradi. Shulardan kelib chiqqan holda, har bir qurilish tashkilotining asosiy vazifasi – bu iqtisod qilish, QMI tannarxini pasaytirish tartibiga qat'iy rioya qilish. Shu bois, inqirozga qarshi choralar dasturining muayyan bo'limlari – belgilangan kompleks chora-tadbirlar majmuasida, ayniqsa, “qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalar raqobatbardoshligini oshirish ko'zda tutilgan. Shu maqsadda yaqinda xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoq va sohalarda mahsulot tannarxini kamida 20 %ga tushirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish” ko'zda tutilgan .

3.Qurilish montaj ishlari tannarxi tahlili

QMI tannarxi deganida, qurilish tashkilotining QMI ni bajarishga va buyurtmachiga obyektlar va ishlar majmuasini topshirishga bo'lgan pul xarajatlari tushuniladi. QMI tannarxi sifat ko'rsatkichi bo'lib, uning pasayishi qurilish dasturi biznes-rejasi bajarilishidagi kabi omillarga bog'liq: ishchi kuchidan, mexanizatsiyalashtirish vositalaridan va qurilish materiallaridan, QMI ni sanoatlashtirish va mexanizatsiyalashtirishdan oqilona foydalanish va h.k. QMI tannarxi to'g'risidagi hisobotda qurilish-montaj ishlari quyidagicha keltiriladi:

- smeta qiymati bo'yicha; Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2009, 34-b. - rejadagi tannarx bo'yicha; - haqiqatdagi tannarx bo'yicha. Smeta qiymatidan yuqori badal va imtiyozlar tartibida qoplanadigan xarajatlar alohida ustunga ajratiladi. Qurilish mahsulotining narxi uning smeta qiymati bo'yicha aniqlanadi. QMI ning smeta qiymati ishchi chizmalar va o'rnatilgan smeta me'yorlari va baholari bo'yicha hisoblangan ishlarni bajarish xarajatlari, shuningdek rejali jamg'armalar summasini o'z ichiga oladi. Smeta qiymati QMI hajmlar va bajarilgan ishlar hisob-kitoblar uchun, shuningdek shartnoma baholarini aniqlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Agar smeta qiymatidan rejali jamg'armalarni ayirib tashlansa, smeta tannarxi yuzaga keladi.

Qurilish tashkilotlari xo'jalik hisobi tamoyillari asosida ish yuritadi. Xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari kabi ular o'z xarajatlarini daromadlari bilan qoplashadi va o'z jamg'armalariga ega. Shu sababli, ishlarning smeta qiymati qurilish ishlab chiqarishi bilan bir qatorda smeta qiymatidan 7,41 % miqdorida rejali jamg'armalarni ham ko'zda tutadi.

Smeta qiymatining qurilish tashkilotida yuzaga kelgan ishlash sharoitlarini hisobga olgan holda aniqlanishini rejali tannarx deb ataladi. U smeta qiymatidan

rejali jamg'armalar va tannarx pasayishidan iqtisod qilingan summaga kamdir. Ayni paytda rejali tannarxga bajarilgan ishlarning smeta qiymatidan ortiq xarajatlari ham kiritilib, ularni buyurtmachi pudratchi qurilish tashkilotiga tovon tariqasida qoplaydi.

Haqiqatdagi tannarx tashkilot tomonidan bajarilgan qurilish va montaj ishlarini ishlab chiqarishiga ketgan barcha xarajatlarning pul shaklini ko'rsatadi. QMI tannarxi tahlilining vazifalari quyidagicha: ishlar tannarxi bo'yicha biznes-reja bajarilishining darajasini aniqlash; ichki imkoniyatlarni aniqlash va qo'llash hamda qurilish tashkilotining ishini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

QMI tannarxi tahlilida foydalanish uchun ma'lumotlar manbai bo'lib biznes-reja, 2-ks-sonli shakl bo'yicha hisobot, qurilishda asosiy materiallar sarfi to'g'risida 29-m-sonli shakl bo'yicha hisobot, buxgalyeriya hisobi ro'yxatlari va boshqalar xizmat qiladi. QMI tannarxini pasaytirish bo'yicha biznes-rejaning bajarilish darajasi barcha ishlar hajmi bo'yicha haqiqatdagi tannarxning rejadagi tannarx bilan ishlarni bajarish xarajatlarining turlari, qismlari va tarkibiyqismlari bo'yicha QMIning bir so'miga bo'lgan xarajatlar darajasi bilan taqqoslanishi orqali o'rnatiladi. Haqiqatdagi xarajatlarni smeta bilan va o'tgan yilning tannarx darajasi bilan solishtirish lozim (2.7-jadval).

QMI tannarxi darajasini tahlili T/r Ishlar turlari Smeta qiymati Rejadagi tannarx Haqiqatdagi tannarx Tovu va imtiyozlar tariqasida qoplanadigan xarajatlar A B 1 2 3 4

1. Qurilish ishlari (metall qurilmalarning o'rnatilishini hisobga olgan holda) 108220 105980 106400 1010

2. Uskunalar o'rnatilishi -----

3. Bino va inshootlarning kapital ta'mirlanishi 1000 970 970 -

4. Jami 109220 106950 107370 1010 2.7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, hisobot yilida barcha ishlar bo'yicha QMIning haqiqatdagi tannarxi rejadagi tannarxdan 420 ming so'mga oshgan (106950-107370). Bu o'sish qurilish ishlarining metall qurilmalarning o'rnatilishini hisobga olgan holda qurilish ishlarining o'sishi sababli yuzaga kelgan. Kapital ta'mir bo'yicha xarajatlar kamaymagan.

Keyingi bosqich QMI tannarxining xarajatlar tarkibiy qismlari va qismlari bo'yicha tahlilidir. "Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi" nizomga ko'ra barcha xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

1. Ishlarning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlar;

v) ishlab chiqarish tavsifidagi qo‘shimcha xarajatlarni o‘z ichiga olgan holda bevosita va bilvosita xarajatlar.

2. QMI tannarxiga kiritilmaydigan, ammo asosiy faoliyat foydasida hisobga olinadigan davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar:

a) sotish xarajatlari;

b) ma‘muriy xarajatlar;

v) boshqa operatsion xarajatlari va zararlari.

3. Qurilish tashkilotining umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararni hisoblashda hisobga olinadigan moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar:

a) foizlar bo‘yicha xarajatlar;

b) xorijiy valuta operatsiyalari bo‘yicha salbiy kurs farqlari;

v) qimmatbaho qog‘ozlarga qo‘yilgan mablag‘larning qayta baholanishi;

g) moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar.

4. Daromad (foyda) solig‘ini to‘lagunga qadar foyda yoki zararni hisoblashda hisobga olinadigan favqulodda zararlari.

QMI tannarxini shakllantiruvchi xarajatlar ularning quyidagi tarkibiy qismlar bo‘yicha iqtisodiy tarkibiga binoan guruhlanadi:

1. Ishlab chiqarish moddiy xarajatlari.

2. Ishlab chiqarish tavsifidagi mehnatga haq to‘lash xarajatlari.

3. Ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug‘urtalashga ajratmalar.

4. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning eskirishi.

5. Ishlab chiqarish yo‘nalishidagi boshqa xarajatlar.

Xarajatlar tarkibiy qismlari va hisob-kitob qismlari bo‘yicha QMI tannarxining, bajarilgan QMIning bir so‘miga bo‘lgan xarajatlar, moddiy xarajatlar tahlili usullari ko‘p jihatdan sanoat korxonasi tahliliga yaqinlashadi.

Misol uchun, materiallar narxi va ularning sarf me‘yori o‘zgarishi tannarxga ta‘sir ko‘rsatishini aniqlash maqsadida tahlil qanday o‘tkazilishini ko‘rib chiqamiz (2.8-jadval). Moddiy xarajatlar tahlili Materiallar O‘lchov birligi Ishlar birligiga xarajatlar Haqiqatdagi me‘yor va rejadagi narxda qiymat, so‘mda, 4us.-6us Umumiy farq, ming so‘mda, 8us.-5us O‘zgarish hisobidan farq me‘yor bo‘yicha haqiqatda miqdori narx, so‘m miqdor narx, so‘m sarf me‘yori, so‘m 9us.-5us. narx, so‘m 8us.-9us. Birlik jami birlik jami 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 12 T emir-beton qurilmalar M 3,5 37000 129500 3,4 40000 136000 125800 +6500 -3700 +10200 2.8-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qurilish tashkilotida 1m³ temir-beton qurilmalari qiymati bo‘yicha +6500 so‘mga ortiqcha xarajatga yo‘l qo‘yilgan. Bunda temir-beton qurilmalarining ish birligiga sarf me‘yorini kamaytirish hisobiga xarajatlar – 3700 so‘mga kamaygan, ammo haqiqatdagi narxning rejadagiga qaraganda ko‘tarilishi xarajatlarning +10200 so‘mga oshishiga olib

keldi. Ikkala omilning yalpi ta'siri 6500 so'm (+10200)+(-3700) farqni keltirib chiqardi

4. Qurilishda moliyaviy natijalar va rentabellik ko'rsatkichlarining tahlili

Foyda pudratchi qurilish tashkilotlari faoliyatining eng muhim iqtisodiy baholash ko'rsatkichi hisoblanadi. Qurilish tashkilotining rejadagi foyda bo'yicha biznes-rejasi quyidagilardan tashkil topadi:

smetada ko'zda tutilgan va smeta qiymatining 7,14 % miqdorini tashkil qilgan reja jamg'armalari summasi; obyektlar va ishlar majmui bo'yicha QMI tannarxining kamayishidan iqtisod. Foydaning haqiqatdagi summasi topshirilayotgan obyekt va ishlar majmuining smeta qiymati bilan ularning haqiqatdagi tannarxi o'rtasida farq sifatida hisoblanadi. Agar qurilishning haqiqatdagi qiymati shartnoma narxi yoki smeta qiymatidan baland bo'lsa, farq qurilish-montaj tashkiloti va uning subpudratchi tashkilotlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarida zarar sifatida ko'rsatiladi.

Qurilishda ishlarni topshirishdan foyda quyidagicha xususiyatlarga ega: obyekt qurilishining butun muddati mobaynida shakllanadi; nafaqat hisobot yili, balki o'tgan yillar ishlarining natijasi hisoblanadi; obyekt bo'yicha shakllanadi, hisob-kitobi esa qurilish tashkiloti bo'yicha umumiyamalga oshiriladi. Qurilish tashkiloti faoliyatining yanada umumlashtiruvchi ko'rsatkichi sof foyda ko'rsatkichidir. Sof foyda hajmi O'zbekiston qurilish tarmog'i bo'yicha agar 2004-yili 20432.9 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yil boshiga kelib uning hajmi 60050.5 mln. so'mga etdi, ya'ni 39617.6 mln. so'mga oshdi yoki uning o'sish sur'ati 294 %ni tashkil etdi. Sof foyda hajmini aniqlash uchun bir qator oraliq foyda ko'rsatkichlarini aniqlab olish zarur. Bunda foydaning oraliq ko'rsatkichlari hisobot davrida qurilish tashkiloti faoliyatining samaraligini tahlil qilish va baholash uchun mustaqil ahamiyatga ega bo'ladi.

“Xarajatlar tarkibi to'g'risida”gi Nizomga ko'ra qurilish tashkiloti faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

1. Topshirilayotgan obyektlar va ishlar majmuidan tushgan yalpi foyda ishlarni bajarishdan tushgan tushum bilan bajarilgan QMI tannarxi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Pudratchi tashkilot uchun buyurtmachiga topshirilgan va u qabul qilgan qurilish va montaj ishlari sotilgan mahsulot hisoblanadi.

2. Ishlarni bajarishdan tushgan yalpi foyda minus davr xarajatlari plus yoki minus asosiy faoliyatning boshqa daromadlari (zararlari) sifatida aniqlanadigan asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasi.

3. Umumxo'jalik faoliyatidan foyda algebraik summa sifatida hisoblanuvchi summa: asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan foyda plus

dividendlar, foizlar ko‘rinishidagi daromadlar plyus yoki minus xorijiy valuta operatsiyalaridan daromadlar (zaralar), plyus yoki minus investitsiyalarni qimmatbaho qog‘ozga qayta baholashdan daromad (zarar) minus foizlarni to‘lash bo‘yicha xarajatlar.

4. Soliq to‘lagunga qadar foyda umumxo‘jalik faoliyatidan foyda va favqulodda foyda va zararlar qoldig‘ining algebraik summasi sifatida aniqlanadi.

5. Soliqlar to‘langanidan keyin qurilish tashkilotining ixtiyorida qoluvchi sof foyda soliq to‘lagunga qadar foydaning daromad (foyda) solig‘i va boshqa soliq hamda to‘lovlardan tashqari summasidir. Qurilish tashkilotining moliyaviy natijalari tahlili usullari sanoat korxonasi uchun ushbu ko‘rsatkichlari tahlilidan kam farq qiladi. Misol uchun, yalpi foydaning o‘zgarishiga ta‘sir qiladigan omillar tahlilining usullarini ko‘rib chiqamiz.

Ma‘lumotlaridan ko‘rinib turganidek, hisobot yilida buyurtmachilarga topshirilgan QMI dan tushgan yalpi foyda o‘tgan yilga qaraganda 1050 ming so‘mga oshgan yoki uning o‘sish sur‘ati 161,1 %ni tashkil etdi. Bu o‘shishga quyidagi omillar ta‘sir ko‘rsatdi: Qurilish tashkiloti yalpi foydasining o‘zgarishiga ta‘sir etadigan omillar tahlili (ming so‘mda) T/r Ko‘rsatkichlar Shaklda-gi qator soni O‘tgan davr hisoboti bo‘yicha Asos (baza) narxlarda va tannarxda bajarilgan ishlarning haqiqatdagi hajmi Hisobot yilida bajarilgan ishlarning haqiqatdagi hajmi A B V 1 2 3 1. Bajarilgan va buyurtmachiga topshirilgan ishlar hajmi 010 2-sh. 1 06700 108250 109220 2. Bajarilgan ishlarning ishlab chiqarish tannarxi 020 2-sh. 104980 105225 106450 3. Ishlarni sotishdan tushgan yalpi foyda 030 2-sh. 1720 3025 2770

1. Ishlarni bajarishdan tushgan tushum ko‘rsatkichi orqali namoyon bo‘luvchi smeta yoki shartnoma narxining o‘zgarishi. Joriy va asos (baza) narxlarda haqiqatdagi bajarilishni solishtirib, bu omilning yalpi foydaga ta‘sirini topamiz: yalpi foydaning $109220 - 108250 = +970$ ming so‘mga yoki 92,4 %ga ($970 \times 100 : 1050$) o‘shishi sotish narxlarini ko‘tarish hisobiga olingan.

2. Bajarilgan va buyurtmachiga topshirilgan qurilish ishlari tannarxining o‘zgarishi: $106450 - 105225 = +1225$ ming so‘m. Ishlar tannarxining qimmatlashishi oqibatida yalpi foyda 1225 ming so‘mga yoki 16,6 %ga ($1225 \times 100 : 1050$) kamaygan.

3. Ishlarni bajarishdan tushgan tushumning o‘zgarishi. Buyurtmachiga topshirilgan ishlardan tushgan tushum hajmining ta‘sirini aniqlash uchun, bu hajm nisbatan qanchalik o‘zgarganini aniqlaymiz. Buning uchun 2.8-jadval ma‘lumotlari bo‘yicha quyidagicha hisob-kitob qilamiz:

$$A) 108250 \cdot 100 : 106700 = 101,45\%$$

B) $1,45 \cdot 1720 : 100 = 25$ ming so‘m Ishlarni bajarishdan tushgan tushumning ko‘payishi natijasida yalpi foyda 25 ming so‘mga yoki 2,4 %ga ortdi ($25 \cdot 100 : 1050$).

4. Bajarilgan QMI tuzilishi o‘zgarishi. Bajarilgan qurilish ishlari turli xillari turlicha rentabellik darajasiga ega ekanligi bois, ishlar tarkibining o‘zgarishi natijasida qo‘shimcha foyda yoki zarar olish mumkin. Sanoatdagi kabi bu omilning ta’siri ikkita yo‘l bilan aniqlanadi: balans hisobi yo‘li bilan, ya’ni yalpi foydaning umumiy farqidan ilgari hisoblangan farq omillari olib tashlanadi va yalpi foyda miqdoriga ishlar tarkibining o‘zgarishi aniqlanadi: $(+1050) - (970 - 1225 + 25) = +1280$ ming so‘m.

Omillar muvozanati: $(970 - 1225 + 25 + 1280) = +1050$ ming so‘m. Bunda ta’kidlab o‘tish lozimki, ilgari hisoblangan omillar to‘g‘ri bo‘lgan holatdagina hisob-kitob to‘g‘ri qilingan bo‘ladi. Shuning uchun amaliyotda ikkinchi usul qo‘llanilib, unda ishlar tuzilishi o‘zgarishining ta’siri quyidagicha tartibda aniqlanadi: ishlarni bajarishdan tushgan tushumning va bajarilgan ishlar tannarxining o‘shish sur‘atlaridagi farq olinib o‘tgan yilgi hisobot bo‘yicha ishlab chiqarish tannarxi summasiga ko‘paytirilib 100 ga bo‘linadi.

a) ishlarni bajarishdan tushgan tushumning o‘shish sur‘atlari:

$$108250 \cdot 100 : 106700 = 101,45 \%$$

b) bajarilgan ishlar tannarxining o‘shish sur‘atlari:

$$105225 \cdot 100 : 104980 = 100,23 \%$$

v) o‘shish sur‘atlaridagi farq: $101,45 - 100,23 = +1,22 \%$;

g) $+1,22 \cdot 104980 : 100 = +1280,7$ ming so‘m.

Omillar balansi: $[970 - 1225 + 25 + 1280,7] = +1050,7$ ming so‘m.

Shunday qilib, tuzilishdagi o‘zgarishlar hisobiga qurilish tashkilotining yalpi foydasi 1280,7 ming so‘mga ko‘paydi. Bu shuni ko‘rsatadiki, bajarilgan qurilish ishlari tuzilishida yanada “foydaliroq” ishlar ulushi ortgan.

Hisob-kitoblar natijalarini umumlashtiramiz. Ishlarni bajarishdan tushgan yalpi foyda o‘tgan yilga qaraganda quyidagi omillar ta’siri ostida o‘zgargan:

- sotish narxlarining o‘shishi +970 ming so‘m;
- tannarxning qimmatlashishi –1225 ming so‘m;
- tushumning ko‘payishi +25 ming so‘m;
- ishlar tuzilishining o‘zgarishi +1280,7 ming so‘m.

Farqlar summasi: +1050,7 ming so‘m.

Shunday qilib, biz aniq misolda qurilish tashkilotining ishlarni bajarishdan tushgan yalpi foydasi o‘zgarishiga ta’sir qiladigan omillarni tahlil qilish usulini ko‘rib chiqdik. Keyinchalik moliyaviy axborotdan foydalanuvchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda usullar takomillashtirilib borilishi lozim.

Asosiy ishlab chiqarishdan, umumxo'jalik faoliyatidan, soliq to'langunga qadar hamda sof foydaning omilli tahlil usullari sanoat korxonasi uchun ko'rsatkichlari tahlilidan kam farq qiladi.

Rentabellik ko'rsatkichlari tahlili

Rentabellik – umuman xalq xo'jaligi tarmoqlarida samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri. Qurilish ishlab chiqarishi samaradorligining mutlaq qiymatini ko'rsatuvchi foyda ko'rsatkichidan farqli o'laroq, rentabellik uning nisbiy qiymatini ko'rsatadi. Masalan, soliq to'lagunga qadar foydaning bajarilgan qurilish ishlarining ishlab chiqarish tannarxiga nisbatan aniqlanadigan rentabellik darajasi O'zbekiston qurilish tarmog'i bo'yicha 2009-yil 21.4 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yil boshiga kelib 21.8 %ga teng bo'ldi

Shu bois rentabellik darajasining va uning o'zgarish sabablari tahlili qurilish tashkilotlari ishining samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Qurilish tashkilotlarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda mablag'lardan foydalanishning turli darajadagi samarasini tavsiflovchi turli rentabellik ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi.

Qurilishda quyidagi rentabellik ko'rsatkichlarini qo'llash tavsiya etiladi: umumiy aktivlar (mulk) rentabelligi; xususiy kapital rentabelligi; asosiy kapital rentabelligi; doimiy kapital rentabelligi; qarzga olingan kapital rentabelligi; real asosiy kapital rentabelligi va h.k. Qurilish tashkiloti rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblash usullari sanoat korxonasi uchun ko'rsatkichlari tahlilidan kam farq qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qurilishda mehnat unumdorligining oshirish yo'llarini ayting.
2. Qurilish sohasida ishlab chiqarish dasturi nimani anglatadi?
3. Qurilish montaj ishlarini izohlab bering.
4. Qurilishda rentabellik deganda nimani tushunasiz?

5-mavzu. Iqtisodiyotni rivojlantirishda kommunikatsiya majmui

Reja:

1. Iqtisodiyotda kommunikatsiya va uning ta'siri.
2. Rivojlantirishda boshqaruv texnikasi va uning turlari
3. Iqtisodiyotni rivojlantirishda ахборотлар тизими

1. Iqtisodiyotda kommunikatsiya va uning ta'siri.

Kommunikatsiya - bu axborotlar almashinuvi bo'lib, uning asosida rahbar o'ziga kerakli bo'lgan axborotlarni olib, qaror qabul qilgach, ularni ijrochi yoki ishlab chiqaruvchilarga yo'naltiradi. Kommunikatsiya murakkab jarayon bo'lib,

o'zaro bog'liq ishlardan iborat. Boshqaruv pog'onalarida axborot almashinuvi eng murakkab muammolardandir.

Axborotlar bilan almashuv jarayonida quyidagi 4 ta elementlarni ajratib olish mumkin:

Jo'natuvchi - hamma g'oyalarni jamlovchi yoki axborotlarni yig'ib, ularni uzatib boruvchi shaxs.

Xabar - axborotlarning o'zi.

Kanal - axborotlarni uzatish vositasi.

Oluvchi - axborotlarni qabul qiluvchi va o'zgartiruvchi shaxs.

Axborot almashuv jarayonida jo'natuvchi va oluvchi o'zaro bog'liq bir necha bosqichlarni bosib o'tishlari kerak. Ularning vazifasi xabarni tuzish va kanallarni tanlash hisoblanadi. Bunda har ikkala tomon boshlang'ich g'oyani bilishlari, tushunishlari kerak. Bu juda murakkab, chunki, xar bir nuqtada axborotlar mazmuni o'zgarib yoki butunlay yo'qolishi mumkin.

Amalda boshqaruvchi tizim boshqariluvchi ob'ektlardan ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy - huquqiy, texnik - texnologik ko'rsatkichlarga oid axborotlarni olib turadi. Zarurat tug'ilganda olingan axborotlar asosida boshqaruvchi tizim tomonidan ob'ekt uchun zaruriy buyruqlar tayyorlanadi va uni bajarish uchun ob'ektga uzatiladi.

Murakkab va ko'p qirrali korxonalarda menejment katta hajmdagi birlamchi axborotlarni ko'rib chiqishni talab qiladi. Ularga quyidagilar kiradi: statistik, operativ -hisobot, reja-iqtisodiy, buxgalterlik, moliyaviy, moddiy-texnika ta'minoti, kapital qurilish, texnologik, konstruktorlik va boshqalar.

Axborot boshqaruv jarayonining asosidir, boshqaruvchining mehnati uni taxlil qilish va qayta ishlashdan iborat. Hozirgi jamiyatni "axborot jamiyati", deb ham atash mumkin fikr ham to'g'ri. Boshqaruv muammolaridan yiroq bo'lgan kishilar, hatto kichik firmaning ma'muriyati nihoyatda katta hajmli axborot bilan ishlashi lozimligini tasavvur qilolmaydi. Masalan, 200-300 xodim ishlayotgan o'rta me'yordagi tijorat tashkilotidagi rasmiy va norasmiy axborot oqimini qayta ishlashini hisobga oladigan bo'lsak, unda juda katta raqamlar yuzaga keladi.

Korxonada boshqaruvida ishlab chiqarish muvaffaqiyatli kechishi uchun moddiy, mehnat, xom-ashyo, moliya resurslari qatorida axborot resurslari birlamchi ahamiyatga ega. Ilmiy - texnik axborot yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish vositalarining asosi bo'lib xizmat qiladi.

2. Rivojlantirishda boshqaruv texnikasi va uning turlari

Boshqaruv texnikasi bu - aqliy mehnat texnikasi, boshqaruv tizimida axborotni qayta ishlash vositasi.

Texnika vositalari qanchalik takomillashgan bo'lsa, boshqaruv texnologiyasi, boshqaruv mehnatini tashkil etish va butun boshqaruv jarayoni shunchalik samarali bo'ladi. Hisob - kitoblarga asosan mamlakat iqtisodiyotini

maqbul boshqarish uchun yil davomida 1000 ta elementlar, arifmetik operatsiya bajarilishi zarur bo'lsa, boshqaruv apparati xodimlari 10foizni bajarish qobiliyatiga ega ekanlar. Bu muammoni muvaffaqiyatli hal etish uchun boshqaruv mehnatini takomillashtirish, axborot to'plash va qayta ishlashni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish zarur. Boshqaruv texnikasini faqat hisoblash mashinalari bilangina bog'lash noto'g'ridir. Dastlabki texnika vositalari 100 yil oldin paydo bo'lgan ruchka, chizg'ichdan tortib EHM va kompyutergacha bo'lgan texnika vositalarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin: tashkiliy texnika va hisoblash mashinalari.

Tashkiliy texnika vositalariga juda turli - tuman uskuna va qurollar (oddiy qurol va vosita, axborot olish va qayta ishlash, ko'chirish, ko'paytirish, aloqa vositalari va axborot uzatish, xizmat ko'rsatish, xizmat xonalari uskunolari) kiradi. Boshqaruv mehnati turli oddiy qurol va uskunalaridan (qalam, ruchka, idora daftarlari, jadval, grafik va boshqalar) foydalanishga asoslanadi. Hisoblash mashinalariga kompyuterlarni kiritish mumkin. Hozirgi vaqtda ularning imkoniyati juda kengayib bormoqda.

3. Iqtisodiyotni rivojlantirishda axborotlar tizimi

Korxonada menejment uchun zarur bo'lgan barcha turdagi axborotlar majmui axborot tizimini vujudga keltiradi. Axborot tizimlari boshqarishning har qanday bosqichida bir butun bo'lib faoliyat ko'rsatadi. Ammo ular o'zining vazifasi va tarkibi bilan har xildir. Misol uchun, menejment tizimi korxonada faoliyati ko'lami, texnik darajasi va soha turiga qarab har xil bo'lishi mumkin. Hozirgi zamon taraqqiyotida korxonalarni axborotlar bilan ta'minlash katta ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Ishlab chiqarish jarayonida mahsulot hajmini rejalashtirishda axborotlar juda zarur. Bunda qaror qabul qilinishida, yangi ilmiy bilimlarga, ya'ni ixtirolarni o'z ichiga olgan ilmiy-texnik axborotlar olinadi. Muntazam ravishda o'z vaqtida axborotlardan foydalanish firmani raqobatbardoshligini oshiradi. Hisobotlar tayyorlash va boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishning asosini axborotlar tashkil etadi.

Hozirgi zamon sharoitida yuqori samarali korxonalarda axborotlardan keng foydalanish, ularning taraqqiyoti uchun juda muhim ahamiyatga egadir. Ularni qo'llash zamonaviy texnik vositalar, matn va raqamli axborotlarni avtomatlashtirilgan qayta ishlashga, korxonaning ichki axborotlari aloqalar tizimiga birlashtirish asosida tashkil etilgandir.

Korxonalarda boshqaruv axborotlar tizimi bu - turli jarayonlari birligidan iborat-dir. Axborotlar tizimi axborotlarni qayta ishlash, ichki va tashqi axborotlarni uzatish kanallaridan tashkil topadi.

Boshqaruv axborotlar tizimi birin-ketin ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun texnik vositalar yordamida axborotlarni yig'ish, to'plash va ularni qayta ishlash uchun tahliliy usullar, matematik, statistika va istiqbolini aniqlash usullarini qo'llash bilan birga olib borishga mo'ljallangan.

Axborotlar tizimining samaradorligini oshirish yo'llari ularni to'g'ridan-to'g'ri bir-biri bilan kelishilgan holda ko'rish, axborotlarning qaytarilmasligi, ularni ko'p marotaba ishlatish, birlashtirish ko'rsatkichlarini cheklash, axborotlar oqimini qisqartirishdan iboratdir.

Axborotlardan boshqaruv jarayonida quyidagi masalalarni yechish uchun keng foydalaniladi:

- qarorlar qabul qilish;
- ma'muriy - tashkiliy ishlar;
- ilmiy tadqiqot ishlari;
- ishlab chiqarish tadbirlarini amalga oshirish uchun.

Axborotlarning avtomatlashtirilgan tizimlaridan foydalanish ishlab chiqarish sama-radorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Axboroti juda xilma-xil bo'lib, ular quyidagicha tavsiflanadi:

- ob'ekt faoliyatini boshqarishga bevosita aloqador bo'ladi;
- boshqariladigan ob'ektning o'ziga xos alohida xususiyatlarini, uning ichki va tashqi tavsiflarini aks ettiradi;
- ob'ekt faoliyati davomida sodir bo'ladigan voqealarni va jarayonlarni tavsiflaydi.

O'nlab, ba'zida yuzlab mijozlar, tovarlarning keng assortimenti, mijozlar bilan hisob-kitob qilish, maosh hisob-kitoblari, qiymat va natura ifodasidagi tovarlarning omborxonadagi harakatini hisoblash, marketing, ya'ni bozorni tadqiq qilish, reklama, raqobatchilarini hatti-harakati, o'zgaruvchan qonunlar, soliq qoidalari, bojxona ta'riflari va shu kabi axborotlarni firma ma'muriyati bir yilda milliondan ortig'ini qayta ishlaydi. Bozorning doimo o'zgaruvchanligi ma'muriyat e'tiborining tezkorligini talab qiladi, agar o'zgarish haqidagi axborot kechiksa yoki asta-sekin qayta ishlansa ularning natijasi firma faoliyatiga juda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 90-yillar boshida AQSH dagi 60 foiz ishchi joylar axborotni qayta ishlash xizmatiga bog'liq bo'lgan va bunga milliy yalpi daromadning 70foizi sarflangan edi AQSH, Yaponiya va Yevropaning yirik firma va kompaniyalari shu xarajatni sarflaydilar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Kommunikatsiya qahday jarayon?
2. Iqtisodiyotni intensiv rivojlantirish deganda nimani tushunasiz?
3. Iqtisodiyotni rivojlantirishda axborotning muhimligini izohlang.
4. Boshqaruv axborot tizimi nima?

6-mavzu. Iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiy o'sish

Reja:

1. Iqtisodiy o'sish turlari va ularni rivojlantirish mohiyati
2. Intensivlashtirishning asosiy omillari va ko'rsatkichlari
3. Iqtisodiy samaradorlik va uning ko'rsatkichlari
4. Tarmoq ishlab chiqarishining rentabelligi va foyda me'yori

1. Iqtisodiy o'sish turlari va ularni rivojlantirish mohiyati

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rivojlanishi kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarish qonuni asosida amalga oshadi. Bu rivojlanishga estensiv rivojlantirish va intensiv rivojlantirish yo'llaridan foydalangan holda erishiladi.

Qishloq xo'jaligini ekstensiv shaklda rivojlantirish deganda mahsulot ishlab chiqarish va samaradorlikni o'sishini miqdoriy omillar evaziga - yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga ekin maydonlarini ko'paytirish, chorva mollarini boshini ko'paytirish va qo'shimcha ishlovchilarni jalb etish orqali erishilishi tushuniladi. Bunda ishlab chiqarish resurslari ko'lamlarining ortishi yuz bergani holda texnika texnologiyasi, sifat darajasi, yer unumdorligi va chorva mollar mahsuldorligi tubdan o'zgarmaydi.

Ekstensiv omillar dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ko'plab ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlar o'z tarixining dastlabki davrlardan boshlab, o'zlari o'zlashtirgan yerlarni tark etib unumdor yerlarni qidirish uchun yer sharining har tomoniga tarqalganlar. Yangi yerlarni o'zlashtirish hozirgi davrda bizning mamlakatimizdagi kabi dunyoning boshqa mamlakatlarida ham davom etmokda. Shu bilan birgalikda dunyo mamlakatlarining rivojlanish tarixi tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligini yuksaltirishni nisbatan samaradorlik va ahamiyatliroq shakli bo'lgan intensivlashtirish muhim o'rin tutadi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning intensiv shaklida- mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi sifat omillari evaziga, ya'ni ishlab chiqarishga nisbatan takomillashgan zamonaviy ishlab chiqarish resurslarini tadbiiq etish (ulardan to'la va samarali foydalanish), dehqonchilik va chorvachilikning mahsuldorligiga ijobiy ta'sir etuvchi ilg'or texnologiya, ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalari, ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali amalga oshiriladi. Shuni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerakki, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning ekstensiv shakli ba'zi hollarda samarali bo'lishi mumkin, shunga muvofiq har doim ekstensiv shaklni samarasiz deb ta'kidlash fikri o'zini oqlamaydi.

Amalda bu ikki yo'l ishlab chiqarishni rivojlanishida bir-birini to'ldirib, piravorida umumiy iqtisodiy samardorlikni ortishiga olib keladi. Shu sababli qishloq xo'jaligida ayrim holatlarda ekstensiv o'sish omillari va intensiv o'sish omillarini birgalikda qo'llash natijasida samaraga erishiladi. Ular yagona xo'jalik faoliyatiga xos usullar bo'lib, bir vaqtning o'zida iqtisodiy o'sishda ham miqdoriy (ekstensiv), ham sifati (intensiv) jihatlari mavjud bo'ladi, ammo ularning nisbati har xil mutanosiblikda bo'ladi. Iqtisodiyotda qo'l mehnati texnologiyasi va malakasiz ish kuchiga asoslanilsa, ekstensiv o'sish ustun turadi. Aksincha, ishlab chiqarish mashinalashgan, serunum texnologiya va yuksak malakali ish kuchiga tayanilgan joyda intensiv o'sish birinchi o'rinda turadi, ishlab chiqarish rivojlangan sari qonuniyatli tarzda intensiv o'sishning ahamiyati barqaror oshib boradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish nazariyasi avvalo yer xususiyatini hisobga olish, uni qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi ekaniga asoslanadi. Ma'lumki yerni asosiy vosita sifatida muhim xususiyatlaridan biri uni chegaralanganligidir. Yerni chegaralanganligi o'z navbatida qishloq xo'jaligini intensivlashtirishni taqozo etadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishni qo'shimcha yer maydonlarini o'zlashtirish orqali amalga oshirish chegaralanganligi ishlab chiqarish oldiga mavjud o'zlashtirilgan yerlarni sifatini yaxshilash, binobarin, ulardan intensiv foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

2. Intensivlashtirishning asosiy omillari va ko'rsatkichlari

Qishloq xo'jaligi intensivlashtirish - ko'p jihatli jarayon bo'lib, hozirgi sharoitda ishlab chiqarishni intensivlashtirishda quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

1). Iqtisodiy munosabatlarni tubdan qayta qurish. Qishloq xo'jaligini yuksaltirishni birlamchi masalalaridan biri qishloqda iqtisodiy munosabatlarni o'zgartirish, dehqonlarga kam xarajatlar sarflagan holda ko'plab sifatli mahsulot yetishtirishga intilish hissiyotiga ega bo'lgan yerning haqiqiy egalik huquqini qaytarish. Qishloqda iqtisodiy qayta qurishning asosida - dehqonlarga mustaqil harakat etish, tadbirkorlik va tashabbuskorlikni amalga oshirishga zamin yarata oladigan xo'jalik yuritishning turli mulkchilikka va shakliga asoslangan muhitni yaratish.

2). Yetishtirilgan mahsulotlarni asrash, uni nobudgarchiligini oldini olish. Qishloq xo'jaligini mavsumiylik xususiyatiga mutanosib holda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish. Qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning turli mulkchilik shakllarini keng rivojlantirish orqali ishlab chiqarishda saqlash, qayta ishlash shaxobchalarini yaratish. Mahsulotlarni nobudgarchiligini oldini olish bilan bir qatorda ularni tashish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish.

3). Qishloq xo'jaligini kimyolashtirish. Ishlab chiqarishni kimyolashtirish asosida yerning unumdorligini oshirish orqali dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirishga qaratilgan tadbirlar yotadi:

a) Qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirishga qaratilgan mineral o'g'itlarni qo'llash tadbirlari;

b). Kimyoviy vositalardan begona o'tlarga qarshi kurashish tadbirlari;

v). O'simlik va chorva mollarining zararkunanda hashoratlari va kasalliklariga qarshi kurashishda kimyoviy vositalardan foydalanish tadbirlari;

g). Chorva mollari ozukasini to'yimlilikini oshirishda kimyoviy mahsulotlarni keng ko'lamda qo'llashga qaratilgan tadbirlar;

d) Qishloq xo'jaligi chorva mollarining mahsuldorligini oshirishda qo'shimchalardan foydalanish.

4). Qishloq xo'jaligini melioratsiyalash - sug'orish, zax qochirish, yerni ohaklash, sho'rni yuvish tadbirlarini o'z vaqtida, sifatli amalga oshirish tadbirlari;

5). Resurs talabchanligi kam bo'lgan intensiv texnologiyalarni qo'llash. Dehqonchilikda mavjud texnologiyalarni takomillashtirish muhim bo'lib, ularning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

a). Ilmiy asoslangan o'g'it me'yorlarini qo'llash orqali qishloq xo'jaligi ekinlarining ozuqa talabchanligini optimallashtirish;

b). Qishloq xo'jalik ekinlarini intensiv navlarini ishlab chiqarishga tadqiq etish;

v). Yerdan va boshqa asosiy vositalardan samarali foydalanishni ko'zda tutgan o'simliklarni joylashtirishning ratsional usullarini ishlab chiqish;

g). Qishloq xo'jalik mashinalarini takomillashtirish orqali agrotexnika tadbirlarini amalga oshirishni qisqartirish va qo'shib olib borish;

d). Mahsulotlarni yig'ish, ortish va tashishdagi tadbirlarni takomillashtirish.

6). Chorva mollarining tarkibi sifatini va ularning ozuqa bazasini yaxshilash. Chorvachilikni intevsivlashtirishning muhim omili poda harakati va sifatini yaxshilash hisoblanadi. Bunga yuqori mahsuldor mollar nasllarini yaratish bilan bog'liq tadbirlar kiradi. Chorvachilikni rivojlanishida uning mustahkam ozuqa bazasini yaratish muhim bo'lib, ozuqa tarkibi, ko'lami va uning sifatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar;

7). Ishlab chiqarishni joylashtirish va ixtisoslashtirishni takomillashtirish. Fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida qishloq xo'jalik ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishi va ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi tinimsiz yuksala boradi. Shu bilan birga iqtisodiy asoslangan qishloq xo'jalik korxonalarining optimal o'lchamlari, ularni mehnatga muvofiq ixtisoslashuviga, dehqonchilik va chorvachilik madaniyatini ko'tarishga, fan-texnika yutuqlarini amaliyotga tadbiiq etilishiga zamin yaratilib, natijada mahsulot yetishtirishni samaradorligini oshirishga erishiladi.

8). Mutaxasislarning malakasini oshirish. Qishloq xo'jaligiga fan yutuqlarni tadbiiq etishda kadrlarni mutaxassislik saviyasini va texnik tayyorgarlik darajasini oshirmay turib erishish mumkin emas. Qishloq xo'jaligida mutaxasislarni malakasini oshirish birinchidan, mutaxassislarga murakkab va ilgari amalga oshira olmagan ishlarni bajarish uchun ularni malakasini oshirish va qo'shimcha kasblarni egallashiga zamin yaratish, ikkinchidan nisbatan yuqori sifatga ega bo'lgan mahsulot olish, uchinchidan ma'lum bir vaqt oralig'i davomida avvaldagidan ko'proq mahsulot ko'lamini yetishtirish yoki xizmatlar hajmini bajarishga imkon yaratish;

9). Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlari va ilg'orlar tajribasini tadbiiq etish. Hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligini intevsivlashtirish sur'atlarini oshirish va uning samaradorligini ko'tarishda fan yutuqlari natijalarini tadbiiqisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Fan-texnika sohalaridagi yutuqlar ishlab chiqarish kuchlarini yanada yuksaltiruvchi muhim omil bo'lib, ishlab chiqarish resurslari qatorida ishlab chiqarish jarayonlarida ishtiroq etadi. Qishloq xo'jaligini intevsivlashtirishda amaliyotda mavjud bo'lgan ilg'or tajribalar natijasini tahlil qilish va ularni ishlab chiqarishga keng tadbiiq qilinishi katta ahamiyat kasb etib,

mahsulot ko'lamini ko'payishiga va ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Iqtisodiy samaradorlik va uning ko'rsatkichlari

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda obe'ktiv iqtisodiy qonunlarni moddiy ishlab chiqarishning shu tarmog'ida o'z ko'rinish shakllarini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya etiladi. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tizimining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqarish resurslar samaradorligini umumlashgan holda aks ettirishdan, uning mezonini mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblash usullaridan foydalanishni taqozo etadi.

Ishlab chiqarish samaradorligini baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimiga asoslash, turli xarakterda iqtisodiy samarani o'lchash hamda turli xarakterdagi resurslar va xarajatlarni o'lchash sifatida ham zarurdir. Ular o'zining iqtisodiy tabiati bilan ham va har doim ham taqqoslab bo'lmasligi bilan ham farq qiladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari xususiy va umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Xususiy ko'rsatkichlarga, mahsulot hajmi va mahsulot sifati, mehnat unumdorligi, yer qaytimi, fond qaytimi, material qaytimi, mahsulot tannarxi va shularga teskari ko'rsatkichlar kiradi. Bu ko'rsatkichlar natija sifatida, sanoatning xom-ashyoga, aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini ancha to'laroq qondirishga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining maqsadini ancha to'laroq aks ettiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, umumiy samara faqat ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori bilan emas, balki qo'yilgan maqsadga bog'liq holda, boshqa hajm ko'rsatkichlarga ham ega. Masalan: yalpi mahsulot ishlab chiqarish samarasini bosh vazifa-iste'mol qiymat yaratish nuqtai nazardan; tovar mahsulot-qishloq xo'jalik mahsulotlariga ijtimoiy ehtiyojni qondirish nuqtai nazaridan; sof mahsulot (yalpi daromad) - takror ishlab chiqarishning ikki tomoni - iste'mol va jamg'arish - birligida ishlab chiqarish samaradorligini hisoblash uchun; foyda va sof daromad - ishlab chiqarish samaradorligini ishlab chiqaruvchilarning iste'mol qiymatga bo'lgan manfaatini qondirish nuqtai - nazaridan xarakterlanadi.

Shu bilan birga, kishilarning iste'molini qondirish darajasi ishlab chiqarilgan mahsulotning faqat miqdoriga emas, balki sifatiga ham bog'liq. Mahsulot sifatini yaxshilash bir tomondan oziq-ovqat mahsulotlari miqdorining ko'payganligini bildirsa, yengil sanoat uchun qishloq xo'jalik xom-ashyosining sifatining yaxshilanishi aholining keng iste'mol buyumlariga bo'lgan talabini to'laroq qondirishga imkoniyat yaratadi.

Mehnat unumdorligi yoki mehnat qaytimi ma'lum vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga sarflangan jami mehnat xarajatlarining samaradorligini xarakterlaydi.

Er qaytimi qishloq xo'jaligida bosh ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yer resurslaridan foydalanish samaradorligini aks ettiradi.

Fond qaytimi qishloq xo'jaligiga taalluqli asosiy ishlab chiqarish vositalarida mujassamlashgan, buyumlashgan mehnat xarajatlaridan qay darajada samarali foydalanayotganligini ko'rsatadi.

Material qaytimi barcha turdagi moddiy resurslardan, shu jumladan buyumlashgan mehnat xarajatlaridan foydalanish samaradorligini aks ettiradi. Mahsulot birligi tannarxi umumlashgan holatda jami iste'mol qilingan ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini xarakterlaydi, qishloq xo'jaligi mahsuloti qanday darajadagi xarajatlar hisobiga ishlab chiqarilganligini ko'rsatadi.

Alohida resurslar va xarajatlardan foydalanishni tavsiflaydigan bu ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi absolyut samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridir. Masalan: asosiy fond qaytimida, alohida traktor, kombayn, mahsuldor hayvonlar va boshqalar; aylanma fond qaytimida, alohida urug'dan foydalanish, yem-xashak, yoqilg'i-moylash materiallaridan foydalanish bo'yicha ham o'rganiladi. Demak, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bir tomondan ishlab chiqarish resurslari va samara (natija) o'rtasidagi nisbatni va boshqa tomondan, joriy ishlab chiqarish xarajatlari bilan samara o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi, bu ishlab chiqarish samaradorligining ikkita konsepsiyasini - resurs va xarajatni - vujudga keltiradi.

Resurs konsepsiyasi - takror ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilgan ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini, xarajatlar konsepsiyasi - shu resurslarning iste'mol qilingan qismi samaradorligini baholashga imkon beradi. Maqsadga qarab resurs yoki xarajatlar konsepsiyasi yoki ikkovidan ham bir vaqtda foydalanish mumkin.

Qabul qilingan samaradorlikning konsepsiyalariga mos ravishda ko'rsatkichlari ham aniqlanadi:

1 ta xodimga, 1 kishi/soatiga, 1 ga qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerga, 100 so'mlik asosiy vositaga, 100 so'mlik aylanma vositalarga to'g'ri kelgan samara qo'llanilgan resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi. 100 so'm ish haqiga, amortizatsiya ajratmasiga, moddiy aylanma vositalarga hamda mahsulot tannarxiga to'g'ri kelgan mahsulot tannarxga kiritilgan barcha bevosita va bilvosita xarajatlari samaradorligini ifodalaydi.

Keltirilgan xususiy ko'rsatkichlar, ma'lumki umumiy samara (natijani)ni alohida ishlab chiqarish resurslari xarajat turi miqdoriga nisbatini aniqlaydi. Lekin ishlab chiqarish jarayonida umumiy samara (natija)ning vujudga kelishida alohida resurs(xarajat)lar qatnashadi. Demak, har bir resurs (xarajat) umumiy samara (natija)ning vujudga kelishida ishtiroq etadi. Bu uslubiy jihatdan ma'lum darajada xato bo'lsa ham, umumiy samara ana shu ishlab chiqarish resurslarining birgalikdagi faoliyatining natijasidir. Shuning uchun ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini har tomonlama va aniq baholash uchun, alohida usulda hisoblanadigan ko'rsatkichlarni, har bir ishlab chiqarish resursining umumiy samarani yaratishdagi rolini va ularning

ishlab chiqarish pirovard natijasiga ta'sirini hisobga oladigan ko'rsatkichlar bilan to'ldirish lozim. Buning uchun elastiklik, determinatsiya koeffitsientlaridan, shuningdek, iqtisodiy-matematik modellashtirish uslubidan foydalanish kerak bo'ladi.

Hisoblash har qancha murakkab bo'lsa ham, bir umumlashtiruvchi shunday ko'rsatkich kerakki, u qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini miqdoriy jihatdan to'liq baholaydigan bo'lishi kerak. Bu vazifani bajarish uchun umumlashtiruvchi ko'rsatkich ma'lum bir quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy qonunlaridan kelib chiqishi kerak;
2. Ishlab chiqarishning pirovard natijasini jami resurslar yoki jami xarajatlar bilan taqqoslashni ta'minlaydigan ko'p omilli bo'lishi kerak;
3. Bu ko'rsatkich samaradorlikni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning turli darajalarida, qishloq xo'jaligi korxonalaridan boshlab bir butun qishloq xo'jaligi bo'yicha ochib berishi kerak;
4. Bu ko'rsatkich bilan hisoblash metodik nuqtai nazaridan oddiy va qulay bo'lishi kerak.

Yuqorida bayon qilingan, ishlab chiqarish samara (natija)si va ishlab chiqarish resurs (xarajat)lari to'g'risidagi asosiy metodologik sharoitlarga mos, shuningdek qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligining umumlashtiruvchi ko'rsatkichga bo'lgan talabini hisobga oladigan ko'rsatkich resurs qaytimi (resurs sig'imi) hisoblanadi. U qo'llanilgan resurslar saloxiyatidan foydalanishning samaradorligini xarakterlaydi.

4. Tarmoq ishlab chiqarishining rentabelligi va foyda me'yori

Xarajatlar konsepsiyasining samaradorligini umumlashtiruvchi ko'rsatkichi - rentabellik hisoblanadi va iste'mol qilingan resurslarning qaytimini ifodalaydi.

Rentabellik nisbiy ko'rsatkich bo'lib, ishlab chiqarishning daromadlilik darajasini bildiradi. Bu ko'rsatkichni korxonada faoliyatini baholash va investitsiyaviy siyosatni yuritish, hamda baho belgilashda asosiy mezon sifatida ishlatishadi. Xo'jalikning rentabelligini aniqlash yalpi mahsulot, yalpi va sof daromad kabi omillar bilan bog'liq. Yalpi mahsulot-bu xo'jalikda yetishtirilgan barcha mahsulotning yig'indisidir. Yalpi daromad - yalpi mahsulot qiymatidan sarflangan ishlab chiqarish mablag'lari (material-pul xarajatlari) chiqarib tashlansa hosil bo'ladi. Yalpi daromad o'z navbatida sof daromad va mehnat haqiga bo'linadi. Sof daromad - yalpi daromadning mehnat haqi fondi chiqarilib yuborilgandan keyin qolgan qismi hisoblanadi. Sof daromad mahsulotni realizatsiya qilishdan kelgan summadan uni yetishtirishga sarflangan xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismiga tengdir.

Xo'jalikning rentabelligi, dastavval, mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan sof daromad (foyda) bilan xarakterlanadi. Qishloq xo'jalik

mahsulotlarining bahosi barqaror darajada bo'lsa, tannarx kamayadi, mahsulot yetishtirish va realizatsiya qilish hajmi ko'payadi, uning sifati yaxshilanadi. Bularning hammasi rentabellikni oshirishga imkon beradi.

$$F = PT - TT$$

Foyda - bu faqat ishlab chiqarish jarayonida tashkil topgan natija hisoblanib qolmasdan, balki mahsulotlarni sotish jarayonida erishilgan oxirgi iqtisodiy ko'rsatkichdir. Eng avvalo unda jonli mehnat xarajatlari ifodalanadi, chunki uning asosida yalpi daromad yotadi, xodimlarning jonli mehnati bilan yangi mahsulot yaratiladi. Mehnat unumdorligi qancha yuqori bo'lsa, yangidan yaratilgan qiymatdagi ish haqi salmog'i shuncha oz bo'ladi, uning bir qismi foydani tashkil qilishga ketadi. Foydada, shuningdek buyumlashgan mehnat xarajatlarining samaradorligi aks etadi. Mahsulot birligi hisobiga to'g'ri kelgan moddiy xarajatlar va ish haqi xarajatlarining kamayishi, baho o'zgarmaganda foydani ko'paytiradi va nihoyat bu ko'rsatkichda mahsulot sifati namoyon bo'ladi. Foyda bir qator muhim iqtisodiy vazifalarni bajaradi:

1. O'lchash vazifasi - foydadan ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini umumlashtiruvchi ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi.

2. Taqsimlash vazifasi - qo'shimcha mahsulotni taqsimlash vositasi sifatida.

3. Rag'batlantirish vazifasi - iqtisodiy rag'batlantirish fondini shakllantirish manbai sifatida.

1. Yalpi foyda (zarar) (YAF) - qishloq xo'jalik korxonasi tovar mahsulotini sotishdan tushgan tushum, ya'ni sof pul tushumidan (SST) sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarni ishlab chiqarish tannarxi (IT) olib tashlanadi. Bunda sof pul tushumi jami pul tushumidan qo'shimcha qiymat solig'i, aksiz solig'i, tashqariga chiqarilgan tovar solig'i, tovar sotib oluvchi tovarni qaytarib berish mumkin bo'lgan skidkalarini (tabiiy kamayish) chiqarish yo'li bilan aniqlanadi:

$$YAF = SST - IT$$

(16.12)

2. Korxonada asosiy faoliyatidan olingan foyda (zarar) (AFF). Buni aniqlash uchun yalpi foyda (zarar)dan sotish va ma'muriy xarajatlar (davriy xarajatlar) (DX) ayrilib, asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlari (BD) va xarajatlari (BZ) ham mos ravishda qo'shilib va ayirib tashlanadi:

$$AFF = YAF - DX - BD - BZ$$

(16.13)

3. Korxonaning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar) (UF). Asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar)dan olingan dividendlar, zayomlar bo'yicha foizlar, valyutaning kurs farqi, boshqa moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar (MD) qo'shilib, xarajatlar va bank protsentlari (BX) ayriladi.

$$UF = AFF + QMD - MX$$

(16.14)

4. Soliq to'laguncha foyda (zarar) (STF) umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda favqulotda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan qurilgan foyda (FF) qo'shiladi va zarar (FZ) ayirib tashlanadi:

$$STF = UFQFF - FZ$$

(16.15)

5. Sof foyda(zarar) (SF). U soliq to'langandan keyin xo'jalik subekt ixtiyorida qoladi, o'zida daromad (foyda)dan to'lanadigan soliqni (DS) va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni (BS) chiqarib tashlangan holda soliqlar to'langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$SF = STF - DS - BS$$

(16.16)

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish rentabelligining mutloq ko'rsatkichi bilan bir qatorda uning nisbiy ko'rsatkichidan ham foydalaniladi. Bu ko'rsatkich o'zida rentabellik normasi va foyda normasini ifoda etadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulotlari dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari doirasida ayrim ekinlar va chorva hayvon turlari doirasida, mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari rentabelligi aniqlanadi. Bu ko'rsatkichni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish jarayonlarida qilingan harajatlarning qoplash muddatlarini aniqlashda universal deb hisoblanadi.

Shu bilan birga foyda samaradorlikni yagona va butun qamrab oluvchi ko'rsatkich hisoblanmaydi. Yangidan yaratilgan qiymatning bir qismi sifatida, u moddiy ishlab chiqarish sohasidagi xodimlar qo'shimcha mehnati bilan yaratilgan qo'shimcha mahsulotni pulda ifodalangan qismini ko'rsatadi. Uning miqdori ma'lum darajada mahsulot bahosi darajasining asoslanganligiga bog'liq. Bundan tashqari, foyda tuzilmaviy o'zgarishlarga, yuqori rentabelli mahsulot turlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish yo'li bilan va past rentabelli mahsulot ishlab chiqarishni qisqartirish yo'li bilan ham oshishi mumkin. Rentabellikning absolyut ko'rsatkichi foydaning absolyut miqdorida ifodalanadi.

$$D = PT - MX$$

(16.17)

Foydaning absolyut miqdori muhim ahamiyatga ega, u iqtisodiy rag'batlantirish fondini vujudga keltirishni miqdoriga bog'liq.

Alohida olingan mahsulotning, tarmoqni yoki butun bir korxonani iqtisodiy samaradorligini, olingan foyda orqali aniqlash to'liq natija bermaydi. Buning uchun olingan foydani hosil qilish maqsadida uning qiymatini sarflangan xarajat bilan taqqoslash kerak. Bunda rentabellik darajasi (R) ko'rsatkichidan foydalaniladi

Rentabellik darajasi- foydani material va mehnat xarajatlari (mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq) qiymatlari nisbatining foizdagi darajasini ko'rsatadi.

Rentabellik me'yori mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan sof daromadni uning tannarxiga bo'lish yo'li bilan foizlar hisobida aniqlanadi: Jamg'armalar bo'yicha rentabellik yoki foiz hisobidagi foyda me'yori ishlab chiqarish mablag'laridan foydalanishning samaradorligini tavsiflovchi eng muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Rentabellik darajasining har bir foizi sarflangan bir so'mlik ishlab chiqarish xarajati hisobiga olingan foydani bildiradi, ya'ni agarda xo'jalikning rentabellik darajasi 73 foizni tashkil qilsa, bu har bir so'mlik moddiy va mehnat xarajati hisobiga, ularni qoplagandan so'ng 73 so'm foyda ko'rganini bildiradi.

Ma'lumki, sof daromad va foyda - ikki xil iqtisodiy kategoriyadir. Agar sof daromad vujudga kelgan barcha qo'shimcha mahsulot qiymatini ifodalasa, foyda - tovar mahsulotini sotishdan olingan qisminigina ifodalaydi. Sof daromadning bir qismi baho va soliq siyosati va har xil to'lovlar orqali davlat va mahalliy buyudjetlarga borib tushadi va umumxalq ehtiyojlari uchun ishlatiladi. Foyda - sotilgan tovar mahsulotidan tushgan pul mablag'idan shu mahsulotni to'la ishlab chiqarish xarajatlarining (markazlashgan to'lovlar ham shunga kiradi) chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Foyda me'yori - bu har bir so'mlik asosiy va aylanma vositalar qiymati yig'indisiga to'g'ri keladigan foyda, sof daromadning foizdagi ifodasi ko'rsatkichi xisoblanadi. Foydaning muhim omillaridan biri mahsulot tannarxidir. Ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi yoki oshishi foyda miqdoriga ancha sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tashqi omillarga mahsulotni ishlab chiqaruvchilar taklifi va ular o'rtasidagi raqobat, mahsulotga bo'lgan bozor talabi kabilar kiradi. U yoki bu mahsulotga yuqori yoki past talab, shuningdek raqobatchilarning mavjudligi yoki qatnashmasligi, sotiladigan mahsulot miqdoriga, baho darajasiga va pirovard natijada foyda miqdoriga ta'sir qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy o'sis turlariga izoh bering.
2. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish nima?
3. Iqtisodiy samaradorlikni tushuntirib bering.
4. Rentabellik nima va unga ta'sir etuvchi omillarni sanab bering.

7-MAVZU. IQTISODIYOTNING TARMOQ TUZILMASI VA TARKIBIY SILJISHLARI.

Reja:

1. Tarkibiy siyosat, uning mohiyati va ahamiyati
2. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning o'rni
3. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat tarmog'ining shakllanishi
4. Sanoatning tarmoq tuzilmasi va uni belgilovchi omillar

1. Tarkibiy siyosat, uning mohiyati va ahamiyati

Tarkibiy (tuzilmaviy) siyosat haqida mulohaza yuritishdan oldin, strukturaning o'zi nima ekanligini bilib olishimiz zarur.

Tarkib (tuzilma) lotincha, «structura» so'zidan olingan bo'lib, narsalar tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liq ravishda joylashishini, tuzilishini bildiradi.

Tarkibiy siyosatining mohiyati sohalarning tuzilmaviy jihatlarini belgilab berish, yo'lga solib turishdan iboratdir.

Rus iqtisodchi olimi S.D. Alekseevichning fikricha iqtisodiyot tarkibi uzoq muddatli davrda mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim shart-sharoitlarini yuzaga keltiradi. U miqdoriy va sifat xususiyatlariga ega bo'lib, milliy iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Iqtisodiyot tarkibi mamlakat milliy iqtisodiyotining barqarorligi va havfsizligini tavsiflaydi. shuning uchun iqtisodiyotda miqdoriy va sifat jihatdan tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir²⁶.

Iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ya'ni iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish ishlab chiqarishning texnologik yangilanishi va uning tashqi hamda ichki o'zgarishlarga moslashishi zaruriyatini aniqlovchi ishlab chiqarish kuchlarining katta miqdordagi tarkibiy o'zgarishlarini ifodalaydi. Bunda muhim maqsad: ishlab chiqarishni qayta tashkil etish, jumladan korxonalarining samarasiz bo'g'inlarini yo'q qilish yoki qo'shib yuborish, jismonan va ma'nan eskirgan asosiy vositalarni almashtirish, texnik yangiliklarni kiritish hamda yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishdir. Bularning bari tarmoqlararo, hududiy, texnologik, institutsional va ishlab chiqarishning boshqa muhim tarkibiy siljishlariga olib keladi.

Iqtisodchi olim A.A.Kushnarevning fikricha, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy samaradorlikni, jahon va milliy bozorlarda raqobatbardoshlikni kamaytiruvchi yoki oshiruvchi iqtisodiyotning turli tarmoqlari, sektorlari, hududlar, korxonalar turlari, texnologik ukladlar va iqtisodiy tizimning boshqa elementlari o'rtasidagi o'zaro nisbatlarning mavjud o'zgarish hisoblanadi.²⁷

CH.K.Karenovichning fikricha tub tarkibiy o'zgarishlar davrida milliy iqtisodiyot boshqa davrlarga nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lib, uning alohida tarmoqlari va sohalari rivojlanishida tengsizlik kuchayadi.

Takror ishlab chiqarishning hozirgi sharoitlarida iqtisodiy o'sish iqtisodiyot ko'lamining o'sishi bilangina emas, balki iste'molda ham, ishlab chiqarishda ham strukturaviy siljishlar, ularning tezligi va samaradorligi bilan aniqlanadi.

Tarkibiy siyosatining mohiyati sohalarning tuzilmaviy jihatlarini belgilab berish, yo'lga solib turishdan iboratdir. Ana shu nuqtai nazardan mustaqillikning o'tgan davri uchun va 2017-2021yillarga mo'ljallangan iqtisodiy siyosatning yo'nalishi va xususiyatlari doirasida belgilangan milliy iqtisodiyot strukturasi progressiv o'zgarishlarni amalga oshirish, tarmoqlararo va tarmoq ichki mutanosibliklarini takomillashtirish, fan-texnika taraqqiyotini belgilovchi sohalarni ustuvor rivojlantirishni davom ettirish vazifasi muhim ahamiyatga molikdir.

²⁶ Sergeev Dmitriy Alekseevich. Strukturnie preobrazovaniya kak faktor ekonomicheskogo rosta v transformatsionnoy ekonomike : Dis. ... kand. ekon. nauk : 08.00.01 : Kazan , 2004 187 c. RGB OD, 61:04-8/3995

²⁷ A.A.Kushnarev. Strukturnie preobrazovaniya ekonomiki kak osobiy ob'ekt upravleniya: <http://cyberleninka.ru/article/n/strukturnye-preobrazovaniya-ekonomiki-kak-osobyy-obekt-upravleniya>

Davlat strategiyasiga muvofiq ijtimoiy ishlab chiqarish va jumladan, sanoat strukturasi izchil tarzda takomillashtirish ko‘z ilg‘aydigan istiqbolda quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- xalq xo‘jaligi va uning yetakchi tarmog‘i bo‘lgan sanoatni balanslashtirilgan tarzda va izchil rivojlantirish;

- iqtisodiyotni, xususan, sanoatni modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish yo‘liga o‘tkazish, uning samaradorligini oshirish, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar iste‘molini ratsionallashtirish, ularni har tomonlama tejash;

- iqtisodiyotning, jumladan, sanoatning ijtimoiy yo‘nalishini yanada kuchaytirish, milliy iqtisodning aholi farovonligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xilma-xil vazifalar tomon yanada chuqurroq burikishini ta‘minlash lozim.

Bir butun qismlarning muayyan o‘zaro aloqasi, bir-biriga nisbatan joylashuvi bo‘lgan strukturaning ahvolini mutanosibliklar juda ham aniq va konkret tarzda ifodalaydi. Iqtisodiy jarayonlarning mohiyatini chuqur bilib olish va ularni bashoratlar va loyihalarda tatbiq etish, ijtimoiy va shaxsiy iste‘molni, fan-texnika taraqqiyotining, milliy iqtisodiyotning tegishli ishlab chiqarishlari va tarmoqlari rivoji istiqbollarini sinchkovlik bilan hisobga olish, korxonalarni zarur zahiralar bilan ta‘minlashni mustahkamlash – ana shularning hammasi prognozlash va loyihalashtirish texnologiyasining eng muhim tarkibiy, tuzilmaviy qismlari bo‘lib, ularga qat‘iy rioya qilish vazifalarining mutanosibligi, balanslashtirilganligi, realligi, qo‘yilgan maqsadlarga erishishdagi ishonchligi, ta‘sirchanligining shartidir.

O‘zbekiston davlatining iqtisodiy strategiyasida xalq xo‘jaligi strukturasi takomillashtirish, uning tarmoqlarini rivojlantirish yuzasidan muhim topshiriqlar hamda bu tarmoqlarning marralari batafsil belgilab berilgan.

Takror ishlab chiqarishning hozirgi sharoitlarida iqtisodiy o‘shish iqtisodiyot ko‘lamining o‘shishi bilan bog‘liq emas, balki iste‘molda ham, ishlab chiqarishda ham strukturaviy siljishlar, ularning tezligi va samaradorligi bilan aniqlanadi.

Tarkibni aniqlovchi siyosatni shakllantirish iqtisodiyotdagi strukturaviy o‘zgarishlarni sifat jihatdan baholashni aniqlanishining prinsipial xususiyati iqtisodiyotning o‘shish sur‘ati ko‘rsatkichlarining degradatsiyasi yuz berishi muammosini hal etishi zarurligidir, chunki ayni bir sur‘atning o‘zi bir necha tarmoqlarning turli o‘shish sur‘atlarida ifodalanishi mumkin. Bu bir xil bo‘lmagan iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlar olib keladi. Bu muammo oqibatda u yoki bu sohaga ustuvorlik (afzallik) berish tizimini yaratilishini taqozo etadi. Masalan, fan-texnika taraqqiyotida to‘liq aks etadigan sohalar ajralib turadi: yoqilg‘i-energetika, elektronika, mashinasozlik, kimyo. Shuning uchun bu tarmoqlar o‘shish sur‘atlari bo‘yicha sanoat o‘shishidan yuqori turishi kerak. Mashinasozlikning tarmoq strukturasi ham jiddiy o‘zgarishlar yuz berishi zarur. Kimyoda biotexnologiya va nanotexnologiyani qo‘llab, nozik organik sintez mahsulotlarini ishlab chiqarish jadal sur‘atlarda rivojlanishi zarur.

Tarkibiy o‘zgarishlarning yo‘nalishi, ularning jadalligi va ko‘lamini aniqlash muhim ish. Ayni vaqtda iqtisodiy darajasi bir xil yoki iqtisodiyotdagi struktura

yoʻnalishlari oʻzgarishi oʻxshash boʻlgan mamlakatlar guruhi boʻyicha tarmoqlararo komplekslar va ayrim tarmoqlar ishlab chiqarishi va isteʼmolining rivojlanishidagi umumiy qonuniyatlarni aniqlash – bu barcha analitik materiallar istiqbolni prognozlashning muhim zamini hisoblanadi.

Shu bilan birga, struktura yoʻnalishlari oʻzaro muvofiqlashtirilishi kerak, chunki rivojlanish strategiyasiga muvofiq tarmoqlararo komplekslar va tarmoqlarni rivojlantirish uygʻunlashtirilishi zarur.

Yangi asrning dastlabki yillaridagi taraqqiyot strategiyasi, jamiyatni yangilash, barcha sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasidagi faoliyat 6 ta ustuvor yoʻnalishdan iborat. Birinchi ustuvor yoʻnalish-aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish, ikkinchi ustuvor yoʻnalish-mamlakat siyosiy va iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada jadallashtirish, uchinchi ustuvor yoʻnalish-jamiyat maʼnaviyatini yanada yuksaltirish, toʻrtinchi ustuvor yoʻnalish-kadrlar tayyorlash, beshinchi ustuvor yoʻnalish-iqtisodiyotda tarkibiy oʻzgarishlarni taʼminlash, oltinchi ustuvor yoʻnalish-jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini taʼminlashdan iborat.

Ana shu ustuvor yoʻnalishlardan biri iqtisodiyotda, shu jumladan, sanoatda ham tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirish boʻlib, sanoat boshqaruvi tuzilmasini yaxshilashdan tortib korxonalarni yangilash va texnik jihatdan qayta jihozlashga, mamlakatning boy tabiiy va mineral xom ashyo salohiyatidan toʻla, samarali foydalanishga, eksportga moslangan va import oʻrnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqaradigan quvvatlarni barpo etishga qaratilmogʻi darkor.

Respublika iqtisodiyotida, shu jumladan, sanoatda tarkibiy oʻzgarishlarni izchil taʼminlash natijasida davlatning qudratini yanada orttirish, mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, yurtni obod etish va xalqning farovonligini yanada yuqori darajaga koʻtarish mumkin.

Iqtisodiy oʻsish ayrim qonuniyatlar asosida sodir boʻladi. Baʼzan harakatlantiruvchi kuch tsiklik ahamiyat kasb etsa, boshqa paytlarda ekstensiv va intensiv omillarga bogʻliq boʻladi. Shubhasiz, davlatning siyosati iqtisodiy jarayonlarga toʻgʻridan-toʻgʻri taʼsir koʻrsatishi yoki jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy institutlarga taʼsir etish orqali bilvosita taʼsirga ega boʻladi. Iqtisodiy oʻsishning yuqori surʼatlarda sodir boʻlishi yoki sustlashuvi ayrim hollarda tsiklik xususiyatga emas balki aynan davlat siyosatining amalga oshirilishi bilan bogʻliq boʻladi.

Odatda, yuqori surʼatdagi iqtisodiy oʻsish iqtisodiyotda tarkibiy oʻzgarishlarning amalga oshirilayotgan davrga toʻgʻri keladi.

Mamlakat iqtisodiyoti tarkibining ahamiyati iqtisodiyot tarmoqlari oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlashda, ularning samaradorligini oshirishda va barqaror iqtisodiy oʻsishga erishishda koʻrinadi. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi mamlakatlar rivojlanishining xususiyatlariga bogʻliq holda oʻzgarib boradi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror oʻsishini taʼminlashdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Koʻpchilik rivojlangan Gʻarbiy Yevropa davlatlari, Janubiy-Sharqdagi yangi sanoatlashgan davlatlar yuqori

darajada iqtisodiy o'sishga iqtisodiyotidagi katta tarkibiy siljishlar hamda boshqa sifat jihatdan o'zgarishlar evaziga erishdilar.

Ma'lumki, iqtisodiyotda tarkibiy siljishlarni amalga oshirish natijasida tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda jadal va mutanosib iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlarni baholashda iqtisodiyot tarkibi asosan tarmoq, takror ishlab chiqarish, mintaqaviy va tashqi savdo jihatidan qaraladi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar tarmoq jihatdan qaralganda, asosiy uch tarmoq: sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar ko'rsatish sohalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi yoki ushbu tarmoqlarda band bo'lgan aholi soniga qarab aniqlanadi. Mamlakat iqtisodiy o'sishining dastlabki bosqichlarida mazkur uch tarmoqning iqtisodiyotdagi ulushi jihatidan qishloq xo'jaligi ustunlik qilsa, iqtisodiy o'sishning keyingi bosqichlarida sanoat va yuqori iqtisodiy o'sish pallasida esa xizmatlar ko'rsatish sohasining yetakchilik qilishi kuzatiladi.

2. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning o'rni

Iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarda sodir bo'lishi yoki sustlashuvi ayrim hollarda siklik hususiyatga emas balki aynan davlat siyosatining amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'ladi.

Odatda, yuqori sur'atdagi iqtisodiy o'sish iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshirilayotgan davrga to'g'ri keladi.

Mamlakat iqtisodiyoti tarkibining ahamiyati iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda, ularning samaradorligini oshirishda va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda ko'rinadi. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi mamlakatlar rivojlanishining xususiyatlariga bog'liq holda o'zgarib boradi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ko'pchilik rivojlangan G'arbiy Evropa davlatlari, Janubiy-Sharqdagi yangi sanoatlashgan davlatlar yuqori darajada iqtisodiy o'sishga iqtisodiyotidagi katta tarkibiy siljishlar hamda boshqa sifat jihatdan o'zgarishlar evaziga erishdilar.

Ma'lumki, iqtisodiyotda tarkibiy siljishlarni amalga oshirish natijasida tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda jadal va mutanosib iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor

yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi²⁸. Ushbu Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yoʻnalishlari alohida muhim oʻrin egallaydi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning asosida albatta *tarkibiy oʻzgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalasi turadi.*

Tarkibiy oʻzgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yoʻnalishlari:

1. Milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini taʼminlash, uning tarkibida **sanoat, xizmat koʻrsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini koʻpaytirish;**

2. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan **faol investitsiya siyosatini olib borish;**

3. Yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qoʻshimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga oʻtkazish orqali **sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;**

4. Iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali **raqobatbardosh muhitni shakllantirish** hamda mahsulot va xizmatlar bozorida **monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;**

5. Prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini oʻzlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda **milliy tovarlarning raqobatbardoshligini taʼminlash;**

6. Ishlab chiqarishni **mahalliyashtirishni ragʻbatlantirish** siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, isteʼmol tovarlar va butlovchi buyumlar importining oʻrnini bosish, **tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;**

7. Iqtisodiyotda **energiya va resurslar sarfini kamaytirish,** ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, **iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;**

8. Faoliyat koʻrsatayotgan **erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish,** yangilarini tashkil etish;

9. Xizmat koʻrsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning oʻrni va ulushini oshirish, koʻrsatilayotgan **xizmatlar tarkibini,** eng avvalo, **ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan oʻzgartirish;**

²⁸Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq soʻzi. 8 fevral 2017 yil.


10. **Turizm industriyasini jadal rivojlantirish**, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

11. **Eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish**, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

12. **Yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish**, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga **axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish**.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlarni baholashda iqtisodiyot tarkibi asosan tarmoq, takror ishlab chiqarish, mintaqaviy va tashqi savdo jihatidan qaraladi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar tarmoq jihatdan qaralganda, asosiy uch tarmoq: sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar ko'rsatish sohasining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi yoki ushbu tarmoqlarda band bo'lgan aholi soniga qarab aniqlanadi. Mamlakat iqtisodiy o'sishining dastlabki bosqichlarida mazkur uch tarmoqning iqtisodiyotdagi ulushi jihatidan qishloq xo'jaligi ustunlik qilsa, iqtisodiy o'sishning keyingi bosqichlarida sanoat va yuqori iqtisodiy o'sish pallasida esa xizmatlar ko'rsatish sohasining etakchilik qilishi kuzatiladi.

2017 yil yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida ham 2,0 % darajasida ijobiy o'sish sur'ati kuzatildi. Ushbu tarmoqning YaIM tarkibidagi ulushi 19,2 foizni tashkil etdi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'idagi o'sish sur'ati hisobidan YaIM ning 0,4 % punktga o'sishi ta'minlandi.



1-rasm. YaIM (YaQQ) o'sishida tarmoqlarning hissasi²⁹

Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika ko'mitasi. stat.uz

Yuqorida keltirilgan diagrammada birlamchi sektorning (qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi) YaIM tarkibidagi ulushi 2016 yildagi 18,1 % dan 2017 yilda 19,2 % ga, ikkilamchi sektorning (sanoat va qurilish) ulushi 32,9 % dan 33,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

1 - jadval

²⁹O'zbekiston Respublikasining statistika ko'mitasi. stat.uz


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaIM ni ishlab chiqarish³⁰

	Mlrd.so'm		2016 y. ga nisbatan % da	YaIM(YaQQ) o'sishida tarmoqlarning hissasi, %
	2016 y.	2017 y.		
I. YaIM	198 871,6	249 136,4	105,3	5,3
<i>shu jumladan:</i>				
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	178 053,1	223 829,8	105,3	4,8
Mahsulotlarga sof soliqlar	20 818,5	25 306,6	105,3	0,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	178 053,1	223 829,8	105,3	5,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	32 276,8	43 149,8	102,0	0,4
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	58 546,0	74 876,1	104,8	1,5
sanoat	45 398,0	59 650,9	104,6	1,1
qurilish	13 148,0	15 225,2	105,6	0,4
Xizmatlar	87 230,3	105 803,9	106,9	3,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	19 833,2	25 773,9	103,9	0,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	21 113,0	24 553,2	108,9	1,1
boshqa xizmat tarmoqlari	46 284,1	55 476,8	107,3	1,9

Uchlamchi sektor (xizmatlar sohasi) ning YaIM tarkibidagi ulushi esa, 49,0 foizdan 47,3 foizga kamaydi. 2017 yilda mulkchilik shakllari bo'yicha YaIM umumiy hajmining 81,0 % i iqtisodiyotning nodavlat sektoriga, 19,0 % i – davlat sektoriga to'g'ri keldi. Mamlakatimizda so'ngi yillarda qishloq xo'jaligining YaIMdagi ulushi kamayib, sanoatning ulushi oshib bormoqda.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy o'sish sur'ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi YaIM umumiy hajmining 89,8 foizini tashkil etdi va 5,3 % ga o'sdi (YaIM mutloq o'sishiga ta'siri 4,8 % punktni tashkil etdi). Mahsulotlar uchun sof soliqlarning YaIM tarkibidagi ulushi 10,2 % ni tashkil etdi va YaQQ kabi 5,3 % darajada o'sdi (YaIM mutloq o'sishiga ta'siri 0,5 % punktni tashkil etdi).

³⁰O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi. stat.uz



2-rasm. 2017 yil uchun YaIM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari³¹

YaIM o'sish sur'atiga xizmatlar sohasi eng katta ta'sir ko'rsatdi va bu soha o'tgan yilga nisbatan 6,9 foizga oshdi. Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 3,9 foizga (YaIM tarkibidagi ulushi -11,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 8,9 % ga (11,0 %) va boshqa xizmatlar – 7,3 % ga (24,8 %) o'sdi.

Sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati 4,6 % ga o'sdi va YaIM tarkibidagi ulushi 26,7 % ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishining YaIM mutloq o'sishi sur'atiga ijobiy ta'siri 1,1 % punkt darajasida baholandi. Sanoat tarmog'idagi o'sish asosan tog'-kon sanoati va o'chiq konlarni ishlash (114,6 %) va ishlab chiqaradigan sanoat (102,8 %) qo'shilgan qiymatlarining o'sishi hisobiga ta'minlandi.

³¹Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi. stat.uz

Jahondagi ayrim mamlakatlarining tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri, YAIM o‘sishi foiz xisobida

Mamlakatlar	Tarkibiy qayta qurish davri	Qayta qurishdan keyingi davr	Inqirozdan keyingi davr
AQSH	4.3 (1983-1990)	3.2 (1993-2007)	2.3 (2010-2013)
Buyuk Britaniya	3.5 (1983-1990)	2.9 (1993-2007)	1.3 (2010-2013)
Germaniya	2.4 (1983-1990)	1.4 (1993-2007)	1.9 (2010-2013)
YAponiya	4.5 (1983-1990)	1.4 (1993-2007)	1.7 (2010-2013)
Janubiy Koreya	8.0 (1983-2002)	4.3 (2003-2007)	3.7 (2010-2013)
Xitoy	10.8 (1983-2002)	7.5-8.0 (2003-2007)	8.4 (2010-2013)

Mazkur 3.2-jadval ma’lumotlaridan, tarkibiy qayta qurish davrida YAIMning o‘rtacha o‘sishi Buyuk Britaniyada 3,5% (1983-1990 yillarda), AQSHda 4,3% (1983-1990 yillarda), GFRda 2,9% (1983-1990 yillarda), YAponiyada 4,5% (1983-1990 yillarda), Janubiy Koreyada 8,0% (1983-2002 yillarda), Xitoyda 10,8% (1983-2002 yillarda) hamda Rossiyada 5,3% (1997-2007 yillarda)ni tashkil etgan³².

3. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat tarmog‘ining shakllanishi

Ijtimoiy mehnat taqsimoti ma’lum buyum va mahsulotlar ishlab chiqarish xajmining o‘sishi va fan-texnika taraqqiyoti natijasidir.


Ijtimoiy mehnat taqsimoti uch shaklda: umumiy, xususiy va ayrim, birlamchi shaklda ro‘y beradi.

Iqtisodiyotning yirik sohalari, ya’ni sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport va aloqaning vujudga kelishi umumiy mehnat taqsimotining mahsulidir.

Bu tarmoqlarning har birida sohalarning mustaqil ravishda ajralib chiqishi xususiy mehnat taqsimoti natijasidir.

Birlamchi mehnat taqsimoti esa, ishlab chiqarishni korxonada — sexlar, uchastkalar va yangi ish joylari tashkil etish bilan bog‘liqdir. Bunday turkumlarga ajratish va uning mahsulini -rasmdagi chizmadan ko‘rish mumkin.

³² CH.K.Karenovich. Vliyanie izmeneniy strukturi ekonomiki na tempi ekonomicheskogo rosta strani.



3-rasm. O'zbekistonning milliy iqtisodiyoti tuzilmasi.

Sanoat tarmog'i - ishlab chiqarish uyushmalari, kombinatlari va korxonalar (firma)lari yig'indisidir.

Tarmoq hosil etish uchun korxonalar bir necha umumiy xususiyatlarga ega bo'lishlari kerak:

- ishlab chiqariladigan mahsulot iqtisodiy mazmunining bir xilligi;
- ishlatiladigan xom ashyo va asosiy materiallarning o'xshashligi;
- ishlab chiqarish texnik bazasi va texnologik jarayonlarining umumiyliigi;
- ma'lum kasbdagi kadrlar tarkibining umumiyliigi;
- ijtimoiy mehnatni tashkil etish darajasi va shakllarining bir biriga o'xshashligi va hokozolar.

Mehnat vositalarining mehnat buyumlariga ta'sir ko'rsatishiga qarab sanoat qazib oluvchi va ishlov beruvchi tarmoqlarga bo'linadi.

Ishlab chiqariladigan mahsulotning funksional vazifasiga binoan ham tarmoqlarni guruhlash mumkin. Bunda alohida guruxlar, masalan, yoqilg'i ishlab chiqaruvchi tarmoqlar — yoqilg'i sanoatiga, oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlovchi tarmoqlar esa — oziq-ovqat sanoatiga birlashishi mumkin.

Tarmoq tuzilmasi deyilganda, uning tarkibi, tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlar va o'zaro bog'liqlik tushuniladi. Tarmoq tuzilmasi sanoat taraqqiyoti darajasini belgilaydi hamda unda yuz bergan va yuz beradigan o'zgarishlarni aks ettiradi.

Tarmoq tuzilmasiga binoan quyidagi jihatlarni aniqlash mumkin:

- ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatsiyaning darajasini;
- mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustaqil ekanligini;
- sanoat va butun halk xo'jaligining ilmiy-texnika salohiyatini;

- mamlakat va uning viloyatlari sanoatining rivojlanish darajasini;
 - ijtimoiy mehnat unumdorligi yoki ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligining darajasini;
- mehnatkashlarning moddiy faravonligi va madaniy darajasi o‘sganligini.


4. Sanoatning tarmoq tuzilmasi va uni belgilovchi omillar

Sanoat tarmoqlari tuzilmasini tavsiflash uchun ayrim tarmoqlar o‘rtasidagi ma’lum ishlab chiqarish aloqadorligini ifodalovchi miqdoriy nisbatlarni aniqlab olish kerak. Bu muammoni hal etish uchun bir qator ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Ulardan biri tarmoqlar o‘rtasidagi nisbatlarni ifodalasa, ikkinchisi ma’lum davr ichidagi tuzilmaviy o‘zgarishlarni, uchinchisi esa, ishlab chiqarish aloqalarini ifodalaydi. Tarmoq tuzilmasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

jumlasiga quyidagilar kiradi:

- mustaqil sanoat tarmoqlarining soni;
- tarmoqlarning sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmidagi salmog‘i;
- tarmoq rivojining sur‘ati;
- tarmoqning ilgarilab ketish koeffitsiyenti.

Mustaqil sanoat tarmoqlarining soni mamlakat industrial taraqqiyoti, uning iqtisodiy va ilmiy-texnik salohiyati, iqtisodiy jihatdan mustaqilligini ifodalaydi.



4-rasm. 2017 yilda sanoat tarmoqlari tuzilmasi³³, %

Tarmoq strukturasiuning yalpi mahsulotining sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmidagi ulushi, xodimlar soni va asosiy fondlar qiymatidagi salmog‘i ko‘rsatkichlari bilan o‘lchanadi.

Sanoat tarmoqlari orasidagi yuzaga kelgan mutanosibliklar va ularning o‘zgarishiga ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi hamda boshqa bir qator omillar ta’sir etadi.

³³Manba: O‘zbekiston Respublikasining statistika qo‘mitasi. stat.uz

Sanoat tarmoqlari tuzilmasining o'zgarishi, (foizda)³⁴

Sanoat tarmoqlari	2010 yil	2016 yil	O'sish sur'ati 2016 yil 2010 yilga nisbatan, foizda
Jami	100,0	100,0	156,1
shu jumladan:			
tog`-kon sanoati va o'chiq konlarni ishlash	15,0	9,6	121,0
qayta ishlash sanoati	73,8	80,3	166,6
ulardan:			
oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	18,0	23,9	191,6
to'qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechaklar va chirm mahsulotlari ishlab chiqarish	14,4	16,7	168,8
kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarish	6,6	8,9	188,3
metallurgiya sanoati	8,1	7,2	121,4
asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish	0,5	1,1	3,8 m.
mashina va asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar va yarimpritseplar, boshqa tayyor metall buyumlarni ishlab chiqarish	15,1	9,8	133,8
boshqa nometallmineral mahsulotlarni ishlab chiqarish	4,3	5,7	2,1 m.
elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	10,7	9,4	125,2
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarniyig`ish va utilizatsiya qilish	0,5	0,7	165,9

Sanoat tarmoq tuzilmasi o'zgarishiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri fan-texnika taraqqiyotidir. Fan-texnika taraqqiyoti eng avvalo, yangi mehnat vositalari va mahsulotning yangi turlarini yaratish, mavjud asbob-uskunalar va texnologiya jarayonlarini takomillashtirish, yangilarini joriy etish bilan bog'liq. Bu esa, mavjud sanoat tarmoqlaridan yangidan-yangi sohalarining ajralib chiqishiga va shakllanishiga turtki beradi. Natijada progressiv hisoblangan

³⁴Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi. stat.uz

avtomobilsozlik, asbobsozlik, radiotexnika va elektronika, lazer texnologiyasi tez sur'atlar bilan rivojlanadi.

Bundan tashqari, fan-texnika taraqqiyoti tufayli yangi progressiv xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya turlaridan foydalanish sanoatda ishlab chiqarish xarakterini o'zgartiradi. Yuqori tejamkorlikka ega bo'lgan xom ashyo, material yarim-fabrikatlar va yoqilg'i ishlab chiqaradigan tarmoqlar iste'molchi tarmoqlarga mahsulot yetkazib berish ko'lamini kengaytirishlari natijasida xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlar mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji nisbatan kamayadi. Masalan, sun'iy va sintetik tolani ishlab chiqarishning taraqqiy etishi to'qimachilik sanoatida bir so'mlik mahsulot uchun sarflanadigan tabiiy tola sarfini qisqartiradi. Natijada, mahsulotning materialtalabligi kamayadi va sanoat bilan qishloq xo'jaligi, sanoatning qazib oluvchi tarmog'i bilan ishlov beruvchi tarmog'i o'rtasidagi nisbat o'zgaradi.

Sanoat tuzilmasining o'zgarishiga ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllari - konsentratsiyalash, mahalliyashtirish va diversifikatsiyalash juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishda kichik korxonalarining ko'payishi tarmoq taraqqiyotini tezlashtirgani holda uning umumsanoat mahsulotidagi miqyosi oshishiga olib keladi. Mahalliyashtirish zamonaviy talablarga javob beruvchi, raqobatdosh va import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish xajmini oshirish, asossiz import xajmini qisqartirish, yangi ish o'rinlarini yaratish kabi masalalarni hal etadi. Diversifikatsiyalash esa korxonalar va tarmoqlarning faoliyat sohaslarini o'zgartirish va kengaytirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni ko'paytirish va ularning xilma-xilligini ta'minlaydi. Mustaqillik davrida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash tufayli mashinasozlikda butlovchi buyumlar sanoati, asbob-uskuna sanoati, asbobsozlik, elektronika va boshqa sohaslar tashkil topdi.

Aholining moddiy farovonligining o'sishi ham sanoat tarmoqlari tuzilmasining o'zgarishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Bu omil ta'siri ostida engil va oziq-ovqat sanoatlarida chiqariladigan mahsulotlar nomenklaturasi va assortimenti o'zgaradi, shuningdek, madaniy-maishiy buyumlar - mebel, televizor, muzlatkichlar, konditsionerlar, kir yuvish mashinasi, mototsikl, velosiped, sport anjomlarini ishlab chiqaradigan maxsus tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalari tashkil topadi.

Sanoat tarmoqlari tuzilmasiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omillardan yana biri - mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rnini hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarmoq tuzilmasini belgilovchi asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

- fan-texnika taraqqiyoti va innovatsiyalar, ularning yutuqlarini ishlab chiqarishda joriy etish;

- material va yoqilg'i, energetika resurslarining iqtisodiy tejallishini kuchaytirish;

- ishlab chiqarishni maxalliyashtirish, diversifikatsiyalash, ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish darajasi;

- sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari;

- aholining moddiy va madaniy darajasi o'sishi;
- ijtimoiy-tarixiy sharoitlar;
- mamlakatning tabiiy resurslari va ularni o'zlashtirish darajasi;
- mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rnini va boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorligi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat sohalari qanday shakllanadi?
2. Davlatning iqtisodiyot, jumladan, sanoat sohasidagi tarkibiy o'zgarishlarga tegishli siyosatining mohiyati nimada?
3. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash deganda nimalar tushuniladi?
4. Tarmoq va tarmoq tuzilmasi tushunchasi nimani anglatadi?
5. Tarmoqlarning iqtisodiy guruhlanishi.
6. Tarmoqning rivojlanish sur'atlarini aniqlashning qanday usullari mavjud?
7. Tarmoq strukturasi va uni belgilovchi omillar.

8-mavzu. SANOATDA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMI

Reja:

1. Boshqaruv ob'ektiv zaruriyat va maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida.
2. Boshqarishning asosiy tamoyillari va usullari.
3. Sanoat korxonalarini tuzilmasini belgilovchi omillar.
4. Sanoat korxonalarida boshqaruv tuzilmalari shakllari va ularning xususiyatlari.
5. Sanoatda boshqaruvning zamonaviy yangi organik tarkibiy shakllari.
6. Boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

1. Boshqaruv ob'yektiv zaruriyat va maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida

Har qanday ishlab chiqarish boshqaruvning muayyan tizimisiz oqilona harakat qila olmaydi va rivojlanmaydi. Shu tufayli ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida jamiyat o'ziga xos va mos boshqaruv tizimini yaratadi.

«Boshqaruv» tushunchasi uzoq va chuqur tarixiy taraqqiyotga ega. Uning yuzaga kelishi esa insoniyat taraqqiyotining eng muhim jarayonlaridan biri hisoblanadi. Boshqaruv faoliyatining dastlabki davrida insonlar o'z bilim va tajribasiga asoslangan holda ishlab chiqarishni boshqargan bo'lsalar, asta-sekinlik bilan texnika-texnologiyaning rivojlanishi, ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi va har xil tashkiliy sharoitlar yuzaga kelishi natijasida faoliyatning mazkur turi ancha murakkablashib bordi. Bunday holatni anglash, chuqurroq o'rganish va bilish «Boshqaruv fani»ning vujudga kelishiga olib keldi.

Boshqaruvning bir qator nazariy va amaliy vazifalari F.U. Teylor tomonidan asoslab berilgan. U boshqarishga «Nima qilish kerakligini, uni eng yaxshi va qulay usulda amalga oshirishni aniq bilish san'ati», - deb ta'rif bergan.

Boshqaruvning ma'nosi va mohiyati, ahamiyati va mazmuni, tamoyillari va usullari to'g'risida buyuk olimlar, mutafakkirlar, mutaxassislar juda ko'p fikr aytishgan va yozib qoldirishgan.

Boshqaruv — alohida funksiya bo'lib, turli-tuman sohalar (mamlakat va uning hududlari, milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlari, korxonalar va uning bo'limlari) da insonlar ustidan rahbarlik qilish faoliyatidir.

Boshqaruv — tashkilotning maqsadini ifodalash va unga erishish uchun zarur bo'lgan bashorat qilish, rejalashtirish, tashkil etish, ishtiyoqni uyg'otish (motivatsiya) va nazorat qilish bo'yicha faoliyat turi, jarayonidir.

Boshqaruv — shunday faoliyatki, uning yordamida uyushmagan jamoa (haloqiy yoki to'da) samarali va aniq maqsadga yo'naltirilgan unumli (barakali) guruhga aylantiriladi.

Boshqaruv — ma'lum jarayonga, organizm va jamoaga maqsadli ta'sir ko'rsatishni o'zida ifoda etuvchi ijtimoiy faoliyatning bir turidir.

Boshqaruv — muayyan axborotga asoslangan va mavjud dasturga muvofiq ob'ektning ishlashini, ya'ni faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlar majmuasidir.

1 -rasm. Boshqaruv tushunchasi³⁵

Shuningdek, mashhur fransuz olimi Anri Fayol ham boshqaruvga quyidagicha ta'rif beradi: «Boshqaruv-bu, korxonalar ixtiyorida barcha resurslardan maksimal (eng ko'p-A.O.) foyda olgan holda uni maqsad sari yetaklash faoliyatidir».

Anri Fayol:

- «Boshqaruv — bu, korxonalar ixtiyorida barcha resurslardan maksimal foyda olgan holda uni maqsad sari etaklash faoliyatidir».

Taylor:

- «boshqaruv aniq qonun va qoidalarga tayanadigan haqiqiy ilmdir».

2-rasm. Boshqaruvga klassiklar ta'riflari³⁶

³⁵ Muallif ishlanmasi

³⁶ Muallif ishlanmasi

Demak, boshqaruv ob'yektiv zaruriyat va maqsadga yo'naltirilgan jarayon hisoblanadi.

Makroiqtisodiy sohaning yetakchi tarmog'I bo'lgan sanoatni boshqarish zaruriyati to'g'risida so'z yuritilganda yuqoridagi ta'riflarni yanada kengaytirish va mazmunan boyitish zarurati yuzaga keladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishni, jumladan, uning eng yirik va yetakchi sohasi bo'lgan sanoatni boshqarishning ob'yektiv zaruriyatini izohlab shuni aytish kerakki, yirik miqyosda amalga oshiriladigan, har qanday to'g'ridan-to'g'ri qilinayotgan mehnat, ishlab chiqarish ko'proq yoki kamroq darajada boshqarilishga muhtojdir.

Boshqaruv ilmi (menejment)da boshqaruvning ikki xil tushunchasi mavjud bo'lib, ularning birini boshqaruvning sub'ekti va ikkinchisini boshqaruvning ob'yekti tashkil etadi.

Boshqaruv sub'yekti-jismoniy yoki yuridik shaxslar bo'lib, undan amaldagi qonunlar asosida hokimiyat idoralari tomonidan berilgan vakolatlarga muvofiq huquqiy ta'sir yuzaga keladi.

Boshqaruv ob'yekti-boshqaruv sub'yektining huquqiy ta'siri qaratilgan narsadir. Bunga ishlab chiqarish va xo'jalik tizimlari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, jismoniy va yuridik shaxslar kirishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, u holatda ham, bu holatda ham insonlarni boshqarish ularning o'zi tomonidan amalga oshiriladi. Faqat kishilar, ularning faoliyati, jumladan, mahsulot ishlab chiqarish, xo'jalik va boshqa jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlari boshqaruvning predmeti, ya'ni hozirgi zamon menejmentining asosi hisoblanadi. Boshqaruvning sub'yekti va ob'yektisiz menejment fan va xo'jalik tajribasi sifatida o'z mazmun va mohiyatini yo'qotadi.

Albatta, minglab kishilar ishlaydigan sanoat ham bu tushuncha va mulohazalardan xoli emas. Ayniqsa sanoat ishlab chiqarishida «sub'yekt» va «ob'yekt» tushunchalari boshqa tarmoqlarga nisbatan xiyla ravshanroq ko'rinadi. Bunda vazirlik, kompaniya va aksiyadorlik jamiyatlaridagi boshqaruvchilar korxonadagi boshqaruvchilarga, korxonadagi boshqaruvchilar esa tsex, uchastka boshqaruvchilariga rahbarlik qiladilar.

Har qanday boshqaruv o'z maqsadi va vazifalariga ega. Maqsad — bu, inson faoliyatining avvaldan fikran o'ylangan natijasidir. Shunga binoan, boshqaruvning maqsadi deganda, boshqaruv sub'ektining oldindan o'ylangan, mo'ljallangan, erishish zarur bo'lgan natijasi tushuniladi. Sanoatda esa, maqsad — ko'p va sifatli, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uni o'z vaqtida sotish hamda mo'ljallangan foydani olishdir.

Har qanday maqsadga ma'lum talablar qo'yiladi. Dastavval, maqsad ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, u aniq, yaxshi ifodalangan va adresli bo'lishi zarur. Uchinchidan, qo'yilgan maqsad erishimli bo'lishi, ya'ni unga yetishishning imkoniyatlari, shart va sharoitlari hisobga olingan bo'lishi kerak.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun ma'lum vazifalarni bajarish zarur. Ma'lumki, vazifa-bu, avvaldan belgilangan, aniqlangan, ko'rsatilgan, bajarilishi va hal etilishi lozim bo'lgan ish, narsadir.

Sanoat ishlab chiqarishida boshqaruvning vazifalari quyidagilardan iborat:

-kelajakni aniq ko'rmoq (istiqbolni to'g'ri bashorat qilish va unga monand bo'lgan faoliyat dasturini tuzish);

-tashkillashtirmoq (sanoatning ichki, moddiy va ijtimoiy tuzilmasini barpo etish);

-personalni idora qilmoq (sanoat ishlab chiqarish xodimlarini harakatga keltirish);

-kelishish (harakat va tirishqoqlikni bir-biri bilan uyg'unlashtirish);

-nazorat qilish va kuzatish (joriy etilgan va berilgan buyruq asosida harakatning, ya'ni faoliyatning qanday tarzda bo'layotganini mushohada qilish).

Sanoat ishlab chiqarishida boshqaruvning vazifalari quyidagilardan iborat:

-kelajakni aniq ko'rmoq (istiqbolni to'g'ri bashorat qilish va unga monand bo'lgan faoliyat dasturini tuzish);

-tashkillashtirmoq (sanoatning ichki, moddiy va ijtimoiy tuzilmasini barpo etish);

-personalni idora qilmoq (sanoat ishlab chiqarish xodimlarini harakatga keltirish);

-kelishish (harakat va tirishqoqlikni bir-biri bilan uyg'unlashtirish);

-nazorat qilish va kuzatish (joriy etilgan va berilgan buyruq asosida harakatning, ya'ni faoliyatning qanday tarzda bo'layotganini mushohada qilish).


3-rasm. Sanoat ishlab chiqarishida boshqaruvning vazifalari³⁷

Boshqarish jarayonida oldindan ko'ra bilish nihoyatda katta ahamiyatga ega. Barcha jarayonlarni kuzatib, ularning o'zgarishiga qarab ishlab chiqarish, ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish boshqarilib turiladi. Masalan, mahsulotga bo'lgan ehtiyoj, narx-navo, texnika va texnologiyalar o'zgarishi, ish haqi va ijtimoiy muhofazaning holati ishlab chiqarishga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun vaziyatga qarab kerakli o'zgarishlarni zudlik bilan amalga oshirish kerak bo'ladi.

Boshqarish jarayonida rejalashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mahsulot hajmini belgilaganda uni barcha resurslar bilan ta'minlash va ularni yetkazib berish masalasiga katta e'tibor berish kerak. Ma'lumki, rejalar bir

³⁷Muallif ishlanmasi

kunlik, o‘n kunlik, bir oylik, bir kvartallik, bir yillik, uch yillik, besh yillik va o‘n-o‘n besh yillik bo‘lishi mumkin. Oxirgisi «konsepsiya», «bashorat» tushunchalari bilan bog‘liqdir.



4-rasm. Boshqaruv ma'nosi³⁸

Ishlab chiqarish jarayoni uzluksiz bo‘ladi, chunki u, eng avval, yuzaga keladi, shakllanadi, rivojlanadi va takomillashadi. Ana shu o‘zgarishlarni tashkilotchilik ta‘minlaydi. **Tashkilotchilik** - moddiy–texnika ta‘minoti, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish va tayyor mahsulotni sotish jarayonlaridan iborat. Tashkilotchilikka kunda yuz beradigan muammolarni tez hal etish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat ham kiradi.


Muvofiqlashtirish va nazorat ham muhim vazifalardan hisoblanadi. Tarmoqlar, korxonalar, tsexlar va uchastkalar, bo‘limlar hamda unda ishlaydigan xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirib turilgandagina yuqori natijalarga erishish mumkin. Barcha topshiriqlarning o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash uchun nazorat kerak.

Boshqaruv faoliyatining dastlabki davrida insonlar o‘z bilim va tajribasiga asoslangan holda ishlab chiqarishni boshqargan bo‘lsalar, asta-sekinlik bilan texnika-texnologiyaning rivojlanishi, ishlab chiqarish sur‘atlarining o‘sishi va har xil tashkiliy sharoitlar yuzaga kelishi natijasida faoliyatning mazkur turi ancha murakkablashib bordi.


Boshqaruvning bir qator nazariy va amaliy vazifalari F.U. Teylor tomonidan asoslab berilgan. U boshqarishga «Nima qilish kerakligini, uni eng yaxshi va qulay usulda amalga oshirishni aniq bilish san‘ati», - deb ta‘rif bergan.

Boshqaruvning ma‘nosi va mohiyati, ahamiyati va mazmuni, tamoyillari va usullari to‘g‘risida buyuk olimlar, mutafakkirlar, mutaxassislar juda ko‘p fikr aytishgan va yozib qoldirishgan.

³⁸Muallif ishlanmasi



5-rasm. Menejment tiplari



6-rasm. Menejment turlari³⁹


Demak, boshqaruv ob‘ektiv zaruriyat va maqsadga yo‘naltirilgan jarayon hisoblanadi.

³⁹Muallif ishlanmasi

Amaldagi tasnifga asosan boshqaruvning quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. *Rejalashtirish* – ishlab chiqarishni kengaytirish va korxonaning gullab-yashnashi uchun ishlab chiqarish maqsadlarini belgilash va uning natijalariga erishish.
2. *Istiqbolni belgilash (prognozashtirish)* – joriy faoliyatni samarali tarzda olib borish hamda istiqbolni ko'ra olish va boshqaruv tizimini istiqbolga moslashtirish. Rejalashtirishdan farqli ravishda prognozashtirish ehtimollik tavsifiga ega bo'ladi.
3. *Tartibgasolish* – ishlab chiqarishni, jamoani boshqarishda belgilangan ko'rsatkichlardan chetga og'ishlarni to'g'rilab borish.
4. *Tashkillashtirish* – kuch-quvvat va vositalarni ishlab chiqarish dasturini minimal xarajatlar asosida va bu xarajatlarning yuqori samaradorligi orqali amalga oshirishga yo'naltirish, amaldagi tashkilotchilik tizimini yangi yutuqlarga erishish va yangi vazifalarni bajarishga yo'naltirish.
5. *Nazorat* – joriy ko'rsatkichlarning belgilangan (dasturiy) vazifa(norma)larga mos kelish darajasini aniqlash.
6. *Hisobga olish* – korxonaning ma'lum bir vaqt davomida bajargan ishlariga yakun yasash.
7. *Tahlil* – ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash hamda ulardan boshqaruvni asoslash va boshqa vazifalari uchun foydalanish.

7-rasm. Boshqaruv funksiyalari⁴⁰



8-rasm. Boshqaruvning sub'ekti va ob'ekti⁴¹


⁴⁰Muallif ishlanmasi

⁴¹Muallif ishlanmasi

Boshqaruv funksiyalari ob'ektiv jihatdan zarur va albatta qaytariluvchi xatti-harakatlar majmuasi bo'lib, mazmuni va yo'nalish maqsadlarining bir xilligi tufayli birlashib turadi. Boshqaruv funksiyalari butun boshqaruv jarayoni davomida uzluksiz tarzda amalga oshiriladi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish va bajarishning turli bosqichlarida turli xil salmoqqa ega bo'ladi.

2. Boshqarishning asosiy tamoyillari va usullari

Boshqaruv tamoyillari deganda, rahbarlik qilishning fundamental qoidalari tushuniladi. Ular iqtisodiy qonunlar harakati va boshqarish usullari bilan bog'liq bo'lgan voqeliklarning mohiyatini aks ettiradi.



9-rasm. Boshqaruv mexanizmi⁴²

Ushbu mexanizmning eng muhim elementi Qonun hisoblanadi. Shu sababli u to'g'risida ikki og'iz so'z aytish kerak bo'ladi. Qonun-bu, ob'yektiv borliqda turli hodisalar o'rtasida kishi ongidan va ixtiyoridan tashqari, hamma mavjud bo'lgan zaruriy bog'lanish, munosabatdir. Masalan, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot qonunlari: talab va taklif qonuni, qiymat qonuni va boshqalar.

Qonun-bu davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan, hamma uchun, shu jumladan, sanoat ishlab chiqarishida mehnat qilayotganlar uchun ham majburiy bo'lgan ijtimoiy-huquqiy me'yor va munosabatlarni belgilovchi rasmiy hujjat. Masalan, Konstitutsiya-O'zbekiston davlatining asosiy qonunidir.

Tamoyillarni boshqaruv fani nazariyasi va amaliyotning poydevori deyish mumkin. Ma'lumki, poydevor qancha mukammal va mustahkam bo'lsa, boshqaruv apparati shunchalik qudratli bo'ladi.

Boshqaruv tamoyillarining shakllanishi chuqur tarixiy ildizga ega. Xususan, O'zbekistonda bu tamoyillar Amir Temur xukmronligi davrida shakllana va rivojlana boshlagan. Buyuk Sohibqiron davlati o'zining ixcham, tezkor boshqarish devoniga ega bo'lib, yakkaxonlik, ierarxiya (bo'ysunish tartibi), bilimdonlik, ilmiy, javobgarlik, demokratiya kabi tamoyillar asosida boshqarilgan.

Bu borada sohibqiron Amir Temurning quyidagi so'zlarini keltirish o'rinlidir. «Tajribamdan ko'rilganki, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'i tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. Chunki tajribali bir kishi ming kishiga ish buyuradi». (Темур тузуклари. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996 йил, 24 - бет.)

⁴²Muallif ishlanmasi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolga erishishining asosiy tamoyillari Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2-chaqiriq birinchi sessiyasidagi ma’ruzasida o‘z aksini topgan (4.1-jadval):

1-jadval

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O‘zbekistonda davlatni boshqarish tamoyillari

№	Tamoyillar	Izoh
1.	Demokratiya tamoyili	<ul style="list-style-type: none"> • insonning o‘z xohish-irodasini erkin bildirish hamda uni amalga oshirish; • barcha fuqarolarning teng huquqliligi; • davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi; • davlat va nodavlat idoralarining saylovchilar oldidagi javobgarligi va boshqalar
2.	Iqtisodiy munosabatlarni demokratiyalash tamoyili	<ul style="list-style-type: none"> • monopollashgan iqtisodiyotdan erkin iqtisodiyotga; • sotsialistik musobaqadan erkin, sof raqobatga; • qat’iy belgilangan narxlardan erkin narxlarga; • davlatlashgan mulkdan xilma-xil mulkchilikka asoslangan iqtisodiyotga o‘tish
3.	Yuksak ma’naviyat tamoyili	<ul style="list-style-type: none"> • Mustaqillik tafakkurini shakllantirish, ya’ni: <ul style="list-style-type: none"> - O‘zbekiston davlatinng istiqboli va istiqloli haqida qayg‘urish; - o‘zining va o‘z xalqinng, vatanining qadru qimmatini, or-nomusini anglab, uni himoya qilish; - yuksak g‘oyalar, yangi kashfiyotlar, niyatlar og‘ushida mehnat qilib, iste’dodi va iqtidori, bor imkoniyatini, kerak bulsa, jonini yurt istiqboli, eliga baxshida etishdir.
4.	Milliy xavfsizlikni ta’minlash tamoyili	<ul style="list-style-type: none"> • O‘zbekistonning dunyo hamjamiyatiga kirish sur’atlarini tezlashtirish; • turli xalqaro, davlat va nodavlat tashkilotlari ishlarida faol ishtirok etishni ta’minlash

O‘zbekistonning istiqlol yo‘li birinchi prezidenti Islom Karimovning bozor munosabatlariga o‘tish yuzasidan olg‘a surgan besh tamoyiliga asoslanadi. Ularning mohiyati quyidagicha (4.2-jadval).

Ushbu tamoyillar O‘zbekistonning o‘ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda izchillik bilan shakllantirib va rivojlantirib borishni, unga asta-sekin, bosqichma-bosqich, aholining zaif qatlamlarini himoya qila borib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy barqarorlikni ta’minlash orqali bozor munosabatlariga o‘tishni bildiradi. Ayni vaqtda ular kengash, hamjihatlik, maslahat bilan ish yuritishni, shijoat va tavakallchilik bilan harakat qilishni talab etadi.

Besh asosiy tamoyil⁴³

№	Asosiy tamoyillar	Asosiy tamoyillarning mohiyati
1.	Iqtisodiyotning Siyosatdan ustuvorligi	<ul style="list-style-type: none"> Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, ular birorta mafkuraga bo'ysundirilishi kerak emas. Buning ma'nosi shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi qilish zarur.
2.	Davlat bosh islohotchi	<ul style="list-style-type: none"> Davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi, jaholatparastlar va konservatorlar qarshiligini bartaraf etishi shart.
3.	Qonunlar va ularga rioya qilish ustuvorligi	<ul style="list-style-type: none"> Qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Demokratik yo'l bilan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istinosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim
4.	Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish	<ul style="list-style-type: none"> Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi
5.	Bozor iqtisodiyotiga sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tib borish	<ul style="list-style-type: none"> Bozor iqtisodiyotiga o'tish ob'yektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o'tmishdagi «inqilobiy sakrashlar» siz, ya'ni evolyutsion yo'l bilan, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak

Sanoat ishlab chiqarishining tarmoqlari, korxonalari va boshqa sohalarini boshqarishda bir qator boshqa tamoyillardan ham keng foydalanish mumkin, ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kadrlarni tanlash, joy – joyiga qo'yish, tarbiyalash va himoya qilish tamoyili;

- ilmiylik tamoyili;

- yakka boshchilik va boshqaruvda hamjihatliklik;

- izchillik va barqarorlik tamoyili;

- mehnatni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tamoyili;

- qat'iy tejamkorlik tamoyili.

⁴³Каримов И.А. Ўзбекистон–бозор муносабатларига ўтишининг ўзига хос йўли.–Т.:Ўзбекистон, 1993 йил, 42 - бет.


“Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzmag” degan hayotiy tamoyil.

3-jadval⁴⁴

Menejmentning tamoyillari

Tamoyillar	Mazmuni
Demokratiyalash	Ishlarni ommani boshqarishga keng ko‘lamda jalb qilish, kengash va maslahatlar orqali bajarilishini talab qiladi.
Ierarxiya	Boshqarishning pog‘onaligiga asolanadi.
Rejalashtirish	Boshqarish bo‘g‘inlari o‘rtasidagi taraqqiyot nisbatlarini aniqlaydi, shartnomalarning bajarilishini tashkil qiladi va nazorat qiladi.
Yakka hokimlik	Boshqarish tayinlangan shaxs tomonidan bajarilib, unga boshqariladigan ob‘ekt, uning mol-mulki, pul mablag‘lari ishonib toshiriladi Yakkahokimlik boshqarishda qat’iy tartib va mehnat intizomini ta‘minlaydi. Bunda «Ko‘plashib muhokama qilmoq keragu, lekin mas‘uliyatyakka bir kishida bo‘lmog‘i kerak» degan tamoyil amal qiladi.
Ilmiylik	Menejerlardan chuqur bilimni, o‘z sohasi bo‘yicha iqtisod, mantiq, ruhiyat, matematika, chet tili, texnologiya kabi fanlarni yaxshi bilishni talab qiladi.
Qayta aloqalar	Topshiriqni berishda «tushundinglarmi?» deb so‘rash etarli emas. Bunday savolga javobgar shaxsdan tasdiqlovchi javobni, topshiriqni to‘g‘ri tushunganligini so‘rash kerak.
Javobgarlik	Bu eng avvalo, boshqaruvchilarning javobgarligini nazarda tutadi. Bajaruvchanlik madaniyati past, mas‘uliyatsiz rahbar korxon va xodimlarning sho‘ri. Menejer uchun xuquqiy javobgarlik o‘ta yuqori bo‘lishi kerak.

⁴⁴Muallif ishlanmasi



10-rasm. Zamonaviy menejment tamoyillari⁴⁵

F. Teylor ta'limotining asosiy mazmuni - yollanma mehnat unumdorligini oshirishda g'oyatda samarador va maqbul usullarni izlashdir.

F. Teylorning tamoyillariga binoan:

mehnatning har bir jarayoni, uning ko'lami va ketma-ketligi aniq-puxta ixtisoslashtirilishi shart;

har bir mehnat turi qat'iy vaqt oralig'ida taqsimlanishi lozim;

har bir mehnat jarayoni va hatto har bir harakat puxta ishlab chiqilgan qoidalarga bo'isundirilgan bo'lishi kerak;

yuqoridan belgilab berilgan ish usullari va qoidalarni bajarish uchun doimiy talabchan nazorat amalga oshirilishi lozim;

ishchilar malakasi va darajasiga qarab joy-joyiga qo'yilishi shart;

boshqaruvchi bilan boshqariluvchi mas'uliyatini aniq belgilash va vazifalarini to'g'ri taqsimlash shart.

11-rasm. F. Teylor tamoyillari⁴⁶

Teylorning zamondoshi va ishining davomchisi amerikalik iqtisodchi **G. Emerson** mehnatni ilmiy tashkil qilish bo'yicha yirik mutaxassislardan bo'lib, u boshqarish va mehnatni tashkil qilishning kompleks, sistemali tizimini ishlab chiqqan. Uning «Mehnat unumdorligining 12 tamoyili» nomli asarida yoritilgan.

⁴⁵Muallif ishlanmasi

⁴⁶Muallif ishlanmasi

G. Emerson ilmiy boshqaruv tamoyilini mohiyatiga ko‘ra quyidagi ketma-ketlikda bayon qilgan.

1. Aniq qo‘yilgan maqsad va goyalar.
2. Oqil, sog‘lom fikr.
3. Jozibali, e‘tiborli mahsulot.
4. Intizom.
5. Xodimga nisbatan adolatli bo‘lish.
6. Tezkor, ishonchli, to‘liq, aniq va muntazam hrsob-kitob.
7. Dispetcherlash.
8. Me‘yorlar va jadvallar.
9. Sharoit bilan ta‘minlash.
10. Operatsiyalarni me‘yorlash.
11. Standart yo‘riqnomalarni tayyorlash.
12. Unumdorlikni rag‘batlantirish.

12-rasm. G. Emerson tamoyillari⁴⁷

4-jadval

Anri Fayolning boshqarish tamoyillari⁴⁸

Tamoyillar	Izoh
Mehnat taqsimoti	Ixtisoslashuv natijasida ko‘p miqdorda va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqariladi. Bunga e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan maqsadlar sonini keskin qisqartirish evaziga erishiladi.
Vakolat va mas‘uliyat	Vakolat - bu buyruq berish uchun berilgan huquq Mas‘uliyat esa buning aksi. Qaerda vakolat berilgan bo‘lsa, o‘sha erda mas‘uliyat vujudga keladi.
Intizom	Intizom rahbar bilan xodim o‘rtasida o‘zaro hurmatni, quloq solishni talab qiladi. shartnomalarning so‘zsiz bajarilishini taqozo etadi.
Yakkaboshlik	Xodim bevosita boshlig‘idan buyruq olishi kerak.
Yo‘nalishning bir xilligi	Yagona maqsad doirasida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir guruh, Yagona reja asosida ishlashi va bitta rahbarga ega bo‘lishi kerak.
Shaxsiy manfaatlarni umumiy manfaatga bo‘ysundirish	Alohida xodim yoki guruhning manfaatlari bir-biriga zid kelmasligi kerak.
Xodimlarni taqdirlash	Xodimlarning ishonchini qozonish va ularning hamdardligini oshirish uchun ularga adolat yuza-sidan barcha mehnatiga haq to‘lash lozim.
Markazlashish	Hamma o‘z o‘rnida bo‘lishi va o‘z burchini ado etishi lozim.

⁴⁷Muallif ishlanmasi

⁴⁸Muallif ishlanmasi

Boshqaruvdagi ierarxiya	Bunda quyi daraja yuqoridan nazorat qilinadi va yuqoriga bo'ysunadi.
Tartib	Hamma o'z o'rnida bo'lishi va o'z burchini ado etishi lozim.
Adolat	Tashkilotda adolatning xukm surishi - bu qonunning ustuvorligi bilan raxmdillikning uyg'unlashuvi.
Xodim uchun ish joyining doimiyligi	yuqori darajadagi qo'nimsizlik tashkilot faoliyati samaradorligini pasaytiradi. O'z ish joyini mustahkam egasi bo'lish harakatida bo'lgan oddiy rahbar bir joyda muqim ishlashni istamaydigan iste'dodli rahbardan ming chandon yaxshi.
Tashabbus	Tashabbus - bu tom ma'noda rejani ishlab chiqish va uning o'z vaqtida bajarilishini ta'min-lashdir.
Korporativ ruh	Ittifoq - bu kuch. U esa xodimlar o'rtasidagi hamjihatlikning va manfaatlarining hamohanglashuvi natijasi bo'lishi mumkin.

Rahbarlik qilishning fundamental qoidalarini amalga oshirish uchun bir qancha usullardan foydalanish kerak.

Rahbarlik qilishning fundamental qoidalarini amalga oshirish usullari:

tashkiliy-ma'muriy va huquqiy usullar;

iqtisodiy usullar;

ijtimoiy-ruxiy usullar;

tarbiyaviy usullar.

13-rasm. Rahbarlik qilishning usullari⁴⁹

Tashkiliy-ma'muriy usullar to'g'risida so'z yuritilganda, avvalo, bu usulning mohiyati, ahamiyati, shakllarini ochib berish kerak. So'ngra, boshqarishning huquqiy vositalari, huquqiy me'yorlarini bayon etish zarur.

Tashkiliy-ma'muriy usullar boshqaruv usullari tizimida alohida o'rin tutadi va quyi idoralarning yuqori idoralarga bo'ysunishiga asoslanadi. Bu usulning mohiyati shundaki, boshqarish tizimidagi munosabatlarni tartibga solib turadi, jamoalar ichida va orasida ratsional aloqalar tarkib topishiga yordam beradi.

Tashkiliy-ma'muriy usullar yordamida boshqaruv apparatining muayyan tizimini tuzish; boshqaruv bo'g'inlarining funksiyalarini belgilash; kadrlarni to'g'ri tanlash va joy-joyiga qo'yish; buyruqlar, farmoyishlar va qo'llanmalar chiqarish hamda ularning bajarilishini nazorat qilish; topshiriqlar va direktiv ko'rsatmalarni bajarmayotgan bo'linma va shaxslarga nisbatan ma'muriy choralar qo'llash amalga oshiriladi.

Boshqaruvning iqtisodiy usullari iqtisodiy manfaatlardan foydalanishga asoslanadi. Zero, har bir muayyan jamiyatning iqtisodiy munosabatlari, eng

⁴⁹Muallif ishlanmasi

avvalo, manfaatlar tarzida namoyon bo‘ladi. Manfaatlar uch xilda bo‘lishi mumkin:

- umum jamiyat manfaatlari;
- jamoa manfaatlari;
- shaxsiy manfaatlar.

Bu manfaatlarni uyg‘unlashtirish muammosi bir qator vazifalarni hal etishni, har bir davr sharoitlariga muvofiq keladigan munosabatlar o‘rnatishni talab etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida quyidagi iqtisodiy usullardan keng foydalanishga e‘tibor beriladi:

- tarmoqlar va ularning bo‘linmalariga faoliyat yuritishlarida erkinlik va mustaqillik berishga;

- barcha sohalarni pirovard natijalarga binoan moddiy rag‘batlantirish, soliq imtiyozlarini berishga;

- korxonalar va xo‘jaliklar o‘rtasidagi o‘zaro shartnomalarning bajarilish intizomini mustahkamlash va ularning rolini oshirishga;

- moliya-kredit munosabatlarini takomillashtirishga;

- bozor munosabatlari mexanizmlari: baxo va foyda, soliq va boj to‘lovlari, kredit va rentabellik, raqobat va hokazolarga.


Bu usulda xodimlarning shaxsiy va guruhviy manfaatlarini yuzaga chiqarish orqali ularning samarali ishlashi ta‘minlanadi. Shu maqsadda ko‘pincha ish haqi to‘lash, mukofotlar berish, beryo‘la katta mablag‘ bilan taqdirlash kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy usullar boshqarishning barcha usullari orasida yetakchi o‘rin egallaydi. Bu usuldan oqilona foydalanish jiddiy rejalar qabul qilishga, barcha resurslardan yanada unumliroq foydalanishga, yangi texnologiyalarni joriy etishga, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga va foydani maksimallashtirishga, natijada ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Boshqaruv tizimining muhim usuli hisoblangan ijtimoiy-ruhiy usullarning asosiy maqsadi jamoalarda sog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratishdan iborat.

Sanoat ishlab chiqarishini boshqarishda ham bir qator umumfalsafiy usullarni qo‘llash mumkin. Sanoatni boshqarishning sir-asrorlarini ilmiy asosda o‘rganish, tahlil qilish maqsadida quyidagi usullardan ham keng foydalaniladi:

1. Tizimli yondashuv;
2. Kompleks yondashuv;
3. Tarkibiy yondashuv;
4. Vaziyatli yondashuv;
5. Integratsion yondashuv;
6. Modellashtirish bo‘yicha yondashuv;
7. Kuzatish usuli;
8. Tajriba usuli.



14-rasm. Sanoat ishlab chiqarishini boshqarishdagi umumfalsafiy usullar


Birinchi usulda sanoat ishlab chiqarishi yaxlit tizim tarzida olib qaraladi. Ikkinchi usulda esa sanoat boshqa sohalar, tarmoqlar bilan o'zaro bog'lanishda va aloqadorlikda qaraladi. Uchinchi usulda sanoat ishlab chiqarishi tarkibiy qismlarga, ya'ni tarmoqlar, korxonalar, sanoat infratuzilmasi va hokazolarga bo'lib o'rganiladi. To'rtinchi usulda sanoatning muayyan sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab boshqarishning ma'qul uslubi qo'llaniladi. Beshinchi usulda sanoat yuqoridagi usullarni birgalikda qo'llash yordamida boshqariladi.

Modellashtirish va iqtisodiy-matematik usullardan foydalanish jarayonida turli chizmalar, xomaki materiallar tayyorlanadi, hisoblash texnikasi va kompyuter texnologiyalarning barcha imkoniyatlari ishga solinadi.

Kuzatish usulida sanoat ishlab chiqarishi to'g'risidagi ma'lumotlarni bashoratli, ilmiy jihatdan namunali uyushtirilgan asosda to'plash va internetdan foydalanilgan tarzda yo'lga qo'yiladi. Kuzatuvchining sotsiologik usuli anketali so'rovlar, suhbatlar, testlar va infratuzilmaviy tahlillarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. Sanoat korxonalarini tuzilmasini belgilovchi omillar

Tuzilma (struktura) tushunchasini korxonaning tarkibi, tuzilishi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Korxonaga qanchalik yirik bo'lsa, uning ishlab chiqarish tuzilmasi shunchalik murakkab bo'ladi.



15-rasm. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish tuzilmalari

Texnologik tuzilmali korxonalarda sexlar va ishlab chiqarish uchastkalari texnologik jihatdan bir xillik tamoyili asosida tashkil qilinadi (masalan, to'qimachilik kombinatlarida yigiruv va to'quv sexlari).

Predmetli tuzilmaga asoslangan korxonalarda har bir sex ma'lum bir mahsulot yoki uning bir qismini ishlab chiqaradi (masalan, avtomobil zavodida motor sexi, shassi sexi va hokazo).

Aralash (predmetli-texnologik) tuzilma tayyorlov sexlarini texnologik tamoyilda (temirchilik, cho'yan quyish, po'lat quyish va hokazo), ishlov berish va mahsulot chiqarish sexlarini esa predmetli tamoyil asosida tashkil etishni ko'zda tutadi.

16-rasm. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish tuzilmalari tavsifi⁵⁰

Sanoat korxonasining tuzilmasi quyidagi omillar ta'siri ostida shakllanadi:

texnika va texnologiyaning xususiyatlari;

ishlab chiqarish hajmi;

ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllari (ixtisoslashtirish, kooperatsiya, kombinatsiya, koordinatsiya);

ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlarning murakkabligi va nomenklaturasi;

ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, mexanizatsiyalashtirish va robotlashtirish darajasi;

mulk shakli;

raqobat olib borish usullari hamda shakllari va hokazo.

17-rasm. Sanoat korxonasining tuzilmasiga ta'sir etuvchi omillar⁵¹

4. Sanoat korxonalarida boshqaruv tuzilmalari shakllari va ularning xususiyatlari

⁵⁰Muallif ishlanmasi

⁵¹Muallif ishlanmasi

Tashkiliy tuzilma deganda korxonada boshqaruvi funksiyalarini bajaruvchi turli xil bo‘lim, xizmat va bo‘linmalar tarkibi, o‘zaro munosabatlari va bir-biriga bo‘ysinishini tushunish lozim. Tashkiliy tuzilma boshqaruvning tizim va alohida faoliyat turi sifatidagi bir butunligini ifodalaydi. U boshqaruv organlarining ma’lum bir tartibini, hokimiyat va bo‘ysinish aloqalarini, vertikal va gorizontal mehnat taqsimotining integratsiyalashuvini aks ettiradi.

Boshqaruv tuzilmasi dinamik tarzda bo‘ladi. U ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarning rivojlanishi, boshqaruv ob’ektlarining qarama-qarshiliklari va qonuniyatlari haqidagi bilimlarimiz darajasining o‘shishiga bog‘liq holda o‘zgarib boradi. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasiga korxonaning hajmi, uning ixtisoslashuvi va kooperatsiya aloqalari, mulkchilik shakli, qaysi tarmoqqa tegishliligi, joylashgan hududi kabi omillar katta ta’sir ko‘rsatadi.

«Tuzilma (tuzilma)» so‘zi elementlar birlashuvini ular orasidagi o‘zaro munosabat va aloqalarni bir butun tizim ekanligini anglatadi.


Tashkiliy tuzilmaga umumiy tavsif berib, uning ahamiyatini belgilovchi bir necha qoidalarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Firmaning tashkiliy tuzilmasi menejmentning barcha vazifalarini muvofiqlashtiruvini ta’minlaydi.
2. Tashkiliy tuzilma boshqaruv darajasining xuquq va javobgarliklarini aniq belgilaydi.
3. Tashkiliy tuzilmaga firmaning samarali faoliyati, uning davomiy rivojlanishi bevosita boshliqning vazifasidir.
4. Firmada qabul qilingan tartib xizmatchilarning tashkiliy aloqalarini belgilaydi shu bilan menejmentning uslubi va jamoaning sifatini aniqlaydi.

18-rasm. Tashkiliy tuzilmaning ahamiyatini belgilovchi qoidalar⁵²

Tashkiliy tuzilma asosan uch qismni birlashuvi orqali aniqlanadi: murakkablik, rasmiylik va markazlanish.


⁵²Muallif ishlanmasi



19-rasm. Tashkiliy tuzilmaning uch qismi⁵³

Ularning barchasi ko'rsatilgan qismlarning namoyon bo'lish darajasi asosida ikkita guruhga bo'linadi: mexanik va organik tuzilmaga.

⁵³Muallif ishlanmasi



20-rasm. Menejmentning tashkiliy tuzilma turlari⁵⁴

5. Sanoatda boshqaruvning zamonaviy yangi organik tarkibiy shakllari

Guruhli (brigadali) tashkiliy tarkib. Bu tarkibni asosiy turlari yuqoridagi loyiha tarkibining ko‘rinishida tavsiflangan. Ammo uning bir qancha turlari mavjudki, u yoki bu darajada klassik loyiha tarkibidan birmuncha farq qiladi.

Brigadani tashkil etilish shakli asosan ishlab chiqarishga taalluqlidir. U o‘zini ishchi markaz qilib, «katakli» tarkibdan tashkil topgan. Oddiy ishlab chiqarish markazida ish konveyer rejimida (tartibida) vazifaviy mehnat taqsimotida

⁵⁴Muallif ishlanmasi

tayyorlash, ishlov berish, yig'ish, sinov ishlari va boshqalar bajariladi. Asosan har bir ishchi o'z ixtisosligi bo'yicha bir yoki ikki xildagi operatsiyani bajaradi. Ikki markazni katakli tuzishda barcha zaruriy texnika tizimini bir joyga to'plagan bo'lib, barcha brigada a'zolari mahsulotni ishlab chiqarishda ishtirok etadilar, ya'ni bosh bochqichdan oxirgi bosqichgacha.

Brigadali tarkib ko'proq iqtisod nuqtai nazaridan ishlab chiqarishning bir sexdan ikkinchi sexga uzatish vaqtini kamayish (foydaliroq hisobalanadi) va brigada ichidagi muammo va qiyinchiliklarni tezkor echish imkonining mavjudligi foydaliroq hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda deyarli barcha g'arbiy korporatsiyalar o'z tashkiliy tarkiblarga bu kabi avtonom markazlarni boshqaruv tashkilotlari uchun o'ta tavsiflidir.

Firma ichidagi venchurli va innovatsion tarkiblar . Loyihali (dasturli, maqsadli) tashkiliy tarkibning zamonaviy o'zgargan turi bu venchurli va innovatsion tarkiblardir. Bu xildagi ikkala nom ham ma'lum darajada biri-biri bilan sinonimdir. Ingliz so'zi «venture» - tavakkalli ish, tavakkalli korxonalar ma'nolarini bildiradi. Qoida bo'yicha tavakkalli biznesda innovatsiyalar ishlanishi, ya'ni tamoyilial yangi texnologiyalar, tovarlar yoki xizmatlar bilan o'zaro bog'liq.

Innovatsion (venchur) firma ichidagi bo'linmalarning turlari

Yirik firmalarda innovatsion tarkibi bir qator omillarga ko'ra bir necha turlarga ega: ishlayotgan loyihaning ahamiyati, ularning maqsadli yo'nalishi va murakkabligi, faoliyatning shakllanishi va erkinlik darajasi.

1. Yangi mahsulotning yaratuvchi bo'lim mohiyatiga ko'ra loyiha mahsulot tarkibidir. Bo'lim firma uchun strategik ahamiyatga ega yangiliklarni yaratish va kiritish uchun bunyod etiladi. Innovatsion bo'limlardagi ishlovchilar bo'lim rejasiga kiritilmaydilar. U bevosita korporatsiyaning shtab kvartirasiga bo'ysunadi.

2. Bevosita integratsiya. Bu ham strategik ahamiyatga ega bo'lgan yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishdir. shu bilan birga innovatsiya asosi ishlab chiqarish faoliyati bilan ham bevosita bog'liqdir. Uning ustida muvaffaqiyatli ish bajarish uchun texnologik, konstruktorlik va boshqa turdagi xizmatlar turadi. shunday qilib, yangilik yaratish va uni amalda qo'llash firma boshqaruvi tizimida integratsiya qilinadi. Tabiiyki, faoliyatning yangi tashabbusli turining paydo bo'lishi tashkilotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

6. Boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

Boshqaruv tuzilmaiga qo'yiladigan talablar va ularni belgilovchi omillar mavjud bo'lib, g'arbiy menejment nazariyasida uchta guruhga ajratib ko'rsatish mumkin. Ularni quyidagi jadvalda berilgan.

Tashkiliy tuzilma tanlashda ta'sir ko'rsatuvchi omillar⁵⁵

Ichki	Tashqi	Umumiy
1. Murakkablik	1. Tashkilot strategiyasi	1. Hukmronlik va nazorat samarasi
2. Rasmiyatchilik	2. Tashkilot o'lchami	2. Axborot jarayonlari kompyuterlashtirish
3. Markazlashtirish	3. Texnologiya (mahsulot)	
4. Boshqarish jarayoni	4. Tashqi muhit	

G'arbiy adabiyotlarda «Tuzilmani takomillashtirish» termini qoida bo'yicha ishlatilmaydi. Bu tushuncha neytralroq so'zlar bilan, masalan: tuzilmani o'zgartirish, tuzilmani almashtirish, tuzilmani tanlash, integratsiya qilish va boshqalar bilan beriladi. Ko'rib turibmizki, ular o'zlarida turdi tashkilot boshqaruv tuzilmainsi takomillashuv darajasini olib yubordilar.

Boshqaruv tuzilmasining qayta tashkil qilishning usullari shakllari turli-tumandir. Ularni bir necha yo'nalishlarga jamlash mumkin:

1. Tuzilmani ichki oddiylashtirishlar hisobiga takomillashtirish.
2. Mexanik turdagi tuzilmani ko'nikish tuzilmaiga almashtirish.
3. Amaldagi mexanik tuzilmalarni organik tuzilmalar bilan birlashtirish.
4. Konglomerat tuzilmani yaratish.
5. Kelajakdagi mumkin bo'lgan tuzilmalar modeli va avtokratik tashkilotlar.

«Tuzilmani takomillashtirish» yo'nalishlari:

1. Tarkibni oddiylashtirish hisobiga takomillashtirish. Bu muntazam tarkiblarni boshqaruv saviyalari sonini kamaytirish hisobiga almashtirish. Bu muntazam tarkiblarni boshqaruv saviyalari sonini kamaytirish hisobiga yassiroq tarkiblarni aylantirish.

2. Mexanik turdagi tarkibni ko'nikish tarkibiga almashtirish. Bu menejment tarkibini qayta ko'rishni ko'proq radikal usulidir. Uni firmaning favquloddagi hollarda, uning hayotiy faoliyatiga xuruj qilishganda ishlatadilar. Avval ta'kidlaganimizdek, shunday qayta ko'rish uchun kuchli sardor komandasi kerak.

3. Mexanik tarkiblar ichida har xil shakldagi organik tarkiblarni bunyod etish. Bular venchur, innovatsiya bo'limlari, biznes markazlar, brigada tarkiblari, ekspert guruhlarini bunyod etilishi kerak. Taraqqiyot topgan davlatlarning hozirgi zamon menejmenti ularning zarurligini, firmaning samarali faoliyati uchun birlamchi sharoiti hisoblanadi.

4. Konglomerat tarkibni tashkil etish. «Konglomerat» tushunchasi har xil turdagi elementlarni birlashtirishini bildiradi.

5. Modelli va avtokratik tashkilotlar - ular balki kelajak tarkiblaridir.

⁵⁵Muallif ishlanmasi

Nazorat va muhokama uchun savollar 1.

1. Boshqaruvning mohiyati, ahamiyati, zaruriyati, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Boshqaruvning bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos va xos tamoyillari va usullari-chi?
3. Sanoat boshqaruvining hozir ahvoli qanday?
4. Boshqaruvning istiqboli hamda uni iqtisodiy o‘rish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo‘naltirish nimalarni taqozo etadi?
5. Boshqaruvda xorijiy mamlakatlar tajribasi va undan keng foydalanish nima uchun zarur?

9-mavzu. ISHLAB CHIQRISHINI PROGNOZLASH VA REJALASHTIRISH

Reja:

1. Rejalashtirish va prognozlashning mohiyati, ahamiyati va vazifalari
2. Rejalashtirishning metodologik asoslari
3. Rejalashtirishning tamoyillari va usullari
4. Sanoat ishlab chiqarishida rejalashtirish jarayonlari va rejalar tizimi
5. Sanoat ishlab chiqarishida biznes-reja, uning mazmuni va ishlab chiqish tartibi
6. Rejalashtirish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar va rejalashtirishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari

1.Rejalashtirish va prognozlashning mohiyati, ahamiyati va vazifalari.

Rejalashtirish - maqsadni belgilash, unga etish vositalarini aniqlash va harakat yo‘llari to‘g‘risida muntazam ravishda dastur ishlab chiqish jarayonidir. **Rejalashtirish**, jumladan, indikativ reja va prognoz – bu, korxonalarining xo‘jalik faoliyati uchun mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish uchun barcha omillardan foydalanish va tayyorgarlikning o‘z vaqtida bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan qulay sharoitlarni yaratishdir.

Reja va rejalashtirish orasidagi farqni anglash muhim ahamiyat kasb etadi. **Rejalashtirish** indikativ reja yoki prognoz kabi rejalarini ishlab chiqish jarayoni bo‘lsa, **reja** korxonaning ma’lum bir vaqt mobaynida amalga oshiruvchi texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘zida aks ettiruvchi hujjatni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, reja – bu, korxonaning maqsadli funksiyalari va ularni amalga oshirish yo‘llarini belgilab beruvchi rejalashtirishning moddiylashgan shaklidir.

Rejalashtirish - xo‘jalik yuritishda ob‘ektiv iqtisodiy qonuniyatlardan ongli ravishda foydalanishdir.

Rejalashtirish - bu korxonani tashkil etish, uning faoliyatini va taraqqiyotini belgilaydigan rejani ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish ustidan nazorat qilish jarayonlaridir.

Rejalashtirish – loyiha ishlab chiqish bo‘yicha axborotni ishlashga asoslangan kelajakda maqsadga erishish uchun parametrlarni aniqlovchi tartibga solingan jarayondir.

Rejalashtirish – «kelajakning ongli tafakkuri».

Rejalashtirish (keng ma‘noda) – «mazmunan bo‘lajak voqealarni aniqlash bo‘yicha qarorlar qabul qilishni tizimli tayyorlash asosida boshqaruv qarorlarini shakllantirishdir».

Rejalashtirish – «oldindan sezib qabul qilingan qaror», ya‘ni rejalashtirish deganda shunday echim tushuniladiki, u (qaror qabul qilishga muvofiq keluvchi axborot jarayoni bilan bir qatorda) vaqt jihatdan kon‘yukturali voqealar yuzaga kelishidan oldin ishlab chiqiladi.

Rejalashtirishni «aslida tafakkurning aqliy prognozi va ta‘kidlar kelajak faoliyatini kuzda tutadigan tafakkur jarayoni sifatida», - deb ta‘riflash mumkin.

Rejalashtirish – bu vazifani sifatli va sonli tasvirlash, natijaviy imkoniyatlarni belgilash va ularga erishish yo‘llarini aniqlashdir.

Rejalashtirish – kelajak muammolarini bilish va hal etishning tizimli, usuliy (metodik) jarayoni.

Nihoyat, rejalashtirish – iqtisodiyotga rahbarlik qilishning o‘zagidir. Rejalar esa davlat iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning asosiy qurolidir.

Rejalashtirish nazariyasida rejalashtirishning turlari, bosqichlari, maqsadlari, vazifalari, tizimlari degan tushunchalar mavjud.

Rejalashtirishning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

munosabatdor kattaliklar bo‘yicha rejalashtirish;

muvofiqlashtirish shakllari bo‘yicha rejalashtirish;

moslashuv (adaptatsiya) shakliga ko‘ra rejalashtirish.

1-rasm. Rejalashtirishning turlari⁵⁶

⁵⁶Muallif ishlanmasi



2-rasm. Rejalashtirish jarayoni bosqichlari⁵⁷

Sanoatni rejalashtirishdan ko'zlangan oliy maqsad sanoat ishlab chiqarishining faoliyati asosida avvaldan fikran o'ylangan bo'lg'usi natijani aniqlash va bu natijaga erishish uchun tegishli chora-tadbirlarni belgilashdan iborat bo'ladi. Shu sababli rejalashtirish jarayonining birinchi bosqichi maqsadlarni ifodalashdan iborat bo'ladi.



3-rasm.rejalashtirishning asosiy vazifalari⁵⁸

Prognoz deganda real ob'ektning kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan ahvoli, uni amalga oshirishning alternativ, ya'ni muqobil (mumkin bo'lgan qarama-qarshi ikki holdan birini tanlab olish zaruriyati) yo'llarini va muddati to'g'risidagi ilmiy

⁵⁷ Muallif ishlanmasi

⁵⁸ B.A.Abdukarimov va boshqalar, "Korxonalar iqtisodiyoti": darslik – 2-qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri. – T.: "Fan", 2012 – 371-bet

jihatdan asoslangan mulohaza tushuniladi. Qisqacha qilib aytganda, oldindan qilingan xulosadir.

Prognozlash, ya'ni prognoz qilish deganda kelajakni ko'rish, mo'ljal qilish va oldindan aytib berish jarayoni tushuniladi. Faqat mavjud dalillar, ma'lumotlar va aniq raqamlar asosida voqea yoki hodisaning qanday bo'lishi, rivojlanishi va oqibatini oldindan aytib berish, ya'ni prognoz qilish mumkin.


Prognoz qilishning bir qancha yo'llari mavjud bo'lib, ulardan eng asosiylariga iqtisodiy va ijtimoiy prognoz qilish kiradi.

Prognoz qilishning maqsadi real ob'ektning kelajakda fikran o'ylangan natijasini ta'minlashdan iborat. Hodisa va voqealar fikriy modelining natijasiga erishish.

Prognoz qilishning vazifasi esa bu jarayonning oldida turgan maqsadga erishish uchun bir qator ishlarni bajarishdan iborat.

2. Rejalashtirishning metodologik asoslari


Tarixan insoniyat o'z faoliyatini amalga oshirishda abstrakt fikrlash asosida uni doimo xayolan prognoz qilgan va rejalashtirgan.



4-rasm. Rejalashtirishning zarurati⁵⁹.

Rejalashtirish metodologiyasi rejalashtirish jarayonining ichki logikasini yoritib beradi. Rejalashtirish metodologiyasi rejalashtirish jarayonini tashkil qilish, uni ishlab chiqish va joriy qilish tamoyillarini, usullarini, tarkibini, ishlab chiqish tartibini va bosqichlarini hamda ko'rsatkichlari tizimini asoslab beradi.

⁵⁹ B.A.Abdukarimov va boshqalar, "Korxonalar iqtisodiyoti": darslik – 2-qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri. – T.: "Fan", 2012 – 371-bet



5-rasm. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirish muammolari⁶⁰.


Fredrix Uinslou Teylor (1886-1915 y.) hozirgi zamon menejmentini asoschisi deb hisoblangan, ishlab chiqarishni tashkillashtirish nazariyasini yaratgan. Uning “Menejmentni ilmiy prinsiplari” nomli asarida mehnatni tashkil qilish qonuniyatlari to‘g‘risidagi bilimlarni qat’iy ilmiy tizimi, mehnatni tashkil qilishni, vaqtni o‘rganish usullari (xronometraj), tannarxni hisoblashni matematik usullari, ish haqini differentsiatsiya qilish, mehnat jarayonini tahlil qilish va uning asosida rejalashtirish, tashkil qilish masalalari asoslangan. F.Teylor nafaqat yuqoridagi qoidalarni nazariy asoslagan, ularni ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq qilgan.

Genri Lodrens Gamnt (1861-1919y.) korxonalar faoliyatini tezkor rejalashtirish va boshqarishga asos solgan. Uning “Grafigi Gamnta” nomi bilan mashhur bo‘lgan grafiklari ishlab chiqarish korxonalar faoliyatini rejalashtirish jarayonida keng foydalanilgan.

Gorrington Emirson (1853-1931y.) mehnat unumdorligini oshirishni 12 ta qoidasini ishlab chiqqan. Ularga boshqarishni boshlang‘ich nuqtasi sifatida maqsadni aniqlash; kamchiliklar va nuqsonlarni tan olish va sababini axtarish; xodimlar faoliyatini reglamentatsiya va nazorat qilish, hamda moddiy rag‘batlantirish; ishlab chiqarish jarayoni elementlarini normalashtirish, doimiy, to‘la, real va tezkor hisob-kitob qilish, rejalashtirish kabi masalalarni kiritgan.

⁶⁰ B.A.Abdukarimov va boshqalar, “Korxonalar iqtisodiyoti”: darslik – 2-qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri. – T.: “Fan”, 2012 – 371-bet

Germaniya Federativ Respublikasi Kansleri Lyudvig Erxard (1950-1960y) iqtisodiy reformalar o'tkazgan va reformaning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida indikativ rejalashtirishni joriy qilish bo'lib hisoblangan. Indikativ rejalashtirish indikativ ko'rsatkichlarni tasdiqlashdan iborat bo'lib, ularni bajarilishini ta'minlash uchun qudratli iqtisodiy, huquqiy, ma'muriy dastaklar (instrumentlarni) ishlatishni ko'zda tutgan. Jahon iqtisodiyot nazariyasi yutuqlari va tajribasini ishlatish asosida indikativ rejalar chuqur ilmiy asosda ishlab chiqilib, uni tayyorlashga yuqori kasbiy malakaga ega bo'lgan iqtisodchilar, olimlar jalb qilingan.



6-rasm. Rejalashtirishni tashkil qilish usullari.

Yuqoridagilardan kelib chiqib rejalashtirishni tarixiy, iqtisodiy kategoriya deb hisoblash mumkin.


Хориж тажрибаси

Rejalashtirish borasida jahonda 100 eng yirik deb tan olingan transnatsional kompaniyalardan biri, Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi “Ay.M.-elektrik” firmasining tajribasi nazariy va amaliy jihatdan e‘tiborga sazovor. Bu firma energetik jihozlar ishlab chiqarish, ularni ta‘mirlash va ishlatish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi.

Ushbu firmada rejalashtirish har ikki yilga (har bir strategik xo‘jalik markazi (SXM) bo‘yicha) strategik reja ishlab chiqishdan boshlanadi. Bu ishga 4 oy muhlat beriladi. Strategik yo‘nalish uch yilga mo‘ljallanib, 5 yilga ekstropolyasiya qilinadi. Bu tsikl yillik rejalarni asoslashni ham o‘z ichiga oladi.

Yillik (joriy) rejalashtirishni xo‘jalik faoliyatini, bozor kon‘yunkturasini chuqur tahlil qilish asosida marketing bo‘limi bajaradi. Rejani bajarilishini ishlab chiqarish bosh boshqarma boshlig‘i har oyda o‘tkazadigan majlislarda zavodlar boshliqlari orqali amalga oshiradi. Har qanday rejadan chetlashish marketing va moliya bo‘limlari bilan tanqidiy tahlil qilinadi, rejaga zaruriy korrektirovkalar kiritiladi. Rahbariyatning doimiy nazoratida turadigan ko‘rsatkichlarga - buyurtmalar soni, ishlab chiqarish vaqti, mehnat

Rejalashtirishning asosiy vazifasi maqsadni to‘g‘ri belgilash, unga erishish parametrlarini (indikatorlarini, ko‘rsatkichlarini) va yo‘llarini aniqlab berishdan iborat.



7-rasm. Rejalashtirishning umumlashtirilgan uch bosqichi⁶¹.

⁶¹Muallif ishlanmasi

Rejalashtirish jarayoniga qo‘yiladigan talablarni quyidagicha ifodalash mumkin:

- korxonalarining rivojlanish g‘oyasini, maqsadini aniqlash;

- asosiy maqsadga erishishni ta‘minlaydigan tijorat g‘oyalarini namoyon qilish;

- rejalashtirish uzluksiz jarayon bo‘lib, barcha jamoaning ijodiy yondashishini, rag‘batlantirishni taqozo qiladi

- reja barcha funksional bo‘limlarni, mutaxassislarni, boshliq bilan uning qaramog‘idagi xizmatchilarni o‘zaro ta‘siri va tig‘iz boglanishda, birgalikda optimal aniqlashga erishish asosida tuzilishi kerak;

- bozor konyukturasi o‘zgarish ehtimollariga mo‘ljallangan alternativ variantlar mavjud bo‘lishi shart;

- bozor iqtisodi sharoitida barcha resurslardan (ular chegaralangan) oqilona, ratsional foydalanish, xarajatlarning tejamliligini, natijalarning optimalligini ta‘minlash;

- korxonaning faoliyatini chuqur, har tomonlama baholash maqsadida uning samaradorligi me‘zonini, ko‘rsatkichlarini aniqlash;

- korxonada faoliyatiga ta‘sir qiluvchi omillarni aniqlash, ularning ta‘sir qilish darajalarini chuqur tahlil qilish, asoslash, imkoniyatlarni, yangi rezervlarini aniqlash;

- va nihoyat ishlab chiqarilgan hamda qabul qilingan dasturning bajarilishini ta‘minlash va nazorat qilish kabilardir.

3. Rejalashtirish tamoyillari va usullari

Sanoat korxonasi yirik bo‘lsa, asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatuvchi tsexlardan iborat bo‘lib, ularning har biri faqat o‘ziga xos bo‘lgan vazifani bajaradi va shunga mos holda faoliyatni rejalashtirish va tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatiga ega bo‘ladi. shundan kelib chiqqan holda **etakchi bo‘g‘inni ajratib ko‘rsatish** rejalashtirishning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Rejalashtirishning yana bir muhim tamoyili **ilmiylik** bo‘lib, u avvalo tayyorlanayotgan rejalar va ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturlariga, shuningdek, fan-texnika taraqqiyoti talablari, raqobatchilik va bozor talablarini hisobga olishga asoslanadi. Rejalashtirishning ilmiyligi, jonli mehnat va mahsulotga aylangan mehnat xarajatlarining eng kam miqdorida iloji boricha yuqori natijalarga erishishga, shuningdek, korxonada xodimlari manfaatdorligini oshirishga ko‘maklashadi.

Komplekslilik tamoyili ishlab chiqarishni, birinchidan, zamon va makonda, ikkinchidan, ishlab chiqarishni boshqarishning gorizontal va vertikalida, uchinchidan, ishlab chiqarishning resurs asoslarini ta‘minlashda, to‘rtinchidan, ishlab chiqarishdagi “tor joylarni” hisobga olish va ularni yo‘qotish chora-tadbiralrida, beshinchidan, xodimlarning o‘z mehnatlari natijasidan moddiy va ma‘naviy qoniqishida, oltinchidan, korxonaning mo‘ljallanayotgan daromad yoki foyda olishini amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

Proporsionallik nafaqat ishlab chiqarishni rejalashtirishda, balki ishlab chiqarishni boshqarishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zarur proporsiyalarga amal qilish ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchining sexlar va ish joylari bo'yicha hamda ishlab chiqarish bosqichlarida to'g'ri taqsimlanishiga va ulardan to'g'ri foydalanishga ko'maklashadi.

Rejalashtirishning uzluksizligi ishlab chiqarishni va umuman, korxonada faoliyatini tashkil etishning muhim tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyil amalda joriy rejalarning istiqboldagi rejalar bilan, istiqboldagi rejalarning esa prognozlar (prognoz) bilan bog'liq bo'lishida o'z aksini topadi.

Optimallik ham rejalashtirish tamoyillari qatoriga kiradi. Rejalar barcha ishlab chiqarish resurslaridan chiqitlar va yo'ldosh mahsulotlardan keng foydalanishni inobatga olgan holda iloji boricha ratsional va unumli foydalanishni ta'minlashi hamda yuqori natijalarga erishish uchun eng samarali yo'llarni tanlashi kerak.

Rejalashtirishning optimalligiga iqtisodiy-matematik usullar va elektron hisoblash mashinalarini qo'llash, rejalarning bir nechta variantlarini ishlab chiqish yordamida erishiladi. Ko'p variantlilik eng tejamkor reja varianti yoki korxonada faoliyati dasturini tanlashga imkon yaratadi.

Moslashuvchanlik tamoyili ishlab chiqarish rejalariga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritish, iste'molchilar va xaridorlar talablarini hisobga olish, ishlab chiqarishning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan pasayishi va inqirozlarning oldini olishga yordam beradi.

Rejalashtirishning eng ko'p tarqalgan usullari qatoriga quyidagilarni: balans, normativ, iqtisodiy-matematik, statistik, omillar bo'yicha, ko'p variantli hisob-kitob usuli kabilarni kiritish mumkin.

Hozirgi paytda *balans usulining* ahamiyati oshib bormoqda. Ushbu usulning mohiyati, o'zaro aloqada bo'lgan ko'rsatkichlarni solishtirish bilan ifodalanadi. Faqat balans usuligina asosiy proporsiyalarni belgilash, resurslarning jamiyat ehtiyojlariga muvofiqligini aniqlash, rejalarni real va natijali qilish imkonini yaratadi. Balanslardan istiqbol va joriy rejalarning barcha bo'limlarini ishlab chiqishda foydalaniladi.

Balans usuli asosida korxonaning ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi, ishlab chiqarish quvvatiga bo'lgan talablari va ularning manbalari aniqlanadi. Bundan kelib chiqqan holda *moddiy balans, ishlab chiqarish quvvatlari balansi, ishchi kuchi balansi, ish vaqti balansi, qiymat balansi*ni ajratib ko'rsatish mumkin. Balanslar, qoidaga ko'ra, ehtiyojlar va ularga mos keluvchi resurslarning mavjudligi yoki manbalarini o'z ichiga oluvchi, o'zaro moslashuvchi jadval shaklida tuziladi.

Balans usuli *normativ usuli* bilan birgalikda qo'llanadi. Normativ usulida resurslarni sarflashning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan eng yuqori va eng quyi chegaralari aniqlanadi. Bunda ishlab chiqarishni rejalashtirish va tashkil etishda norma va normativ kabi tushunchalardan foydalaniladi.

Norma (me'yor) – bu, belgilangan sifatdagi mahsulot birligi (ish, xizmat) tayyorlash uchun sarflanuvchi xom ashyo, material, yoqilg'i, energiya va boshqa

resurslardan foydalanishning yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan maksimal yoki minimal chegarasidir.

Normativ – bu, nisbiy kattalik bo‘lib, asosan foizlar yoki koeffitsientlar yordamida aks ettiriladi. Masalan, asosiy vositalarning birlik qiymatiga mahsulot ishlab chiqarish (fond qaytimi), sutning moylilik, vinoning spirtlilik darajasi (foizlarda), avtomashinaning bosib o‘tgan yo‘li, avtomobil shinasining ekspluatatsiyasi va hokazo.

Norma va normativlar quyidagi asosiy guruhlar asosida ishlab chiqiladi⁶²:

- **jonli mehnat xarajati normalari** (mahsulot biriligiga sarflanuvchi ish vaqti normasi, vaqt biriligida ishlab chiqarish normasi, xizmat ko‘rsatish normasi, miqdor normativi);

- **moddiy xarajat normalari** (xom ashyo, material, yoqilg‘i, energiya, butlovchi qismlar);

- **ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish normativlari** (ishlab chiqarish siklining davomiyligi, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarish zahiralari va hokazo);

- **mehnat vositalaridan foydalanish normalari** (mashinalar, asbob-uskunalar, mexanizmlar, qurilmalar);

- **korxonalar, sexlar, asbob-uskunalarining loyiha quvvatiga chiqish vaqti normalari.**


5.4. Sanoat ishlab chiqarishida rejalashtirish jarayonlari va rejalar tizimi.

Reja – bu davlat ijtimoiy–iqtisodiy siyosatini, jamoa va shaxs o‘z ishlarini amalga oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Reja – bu biror ish, dastur, tadbir va shu kabilarni amalga oshirishning oldindan belgilangan tartibi, loyihasi. Ko‘pincha uni topshiriq deb ham ataydilar.

Rejalashtirish – qaror qabul qilishning uzluksiz bir jarayoni bo‘lib, bu jarayon davomida korxonalar faoliyati va rivojlanishining maqsad va vazifalari atrofida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni inobatga olgan holda vaqt bo‘yicha aniqlanadi va belgilanadi hamda ularni amalga oshirish uchun resurslar aniqlanadi.

⁶²Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006, – 208 b.



8-rasm. Mazmuniga ko'ra rejalashtirish turlari.

Hozirgi paytda iqtisodiyotga oid bo'lgan adabiyotlarda rejalashtirishga nisbatan *strategik, uzoq muddatli, qisqa muddatli va joriy rejalashtirish* kabi tushunchalar qo'llanmoqda. Ularning har biri o'z shakli, ko'rsatkichlarni ishlab chiqish va hisoblash usullariga ega.

Strategik rejalashtirish xo'jalik yuritishning bozor tizimidagina vujudga kelib, 10-15 yillik davrni o'z ichiga oladi.

Strategik rejalashtirish asosida yaqin 3-5 yilga mo'ljallangan *uzoq muddatli rejalashtirish* amalga oshiriladi.

Qisqa muddatli rejalashtirishda korxonada faoliyati va rivojlanishi 1-3 yilga mo'ljallab rejalashtiriladi.

Joriy rejalashtirishda choraklarga bo'lingan yillik rejalar asos qilib olinadi. Ushbu rejalar qoidaga ko'ra, o'zgaruvchan bo'lib, joriy yilning birinchi uch oyi uchun *qat'iy, hayotiy ko'rsatkichlar* belgilanib, keyingi to'qqiz oy davomida ularga to'g'rilashlar (korrektirovka) kiritiladi.

Reja tuzish jarayonida qo'llaniladigan barcha ko'rsatkichlarning belgilanish tartibi, ishlab chiqarish xodimlarining xo'jalik faoliyatida qo'llanish miqyosi va vazifasiga qarab guruhlariga ajratilishi mumkin.

Belgilanish tartibiga ko'ra ular tasdiqlanadigan va hisoblanadigan ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Rejalashtirishning istalgan turi korxonada faoliyatining biron-bir jihatini aks ettiruvchi, umumiy va xususiy, sifat va miqdor ko'rsatkichlariga asoslanadi.

Umumiy va umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar korxonada ishlab chiqarish rivojlanishining yo'nalishi va darajasini aks ettiradi. Bunday ko'rsatkichlar qatoriga ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi, mehnat, tannarx va jamg'armalar bo'yicha ko'rsatkichlarni kiritish mumkin.


Xususiy ko'rsatkichlar umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar asosini tashkil qiluvchi alohida elementlarni, masalan, material, yoqilg'i, energiya va shu kabilarning mahsulot tannarxidagi salmog'ini tavsiflaydi.

Umumlashtiruvchi hamda xususiy ko'rsatkichlar ikkita kategoriYaga - miqdor (absolyut) va sifat (nisbiy) kategoriyalariga bo'linishi mumkin.

Miqdor ko'rsatkichlari korxonaning ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish faoliyatini hajm o'lchamida izohlaydi. Bunday ko'rsatkichlar qatoriga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori, ishlayotgan xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondi, mashina va asbob-uskunalar parki, ishlab chiqarish dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan materiallar miqdori, sex hamda ish joylari soni va hokazolarni kiritish mumkin.

Sifat ko'rsatkichlari korxonaning ishlab chiqarish faoliyatidagi o'zgarishlarni nisbiy kattaliklar: mehnat mahsuldorligining o'sishi, mahsulot tannarxining bazis davrga (yoki reja hisobotiga) nisbatan foizlarda kamayishi, mahsulotning to'liq tannarxiga nisbatan foizlarda daromad hajmi, korxonalar rentabellik darajasining o'sishi va shu kabilalar yordamida tavsiflaydi.

4. Sanoat ishlab chiqarishida biznes-reja, uning mazmuni va ishlab chiqish tartibi



Biznes-rejani qanday ta'riflash mumkin.



Birinchiidan, biznes-reja korxonalar faoliyatini to'g'risidagi g'oya, maqsad, menejment, marketing faoliyatini va ishlab chiqarishni kelajakka mo'ljallangan ko'rsatkichlari majmuasidan iborat hujjat sifatida tushunish mumkin.



Ikkinchiidan, faoliyatda shakllanadigan iqtisodiy munosabatlarni tasvirlaydigan, korxonaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni asoslovchi hisob-kitoblar yig'indisi.



Uchinchiidan, korxonaning kompleks ish rejasi sifatida korxonaning "kompasi" deb hisoblash mumkin.

9-rasm. Biznes-rejasining ta'riflari⁶³

⁶³ Muallif ishlanmasi

Biznes-reja amaliyotda asosan to'rt xil bo'lib, har birining o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

Firmaning ichki biznes-rejasi;

aylanma mablag'larni to'ldirish maqsadida kredit olish uchun tuziladigan biznes-reja;

investitsiya biznes-rejasi;

moliyaviy barqarorlash rejasi.

10-rasm. Biznes-rejaning turlari⁶⁴

•Biznes-reja iqtisodiy jarayonning quyidagi ishtirokchilari kategoriyasi uchun mo'ljallaniladi:

• Korxonalarahbarlariga. Ular uchun biznes-reja rahbarlik hujjati hisoblanadi. Biznes-rejani ishlab chiqishdagi ishtiroki menejerlarni korxonafaoliyatini chuqur o'rganishga, uni rivojlantirish hamdatakomillashtirishda to'g'ri qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi;

•Korxonamulkdorlariga. Korxonamulkdorlari biznes-rejani o'z maqsad va manfaatlarini amalga oshirish uchun menejerlarga ta'sir qilish uchun ishlatadi;

• Tashqi investorlarga (kreditorlar, aksiya egalari va h.k.). Investorlarni ularni qo'ygan mablag'laridan keladigan daromad qiziqtiradi, shu sababli ular korxonafaoliyatini nazorat qiladilar;

•Korxonafaoliyatida ishtirok etuvchi boshqa sheriklarga (mahsulot va boshqa resurslar bilan ta'minlovchi, ulgurji sotib oluvchilar, davlat organlari va h.k. korxonafaoliyatida qatnashuvchilar).

11-rasm. Biznes-rejaning yo'nalishi⁶⁵

⁶⁴ Muallif ishlanmasi

⁶⁵ B.A.Abdukarimov va boshqalar, "Korxonaiqtisodiyoti": darslik – 2-qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri. – T.: "Fan", 2012 – 371-bet

Biznes-rejani tuzishning umumiy xalqaro standart talablari mavjud. Masalan: biznes-reja korxonaning ichki hisobot tizimiga, rahbariyat va tashqi investorlar, sheriklarga nazorat qilish talablariga javob berishi, hamda kichik korxonalar uchun 10-20 varaqdan, yirik korxonalar uchun 40-50 varaqdan oshmasligini talab qilinadi. Investitsiya biznes-rejasi o'z standartiga ega, uning hajmi 75 varaqdan oshmasligi kerak.

Biznes-rejani tuzishda quyidagi shartlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

- biznes-reja professional va shu bilan bir paytda sodda, bajarish uchun tushunarli va oson bo'lishi lozim;
- biznes-reja investor yoki boshqa manfaatdor shaxs o'ziga kerakli ma'lumotlarni qidirib topishi uchun bo'limlarga (BOBlarga) bo'linishi lozim;
- biznes-rejani tayyorlashda korxonaning bosh rahbari albatta qatnashishi shart, chunki investor, bank yoki boshqa moliya idorasi korxonaga rahbari qatnashmaganligi yoki boshqa shaxsga topshirilganligi haqida xabar topsa, biznes-rejaning ishonchliligiga shubha uyg'onishi mumkin;
- biznes-rejaning ob'ektiv baholanishiga erishish kerak, ya'ni unda xatolar va noto'g'ri hisob-kitoblar bo'lmasligi lozim;
- biznes-rejaning tarqatib yuborilmasligini nazorat qilish zarur, chunki unda biznes to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlar joy olgan bo'ladi.

Mavjud adabiyotlarda quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oluvchi biznes-rejalar taklif qilinadi:

1. Tanlangan biznes konsepsiyasi.
2. Hozirgi paytdagi holat (maqsad, vazifa va niyatlar).
3. Tashkil qilinayotgan korxonaga va uning mahsulot hamda xizmatlari tavsifnomasi.
4. Boshqaruv (menedjment).
5. Bozor tadqiqoti va tahlili.
6. Marketing harakatlari rejasi.
7. Ishlab chiqarish rejasi.
8. Tavakkalchilikni baholash.
9. Moliyaviy reja.
10. Biznes-loyihaning samaradorligi.

6. Rejalashtirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar va rejalashtirishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari

Vaziyatni oldindan ko'ra bilish, tasodifiy o'zgarishlar, korxonalarining tashqi aloqalari, ichki faoliyat yurgizish bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liqdir. Har qanday biznes bunday omillarning ta'siridan holi emas.

Ob'ektiv omillar darajasini iqtisodiy jihatdan hisob-kitob qilib aniqlash mumkin va ular real sharoitdan, resurslardan kelib chiqadi.

Sub'ektiv omillar esa faoliyatga kishilarning professional bilimi, mahorati, dunyo qarashi, psixologiyasi kabilar bilan bog'liq bo'lib, rejalashtirish, faoliyatni tahlil qilishda ularning ta'sir qilish darajalarini, miqdorini belgilash iqtisodiy-matematik nuqtai nazardan imkoniyati yo'q. Lekin bunday omillarni ham mushohada orqali korxonalar rahbariyati, mutaxassislari rejalashtirish jarayonida e'tiborga olishi, shu omillarni chuqur va har tomonlama o'rganib chiqishi shart.

Korxonaning tashqi muhit bilan aloqalaridan kelib chiqib unga tashqaridan ta'sir qiluvchi omillarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- davlat boshqaruv muassasalari;
- umumiqtisodiy omillar;
- sotsial-ijtimoiy omillar;
- mahalliy (regional) omillar;
- milliy omillar;
- geografik omillar;
- demografik omillar;
- huquqiy omillar;
- raqobatchilar;
- ilmiy-texnik progress;
- mafkuraviy omillar;
- professional bilim bilan bog'liq omillar;
- iste'molchilar;
- raqobat muhiti;
- moddiy resurslar bilan ta'minlovchilar;
- texnologiya va jihozlar bilan ta'minlovchilar;
- malakali kadrlar tayyorlash;
- moliya bilan ta'minlovchilar;
- siyosiy omillar;
- xalqaro aloqalar va nihoyat yashirin (xufyona) bozor elementlari kabilardir.

12-rasm. Rejalashtirish jarayoniga ta'sir etuvchi tashqi omillar⁶⁶.

⁶⁶ Muallif ishlanmasi

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Reja va rejalashtirishning tavsifi, maqsadi va vazifalari qanday.
2. Rejalashtirishning bozor iqtisodiyotiga mos tamoyillari va usullari.
3. Rejalar tizimi va uning bozor munosabatlariga mosligi.
4. Sanoat ishlab chiqarish rejasining bo‘limlari va ko‘rsatkichlari.

10-mavzu. ISHLAB CHIQUARISHNING IQTISODIY VA IJTIMOYIY SAMARADORLIGI

Reja:

1. Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida ishlab chiqarishining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini ta’minlashning ahamiyati.
2. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezoni va ko‘rsatkichlari.
3. Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi monitoringi va tahlilini o‘tkazish mezonlari
4. Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati samaradorligini baholash
5. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning omillari va yo‘llari

1. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida ishlab chiqarishining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini ta’minlashning ahamiyati.

Mamlakatimiz Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasida samaradorlik masalalariga alohida e’tibor qaratilib, “Iqtisodiyot – bu hisob-kitob degani. Eng yomoni, istiqbolli yirik loyihalarni belgilash va amalga oshirishda jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yilgani, xorijiy kreditlar samarasiz ishlarga sarflangani iqtisodiyot rivojiga xalaqit bermoqda.”-deb ta’kidlandi⁶⁷.

B.A.Abdukarimov va boshqalar muallifligidagi “Korxonalar iqtisodiyoti” darsligida “samaradorlikka bunday bir tomonlama yondoshish muammoli masala bo‘lib, samaradorlikni mohiyati, tushunchasi, mezoni va ko‘rsatkichlarini ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqot qilishda sistemali, keng ma’noda, har tomonlama qarash zarur”-deb ta’kidlanadi⁶⁸.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida yozilishicha:

«samara» - natija, oqibat.

«Samarador» - kutilganicha yoki undan ham ortiq samara beradigan; samarali, sermahsul.

«Samaradorlik» - iqtisodiy samaradorlik. Mehnat samaradorligini oshirmoq.

«Samarali» - samarali ish. Samarali mehnat. Samarali ta’sir ko‘rsatmoq. Ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanmoq⁶⁹.

⁶⁷O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so‘zi, 23 dekabr, 2017 yil

⁶⁸B.A.Abdukarimov va boshqalar, “Korxonalar iqtisodiyoti”: darslik – 2-qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri. – T.: “Fan”, 2012 – 371-bet

⁶⁹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. M.: «Rus tili» nashriyoti. 1981. – B.17

Professor E.X. Maxmudovning ta'kidlashicha:

«**Samara**» – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo'q qilish bilan bog'liq bo'lgan korxonada faoliyatining ijobiy natijalaridir. Bu yutuqlar natural shaklda *ishlab chiqarish samarasini*, pul shaklida esa *iqtisodiy samarani* tavsiflaydi⁷⁰.

Samaradorlik, avvalo, korxonada faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushunchadir. U “samara” toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va kompleks tavsifga ega.

Iqtisodiy samaradorlik samaradorlikka qaraganda bir muncha tor ma'noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo'jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlar (ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam bo'lsa (mahsulot sifatiga ta'sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligini mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi farqni yo'qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi.

Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o'sishi, aholi sog'lig'ining yaxshilanishi va umr ko'rishining uzayishida aks ettiriladi.

2. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezoni va ko'rsatkichlari.

Falsafiy ma'noda mezon-bu, asosiy o'lchov, muhim farqli belgi, asosiy nuqtai nazardir. Shular asosidagina u yoki bu sohadagi bizning bilimlarimizning ob'ektiv haqiqatligini, to'g'riligini va ishonchliligini aniqlash, haqiqatni anglashmovchiliklardan farqqilish mumkin.

«Mezon» (Kriteriya) so'zi grekcha «Kriterion» so'zidan olingan bo'lib, uning asosida nimagadir baho berish alomati, nimadir aniqlanishi yoki tasnifi, o'lchovi degan ma'noni bildiradi⁷¹.

Samaradorlikni aniqlash uchun natijani shu natijaga erishishga sarflangan xarajatlar yoki resurslar bilan taqqoslash kerak. Demak, samaradorlik ishlab chiqarish faoliyati natijalari bilan ularga erishish uchun sarflangan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning o'zaro nisbatidir.

$$S = \text{natija/xarajatlar} = \text{natija/mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar}$$

Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati uning mezoni va ko'rsatkichlar tizimida aks etadi.

⁷⁰Maxmudov E.X. Korxonada iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006, – 208 b.

⁷¹ Slovar inostrannix slov. M.: Russkiy yozik. 1985. S. 262.

Mehnat sig‘imi bevosita sarf (asosiy hodimlar sarf qilgan mehnat) bo‘yicha, to‘la sarf (yordamchi hodimlar sarf qilgan mehnat) bo‘yicha hamda umumiy ijtimoiy mahsulot yoki milliy daromad qiymatiga nisbati bilan belgilanadi. Ayrim komplekslar va ularning tarmoqlarida, korxonalarda esa, moddiy sarflar miqdorining qiymatiga nisbatan belgilanadi:

$$M_s = M_x / T_{mx}$$

Ko‘pincha amaliyotda mehnat sig‘imining boshqacha ma‘nosini bildiruvchi mehnat unumdorligi (M_u) ko‘rsatkichidan foydalaniladi:

$$M_u = T_{mx} / M_x$$

Mehnat unumdorligi - inson mehnatining muayyan vaqt ichida ozmi - ko‘pmi mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatidir.

Ishlab chiqarishning material sig‘imi — mahsulot (ish bajarish yoki xizmat ko‘rsatish) birligiga ketadigan va unda ifodalanadigan moddiy resurslar (xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, sotib olinadigan butlovchi buyumlar va yarimfabrikatlar, yoqilg‘i va energiya) yalpi sarfini tavsiflovchi ko‘rsatkichdir. U quyidagi formula yordamida ifodalanadi:

$$M_s = M_r / T_{mx}$$

Ishlab chiqarishning fondtalabligi mahsulot birligiga (natural yoki qiymat doirasida) to‘g‘ri keladigan asosiy ishlab chiqarish fondlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichdir. Fond sig‘imi (F_s) asosiy va aylanma fondlardan foydalanishning samaradorligini ko‘rsatadi va bu fondlar o‘rtacha yillik qiymatining (F) mahsulot hajmiga (M_x) nisbatini ifodalaydi:

$$F_s = F / M_x$$

Bu miqdorning teskarisi fond samarasi (natijasi) yoki fond qaytimi (F_k) deb yuritiladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$f_k = M_x / F$$

1-jadval

Asosiy vositalar va aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi⁷²

Ko‘rsatkichlarning nomi	Nimani ifodalashi (mazmuni)	Aniqlanish formulasi
Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi:		
1. Asosiy vositalar rentabelligi	Asosiy vositalar o‘rtacha qiymatiga nisbatan sof foyda nisbatini ko‘rsatadi	$SF * 100 / AV_{o'.y.q.}$
2. Asosiy vositalar daromadliligi	Asosiy vositalar o‘rtacha qiymatiga necha foiz daromad to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi	$YAD * 100 / AV_{o'.y.q.}$
Ko‘rsatkichlarning nomi	Nimani ifodalashi (mazmuni)	Aniqlanish formulasi

⁷²Manba: tegishli adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

3. Asosiy vositalar natijaviyligi (fond qaytimi)	1 so‘m asosiy vositalar o‘rtacha qiymatiga qancha miqdorda natijaviy ko‘rsatkich (sotilgan mahsulot, tovar mahsuloti, tovar oboroti va h.k.) to‘g‘ri kelishini ifodalaydi	YAM (SM, TM)/AV _{o‘y.q.}
Aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi:		
Aylanma mablag‘larning aylanuvchanligi, kunlarda	Aylanma mablag‘larning bir aylanish davrining necha kunga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi	AYM.Ks/ Q Ks – davrdagi kunlar soni
Aylanma mablag‘larning aylanuvchanlik koeffitsienti, martada	Tahlil davrida aylanma vositalarga qo‘yilgan mablag‘ning necha marta aylanishini ifodalaydi	Q /AYM
Aylanma mablag‘larning rentabelligi	100 so‘mlik aylanma mablag‘lar summasiga to‘g‘ri keladigan foydani ko‘rsatadi	YAF (SF)*100/AYM
Aylanma mablag‘larning daromadliligi	100 so‘mlik aylanma mablag‘lar summasiga to‘g‘ri keladigan yalpi daromadni (YAD) ifodalaydi	YAD*100/AYM

Korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Bu ko‘rsatkichlar moliyaviy hisobotning ichki va tashqi foydalanuvchilarda qiziqish uyg‘otib, korxonada resurslaridan foydalanish samaradorligi hamda uning investitsiyalarni jalb qilish qobiliyatini aniqlaydi.

Bu ko‘rsatkichlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kapital tarkibi ko‘rsatkichlari;
- to‘lovga qobillik (likvidlik) ko‘rsatkichlari;
- ish faolligi ko‘rsatkichlari;
- rentabellik ko‘rsatkichlari.

Korxonalarining moliyaviy holatini aniqlash ko'rsatkichlari⁷³

Ko'rsatkichlar	Mazmuni va aniqlanish tartibi
I. Kapital tarkibi ko'rsatkichlari:	
1.1. Mulk koeffitsenti	korxonada jami kapitalida xususiy kapitalning ulushini ko'rsatadi ($O'MM/JA_{yq}$)
1.2. Moliyaviy qaramlik koeffitsenti	jamiyatning tashqi qarzlarga bog'liqlik darajasini (majburiyatlarini) ifodalaydi ($M/O'MM$)
1.3. Qarzdorlik koeffitsenti	jami aktivlari summasidan kreditorlarga to'lanishi lozim pul mablag'lari hajmini ifodalaydi (M/JA_{yq})
1.4. Kreditorlarning himoya-langanligi koeffitsenti	kreditorlar tomonidan berilgan kreditlarning joriy yilda qaytarilishi lozim bo'lgan qismining to'lanmasligidan himoyalanganligi darajasini belgilaydi (STF/FT)
II. To'lov qobiliyati (likvidlik) ko'rsatkichlari:	
2.1. Joriy likvidlik	yil davomidagi qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun mablag'lari etarli yoki etarli emasligini aniqlash uchun ishlatiladi ($PM+D+TMZ/M_{qm}$)
2.2. Tezkor likvidlik	qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun likvidligi yuqoriroq mablag'lari nisbatini aks ettiradi ($PM+D/M_{qm}$)
2.3. Absolyut likvidlik	qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun absolyut likvidlikka ega bo'lgan pul mablag'lari nisbatini aks ettiradi (PM/M_{qm})
2.4. Sof aylanma kapital	qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun zarur bo'lgan joriy aktivlar nisbatini aks ettiradi ($SAK = JA - M_{qm}$)

⁷³Manba: Tegishli adabiyotlarni umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Korxonalarning moliyaviy holatini aniqlash ko'rsatkichlari⁷⁴

Ko'rsatkichlar	Mazmuni va aniqlanish tartibi
III. Ish faolligi ko'rsatkichlari:	
3.1. Aktivlarning aylanishi	jami aktivlariga qo'yilgan mablag'larning har bir so'mi qancha so'mlik sotilgan mahsulot qiymatini keltirganini ko'rsatadi (SST/JA_{yq})
3.2. Debitorlik sChetidagi mablag'larning aylanishi	sotishdan sof tushum evaziga bir yilda necha marta debitorlik qarzlarni undirilayotgani va pul mablag'lariga aylantirilayotganini ko'rsatadi (SST/D)
3.3. Debitorlik qarzlarning o'rtacha undirilishi muddati	debitor qarzlarni undirish uchun o'rtacha necha kun kerakligini ko'rsatadi ($365: SST/D$)
3.4. Kreditor qarzlarning aylanishi	mol yuboruvchilardan kreditorlik qarzlarni uzishi uchun necha oborot zarurligini ko'rsatadi (SMT/K_{yq})
3.5. Kreditorlik qarzlarni o'rtacha to'lash muddati	kreditor qarzlarni mol yuboruvchilardan o'z qarzini uzish uchun o'rtacha kun kerakligini ko'rsatadi ($365: SMT/K_{yq}$)
IV. Rentabellik ko'rsatkichlari:	
4.1. Aktivlar rentabelligi	aktivlarga qo'yilgan mablag'larning har bir so'miga to'g'ri keladigan sof foydani ko'rsatadi (SF/JA_{yq})
4.2. Sotilgan mahsulot rentabelligi	sotilgan mahsulotning har bir so'mi qancha yalpi foyda keltirganini ko'rsatadi (YAF/SST)
4.3. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi	mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarning bir so'miga olingan yalpi foydani ifoda qiladi (YAF/SMT)

3.Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlari

Yuqorida keltirilgan xo'jalik samaradorligini baholash usullari va ko'rsatkichlaridan tashqari bugungi kunda amaliyotda korxonalarning iqtisodiy nochorlik belgilarini aniqlash uchun mezonlar tizimi ham qo'llaniladi.

“Korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to'g'risida»gi Nizomga ko'ra korxonalar quyidagi guruxlarga bo'linadi:

⁷⁴Manba: Tegishli adabiyotlarni umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

- iqtisodiy barqaror korxonalar
- iqtisodiy xatarli korxonalar
- iqtisodiy nochor korxonalar:
- o'z to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega;
- o'z to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega bo'lmagan korxonalar.

Korxonalarining iqtisodiy nochorlik belgilarini aniqlash uchun mezonlar tizimi ham qo'llaniladi. Ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- to'lov qobiliyati koeffitsienti (K_{tq});
- xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti (K_{xm});
- Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi (R_{ix}),
- Aktivlar rentabelligi. (R_a):
- xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsienti (K_{xq});
- Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti:
- Eskirish koeffitsienti (K_{esk})

To'lov qobiliyati koeffitsienti (K_{tq}) korxonaning debitorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilish hamda tayyor mahsulot va boshqa moddiy vositalarini sotishning qulay sharoitlarda sotish orqali baholanadigan to'liq imkoniyatlarini ko'rsatadi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{tq} = \frac{\text{Joriy (aylanma) aktivlar}}{\text{Joriy majburiyatlar}} = \frac{A_2}{P_2 - DO}$$

Bu erda: A_2 – aylanma aktivlar (ishlab chiqarish zahiralari, tayyor mahsulot, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va hokazolar);

P_2 – majburiyatlar (qisqa muddatli qarzlari, qisqa muddatli kreditlar, byudjet oldidagi qarzlari, kreditorlik qarzlari va hokazo), buxgalteriya balansining 770 satri;

DO – uzoq muddatli qarz va kreditlar, buxgalteriya balansining 490 satri

Agar **to'lov qobiliyati koeffitsienti** hisobot yilining oxirida 1.25 dan kichik bo'lsa korxonalar to'lov qobiliyatini yo'qotgan hisoblanadi

Xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti (K_{xm}) korxonaning barqaror ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan aylanma vositalar mavjudligini tavsiflaydi. shuningdek u, korxonalar egalari va kreditorlar manfaatlaridagi munosabatlarni ham aks ettiradi. Mazkur koeffitsient quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{xm} = ((P_1 + D_{zk2}) - A_1) / A_2$$

Bu erda: A_1 – uzoq muddatli aktivlar (asosiy vositalar, kapital qo'yilmalar, nomoddiy aktivlar va hokazo).

D_{zk2} – uzoq muddatli aktivlarni sotib olish uchun yo'naltirilgan uzoq muddatli qarz va kreditlar, buxgalteriya balansining 570 va 580 satrlaridan hisoblanadi.

Ushbu koeffitsientning minimal qiymati - 0,2.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi (R_{ix}),

$$R_{ix} = SF / MIT$$

Bu erda: SF – sof foyda;

MIT – mahsulot ishlab chiqarish tannarxi.

Aktivlar rentabelligi. (R_a):

$$R_a = SF / JAyk$$

u erda: SF – sof foyda;

$JAyk$ – korxonada jami aktivlarining o‘rtacha yillik qiymati.

Agar rentabellik koeffitsientlari nolga kichik bo‘lsa korxonada zarar bilan ishlayotgan deb hisoblanadi

Agar 0.05 dan kichik bo‘lsa past rentabellik deb hisoblanadi.

Xususiy va qarzga olingan mablag‘lar nisbati koeffitsienti (K_{xq}) (joriy moliyaviy mustaqillik koeffitsienti) ularning shakllanish manbalarini inobatga olgan holda, pul mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik darajasini aniqlaydi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{xq} = \frac{P_1}{P_2 - DO}$$

Bu erda:

P_1 – xususiy mablag‘lar manbalari (Nizom jamg‘armasi, qo‘shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda va hokazo).

DO – uzoq muddatli qarz va kreditlar, buxgalteriya balansining 490 satri

Agar xususiy va qarzga olingan mablag‘lar nisbati koeffitsientining qiymati yil oxirida birdan kichik bo‘lsa, korxonada moliyaviy xavf xatar (risk) mavjudliging alomati bo‘ladi. Xususiy va qarzga olingan mablag‘lar nisbati koeffitsientining kamayishi korxonaning moliyaviy xatarini ortishini bildiradi.

Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti:

$$K_{qf} = \frac{Q \text{ haqiqiy}}{Q_{loyiha.} - (Q_{ijara.} + Q_{konserv.})}$$

Q haqiqiy. – haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulot xajmi;

Qloyiha.- maksimal, loyihaviy ishlab chiqarish quvvati

Qijara. – ijaraga berib yuborilgan quvvatlarga mos keluvchi mahsulot xajmi;

Q konserv. – konservatsiya qilingan quvvatlarga mos keluvchi mahsulot xajmi;

Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti 0.5 dan yoki tarmoq bo‘yicha o‘rtacha qiymatdan kichik bo‘lsa, korxonada ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish past darajada deb qabul qilinadi.

Eskirish koeffitsienti (K_{esk}) eskirish summasining asosiy vositalar boshlang‘ich qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

Kesk= Av.es/Av.bq

Bunda: Av.es – asosiy vositalar eskirish summasi;

Avbq – asosiy vositalarninigi boshlang‘ishlab chiqarish qiymati;

Asosiy vositalarni eskirish koeffitsienti 0.5 dan yuqori bo‘lmasligi lozim.

“Korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o‘tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga ko‘ra korxonalarining to‘lovga qobiliyatligi yoki nochorligini aniqlovchi parametrlar belgilab berilgan.

Iqtisodiy xatarli korxonalar: to‘lov qobiliyati koeffitsienti hamda xususiy va qarzga olingan mablag‘lar nisbati koeffitsienti me‘yordan kichik bo‘lsa, moliyaviy mustaqillik koeffitsienti 0,5 dan kichik bo‘lsa, xususiy aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti 0,2 dan kichik bo‘lsa iqtisodiy xatarli korxonalar deb topiladi.

Iqtisodiy nochor korxonalar uchun pul majburiyatlari va majburiy to‘lovlar bo‘yicha 3 oydan ortiq qarzi bor bo‘lishi lozim.

Pul majburiyatlari va majburiy to‘lovlar bo‘yicha 3 oydan ortiq qarzi bor bo‘lib, shu bilan birga To‘lov qobiliyati tiklash imkoniyati bor bo‘lsa, ya‘ni to‘lov qobiliyati koeffitsienti (K_{tq}) me‘yorda, rentabelli va xususiy aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti (K_{xm}) yuqori bo‘lsa **“To‘lov qobiliyati tiklash imkoniyati bor”** deb qabul qilinadi

Pul majburiyatlari va majburiy to‘lovlar bo‘yicha 3 oydan ortiq qarzi bor bo‘lib, uning qiymati eng kam ish xaqining 500 baravaridan yuqori bo‘lsa va Aktivlar rentabelligi. (R_a) past, to‘lov qobiliyati koeffitsienti (K_{tq}) kichik, xususiy aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti (K_{xm}) past bo‘lsa korxonalar **“To‘lov qobiliyati tiklash imkoniyati yo‘q”** deb qabul qilinadi

Korxonalar nochorligi, demak, xo‘jalik faoliyatining samarasizligi to‘g‘risidagi yakuniy qaror, nochorlik parametrlarining umumiy summasi yuqoridagi me‘yorlardan kichik bo‘lgan holda qabul qilinadi.

4. Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyati samaradorligini baholash

O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida», «Mas‘uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida»gi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2015 yil 24 apreldagi PF-4720-son Farmoniga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan hamda ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari, mas‘uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyatlar, davlat korxonalarini faoliyatining samaradorligini baholash mezonlari ishlab chiqildi. Mazkur mezonlarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi 207-son

“Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori asosida qabul qilingan nizom belgilaydi.

Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari (qisqartirilgan shaklda SMK) tashkilotlarning ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini aniqlash uchun foydalaniladigan baholash mezonlarining miqdoriy o‘lchovidan iborat bo‘ladi.

SMK ro‘yxati faoliyatning iqtisodiy, energetika, ishlab chiqarish, innovatsion samaradorligi ko‘rsatkichlarini va samaradorlikning boshqa ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olishi mumkin.

SMKni hisoblashning davriyligi har chorakdan iborat bo‘ladi va tashkilotning vakolatli boshqaruv organi qarori bilan belgilanadi. Manbai faqat yillik hisobot bo‘lgan ko‘rsatkichlar bir yilda bir marta hisoblanadi.

Tashkilotning ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash uchun 8.3-jadval va 8.4-jadvalda ko‘rsatilgan SMK tatbiq etiladi.

3-jadval

Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari ruyxati

1. Foizlar, soliqlar va amortizatsiyani chiqarmasdan oldingi foyda. (EBITDA — Earnings Before Interest, Taxes, Depreciation & Amortization)
2. Xarajatlar va daromadlar nisbati (CIR — Cost Income Ratio)
3. Jalb etilgan kapital rentabelligi (ROCE — Return on Capital Employed)
4. Aksionerlik kapitali rentabelligi (ROE — Return On Equity)
5. Aksionerlar investitsiyalari rentabelligi (TSR — Total shareholders Return)
6. Aktivlar rentabelligi
7. Mutlaq likvidlik koeffitsienti
8. moliyaviy mustaqillik koeffitsienti
9. Kreditor qarzdorlikning aylanuvchanligi, kunlarda
10. Debitor qarzdorlikning aylanuvchanligi, kunlarda
11. Qoplanish (To‘lov qobiliyati) koeffitsienti
13. dividendning chiqishi koeffitsienti
13. Debitor qarzdorlikning kamayishi ko‘rsatkichi (belgilangan topshiriqqa nisbatan % da)

Ayrim SMKni tatbiq etish imkoniyati mavjud bo‘lmaganda, bu to‘g‘ridagi qaror ijro etuvchi organning taklifiga binoan tashkilotning vakolatli boshqaruv organi tomonidan tasdiqlanadi.

Tashkilotning vakolatli boshqaruv organi qarori bilan tashkilot faoliyatining tarmoq bo‘yicha mansubligidan, rivojlanish strategiyasidan va faoliyatining xususiyatidan kelib chiqqan holda SMK sifatida boshqa koeffitsientlardan foydalanish mumkin.

Baholash maqsadi uchun har bir SMKga uning tashkilot uchun ahamiyatini aks ettiruvchi salmoq o‘lchovi belgilanadi. Tashkilotga nisbatan tatbiq etiladigan barcha SMK salmoq o‘lchovlari jami 100 foizni tashkil qiladi.

Har bir SMKning salmoq o'lchovi, uning tashkilot faoliyati uchun ahamiyatini hisobga olgan holda, tashkilotning vakolatli boshqaruv organi qarori bilan belgilanadi.

Samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini hisoblashda quyidagilar axborot manbai hisoblanadi:

- tashkilotning buxgalteriya hisobi hujjatlari ma'lumotlari;
- davlat organlariga taqdim etiladigan hisobotlar (moliyaviy, statistik, soliq hisobotlari va boshqalar) ma'lumotlari;
- biznes-rejadagima'lumotlar;
- belgilangan tartibda olingan yoki ishlab chiqilgan boshqa materiallardagi ma'lumotlar.

4-jadval

Samaradorlikning qo'shimcha muhim ko'rsatkichlari ruyxati

1. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti
2. Asosiy fondlarning yangilanish koeffitsienti
3. Mehnat unumdorligi
4. Fond qaytimi
5. Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti
6. Energiya samaradorligi (mahsulot tannarxi tarkibida energiya xarajatlarning ulushi)
7. Sotilgan mahsulotning umumiy xajmida innovatsion mahsulot ulushi
8. Korxonaning umumiy xarajatlari innovatsion faoliyatga qilingan xarajatlar ulushi
9. hodimlarni o'qitishga qilingan xarajatlar, bir ishlovchi hisobiga to'g'ri keladigan
10. Kadrlar qo'nimsizligi koeffitsienti
11. Investitsion dasturning bajarilishi indikatori, qiymat shaklida
12. Quvvatlarni ishga tushirish indikatori (belgilangan topshiriqqa nisbatan % da)
13. Eksport ko'rsatkichlarini bajarilishi (pul ko'rinishidagi opshiriqqa nisbatan % da)

Samaradorlikning qo'shimcha muhim ko'rsatkichlari ning prognoz (maqsadli) ko'rsatkichlari har bir davr uchun biznes-rejada, uning ajralmas qismi hisoblanadigan alohida ilova sifatida aks ettiriladi.

5. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning omillari va yo'llari

Ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarining muhimlariga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish strukturasi yaxshilash;

-fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarish va mahsulotning texnik-iqtisodiy darajasini ko‘tarish, fan va texnika yutuqlarini joriy etish muddatini qisqartirish;

-ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, ixtisoslashtirish, kooperatsiyalash, mahalliyashtirish va hududiy joylashtirish darajasini oshirish;

-boshqarishning strukturasi, moliyalash, baholash va kreditlash hamda rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish;

-inson omilini kuchaytirish asosida mehnatkashlarning ijodiy faolligini va tashabbusini oshirishni yo‘lga qo‘yish.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishning muhim omillaridan yana biri sifatida *mavjud ishlab chiqarish salohiyati* - asosiy va aylanma fondlar, ishchi kuchidan tejamkorlik asosida, iloji boricha unumliroq foydalanishni ko‘rsatish mumkin.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishda *tashkiliy-iqtisodiy omillar*, jumladan, boshqaruv ham muhim o‘ringa ega. Ularning ahamiyati ishlab chiqarish miqyosining o‘sishi va xo‘jalik aloqalarining murakkablashishi bilan ortib boradi. Bu omillar qatoriga birinchi o‘rinda, oqilona ishlab chiqarish shakllarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish - konsentratsiya, ixtisoslashtirish, kooperatsiya va kombinatsiya qilishni kiritish mumkin.

Boshqaruvda esa, boshqarish, rejalashtirish, iqtisodiy rag‘batlantirishning usul va shakllarini, ya‘ni korxonalar faoliyatining butun xo‘jalik mexanizmini takomillashtirishda ifodalanadi.

Rejalashtirishda rejalarning balanslashtirilishi, ko‘rsatkichlar tizimini optimal shakllantirish, rejalashtirilayotgan maqsadlar resurslar bilan ta‘minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Siz “Samara” va “Samaradorlik” tushunchalarining farqi nimada deb bilasiz?

2. Sizning fikringizcha sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini oshirish uchun nimalarga e‘tibor berish kerak?

3. Iqtisodiy nochor korxonalar haqida fikringiz qanday?

4. Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari deganda nimani tushunasiz?

5.

11-mavzu. FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTI VA INNOVATSION FAOLIYAT

Reja:

1. Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati
2. Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari
3. Sanoatda innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi va xarajatlari dinamikasi

4. Sanoatda ilmiy va ilmiy-texnik salohiyat.

5. Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalash
6. Fan-texnika taraqqiyotining samaradorligini baholash

1. Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati.

2.

Fan-texnika taraqqiyoti — bu, juda murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. U ijtimoiy va shaxsiy hayotning hamma tomonlarini o‘z ichiga oladi. shu sababli ham fan-texnika taraqqiyoti harakatdagi jarayon hisoblanadi.

Fan — inson faoliyatining ma’lum sohasi. U shunday sohaki, voqea-hodisalar haqidagi bilimlar yaratiladi va ular nazariy nuqtai nazardan bir yo‘lga solinadi. Fan — ijtimoiy fikrlash va bilishning shakllaridan biridir.

Fan yoki ilm — bu, o‘qish, o‘rganish va hayotiy tajriba asosida fikrlanadigan bilim va malakalar majmuasidir. Uning asosiy vazifasi, avvalo, voqea va hodisalarni, shu jumladan, texnik va texnologik hodisalarni tasvirlash, tushuntirish, oldindan aytib berish, bashorat qilishdan iborat.

Texnika — bu, eng tor ma’noda mehnat quroli, mehnat vositasi. Keng ma’noda esa, u ishlab chiqarish vositalari, texnologiya usullarini, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish shakllarining yig‘insidir. U ishlab chiqarish kuchlarining eng faol elementi hisoblanadi.


Texnologiya (yunoncha «technue» — san’at, mahorat, uddalash va ...logos - ta’limot) — ishlab chiqarish jarayonida tayyor mahsulot olish uchun ishlatiladigan xom ashyo, material yoki yarim fabrikatlarning holati, xossasi va shakllarini o‘zgartirish, ularga ishlov berish, tayyorlash usullari majmuidir.

Fan-texnika taraqqiyoti — bu, mehnat vositalarini, ishlab chiqarishning eng yangi xom ashyosi va materiallarini, yoqilg‘i va energiyaning, texnologik jarayonning, boshqarishning, mehnatni texnik jihatdan qurollantirish va yuqoridagilarning hammasini yangidan yaratishni o‘z ichiga oladi.

Fan-texnika taraqqiyotining vazifasi quyidagilardan iborat:


- tejamkorlikni amalga oshirish (vaqtni, xom ashyo va materiallarni, yoqilg‘i, elektr energiyasi va h.k.larni tejash);
- ishlab chiqarish jarayonlarini osonlashtirish, mehnatni engillashtirish;
- mehnatning mazmuni va xarakterini o‘zgartirish;
- ishlab chiqarishning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini yanada yuqori darajaga ko‘tarish.

Fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqadorlikni chizma ko‘rinishida quyidagicha tasvirlash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik⁷⁵

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari tadqiqotlar yoki amaliy tajribalar natijasida olingan va yangi materiallar, mahsulotlar, jarayonlar, qurilmalar, xizmatlar, tizimlar yoki usullarni yaratishga yo'naltirilgan mavjud bilimlarga asoslangan tizimli ravishda amalga oshiriladigan ishlar kiradi. Ishlanmalar tarkibiga konstruktorlik, loyihaviy va texnologik ishlar kiradi.



2-rasm. Ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlanmalarini bajargan tashkilotlar dinamikasi (2000-2016 yillar)⁷⁶

Ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlanmalari bilan shug'ullanadigan tashkilotlar soni 2016 yilda 2000 yilga nisbatan 19 taga ko'paydi va 437 tani tashkil etdi. Ular tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlari hajmi 2016 yilda 396 mlrd. so'mga yetdi va 2000 yilga nisbatan 37 barobarga oshdi.

⁷⁵Xotamov I., Aliev Y. "Innovatsion iqtisodiyot" fani bo'yicha ishchi daftar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018 yil, 174 bet.

⁷⁶Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi /www.stat.uz

1-jadval

2016 yilda fan sohalari bo'yicha sektorlar kesimida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar, mln.so'm⁷⁷

	Jami	Shu jumladan:					
		tabiiy fanlar	texnika fanlari	tibbiyot fanlari	qishloq xo'jaligi fanlari	ijtimoiy fanlar	gumanitar fanlar
Jami shu jumladan:	440285,2	143634,3	154625,7	28737,3	36706,1	47288,8	29293,1
davlat sektori	178812,9	83044,5	21871,8	15171,9	26481	15161,2	17082,5
tadbirkorlik sektori	173622,6	42930,8	111779,5	6199,3	5334	6929,1	449,9
oliy ta'lim sektori	82424,6	17659	18683,3	7254,8	4891	22427,8	11508,5
xususiy notijorat sektor	5425,1	-	2291,0	111,2	-	2770,7	252,2

2016 yilda davlat sektoriga tegishli tashkilotlarda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga qilingan xarajatlarning asosiy qismi tabiiy fanlar hissasiga (jami xarajatlarning 46,4 foizi), tadbirkorlik sektorida texnika fanlari hissasiga (64,4 foiz), oliy ta'lim hamda xususiy notijorat sektorlarida ijtimoiy fanlar hissasiga (mos ravishda 27,2 va 51,1 foiz) to'g'ri keladi.

2-jadval

O'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga xarajatlarni moliyalashtirish manbalari (2000-2016 yillar)⁷⁸

	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2016 y.
O'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga xarajatlar, mln.so'm shu jumladan:	11210,5	36448,1	116121,7	428485,5
jami davlat byudjeti mablag'lari	4444,1	16307,8	70457,9	247220,2
byudjetdan tashqari fondlar mablag'lar	166,0	2365,2	5824,6	18084,9

⁷⁷Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi /www.stat.uz

⁷⁸Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi /www.stat.uz

o'z mablag'lari	1594,1	6273,8	12409,8	95424,1
buyurtmachi mablag'lari	4962,8	11289,4	24553,3	64188,9
xorijiy manbalar mablag'lari	46,5	211,9	2876,1	3567,4

So'nggi o'n yetti yil mobaynida respublikamizda ilmiy muassasalar tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirish manbasi tarkibida jiddiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Xususan, 2000 yilda bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishga asosan buyurtmachi mablag'lari (jami xarajatlarning 44,3 foizi) jalb qilingan bo'lsa, so'nggi yillarda ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda ko'proq davlat byudjeti mablag'lari (57,7 foizi) va o'z mablag'laridan (22,3 foizi) foydalanilmoqda. Bundan tashqari ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda xorijiy manbalar va byudjetdan tashqari fondlar mablag'laridan foydalanish ham sezilarli ortgan.

2000 yilda asosan buyurtmachilar mablag'lari hamda davlat byudjeti mablag'lari hisobidan (jami moliyalashtirishning 84 foizi) moliyalashtirilgan bo'lsa, 2016 yilda davlat byudjeti mablag'lari qatorida o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirishning ham ulushi ortgan.

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bilan band bo'lgan tadqiqotchi mutaxassislar soni 2016 yilda 2000 yilga nisbatan 27,4 foizga oshdi va 31966 nafarni tashkil etdi.

3-jadval

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan ilmiy xodimlar (2000-2016 yillar)⁷⁹

	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2016y.
Ilmiy xodimlar – jami (oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-pedagogik xodimlarini qo'shgan holda)	36837	34094	36358	36984
shu jumladan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tadqiqotchi-mutaxassislar	25083	26685	30343	31966
ulardan ilmiy darajaga ega bo'lganlar:				
fan doktori	2009	2353	2549	2242

⁷⁹Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi /www.stat.uz

fan nomzodi	8192	8363	9254	8200
-------------	------	------	------	------

2016 yilda tadqiqotchi-mutaxassislarining 26,2 foizi (8391 nafar) tabiiy fanlar sohasida, 20,2 foizi (6457 nafar) gumanitar fanlar sohasida, 18,3 foizi (5852 nafar) ijtimoiy fanlar sohasida, qolgan 35,2 foizi (11266 nafar) texnika, tibbiyot, qishloq xo'jaligi fanlari sohasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

2. Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida fan-texnika taraqqiyotining uchta asosiy yo'nalishidan foydalanish mumkin:

- a) an'anaviy yo'nalish;
- b) zamonaviy yo'nalish;
- v) istiqbolli, ustuvorlik yo'nalishlar.

An'anaviy yo'nalishga elektrlashtirish, mexanizatsiyalash, qisman avtomatlashtirish, kimyolash kiradi.

Zamonaviy yo'nalishga elektronizatsiyalash, kompleks mexanizatsiyalash, kompleks avtomatlashtirish (robotlashtirish, kompyuterlashtirish), atom energetikasini jadal rivojlantirish, yangi materiallarni ishlab chiqarish va ularga ishlov berish, hozirgi davr talabiga javob beradigan texnologiyalarni qo'llash, texnologiyaning ekologiyaga salbiy ta'sirini kamaytirish kiradi.

Istiqbolli, ustuvor yo'nalishlarga quyidagilar kiradi:

- elektronizatsiyalash, biotexnologiyani keng joriy etish, iqtisodiy informatikani ko'paytirib, rivojlantirib, ishlab chiqarishni to'la axborotlashtirish, fundamental fanlar bo'yicha izlanishlarni kuchaytirish;

- yangi, ilg'or (progressiv) texnologiyalarni joriy etish;

- texnika va texnologiya, elektr energiyasi va yoqilg'ularning, xom ashyo va materiallarning eng yangi turlarini yaratish;

- mavjud mashina va mexanizmlarni, asbob-uskuna hamda jihozlarni modernizatsiyalash.

«**Nou-xau**» — bu, texnik, tashkiliy-iqtisodiy, tijorat bilimlari va tajribaning yig'indisi bo'lib, almashish predmeti hisoblanadi.

«**Innovatsiya**» – atamasi “yangilik kiritish” yoki “yangiliklar” tushunchalarining sinonimidir.

Lizing — mashina, asbob-uskuna, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlarini uzoq muddatli ijaraga olish; uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar eksportini kreditlash shakllaridan biri. Lizingning asosan moliyaviy va oddiy turi mavjud.

Venchur — mohiyati ilmiy-muhandislik ishlari, yangi texnika, texnologiya, tovar namunalarni yaratish, ishlab chiqarishni boshqarish, tijorat ishini tashkil qilish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, yirik firmalar va davlat ijara kontrakti buyurtmalarini bajarishdan iborat.

Injining (ixtirochilik), muhandislik maslahat xizmatlari — tijoratchilik qoidalariga asoslangan holda ishlab chiqarishni tashkil etishni ta'minlash, mahsulot sotishni uyushtirish, ishlab chiqarish ob'ektlarini qurib, ishga tushirish yuzasidan maslahat berish.

Fan-texnika taraqqiyotining muhim an'anaviy yo'nalishlaridan biri ishlab chiqarishni elektrlashtirishdir.

Elektronizatsiyalash deganda, ishlab chiqarish jarayonlarida elektronikadan keng foydalanish, ya'ni ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan axborotni kompyuterlarda yig'ish, o'tkazish va ishlash tushuniladi.

Avtomatlashtirish — ilgari odam bajaradigan, boshqarish va nazorat qilish vazifalari asboblari, avtomatik qurilmalar zimmasiga yuklanadigan mashinali ishlab chiqarishni rivojlantirish jarayoni.

Modernizatsiyalash – bu barcha voqea, hodisa va jarayonlarni, jumladan ishlab chiqarishni zamonaviy talabga moslab o'zgartirish, ya'ni zamonaviylashtirish va yashartirishdir. Modernizatsiya (fransuzcha modernisation, moderne – yangi, zamonaviy) jamiyat hayot faoliyatining barcha sohalarida kechadigan murakkab global jarayon bo'lib hisoblanadi.

Kimyolashtirish — ishlab chiqarishning hamma sohalarida kimyo fanining barcha yutuqlaridan keng foydalanish, ishlab chiqarishning barcha jarayonlariga kimyoviy materiallarni, xom ashyo va materiallarni qayta ishlashning kimyoviy usullarini joriy etishdosh iboratdir. Kimyolashtirish yordami bilan oldindan belgilangan xususiyatli xom ashyo materiallarni tayyorlash mumkin. Masalan, bo'yoq va laklar, sintetik kauchuk, sintetik tola, plastmassalar va h.k.lar.


3. Sanoatda innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi va xarajatlari dinamikasi

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlatiladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashni, balki boshqaruv va hisobini tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab etadi. shu nuqtai nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo'llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega.



3-rasm. Innovatsiyalarni turlari.⁸⁰

Quyidagi grafikda soʻnggi yillarda oʻz kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar dinamikasi keltirilgan.




4-rasm. Oʻz kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni (2010-2016 yillar)⁸¹

Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni 2010 yildan 2016 yilga qadar 8 barobarga koʻpayib, 289 tadan 2374 taga yetdi. Jumladan birinchi marta innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarishni oʻzlashtirgan korxonalar soni 696 taga koʻpaydi.


⁸⁰Jati Sengupta. Theory of innovation. A new paradigm of growth. Springer International Publishing.

⁸¹Manba: Oʻzbekiston Respublikasining statistika qoʻmitasi /www.stat.uz



5-rasm. Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi va xarajatlari dinamikasi (2010-2016 yillar)⁸²

Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi 2016 yilda 10688,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich 2015 yilga nisbatan 1,3 barobar, 2008 yilga nisbatan 8 barobarga ko'paygan. Innovatsiyalarga xarajatlari 2008 yilga nisbatan 5 barobarga ko'paygan bo'lsa, 2015 yilga nisbatan 53 foizga kamaygan.



6-rasm. 2016 yilda o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (QQS va aksizsiz)⁸³

2016 yilda o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmining asosiy qismi Toshkent shahriga (48 foizi), Qoraqalpog'iston Respublikasi (18,3 foizi), Toshkent viloyati (9,3 foiz) va Andijon viloyatiga (8,3 foizi) to'g'ri kelmoqda, qolgan 16,1 foizi respublikaning boshqa viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.


4-jadval
Moliyalashtirish manbalari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlari, mlrd.so'm (2010-2016 yillar)⁸⁴

⁸²Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi /www.stat.uz

⁸³Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi /www.stat.uz

	2010y.	2011y.	2012y.	2013y.	2014y.	2015y.	2016y.
Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar	264,4	372,6	311,9	4634,2	3757,4	5528,3	2571,4
shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha:							
tashkilotning o'z mablag'lari	184,3	263,2	213,4	2501,5	1381,5	1251,8	1180,0
xorijiy kapital	48,3	24,9	39,9	1228,7	32,3	156,6	314,9
tijorat banklari kreditlari	30,0	63,7	26,8	533,5	262,5	280,1	157,3
boshqa mablag'lar	1,8	20,9	31,7	370,6	2081,0	3839,7	919,1

2010 yilda innovatsiyalar asosan tashkilotning o'z mablag'lari hisobidan (69,7 foizi) moliyalashtirilgan. 2014 yildan boshqa mablag'lar hissasi (55,4 foiz) oshgan. 2016 yilda tashkilotning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish 2010 yilga nisbatan 6,4 barobar oshgan.




7-rasm.2016 yilda moliyalashtirish manbalari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar⁸⁵

2016 yilda texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlarning 45,9 foizi (1180,0 mlrd.so'm) takilotning o'z mablag'lari hisobidan, 12,2 foizi (314,9 mlrd.so'm) xorijiy kapital, 6,1 foizi (157,3 mlrd.so'm) tijorat banklari kreditlari, 35,7 foizi (919,1 mlrd.so'm) boshqa mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan.

⁸⁴Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi /www.stat.uz

⁸⁵Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi /www.stat.uz



8-rasm. Innovatsiya joriy qilgan tashkilotlar va innovatsiyalar soni (2016 yil)⁸⁶

Respublika bo'yicha 2016 yilda xar bir innovatsion faol tashkilot o'rtacha 2 tadan innovatsiya joriy qildi. Jumladan xar bir innovatsion faol tashkilotga Andijon, Farg'ona viloyatlari, Toshkent shahrida o'rtacha 3 tadan innovatsiya, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida o'rtacha 2 tadan innovatsiya, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Surxondaryo va Xorazm viloyalarida o'rtacha 1 tadan innovatsiya joriy qilingan.

5-jadval

Joriy qilingan innovatsiyalar soni (2016 yil)⁸⁷

	Jami	Shu jumladan tadqiq qilinganlar:				
		o'z kuchi bilan	boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda	ulardan :		boshqa tashkilotlar tomonidan
				ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda	oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda	
Texnologik innovatsiyalar	1816	1523	117	41	5	176
shu jumladan:						
mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar	1118	973	73	15	4	72

⁸⁶Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi /www.stat.uz

⁸⁷Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi /www.stat.uz

jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar	698	550	44	26	1	104
Marketing innovatsiyalar	51	39	-	-	-	12
Tashkiliy innovatsiyalar	39	29	-	-	-	10

2016 yilda 893 ta korxonalar va tashkilotlar tomonidan 1816 turdagi texnologik innovatsiya joriy etildi. Joriy qilingan texnologik innovatsiyalarning 44 foizi (799 tasi) kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi.

4. Sanoatda ilmiy va ilmiy-texnik salohiyat.

Ilmiy salohiyat - bu yangiliklarni yaratish uchun zarur bo'lgan qobiliyatga malakaga ilmiy axborotga, asbob-uskunalar va boshqa vositalarga ega bo'lgan tadqiqotchilar ishlab chiqaruvchilar (razrabotchiki) va sinov ishlab chiqarish ishchilarining to'plami tushuniladi.

Ilmiy salohiyat 4ta tarkibiy qismlardan iborat, ya'ni: kadrlar, moddiy texnik baza, axborot va tashkiliy qismlar.

Axborotlarni mazmuniga ko'ra 5 turga ajratish mumkin.

1. Me'yoriy-texnik xujjatlar (texnik vazifalar, tavsiyanomalar, uslubiyatlar, normativlar, standartlar va texnik sharoitlar patentlar);
2. Ilmiy hisobotlar (ko'pincha fundamental tadqiqotlar natijalari to'g'risida);
3. Yangiliklarning namunalari (texnologik jarayonlar, rejimlar, laborator va sinov namunalari);
4. Loyixalar- konstruktorlik xujjatlar;
5. Nashrlar va dissertatsiyalar.

Ilmiy texnik salohiyat - bu ITTning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlariga erishishda foydalanilishi mumkin bo'lgan resurslarning o'zaro bog'liq yig'indisi tayyor yangilik yoki ishlanmalarning miqdori va sifati bilan aniqlanadi.

Axborot mehnatning mahsuli sifatida o'zining xuquqiy aksini ilmiy-texnik litsenziyada topadi.

Ilmiy-texnik litsenziya- bu kashfiyotlar va ixtirolarga asoslangan yangiliklar to'g'risidagi axborotlardan (ishlab chiqarishga qo'llash uchun tayyor bo'lgan) foydalanish imkonini beruvchi ruxsatnoma.

Texnik jihatdan yangilik darajasiga qarab yangiliklar (ishlanmalar) besh guruhga bo'linadi:

1. Tayyor qaror va konstruksiyalardan, mavjud ma'lumotlardan foydalanadigan;
2. bir konsepsiya doirasidagi bir necha qarorlar ichidan bittasini tanlaydigan;
3. dastlabki konstruksiyani, qarorni, konsepsiyani o'zgartiradigan;
4. yangi konsepsiya, konstruksiya va qarorni topadigan;

5. Tubdan yangi konsepsiya, konstruksiya, tizim va boshqalarni yaratuvchilarga bo‘linadi.

Mahsulot sifati - bu mahsulotning jamiyat va shaxs talablarini qondira olish qobiliyati hisoblanadi.

Mahsulotning texnik darajasi- bu uning konstruksiyasining, texnologiyasining va ishlatiladigan materiallarning mukamallik darajasi.

Istiqbolli standartlar - bu ishlab chiqarish va texnik maqsadlar uchun mo‘ljallangan mahsulot etalonlari bo‘lib, ular mahsulot sifatini bashorat qilishga asoslangan.

Eng yangi texnika- bu istiqbolli standartlar talablariga javob bera oladigan texnika bo‘lib, u yangi texnologik tamoyillar, kashfiyotlar va ixtirolarga asoslanadi. U ijtimoiy mehnat unumdorligini ko‘p martalab oshishini, bir-birlik mehnat sarfi o‘rtacha qiymatini kamayishiga olib keladi.

Yangi texnika DST, TST va texnik shartlarga to‘liq javob berib va ixtirolardan foydalanib xalq xo‘jaligida samara bo‘lishni ta‘minlaydi va ishlab chiqarilgan vaqtiga muvofiq mahsulotni yangilash me‘yorlariga mos keladi.

Modernizatsiya qilingan texnika DST, TST va texnik shartlarga, texnikani yangilash me‘yorlariga mos kelib, avval qo‘llanilgan texnikaga nisbatan samarani ta‘minlaydi.

Mahsulotning texnik darajasi- bu nisbiy ko‘rsatkich bo‘lib, etalonga (dunyoda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning eng yaxshisiga) yoki patent va boshqa ilmiy texnik ko‘rsatkichlar to‘plamiga solishtirish yo‘li bilan aniqlanadi.

Mahsulotning texnik darajasi hajm ko‘rsatkichlari (natural va qiymat shaklida) va quyidagilarning salmog‘i (foizda) orqali aniqlanadi.

- oliy sifatli, dunyodagi eng yaxshi na‘munalarga mos keluvchi va ulardan o‘tib ketuvchi mahsulotlarning;
- ishlab chiqarishda birinchi marta o‘zlashtirilayotgan eskirgan va uch yilgacha ishlab chiqariladigan mahsulotlarning;
- dunyo narhlaridan past bo‘lmagan narhlarda eksport qilinayotgan mahsulotlarning salmog‘i.

5. Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalash

Patent idorasi sanoat mulki obektlariga patent berish haqidagi talabnomalarni ko‘rib chiqish uchun qabul qiladi, ular bo‘yicha davlat ekspertizasini o‘tkazadi, ularni davlat ro‘yxatiga oladi, sanoat mulki obektlariga patentlar beradi, rasmiy axborotnoma nashr etadi, sanoat mulki obektlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining qo‘llanilishiga doir qoidalar qabul qiladi va tushuntirishlar beradi.

Kashfiyot deb bilim darajasiga tubdan o‘zgartirish olib kiradigan ilgari noma‘lum bo‘lgan, ammo obektiv mavjud moddiy nuqtaning hodisa, xossa va qonuniyatlarini tushuntirib beruvchi ta‘limotga aytiladi.

Kashfiyotni himoya qilish maqsadi:

- Ilmiy mazmun ishonchliligini tasdiqlash uchun;
- Muallif va davlat ustunligini o‘rnatish;

- Kashfiyot muallifining xususiyatlarini tan olish va unga tegishli imtiyozlar berish;

- Kashfiyot bilan bog‘liq ilmiy-texnologik masalalarni hal qilishda ko‘maklashish;

- Fan va texnikada, foydalanish uchun kashfiyotlarni davlat tomonidan ma‘lumot uchun qabul qilinishi va hisobga olinishi.

Dasturiy ta‘minot yoki EHM uchun dastur bu EHM, uning tarmoqlari va boshqa kompyuter vositalarining muayyan natijalar olish maqsadida ishlash uchun mo‘ljallangan ma‘lumotlar va buyruqlar majmuidir.

6. Fan-texnika taraqqiyotining samaradorligini baholash

Yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish uchun uning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini aniqlash kerak.

Fan-texnika taraqqiyoti tadbirlari iqtisodiy samarasini hisoblash tartibi uslubiyoti:

- kapital qo‘yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo‘yicha Namunali metodika;

- iqtisodiyotda yangi texnika, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodikasi;

- korxonalar va ishlab chiqarish birlashmalari boshqaruvining avtomatlashtirilgan tizimining iqtisodiy samaradorligini hisoblash metodikasi;

- boshqaruvning avtomatlashtirilgan tizimi samaradorligini aniqlash metodikasi (GOST-24.702.85).

- mehnatni ilmiy tashkil etish, ya‘ni MIT bo‘yicha chora-tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodikasi;

- atrof-muhitni muhofaza etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun sarflangan xarajatlarning iqtisodiy samarasini aniqlash uchun vaqtinchalik metodika.

Yangi texnika samaradorligini hisoblash qiyosiy samaradorlikni aniqlash tamoyillariga asoslanadi. Hozirgi kunda bunday hisob-kitoblar iqtisodiyotda yangi texnikadan, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodikasi asosida amalga oshiriladi.

$$S = (X_1 - X_2) \times A_2$$

Bu erda: S — yillik iqtisodiy samara, so‘m;

X_1 va X_2 — yangi texnika yordami bilan tayyorlangan mahsulot birligiga sarflangan, keltirilgan xarajatlarning (T+E_n x K);

A_2 —hisobot yilida yangi texnika yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotning yillik hajmi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati nimada?
2. Texnika va texnologiyaning tavsifi va uning turlarining farqi nimada?
3. Yangi texnikani ishlab chiqarishga joriy etishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usuli nimalarni ko‘zda tutadi?

12-mavzu. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish.

Reja:

1. Diversifikatsiyalash tushunchasi, mohiyati va iqtisodiy ahamiyati.
2. Sanoat korxonalarida yangi tovar ishlab chiqarish, tovar diversifikatsiyasi.
3. Sanoat korxonalarida maxsulot tuzilmasi, nomenkulaturasi va assortimentining tahlili.
4. Sanoatda kooperatsiya tushunchasi va uning shakllari.
5. Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi va uni kuchaytirishda kichik biznes imkoniyatlaridan foydalanish.
6. Sanoatda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish.
7. "Klaster" nazariyasining mohiyati va uning rivojlanishi.
8. Sanoatda klasterlarni tashkil etish bo'yicha chet mamlakatlar tajribalari.

1. Diversifikatsiyalash tushunchasi, mohiyati va iqtisodiy ahamiyati

Davlat rahbari tomonidan Harakatlar strategiyasida⁸⁸ yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish zarurati alohida ta'kidlandi.

Ishlab chiqarishni tashkil etishning assimetrik shakllari hisoblangan ixtisoslashuv va diversifikatsiya jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida turli xil nisbatlarda ishlab chiqarishda qo'llanilgan.

Diversifikatsiya:

1) tovar strategiyasi turi, unga asosan korxonada ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar sonini kengaytiradi;

2) yangi bozorlarni egallab olish va kushimcha foyda olish maksadida ishlab chiqarishning bir-biri bilan bog'liq bulmagan ikki yoki undan ortik turini bir vaktning uzida kengaytirish va rivojlantirish.

«Diversifikatsiya» lotincha (diversificatio) so'zidan olingan bo'lib o'zgarish, har xillik, bir oz narsaga ko'p tomonlama, kombinatsiyalashgan, ko'p tarmoqli tus berish kabi ma'nolarni anglatadi⁸⁹.

Diversifikatsiya jarayoniga berilgan zamonaviy ta'riflar orasida angliyalik iqtisodchilar Bennok, Bakster va Devnslar tomonidan keltirilgan ta'rifga e'tiboran

⁸⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so'zi. 8 fevral 2017 yil.

⁸⁹Slovar inostrannix slov, M, "Slavyanskiy dom knigi", 1998. - 509 s.

«**diversifikatsiya**-bu biror firma yoki geografik mintaqada tovarlar va xizmatlar doirasini kengaytirishdir».

Quyidagi ta'rif birmuncha aniqroq va kengroq bo'lib, unda diversifikatsiya jarayon va muayyan sub'ektlar tomonidan amalga oshiriladigan tadbir sifatida talqin qilinadi: «**diversifikatsiya** — alohida olingan korxonalar yoki konglomerat yoxud iqtisodiyot tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlar turining oshishidir. Diversifikatsiya iqtisodiyotda tabiiy jarayon sifatida ro'y beradi. Ayrim hollarda esa biznes sohiblari yoki davlat tomonidan tor doiradagi mahsulotlarga (ayniqsa ularga bo'lgan talab o'zgaruvchan bo'lgan sharoitda) bog'liq bo'lib qolish xatarini kamaytirish uchun amalga oshiriladi».

Britaniyalik Syuzan Meyx'yu nuqtai nazari ham ushbu konsepsiyaga ancha yaqin. U diversifikatsiyaga «sanoat ishlab chiqarishni keng doiradagi faoliyat turlariga yoyish va shu orqali fakat bir turdagi mahsulotga o'ta bog'liq bo'lib qolmaslik uchun qo'llaniladigan tadbir» sifatida ta'rif beradi. U o'z fikrini davom ettirar ekan, diversifikatsiyaning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi⁹⁰:

- gorizontalar diversifikatsiya;
- konsentrik diversifikatsiya;
- konglomerat (vertikal) diversifikatsiya;
- mehnat bilan ta'minlashning mintaqalar bo'yicha diversifikatsiyasi;

Gorizontalar diversifikatsiya deganda ilgarigi tovarlarga o'xshash ishlab chiqarish, texnik, ta'minot va sotish sharoitlariga yaqin bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish tushuniladi.

Konglomerat (vertikal) diversifikatsiya esa ilgarigi tovar ishlab chiqarishni sotuv yo'nalishi sifatida ham tovar dasturini chuqurligini ustirishni anglatadi. Masalan, gusht mahsulotlarini sotuvchi maxsus do'kon mol etishtirishni va seleksiya bo'yicha ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlaydi.

Konsentrik diversifikatsiya korxonalar uchun yangi tovarni ishlab chiqarishni ko'zda to'radi.

Amerikalik iqtisodchilar S. Fitper, R. Dornbush, Malenzilar diversifikatsiyani «tavakkalchilikni bir nechta aktivlarga taqsimlash orqali uning darajasini pasaytirishga yo'naltirilgan strategiya» sifatida aniqlaydilar. Ularning fikricha, diversifikatsiyaning asosiy qoidasi «hamma tuxumlarni bitta savatda saqlamaslikdan iborat». Mazkur ta'rif bir muncha umumiyroq xarakterga ega bo'lsada, diversifikatsiyaning iqtisodiy mohiyatini to'liq o'zida aks ettiradi.

Yana bir angliyalik iqtisodchi Devid Skott diversifikatsiya mazmunini bir muncha boshqacharoq tushunadi. Uning fikricha, diversifikatsiya «bu turli xil korxonalarining qimmatli kog'ozlar sotib olish orqali ulardan keladigan foyda miqdorini barqarorlashishini ta'minlashdir». Ko'rinib turibdiki, bu ta'rifda ham «barcha tuxumlarni bitta savatda saqlamaslik» tamoyili ustun o'ringa ega. shu bilan bir qatorda bu ta'rifda moliyaviy diversifikatsiya masalasiga asosiy e'tibor qaratilgan.

⁹⁰The Penguin Dictionary of Economics (Graham Bannock, R.B. Baxter and Etlep Davis], - 1998. -p. 168.

SHunday qilib, diversifikatsiya - bu oldindan qo'yilgan maqsad emas, balki ob'ektiv jarayonning vujudga kelishi natijasida amalga oshiriladigan majburiy chora-tadbiridir.

2.Sanoat korxonalarida yangi tovar ishlab chiqarish, tovar diversifikatsiyasi

Firma doimo tovar strategiyasini takomillashtirib borishi zarur. Bu barqaror assortiment tuzilishiga, doimiy sotuvga va foydaga erishishga imkon beradi.

Tovar innovatsiyasi strategiyasi yangi tovarni ishlab chiqarish va tadbiriq etish dasturini aniqlaydi. Biroq «yangi tovar» tushunchasini turli talkinga ega va takomillashtirishni asoslash sifatida ishlatiladi, mavjud tovarni yangilash uchun ishlatiladi.

Mavjud nazariya va amaliyotda innovatsiya «yangilik kiritish» va «yangilik» tushunchalari bilan sinonim hisoblanadi.

Tovar innovatsiyasi yangi tovarni ishlab chiqish va qo'llashni ko'zda to'tadi va amalga oshirish shakli bo'yicha tovar differentsiatsiyasi va tovar diversifikatsiyasiga bo'linadi.

Tovar diversifikatsiyasi o'zida raqobatchi tovarlardan ajralib turuvchi qiladigan bir qator asoslangan tovar modifikatsiyasini ishlab chiqish jarayonini mujassamlashtiradi.

Tovarni modifikatsiyalashda tovar sifatini oshirish, tovar xossasini yaxshilash, tovarni bezash va tashqi dizaynini yaxshilash ko'zda tutiladi.

Maqsadli bozorni o'zlashtirish yo'llarini qidirishda muqobil strategiyalarni aniqlash uchun I.Ansoff tomonidan 1966 yilda taklif etilgan «tovar-bozor» matritsasi ishlatiladi.

1-jadval

«Tovar-bozor» matritsasi⁹¹

Tovarlar	Bozorlar	
	Joriy	YAngi
Joriy	<u>Bozorga chuqurroq kirib borish strategiyasi</u> <ul style="list-style-type: none"> Sotishni jadallashtirish YAngi xaridorlarni qidirish Raqobatchilarni sindirish Tovarni iste'mol sohasini kengayishi 	<u>Bozorni rivojlantirish strategiyasi</u> <ul style="list-style-type: none"> YAngi bozorlar YAngi sotish hududlari Xalqaro bozorlar Tovarni ishlatilishini yangi sohalarini tuzish
YAngi	<u>Tovarni rivojlantirish</u> <ul style="list-style-type: none"> Uz kuchi bilan yangi tovar ishlab chiqarish Bitimlarni rivojlantirish Litsenziya Maxorat bilan ayirboshlash 	<u>Diversifikatsiya</u> <ul style="list-style-type: none"> Gorizontal Vertikal Konsentrik

⁹¹ Qosimova M.S., yusupov M.A., Ergashxodjaeva SH.D. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2011. 287 b.

Tovar diversifikatsiyasining maqsadi bo'lib iste'molchilarni tovarni afzal ko'rish, alohida bozor yoki bozor segmenti xususiyatlarini hisobga olish orqali tovarni jalb etuvchanligini oshirish, uni raqobatbardoshligini o'sishi hisoblanadi.

Tovar diversifikatsiyasi quyidagi omillar bo'yicha amalga oshiriladi:

- Tovarni qo'shimcha imkoniyatlari
- Tovardan foydalanish samaradorligi
- Komfortlilik
- Ishonchlilik
- Tovar dizayni va stili.

Yangi tovarlarni ishlab chiqish va qo'llash innovatsiya siyosatining tamoyil va uslublariga, xususan, tovar innovatsiyasi jarayoniga mos holda amalga oshiriladi.

Tovar innovatsiyasi jarayoni 6 bosqichni o'z ichiga oladi:

- yangi tovar haqida g'oyani qidirish
- g'oyani tanlash
- yangi tovar g'oyasini tijoratlashuvini iqtisodiy tahlili
- tovarni ishlab chiqish
- bozor sharoitida uni tajribadan o'tkazish
- tovarni bozorga qo'llash

3.Sanoat korxonalarida maxsulot tuzilmasi, nomenklaturasini va assortimentining tahlili

Korxonalar(firma)larning ixtisosligiga kiruvchi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tarkibi bozordagi talab va taklifning o'zgarishiga qarab muntazam takomillashib, rivojlanib hamda mukammallashib boradi. Ayniqsa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, qiymat o'lchamidagi hajmi strukturaviy o'zgarishlar ta'sirida ortib yoki kamaytirilib aniqlanishi mumkin. Bunda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi sarflanayotgan moddiy va mehnat xarajatlarini e'tiborga olgan holda o'rganilishi tahlilda erishilgan natijalarni yanada aniqroq o'rganish imkoniyatini yaratadi. Korxonalar uchun ko'proq foyda keltiruvchi, kam xarajatlar talab etiladigan tovarlarni ishlab chiqarish o'ta manfaatlidir. shuning uchun ham tovarlarni ishlab chiqarish hajmini tahlil qilishda strukturaviy o'zgarishlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Mahsulot hajmiga strukturaviy o'zgarishlarning ta'sirini zanjirli borlanish usuli orqali aniqlash mumkin. Korxonalar uchun naf keltiruvchi barcha strukturaviy o'zgarishlardan foydalanish mahsulotlarning hajmini ko'paytirish imkoniyatini yaratadi.

Strukturaning o'zgarish sabablari turlicha bo'lishi mumkin;

- ishlab chiqarilgan tovarlar tarkibida yuqori narxga sotilishi mumkin bo'lgan mahsulotlar ulushining ko'payishi;
- mo'may foyda keltiruvchi tovarlarning hajmi;

- me'yordagi moddiy va mehnat sarflaridan ham tejamkorlik imkoniyati bo'lgan tovarlarning mavjudligi;
- arzon xomashyo, yoqilg'i va boshqa moddiy boyliklarning yaqinligi;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning texnologiyasini takomillashishi evaziga yuqori manfaat;
- tovarlar sifatini yaxshilanishi va boshqalar.

Mahsulotlar nomenkulaturasi — deb, miqdor holda tovarlar guruhleri, kichik guruhleri va pozitsiyalarini belgilashda hamda hisobga olishda qabul qilingan ro'yxatidir.

Tovar (ish, xizmat)lar assortimenti — esa, mahsulotlarning ma'lum bir belgilariga qarab, ya'ni, uning turlari, navi, o'lchami, markasi, artikullariga qarab ajratiladigan mahsulotlar xilidir. *Tovarlar nomenklaturasi va assortimentini o'rganishda o'rtacha assortiment rejasining bajarilishi tahlil etiladi.*

Firma va kompaniyalar faoliyatini tahlil etishda o'rtacha assortiment rejasining bajarilishini ham aniqlash muhim hisoblanadi. O'rtacha assortiment rejasining bajarilishi odatda eng kichik raqamlarni jamlash usuli orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir assortiment turlarini haqiqatda ishlab chiqarilish miqdorlari biznes reja bilan solishtirilib har ikki ko'rsatkichdan eng kichigi assortiment hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibiga qabul qilinadi. Assortiment hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibiga qabul qilingan ko'rsatkichlarning jamini biznes reja bo'yicha ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan mahsulotlarga bo'lish orqali o'rtacha assortiment rejasining bajarilishi aniqlanadi.

Assortimentni shakllantirish sistemasi quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga olishi shart:

- iste'molchilarning istiqbolli ehtiyojini aniqlash;
- chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshlik darajasini aniqlash;
- mahsulotning bozordagi hayotiylik siklini o'rganish, o'z vaqtida yangi zamonaviy bo'lgan tovarlar turini yaratish bo'yicha choralar ko'rish va ishlab chiqarish dasturidan ma'naviy eskirgan va iqtisodiy jihatdan kam foydali bo'lgan mahsulotni chiqarib tashlash;
- iqtisodiy samaradorlik va mahsulot assortimenti o'zgarishida xavf xatar darajasini baholash.

4. Sanoatda kooperatsiya tushunchasi va uning shakllari

Sanoatda korxonalar ixtisoslashuvining rivoji ishlab chiqarishni kooperatsiya asosida amalga oshadi.

Kooperatsiya- bu ma'lum mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmat bajarishni birgalikda olib borish bo'yicha tarmoqlar va ular korxonalarining davomli ishlab chiqarish aloqalari shakllaridan biri.

Kooperatsiyada mahsulot etkazib berish tartibi ishlab chiqarish jarayonida buyurtmachining ma'lum ishlab chiqarish-texnikaviy topshiriqni bajarishini hisobga olishini talab etadi. Kooperatsiya xom ashyo, yoqilg'i va standartlashtirilgan yarimfabrikatlar hamda buyurtmalarni etkazib berish bosqichlarini qamragan holda moddiy-texnika ta'minotidan farqlanadi.

Kooperatsiya murakkab mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirishni tezlashtirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash bilan bog'liq bo'lgan muhim vazifalarni hal etishga imkoniyat yaratib beradi.

Sanoatning rivojlanish davrlarida ishlab chiqarishni kooperatsiyaning bir qancha samarali shakllari vujudga keldi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- buyumli (agregatli) kooperatsiya;
- texnologik kooperatsiya;
- tarmoqlararo kooperatsiya;
- iqtisodiy rayonlararo kooperatsiya.

Buyumli (agregatli) kooperatsiya - bu mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchi bosh korxonaga turli butlovchi buyum va detallarni etkazib beruvchi korxonalarining faoliyatidan iborat. Masalan, detallar bo'yicha kooperatsiya usulida ixtisoslashgan korxonalar bosh korxonaga sharikopodshipniklar, porshenlar, turli uzellar va asbob-uskunalarining qismlarini etkazib berishlari mumkin.

Texnologik kooperatsiya — bu bir va bir necha korxonalar o'rtasida alohida jarayonlarni bajarish bo'yicha hamkorlikdir. Ishlab chiqarishning qaysi tarmoqqa taalluqliligi nuqtai nazaridan tarmoq va tarmoqlararo ishlab chiqarish kooperatsiyasi vujudga keladi.

Tarmoqlararo kooperatsiya sanoat tarmoqdarining bir biriga xizmat ko'rsatishini ifodalaydi. Masalan, sanoat ishlab chiqarishining mashinasozlik tarmog'i metallurgiya sanoati bilan hamkorlik qilishi mumkin. Kooperatsiya asosida ma'lum mahsulotlarni tayyorlashi, bir biriga butlovchi buyumlar etkazib berishi va muayyan ishlarni bajarib berishi mumkin.

O'zaro bog'liq bo'lgan korxonalarni joylashtirish nuqtai nazaridan iqtisodiy rayonlar miqyosida va rayonlararo kooperatsiya keng tus olishi mumkin.

Rayonlararo kooperatsiya turli iqtisodiy hududlarda joylashgan korxonalar o'rtasidagi aloqalarni ifodalaydi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishning bu shakliga baho berish uchun uning ahvolini va imkoniyatlarini bilish lozim. Buning uchun har xil ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- birinchidan, ushbu korxonalar bilan hamkorlik qiluvchi korxonalar soni. Bunda etkazib beruvchi va buyurtmachi korxonalarining soni alohida-alohida hisob-kitob qilinadi. Masalan, avtomobil zavodlari yuzlab korxonalar (firma)lar bilan hamkorlik qilsalar, stanoksozlik korxonalarining ishlab chiqarish aloqalari atiga bir nechta korxonalar bilan chegaralangan bo'ladi.

- ikkinchidan, kooperatsiya usulida olinayotgan yarim fabrikatlar va butlovchi buyumlarning ushbu korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulot tannarhidagi ulushi. Masalan, avtomobil tannarhida tashqaridan kooperatsiya yo'li bilan olinadigan yarim fabrikatlar va butlovchi buyumlarning ulushi taxminan 60-65 foizni tashkil etadi.

Ishlab chiqarish sohasidagi kooperatsiyaning turli shakllari va usullarining rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi⁹²:

⁹²<http://www.biznes-daily.uz/uz/birjaexpert/31966-ishlab-chiqarish-kooperatsiyasini-rivojlantirish>

- muayyan mintaqa ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarining rivojlanish darajasi va tarmoqlararo ishlab chiqarish jarayonlarining integratsiyalashuv darajasi;
- tovarlar, mehnat, sarmoya va xizmatlar bozorining shakllanish darajasi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari va uning holati;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotish, shuningdek, turli xildagi xizmatlarni ko'rsatish sohasida raqobatning rivojlanganlik darajasi.

5. Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi va uni kuchaytirishda kichik biznes imkoniyatlaridan foydalanish

Mamlakatimiz iqtisodiyotidagi etakchi tarmoqlarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishda turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi kooperatsion aloqalarni rivojlantirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi⁹³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yirik sanoat korxonalarini bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2006 yil 5 yanvar, PF-3706-sonli), "Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2007 yil 12 noyabr, PF-3937-sonli) Farmonlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi kooperatsion aloqalarni yanada kuchaytirishga imkoniyat yaratuvchi ko'plab chora-tadbirlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 noyabrdagi PF-3937-sonli "Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga binoan mamlakatimizda Respublika savdo yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi faoliyati yo'lga qo'yildi. 2008 yilda Respublika sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasiga xalqaro ahamiyatdagi maqomi berildi. Endilikda sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi ikki bosqichda, ya'ni, birinchi bosqichda – tarmoq ko'rgazmalari va yarmarkalari, ikkinchi bosqichda – xalqaro tarmoqlararo sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi sifatida o'tkazilmoqda. Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasining tashkil etilgandan buyon faoliyati umumiy natijalarini quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin (8.2-jadval).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi Farmonida bu haqida to'g'ridan to'g'ri shunday deyilgan: "Respublika aholisining bandligi va daromadlari barqaror o'sishini ta'minlashga doir vazifalarni hal etishda kasanachilikning turli shakllarini keng rivojlantirish, jumladan uning yirik sanoat korxonalarini bilan kooperatsiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Yirik sanoat korxonalarini bilan kasanachilar o'rtasida kooperatsiya aloqalarining

⁹³<http://www.biznes-daily.uz/uz/birjaexpert/15610-ishlab-chiqarish-kooperatsiyasini-kuchaytirishda-kichik-bizns-imkoniyatlaridan-foydalanish-yonalishlari>

mustahkamlanishi oila byudjeti daromadlarini oshirishdek muhim muammoni hal etadi, ish bilan band bo‘lmagan aholi sonini keskin qisqartirish va uning faol qismini ishlab chiqarishga jalb etish imkonini beradi”⁹⁴.

2-jadval.

Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari⁹⁵

Ko‘rsatkich	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil
Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi ishtirokchilari soni, nafar	1487	1833	2200	2327	2940	3940	12639
Etkazib berilgan mahsulotlar bo‘yicha shartnomalari soni, dona	2668	3434	2647	3119	4101	5920	13318
Etkazib berilgan mahsulothajmi, mlrd. so‘m	1822,5	2623	3681,8	4795,9	5424,3	6315	7904,5

Aytish joizki, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan farmonga muvofiq, ish bilan bandlikning ushbu shaklini rag‘batlantirish maqsadida bir qancha quyidagi imtiyoz va kafolatlar ko‘zda tutilgan:

– tovarlar (ishlar va xizmatlar) ishlab chiqarish bo‘yicha kasanachilarga buyurtma beradigan korxonalar 2006 yilning 1 fevralidan boshlab 2021 yil 1 yanvarigacha, mehnat shartnomasi asosida kasanachilarga to‘lanadigan mablag‘larga teng miqdorda, mehnatga haq to‘lash fondidan Yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lashdan ozod qilinadi;

– korxonalariga mehnat shartnomasi asosida kasanachilarga korxonalar buyurtmasi bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishni va xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etish uchun asbob-uskuna, jihozlar va inventarlarni tekin yoki ijara sharti bilan berish, jumladan, lizing (moliyaviy ijara) asosida taqdim etish huquqi beriladi;

– korxonadan tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq kasanachilarga korxonaga buyurtmasi bo‘yicha ishlarni bajarish uchun tekin foydalanishga berilgan asbob-uskuna, jihozlar va inventarlar ulardan foydalanish davrida mulk solig‘idan ozod etiladi;

– kasanachilar buyurtmachi-korxonalarining ishlab chiqarish texnologiyasiga to‘liq amal qilgan taqdirda, uy sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni qo‘shimcha sertifikatlash hamda standartlash talab etilmaydi;

⁹⁴O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi “Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o‘rtasidagi kooperatsiyani kengaytirish rag‘barlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni //Xalq so‘zi. 2006 yil 5 yanvar

⁹⁵Manba: O‘zbekiston Respublikasining statistika qo‘mitasi /www.stat.uz

– mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan korxonalariga kasanachilar tomonidan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning qaytarilishi ulgurji savdo hisoblanmaydi va litsenziyalanmaydi;

– kasanachilar faoliyati buyurtmachi-korxonalar qonunchilikda belgilangan tartibda tekshirilgandagina nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshirilishi mumkin.

Kasanachilikning bir nechta turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Qo'l mehnatini osonlashtiradigan oddiy moslamalarni qo'llanib bajariladigan qo'l mehnati (qo'lda kashta tikish, to'qish, bichish, mahsulotni qadoqlash, navlarga ajratish, yaroqsizini ajratish, bo'yash va hokazo)

2. Murakkab bo'lmagan asbob-uskunalar qo'llaniladigan tarzda mexanizatsiyalashtirilgan mehnat (tikuvchilik ishlari, sovg'alar ishlab chiqarish, buyumlar yig'ish, mahsulotlarni konservatsiyalash, qandolatchilik mahsulotlarini tayyorlash va hokazo)

3. Korxonaga xizmatlar ko'rsatish bo'yicha uyda bajariladigan ish (oziq ovqat yarim fabrikatlarini tayyorlash, qandolatchilik mahsulotlarini pishirish, kir yuvish va kiyim kechaklarni ta'mirlash, qoramol boqish va etishtirish)

4. Telefon, internet kabi aloqa vositalari qo'llaniladigan tarzda masofadan turib bajariladigan ish (ma'lumotlar tayyorlab berish ishlari, savollarni ko'rib chiqish va ishlash, aholiga telefon orqali masofadan turib ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, o'tkazmalar va shu kabilarni bajarish)

3-jadval

Kasanachilik faoliyatining o'ziga xos modellari⁹⁶

Maqsad	Qo'llanish sohasi
1. Korxonaning xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqaradigan va aholiga xizmat ko'rsatadigan fuqarolar bilan kooperatsiya aloqalarini o'rnatish	qo'llanish sohasi – faoliyatlari mavsumiy tusga ega bo'ladigan korxonalar. Misol – chust P/Z uyda milliy pichoqlar, ro'mollar va boshqa turdagi xalq hunarmandligi buyumlarini tayyorlaydigan 24 nafar fuqaro bilan mehnat shartnomasi tuzgan. Bunday yutuq kasanachilik mehnatini bajariladigan ish o'rinlarini yuzaga keltirishga kam sarf-harajat qilinishidan iborat.
2. Texnologik jarayonga kiritilgan ixtisoslashtirilgan kasanachilik mehnati ish o'rinlarining yaratilishi	qo'llanish sohasi – asosiy mahsulot ishlab chiqarish uchun ayrim operatsiyalar yoki buyumlarni bajarilishi. Misollar – furnitura ishlab chiqarish, yarim tayyor mahsulotlarni charhlash, butlovchi detallardan buyumlar yig'ish, tikuv, poyabzal va hokazo buyumlarga qo'lda ishlov berish.
3. Korxonaning ishlab chiqarish dasturiga kiritilgan	qo'llanish sohasi – ishlab chiqarishning ayrim turlarini korxonaning ishlab chiqarish maydonlaridan

⁹⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasidagi kooperatsiyani kengaytirish rag'barlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni //Xalq so'zi. 2006 yil 5 yanvar

mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha kasanachilik mehnati bilan bog'liq ish o'rinlarini yaratish.	kasanachilarning istiqomat joylaridagi ish joylariga o'tkazish va shuning hisobiga bo'shab qolgan maydonlardan samarali foydalanish. Misollar – mahsus kiyim-bosh, fartuk va qanorlar ishlab chiqarish.
---	---

6. Sanoatda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish

Korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish o'zaro chambarchas bog'liq jarayondir. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasining kengayishi tayyor mahsulot, butlovchi buyum va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish uchun shart-sharoit yaratadi.

Ma'lumki, mahalliyashtirish jarayoni iqtisodiyotning jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlash, uning tashqi omillarga bog'liqligini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni tatbiq qilishni jadallashtirish, mahalliy xom ashyo va ishlab chiqarish resurslaridan keng foydalanish, shu asosda zamonaviy raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, valyuta mablag'laridan tejamli va oqilona foydalanish, shuningdek, yangi ish joylarini yaratish imkonini beradi.

Mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi quyidagi ijobiy jihatlar bilan tavsiflanadi:

- mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish;
- turli sanoat tarmoqlarining qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlari eksportini ko'paytirish va an'anaviy eksport salmog'ini kamaytirish;
- samarali ichki va tarmoqlararo ishlab chiqarish kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning real sektorida mamlakatimiz korxonalarining kooperatsiyasi salohiyatidan yuqori darajada foydalanish;
- mahalliy xom ashyoni qayta ishlashni kengaytirish, ishlab turgan korxonalarini zamonaviylashtirish va yangilarini tashkil etish hisobidan iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish va h.k.

RAQAMLAR:


Mahalliyashtirish dasturidagi loyihalar soni -799 ta.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqaril-gan mahsulotlar hajmi — 9,9 trln.so'm.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksporti — 512,4 mln.AQSH.dollar.

Sanoat kooperatsiyasi asosida amalga oshirilayot-gan tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va material-larni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'l-gan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi. 2017 yilning yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi doirasida

799 ta loyiha bo'yicha 9,9 trln.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, 512,4 mln.dollarlik mahalliyashtirilgan mahsulot-lar eksport qilindi va 3018 ta yangi ish o'rni yaratildi.




1-rasm. 2017-yilda mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari⁹⁷

2017 yilning yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi bo'yicha amalga oshirilayot-gan eng ko'p loyihalar Toshkent sh. (331 ta loyiha), Toshkent (167), Navoiy (56), Andijon (54), Farg'ona (48), Samarqand (40) va Namangan (31) viloyatlaridagi korxonalariga to'g'ri keladi.




⁹⁷Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi /www.stat.uz

2-rasm. 2017-yilning yanvar-dekabr oylarida mahalliyashtirish dasturi doirasida amalga oshirilgan loyihalar soni⁹⁸



3-rasm. 2017-yilning yanvar-dekabr oylarida mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi


Shu bilan birga, mahalliyashtirish dasturi doirasida mahsulotlar ishlab chiqarish 2016 yilning tegishli davriga nisbatan Andijon (3,3 martaga), Navoiy (2,2 martaga), Jizzax (2,0 martaga), Namangan (169,4 % ga), Sirdaryo (111,0 % ga), Farg'ona (109,7 % ga), Toshkent (102,5 % ga) viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida (2,3 martaga) va Toshkent shahrida (136,6 % ga) oshishi kuzatildi.



4-rasm. 2017-yilning yanvar-dekabr oylarida mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining o'sish sur'ati, % da⁹⁹

⁹⁸Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi /www.stat.uz

2017 yilning yanvar-dekabr oylarida mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2016 yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Buxoro va Samarqand viloyatlarida kamayi-shi kuzatildi.



5-rasm. Yanvar-dekabr oylarida mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportining hajmi¹⁰⁰

7. “Klaster” nazariyasining mohiyati va uning rivojlanishi

Iqtisodiyot amaliyotida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar hamkorligining turli ko‘rinishlari mavjud: klaster, franchayzing, autsorsing, subkontrakt va hokazo. Korxonalar raqobatbardoshligining zamonaviy strategiyalari tahlili natijalaridan kelib chiqib, engil sanoat korxonalari raqobatbardoshligining asosiy sharti klasterlash strategiyasi hisoblanadi.

Tasniflangan omillarning har biri o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular birgalikda korxonalar raqobatbardoshligiga erishish ustunliklarini keltirib chiqaradi, ta’sir etish bo‘yicha o‘zaro munosabatlarga asoslangan mukammal tizimni shakllantirish lozimligini belgilab beradi.

“Klaster” atamasi fransuzcha so‘z bo‘lib o‘zbekcha tarjimasida “panja”, “bosh”, “bog‘lam”, “guruh”, “to‘planish”, “turg‘un” ma’nolarini beradi. shuningdek, “klaster” tanlanma tadqiqotlarning bir usuli sifatida ham ifodalanadi.

Klasterning mohiyati Alfred Marshallning «Iqtisodiyot prinsiplari»(1890 y.) nomli asaridagi «ixtisoslashgan tarmoq-sohalarning alohida hududlarda uyg‘unlashishi» to‘g‘risidagi nazariy qarashlarida o‘z aksini topgan. Uning ilmiy xulosalari bo‘yicha ixtisoslashgan faoliyat yurituvchi sub’ektlarning hududiy uyg‘unlashuvi:

⁹⁹Manba: O‘zbekiston Respublikasining statistika qo‘mitasi /www.stat.uz

¹⁰⁰Manba: O‘zbekiston Respublikasining statistika qo‘mitasi /www.stat.uz

malakaviy mehnat resurslari mavjudligi;
ta'minotchi va qo'shimcha sohalarning o'sishi;
alohida firmalarning ishlab chiqarish jarayonidagi turli bo'g'inlarga
ixtisoslashuv mavjudligiga asoslangan.

Asosiy vositalardan hamkorlikda foydalanish samarasi

Moliyaviy faoliyat bo'yicha hamkorlik samarasi

Transaksiya harajatlari bo'yicha samara

Ilmiy salohiyat va innovatsiyalardan hamkorlikda foydalanish samarasi

Yuqori texnologiyalardan hamkorlikda foydalanish samarasi

Investitsiyalardan hamkorlikda foydalanish samarasi

Marketing vositalaridan hamkorlikda foydalanish samarasi

Xizmatlardan samarali foydalanish darajasi

6-rasm. O'zaro munosabatlar samarasi¹⁰¹

XX asrning so'nggi yillaridan keyin klaster nazariyasining rivojlanishida ko'plab muhim (Amerika, Britaniya, Skandinaviya va b.) ilmiy maktabiyutuqlarini kuzatish mumkin.

Xususan, Amerika olimlari M.Porterning «raqobatda ustunlik nazariyasi»¹⁰², M.Enrayt, S.Rezenfeld, P.Maskell va M.Lorensening «mintaqaviy klasterlar konsepsiyasi»¹⁰³, A.Marshallning «sanoat hududlari nazariyasi»¹⁰⁴, P.Bekatinning «Italyan sanoat okruglari nazariyalari»¹⁰⁵, M.Storperning «ideal» hududiy klaster nazariyalari yaratilgan.

Qo'shimcha qiymat va «klasterlar zanjiri uyg'unligi» kabi nazariyalar ham

¹⁰¹Manba: Xakimov Z.A. Yengil sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. Falsafa doktorlik dissertatsiyasi. – T.: TDIU, 2018.

¹⁰²Porter M. Mejdunarodnaya konkurensiya. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 1993. S. 51,

¹⁰³Enright M. Regional Clusters and Economic Development: A Research Agenda, in Staber, U., Schaefer, N. and Sharma, B., (Eds.) "Business Networks: Prospects for Regional Development, Berlin": Walter de Gruyter, pp. 190- 213.

¹⁰⁴Marshall A. Prinsipi ekonomicheskoy nauki, t. I – III. Per. s angl. — M.:Izdatelskaya gruppа «Progress», 1993.

¹⁰⁵Begattin P. – Becattini G. From Marshalls to the Italian «Industrial Districts»/
www.copetitivness.org. 2015

shu guruhdan o‘rin olgan.

Keltirilgan nazariyalarida **klaster** - ishlab chiqaruvchilarga raqobat ustunligini ta‘minlashda yuqori samarali usul sifatida hududdagi ta‘lim, fan, texnologik, iqtisodiy va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi sub‘ektlar faoliyati bilan uyg‘unlashgan tizimi ekanligi nazarda tutiladi.

Britaniya nazariyotchilar (J.Danning, K.Brimen, shmit, J.Hamfrilar) «klaster»ni o‘zaro hamkorlikdagi institutlar tizimi sifatida iqtisodiyotning asosini belgilovchi institutsional tizim deb hisoblaydi. Namoyondalar «klaster»ning o‘ziga «zamonaviy institut» sifatida yondashadi. Mazkur tizim qatnashchilarining o‘zaro munosabati turlicha, ya‘ni rasmiy va norasmiy bo‘lganidek, klasterlarning ham tashqi doirasi keng bo‘ladi degan nazariyaga asoslanilgan.

Skandinaviya olimlari (B.O.Lundval, B.Yonson, B.Asxaym, A.Izaksonlar) – klasterning evolyusion rivojini bir qator bosqichlardan o‘tishi lozimligi (tug‘ilishidan tugagunicha) etirof etiladi, evolyusion nazariya imkoniyatidan foydalanish klaster nazariyasini anglatadi degan mulohaza kiritganlar.

To‘rtinchi guruh olimlar klasterni o‘zi ichiga olgan «hudud – korporatsiya ustunligi», «hudud – bozor ustunligi», «hudud – davlat ustunligi», «hudud – ijtimoiy soha ustunligi» konsepsiyalari asosidagi mintaqaviy rivojlanishning zamonaviy paradigmatlari, deb hisoblaydilar.

Klasterlar nazariyasi rus olimlari yu.S.Artamonova, B.B.Xrustalyov va boshqalar¹⁰⁶ tomonidan ham o‘rganilib, amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqilgan. Keltirib o‘tilgan nazariyalarning shakllanishi va ularning amaliy ahamiyati mamlakat, tarmoq va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning innovatsioyan strategiyasida sifatida korxonalar samaradorlikka erishishini nazarda tutadi.

Klaster nazariyasining tadrijiy rivojlanishi, uning ikki fundamental tavsifini ajratish imkonini beradi:

birinchisi, klasterga uyg‘unlashgan korxonalar va firmalar faoliyati aniq turdagi tovarlar bozori bilan bog‘liq bo‘lishi zarur: vertikal (xarid va sotish zanjiri) va gorizontal (qo‘shimcha bo‘limlar va xizmatlar, shunga ketadigan maxsus sarflar, texnologiyalar yoki institutlar va boshqa aloqalardan foydalanish);

ikkinchisi – klasterlar geografik yaqin joylashgan o‘zaro bog‘liqlikdagi korxonalar guruhi bo‘lib, ular o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatning barqarorlashuvi natijasida raqobatbarning rivojlanishi, ko‘proq qo‘shimcha qiymatva bozorda ustunlikni ta‘minlash imkoniyatlarini yaratishga qaratiladi.

Hudud, tarmoq va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga klaster nazariyasini tatbiq etish amaliyotiga ko‘ra, klaster– geografik nuqtai nazardan qo‘shni bo‘lgan, o‘zaro bog‘liq korxonalar (ishlab chiqaruvchilar, mahsulot etkazib beruvchilar va hakoza) hamda ularga aloqador xizmatlarni ko‘rsatib, ma‘lum sohada faoliyat yurituvchi tashkilotlar (ta‘lim muassasalari, davlat boshqaruv idoralari, infratuzilmali kompaniyalar) guruhidir.

¹⁰⁶Klasternie politiki i klasternie initsiatiivi: teoriya, metodologiya, praktika. (Kollektivnaya monografiya). Minobrazovaniya i nauki RF, Minekonomrazvitiya RF, Pravitelstva Penzenskoy oblasti. Penza, 2013.

SHuningdek, klaster – ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligi oshishiga imkoniyatlar yaratuvchi, o‘zaro chambarchas bog‘langan tarmoqlar Yagona texnologik zanjirini tashkil etuvchi hamjamiyatlardir¹⁰⁷.

Mamlakat iqtisodiyoti klasterlarning kuchli jihatlariga tayanadi, chunki ularsiz eng rivojlangan iqtisodiyot ham yuqori darajada samarador-likka erisha olmaydi. Klasterlarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi, ular ishtirokchilari yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanadi va quyidagilarda o‘z aksini topadi:

boshqa tarmoqlardan keladigan yangi ishlab chiqaruvchilar ilmiy tadqiqot ishlarini rag‘batlantiradi va yangi strategiyalarni ta‘minlab, rivojlanish jarayonini tezlashtiradi;

ishtirokchi korxonalarining erkin axborot almashinuvi yuzaga keladi, yangiliklar iste‘molchi va mahsulot etkazib beruvchilarning kanallari bo‘yicha tez tarqaladi;

klasterdagi o‘zaro aloqalar raqobatda yangi imkoniyatlar paydo bo‘lishiga olib keladi;

inson kapitali, ilmiy g‘oyalari rivojlanishi va ishlab chiqarishga joriy etilishiga yangi imkoniyatlar yuzaga keladi.

8. Sanoatda klasterlarni tashkil etish bo‘yicha chet mamlakatlar tajribalari

Jahon ekspertlarining fikricha, klaster strategiyasidan foydalanish hozirgi vaqtga kelib, dunyoning etakchi mamlakatlarida iqtisodiyotning qariyb 50 foizini egallagan.

Klaster nazariyasining asoschisi, amerikalik marketolog olim M. Porter tomonidan 10 ta iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatning 100 ta sanoat va boshqa tarmog‘ida tashkil etilgan klasterlar faoliyati o‘rganilganda qolgan tarmoqlarda, ya‘ni klaster tizimidan tashqaridagilarga nisbatan raqobatda ustunligi hamda ular joylashgan hududlar aholisining turmush darajasi ham yuqoriligi aniqlangan.

Evropa Ittifoqi mamlakatlari va AQSHda bu strategiya keng qo‘llanilmoqda. AQSH sanoatining 50 foizdan ortig‘i klasterlarda foaliyat yuritmoqda. Ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ulushi YAIMning 60 foizdan oshgan.

Evropa Ittifoqi mamlakatlarida klasterlar soni 2000 dan ziyodni tashkil etadi va jami band aholining 38 foiziga to‘g‘ri keladi. Klasterlar soni Buyuk Britaniyada 168 ta, Gollandiyada – 20 ta, Germaniyada 32 ta, AQSHda 380 ta, Daniyada - 34 ta, Fransiyada - 96 ta, Italiyada - 206 ta, Finlandiyada - 9 ta, Hindistonda - 106 ta (8.4-jadvalga qarang).

Daniya, Finlyandiya, shvetsiya sanoatini klasterlar to‘la egallagan. Masalan, Finlyandiya 2000 yildan buyon raqobatbardoshlikda dunyo reytingida etakchi o‘rinni egallab kelmoqda. Bu mamlakat jahon o‘rmon resurslarining qariyb 0,5 foiz ulushga ega bo‘lib, yuqori unumdorligi bilan ajralib turuvchi klasterlar hisobiga yog‘ochni qayta ishlash sanoatida jahon eksportida 10 foiz, qog‘oz

¹⁰⁷Porter M. Konkurensiya. – M.: Izdatelskiy dom «Vilyams», 2011.

eksportining 25 foizini ta'minlamoqda. Finlyandiya klaster strategiyalaridan samarali foydalanish evaziga telekommunikatsiya bozorida mobil aloqa vositalari bo'yicha dunyo eksportining 30 foizini (2005-2010 yillar) va mobil telefonlarning 40 foizni etkazib bergan.

4-jadval

Jahon mamlakatlaridagi sanoat klasterlari soni¹⁰⁸

Mamlakatlar nomi	Klasterlar soni
Buyuk Britaniya	168
Gollandiya	20
Germaniya	32
AQSH	380
Daniya	34
Fransiya	96
Italiya	206
Fransiya	9
Hindiston	106

Italiya sanoatining klasterlari hissasiga ish bilan band aholining 43 foiz, milliy eksport hajmining 30 foizdan ortig'i to'g'ri keladi. Klaster tuzilmalari Germaniyada kimyo va mashinasozlik sanoatida, Fransiyada oziq-ovqat sanoati va kosmetika sanoatida muvaffaqiyatli ishlamoqda. shuningdek, klaster modelidan shveysariya, Avstriya, Italiya, Daniya, Hindiston, Koreya, Pokiston, Xitoy va Turkiyaengil sanoatida samarali foydalanmoqda.

Klasterlar shakllanishi jarayoni Janubiy-SHarqiy Osiyo, Xitoyda, Singapurda, Yaponiyada va boshqa mamlakatlarda faollashib bormoqda. Xitoyda 60 tadan ziyod klasterlar alohida hududlarda shakllantirilgan bo'lib, ulardagi ishchilarning soni 3,5 million aholi ish bilan ta'minlangan va yillik tovar aylanishi 200 mlrd.dollardan ziyodni tashkil etadi.

Klaster tashabbuskorlari uning nafaqat raqobatbardoshlikni oshirish vositasi, balki, mamlakatlar iqtisodiy va innovatsion rivojlanish strategiyasining asosiy jihati ekanligini qayd etish mumkin. Jaxonda keyingi 10 yilda 20 ta mamlakatda amalga oshirilgan 500 dan ortiq klaster tashabbuslari tahlili uning juda kuchli mavqega asoslanganini ko'rsatmoqda.

Germaniyada yaqin vaqtgacha mintaqaviy klasterlar rivojlanishi davlat aralashuvisiz bo'lar edi. Biroq 2003 yilda hukumat klaster tashabbuslariga jiddiy e'tibor qaratdi. Bu, birinchi navbatda, yuqori texnologiyali sohalarni loyihalashga taalluqlidir. Davlat nafaqat mahalliy, balki boshqa manbalar hisobidan sanoatlar va ilmiy markazlar imkoniyatlarini birlashtirishni ko'zda tutadi.

Italiyada tarmoqlarning o'zaro kombinatsiyasi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular mebelni qayta ishlashda – kesuvchi asbob, tikuvchilikda – dizayn, charm sanoati qoshida – poyabzal, yog'ochni qayta ishlashda – mebel kabilardir.

Xitoyda 15 yil davomida to'qimachilik sanoati, sport tovarlari, kiyimlar,

¹⁰⁸Manba: Xakimov Z.A. Yengil sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. Falsafa doktorlik dissertatsiyasi. – T.: TDIU, 2018.

o'yinchoqlar, idishlarni eksportga yo'naltirish uchun amalga oshiriluvchi klasterlashtirish siyosatiga katta miqdordagi sarmoyalar kiritishi, uning jaxon bozoridagi raqobatda ustunlikni ta'minlagani bilan izoxlash mumkin.

1990 yilda EI (Evropa ittifoqi) mamlakatlarida xususiy biznesga yordam berish va ularning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida maxsus klasterlashtirish dasturi ishlab chiqilgan. 2006 yilga kelib «EI mamlakatlarida klasterlashtirish manifesti» ma'qullandi va qabul qilindi. 2007 yilda esa «Evropa Klaster memorandumini» ma'qullandi va tasdiqlashga taqdim etildi. 2008 yilda «Klasterlar bo'yicha Evropa konfederatsiyasi» tasdiqlandi va EI a'zo bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini klasterlash bo'yicha aniq dasturiy vazifalar belgilandi. Qabul qilingan hujjatlarning asosiy maqsadi alohida mamlakatlarda bo'lgani kabi butun Elda ham raqobatbardoshlikni oshirishga ta'sir ko'rsatishga qodir klasterlarni ko'paytirish va ular ish faoliyatidagi mavjud muammolarning echimiga qaratilgan.

Keyingi yillar davomida jahon iqtisodiyotida informatika, ekologiya, logistika, biotibbiyot preparatlari ishlab chiqarish va hokazolar bilan shug'ullanuvchi yangi avlod sanoat klasterlari paydo bo'la boshladi.

Innovatsion klasterlarning asosiylarini Amerikaning «Kremniy vodiysi» deb hisoblash qabul qilingan. chunki uning hududida 87 mingdan ortiq korxonalar, 40 dan ortiq ilmiy tadqiqot markazlari, 40 ta ta'lim muassasasi jamlangan.

Bundan tashqari, xorijiy kompaniyalark o'pgina ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va ishlanmalar yaratish uchun jalb etiladi. Masalan, mikro va nanotexnologiya sohasida ishlovchi «mialoguc» klasteri doirasida yuqori darajadagi mikroblar va mikroorganizmlar yaratish bo'yicha «Foremost» loyihasini amalga oshirish uchun 8 ta mamlakatdagi 24 ta firmalar bilan hamkorlik qilinadi. shunga ko'ra, hozirda Fransiyada yaratilgan innovatsion klasterlarning nufuzi jahonda Yagona sanalmoqda.

Agar yaqin vaqtga qadar klasterlar iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar va tarmoqlardagina bo'lgan bo'lsa, keyingi paytda bu rivojlanayotgan mamlakatlarda ham kuzatilmoqda. Polsha, chexiya, Sloveniya mamlakatlari, Rossiya, Ukraina, Qozog'iston va yaqin sharq mamlakatlarida ham klasterlar paydo bo'ldi va dastlabki natijalar samara bera boshladi.

Chexiya Sanoat va savdo vazirligi «klasterlar dasturi» ustida ishlamoqda. Uning maqsadi klasterlarni yaratish va rivojlantirish, kooperatsiya shaklini gorizontaal va vertikal mustahkamlash bo'lib, uning asosini etkazib beruvchi-iste'molchi-ilmiy tadqiqot institutlari – ishlab chiqaruvchi – ulgurji savdo – chakana savdo hisoblanadi. Odatda, muayyan tarmoq korxonasi biror-bir ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda klasterlarni alohida yuridik shaxs sifatida tashkil etadi. Klasterlarning eng kichik ko'rinishidagilari, sanoat zonalari kabi eng kamida 15 ta mustaqil korxonaga xizmat ko'rsatishi lozim bo'lib, ulardan 75 foiz ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanishi lozim. shuningdek, klasterda birlashgan korxonalarining 60 foizdan ortig'i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari bo'lishi lozim.

Keyingi yillarda Qozog'istonda yirik sanoat korporatsiyalari, tarmoq

tuzilmalari asosida klaster tizimlarini yaratishga kirishildi va loyihalar ustidagi ishlarga M.Porter rahbarlik qilmoqda.

Turkiya dunyo engil sanoat tovarlari bozorida etakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Turkiyada engil sanoat klasteri 1995-2000 yillarda faol shakllantirilgan erishgan. Turkiyaning «Sukurova tekstil klasteri» tarkibida 2000-2010 yillar davomida 12 ta yirik kompaniyaning 500 dan ortiq korxonalari samarali faoliyat yuritgan. Hozirda Turkiya gilam mahsulotlari eksportining 40 foizdan ortig'i va gazlamalarining 35-40 foizi shu klaster hissasiga to'g'ri keladi.

Klasterlar «Erkin ilmiy-texnika zonalari» yoki «texnoparklar» shaklida tashkil etilmoqda. Erkin fan-texnika zonalari alohida ajratilgan hududlardan iborat bo'lib, u erda ilmiy-ishlab chiqarish va o'quv markazlari jamlanadi hamda ular uchun ilmiy va ishlab chiqarish imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus huquqiy tartibot o'rnatiladi. Erkin fan-texnika zonalari yuksak texnologiyalar amal qiluvchi zonalar, texnoparklar, mintaqaviy innovatsiya markazlari-texnopolislar shaklida tashkil etiladi¹⁰⁹.

Texnoparklar ikkita asosiy komponentlardan: ishlab chiqarish (sanoatning ilg'or sohasidagi korxonalar) va ilmiy markazlar (universitet, institut, ilmiy tekshirish instituti, laboratoriyalarning kuchli guruhlari) dan tarkib topadi va ularning faoliyati raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga yo'naltiriladi.

O'zbekistonda birinchi bo'lib A.SH.Bekmurodov va YAng Son Be¹¹⁰ «O'zbekiston tekstil sanoatini rivojlantirish strategiyasiga klaster yondashuvi» bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borganlar. Ularning tadqiqotlarida xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha klasterlardan foydalanish loyihalari tavsiflanib, Amerikada axborot-kommunikatsiya, YAponiyada avtomobil, neft-kimyoy va to'qimachilik, Italiyada keramika va gilam ishlab chiqarish, Koreya Respublikasida tarmoqda erishilgan natijalar tahlil qilingan. Shu bilan birga, A.SH.Bekmurodov va YAng Son Be asosiy e'tiborni O'zbekiston engil sanoati sanoati eksport salohiyatini tahlil qilishga qaratib, sohaga xorijiy investitsiyalarni ko'proq jalb qilish bo'yicha ilmiy tavsiyalar tayyorlangan va mahsulotni bo'yash bo'yicha sanoat hududiy klasteri modelini Koreya Respublikasining Degu shahridagi tajriba asosida ishlab chiqilgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Sizning fikringizcha diversifikatsiyalash yo'nalishlari qanday bo'lishi kerak va iqtisodiy ahamiyati nimada ko'rinadi.
2. Sanoat korxonalarida tovar diversifikatsiyasiining vazifasi nimada?
3. Sanoatda kooperatsiya nima va uning shakllari qanday?
4. Sanoatda ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish nimani anglatadi?
5. «Klaster» nazariyasining mohiyati va uning rivojlanishini tushuntiring?
6. Sanoatda klasterlarni tashkil etish bo'yicha chet mamlakatlar tajribalari qanday?

¹⁰⁹Manba: O'zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy zonalar» to'g'risidagi qonuni. – T., 1996 yil 25 aprel. 220-I-son. www.lex.uz

¹¹⁰ Bekmurodov A.SH., YAng Son Be. Strategiya razvitiya tekstilnoy promishlennosti Uzbekistana. Klasterniy podxod – Tashkent, 2006 y.

13-mavzu. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va diversifikatsiyalash

Reja:

1. Tarmoqda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllari
2. Konsentratsiyalashtirish, uning mohiyati va ahamiyati
3. Mahalliyashtirish, ixtisoslashtirish ularning mazmuni va mohiyati
4. Diversifikatsiya uning mohiyati va ahamiyati

1.Tarmoqda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllari

Tarmoqda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllariga quyidagilar kiradi:

- konsentratsiyalashtirish;
- mahalliyashtirish;
- ixtisoslashtirish;
- diversifikatsiya qilish;
- kooperativlashtirish;
- kombinatsiyalashtirish.

Konsentratsiyalashtirish - bir xil, o'xshash mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni yiriklashtirishdir.

Mahalliyashtirish – bu ishlab chiqarishni mahalliy sharoitga va zamonaviy talablarga moslashtirishdir.

Ixtisoslashtirish - bu alohida ishlab chiqarish uchastkalari, tsexlar, korxonalar, tarmoqlarni konstruktiv va texnologik jihatdan o'xshash bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga èki jaraènlarni bajarishga mujassamlashtirishdir.

Diversifikatsiya qilish – bu korxonalar va tarmoqlarning faoliyat sohasini o'zgartirish va kengaytirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlar turini ko'paytirish va ularning xilma-xilligini ta'minlashdir.

Kooperativlashtirish – malum turdagi mahsulotni hamkorlikda tayyorlash bo'yicha korxonalarining birgalikda faoliyat ko'rsatishidir.

Kombinatsiyalashtirish - turli tarmoqlarga mansub bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni yoki jarayolarni bir korxonada miqyosida mujassamlashtirishdir.

Ishlab chiqarishni tashkil etishning bu shakllari mustaqillik tufayli va milliy iqtisodiyatni isloh etish, erkinlashtirish munosabati bilan o'z mohiyati va mazmunini, maqsadi, vazifalarini anchagina o'zgartirdi. Ayniqsa ishlab chiqarishni konsentratsiyalashtirish, kichik va o'rta korxonalarining paydo bo'lishi munosabati bilan ular o'rtasida uyg'unlashuv yuzaga keldi.

Oliy Majlis Senati tomonidan qabul qilingan qonunlar va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida, Prezident asarlarida ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada ular oqilona

ravishda, sanoat siyosatining barcha talablariga javob beradigan yo'sinda rivojlanib bormoqda.

Bu jarayonlarning zarurligi va ularni takomillashtirish masalalari milliy iqtisodiy taraqqiyatning keyingi bosqichlarida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

2. Konsentratsiyalashtirish, uning mohiyati va ahamiyati

Ishlab chiqarishning konsentratsiyalashtirish — bu mahsulot tayyorlash, ish bajarish va xizmat ko'rsatishni eng yirik korxonalarda to'plash jaraenidir. Uning bir necha turlari mavjud. Ular agregat, texnologik, tashkiliy xo'jalik va korxonalarni yiriklashtirish shakllarida ifodalanadi.

Agregat shaklida ishlab chiqarishni konsentratsiyalashtirish dastgohlarning quvvatini oshirishdir, ya'ni agregatlarning unumdorligini yuqori darajaga hamda ma'lum xildagi mahsulotlarni ishlab chiqarishning umumiy quvvatida yuqori unumdor agregatlar salmog'ini ko'paytirishdir. Bu jarayon sanoatning yetakchi, ayniqsa, elektroenergetika, metallurgiya, ximiya, yoqilg'i va qurilish materiallari tarmoqlarida sezilarli.

Konsentratsiyalashtirishga texnologik jihatdan o'xshash ishlab chiqarishlarning quvvatini oshirish orqali erishish mumkin. Masalan, metallurgiyada - cho'yan, po'lat eritish, prokat ishlab chiqarish, to'qimachilikda - yigirish, to'qish, bo'yash, mashinasozlikda - quyuv, mexanik ishlov berish, yig'uv jaraenlarining mujassamlashishi.

Korxonalarni va ularning tarkibidagi tsex va uchastkalarni yiriklashtirish ishlab chiqariladigan mahsulotning yillik hajmini ko'paytiradi, mahsulot sifatini yaxshilaydi, mehnat unumdorligini oshiradi.

Yirik korxonalarining afzalliklariga quyidagilar kiradi:

- yuqori unumli texnika va innovatsion texnologiyalarni qo'llash va ulardan foydalanish imkoniyatlarining ko'pligi;
- ishlab chiqarish fondlaridan oqilona va samarali foydalanish;
- hodimlar mehnat unumdorligining yuqoriligi;
- sanoatga ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan eng yangi fan -texnika yutuqlarini, o'zlashtirishga ta'sir ko'rsatadigan quvvatli konstruktorlik, texnologik va ilmiy - tadqiqot laboratoriyalari, buyurolarini tashkil etish imkoniyatlar;
- mahsulot birligiga to'g'ri keladigan asosiy va erdamchi xizmat ko'rsatish harajatlarning pastligi va h.k.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznesning o'rni va roli juda katta ahamiyatga ega. Shu sababli mustaqillik yillarida kichik biznesning rivojlanishiga alohida e'tibor berildi. Natijada uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 55,8 foizga teng bo'ldi. Lekin sanoat sohasidagi uning ulushi hali ham juda past bo'lib, 2012 yilda u atigi 23 foizga teng bo'ldi.

3. Mahalliyashtirish, ixtisoslashtirish ularning mazmuni va mohiyati

Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish deganda ishlab chiqarishni mahalliy sharoitga va zamonaviy talablarga moslashtirish tushuniladi. Mamlakatimizda amalga oshirilaётgan inqirozga qarshi choralar dasturida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, oziq-ovqat va boshqa iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirish tadbirlari ahamiyatli o'rin tutadi.

Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish – sanoat ishlab chiqarishining turli bosqichlarida import shaklida xarid qilish orqali qo'llaniluvchi detallar, butlovchi qismlar, yarim tayèr mahsulotlar va tayèr mahsulotlarni mahalliy xomashè va materiallar asosida ishlab chiqarishga o'tkazish jarayonidir. Import o'rnini bosish samarasi – mahalliyashtirish jarayonini amalga oshirish orqali ishlab chiqarilgan mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlar natijasida tejalgan import mahsulotlari qiymatidir.

Mahalliyashtirish dasturi o'z mazmuniga ko'ra respublikamiz korxonalarida zamonaviy talablarga javob beruvchi, raqobatbardosh va import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni mahalliy xomashè va materiallardan ishlab chiqarish, va ularning hajmini oshirish, asossiz import hajmini qisqartirish, eksportbop mahsulotlarni ko'plab ishlab chiqarish, yangi ish joylarini yaratish kabi maqsadlarni namoèn etadi. Mazkur dasturning rivojlanish bosqichlari Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator me'èriy hujjatlar, jumladan: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 14 yanvardagi 18-sonli qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 22 iyundagi PQ-386-sonli qarori; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 8 maydagi 93-sonli qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 maydagi PQ-879-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 3 iyuldagi 149-sonli qarori orqali belgilab berilgan. Mamlakatimizda mahalliyashtirish jaraènarining salmoqli natijalarga erishishida ishlab chiqaruvchilarga berilgan imtiyoz va qulayliklarning roli beqièsdir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 maydagi PQ-879-sonli qaroriga ko'ra butlovchi qismlar va detallar, tayèr mahsulotlar, materiallar va xom ashè turlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar 2011 yil 1 yanvargacha:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning —Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiètini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladil mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua.– T.: Iqtisodièt. - 2011.163 b.

- chetdan keltiriladigan texnologik asbob-uskunalar va ular uchun ehtièt qismlar, shuningdek mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarishda texnologik jaraènda foydalaniladigan respublikada ishlab chiqarilmaydigan komponentlar uchun bojxona to'lovlari (bojxonada rasmiylashtirish yig'imlaridan tashqari);

- mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha foyda solig'i, yagona soliq to'lovi (soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llaydigan sub'ektlar uchun);

- mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha mulk solig'i to'lashdan ozod qilinadilar.

Mahalliyashtirish jaraenlarini kuchaytirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni yanada rag'batlantirish maqsadida — Mahalliyashtirish dasturiga loyihalarni kiritishning maqsadga muvofiqligini baholashga qo'yiladigan quyidagi yagona mezonlar va talablar majmui ishlab chiqilgan:

- iqtisodiy vazirligining xulosasiga ko'ra mamlakat sanoatini rivojlantirishning asosiy ustuvorliklariga muvofiqlik;

- mahalliyashtiriladigan mahsulotni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun quvvatlar va xom ashe resurslarining mavjudligi;

- mahalliyashtirish darajasi bosqichma-bosqich oshirib borilgan holda ishlab chiqarish boshlangan paytdan boshlab 12 oy mobaynida ishlab chiqarilaetgan mahsulot bo'yicha mahalliyashtirish darajasining kamida 30 foizga yetishi;

- TIF TN kodi bo'yicha pirovard mahsulot tovar pozitsiyasi boshlang'ich xom ashega taqqoslaganda kamida birinchi 4 belgilardan biri darajasiga o'zgarishi ta'minlanishi;

- mahalliyashtiriladigan mahsulotning sotish narxi ana shunday import qilinadigan mahsulot narxidan yuqori bo'lmaganda loyihaning iqtisodiy o'zini qoplashi (O'zbekistongacha bo'lgan transport sarf-xarajatlari, bojxona va soliq to'lovlari hisobga olingan holda);

- Iqtisodiy hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirliklarining xulosalariga ko'ra mahalliyashtiriladigan mahsulotga ichki va tashqi bozorlarda barqaror talabning mavjudligi;

- mahalliyashtiriladigan mahsulotga nisbatan xalqaro standartlar bo'yicha ishlab chiqarish boshlangan paytdan boshlab 18 oy mobaynida sifatni boshqarish tizimi joriy etilishi. Belgilangan qulay shart-sharoitlar va imtièzlar natijasida Mahalliyashtirish dasturi doirasidagi ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Shuningdek, mamlakatimizda oziq-ovqat va boshqa iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

Bu masalaga oid dasturlarda mamlakatimiz ishlab chiqarish korxonalarini uchun keng ko'lamli rag'batlantirish tizimi nazarda tutilgan. Jumladan, ular uchun 2012 yilning 1 yanvarigacha quyidagi soliq va bojxona imtièzlari berilgan edi:

– go'sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun bo'shagan mablag'larni ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va modernizasiya qilishga maqsadli ravishda yo'naltirish sharti bilan yagona soliq to'lovi stavkasini 50 foizga qisqartirish;

– tayyor nooziq-ovqat tovarlarning muayyan turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarini foyda va mulk soliqlaridan, mikrofirma va kichik korxonalarini yagona soliq to'lovidan ozod qilish. 2010 – 2013 yillar mobaynida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish tufayli juda katta natijalarga erishildi. Faqat 2013 yilning o'zida mahalliyashtirish dasturi doirasida qiymati 11 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

4. Diversifikatsiya uning mohiyati va ahamiyati

Diversifikatsiya qilish – bu korxonalar va tarmoqlarning faoliyat sohasini o'zgartirish va kengaytirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlar turini ko'paytirish va ularning xilma-xilligini ta'minlashdir.

Diversifikatsiya lotincha—diversification so'zidan olingan bo'lib—o'zgarish, xilma-xillik ma'nosini bildiradi. Iqtisodiy, shu jumladan sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish tufayli tarmoqlar va korxonalarining faoliyat sohasi o'zgaradi va tayyorlanadigan mahsulotlar turi ko'payib boradi.

Ilgari to'la ixtisoslashgan korxonalarining boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari, xizmat ko'rsatish sohasiga kirib borishi, ularning faoliyat sohasining kengayishini bildirardi. Diversifikatsiya natijasida esa turli-tuman tovarlar ishlab chiqaradigan, xizmat ko'rsatish hamda ilmiy tadqiqot va ishlanmalar bilan band bo'lgan kompaniyalar, birlashma va jamiyatlar, ammo hamisha ham texnologik jihatdan bog'lanmagan keng tarmoqli komplekslar vujudga keladi.

Mustaqillikning ilk davridan boshlab asta-sekin tovar ishlab chiqarishda tor ixtisoslikdan voz kechish, korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulotlar turini (nomenklatura va assortimentini) ko'paytirish, ko'rinishini o'zgartirish, yangidan yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish ya'ni ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish jara'nlari amalga oshirish yo'lga qo'yildi.

Keyingi yillarda esa past rentabelli va zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarini diversifikatsiya qilishga katta e'tibor berilmoqda. Natijada ular o'ziga turib mahalliy xom ashyadan yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarmoqdalar va hozirgi paytda nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorda ham yetakchi o'rinlarni egallamoqdalar. Masalan, Qashqadaryo viloyatida 77ta korxonalar va ob'ektlar investorlarga topshirilib ularni diversifikatsiyalash ishlari boshlab yuborilgan. Ulardan bir qanchalari 2009 yil davomida katta daromad keltira boshladilar.

Diversifikatsiyalashning eng yuqori darajasi Navoiy viloyatiga xosdir. Bu hudud nafaqat oltin, kumush, marmar, fosforit, kvarts, feruzalar va ohaktosh kabi mahsulotlari, balki yassigulli, qalamgulli, qovurg'a gulli kumush sur terisi kabi qorako'l terilari bilan ham ma'lum va mashxurdir. Ulardan tikilgan a'ellar va erkaklar liboslari, turli dizayndagi to'n, nimcha va bosh kiyimlari ichki bozorda ham, tashqi bozorda ham raqobatdosh va bozori chaqqon tovarlar hisoblanadi.

Iqtisodiy —...tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshiriladigan, har tomonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat bizni

inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan himoya qiladigan kuchli to'siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi.

Diversifikatsiyani amalga oshirishning shakllari, hajmi va usullari ayniqsa 2005-2009 yillarda keng avj oldi va rivojlanishning umumiy, investitsion konsepsiyasiga aylandi. Shu sababli mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashni davom ettirish va uni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash bilan birga uyg'unlashtirib olib borishni davom ettirishni O'zbekiston sharoitida jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etishning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini qayta-qayta ta'kidlamoqdalar.

Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009 yil, 31 - bet. 116

—Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari nomli asarda —2009 yilgi iqtisodiy dasturimizning ikkinchi eng muhim ustuvor yo'nalishi -boshlangan tarkibiy o'zgarishlarni va iqtisodiy diversifikatsiya qilish jarayonlarini davom ettirishdir, deb bu masalaga alohida urg'u berildi.

Yaqin va uzoq kelajakda ham ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- korxonalar va tarmoqlarning faoliyat sohasini kengaytirish;
- mahsulot va xizmatlar turlarini ko'paytirish;
- mahsulot va xizmatlar sifatini takomillashtirish;
- mahsulot va xizmatlar bozorini kengaytirish.

Iqtisodiy sektorida faoliyat yuritayotgan korxonalarini diversifikatsiyalash ularning nafaqat foyda (daromad) olish imkoniyatlarini mustaxkamlaydi, balki O'zbekistonning jahon bozorida yangidan-yangi marralarga erishishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ishlab chiqarishni tashkil etish nima?
2. Yirik korxonalarining afzalliklari nimalardan iborat?
3. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish deganda nimani tushunasiz?
4. Diversifikatsiya nima va uning afzalliklarini izohlab bering.

14-Mavzu Kadrlar va mehnatga haq to‘lash.

Reja:


1. Kadrlar siyosati va uning sanoat taraqqiyotidagi roli
2. Kadrlar, ularning tarkibi va strukturasi
3. Mehnat salohiyatidan foydalanish ko‘rsatkichlari tizimi, va aniqlash yo‘llari
4. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish
5. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash
6. Mehnatga haq to‘lashning funksiyalari va tamoyillari
7. Mehnatga haq to‘lashning tarif tizimi va uning elementlari

1. Kadrlar siyosati va uning sanoat taraqqiyotidagi roli

Sanoat ishlab chiqarishida nafaqat mehnat qurollari va mehnat buyumlari (ishlab chiqarish vositalari), balki kadrlar ham alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha 2017 yilda mehnat resurslari soni 18672,5 ming kishini tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 183,6 ming kishiga, yoki 1,0 % ga o‘shishi kuzatildi.

Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi soni 14357,3 ming kishini (jami mehnat resurslarining 76,9 %), iqtisodiy nafaol aholi soni esa 4315,2 ming kishini (23,1 %) tashkil etdi.



1-rasm. Ish bilan band aholi sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (2017 yil yanvar-dekabr, jami bandlardagi ulushi, foizda)¹¹¹

Respublikada ish bilan band aholi soni 13520,3 ming kishini tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan 1,7 % ga o‘sdi.

¹¹¹Manba: O‘zbekiston Respublikasining statistika qo‘mitasi /www.stat.uz

2017 yilda ish bilan band aholi sonining 2016 yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari tashish va saqlashda 2,6 % ni, moliyaviy va sug'urta faoliyatida 2,4 % ni, qurilishda 2,1 % ni va savdoda 1,9 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish bilan bandlarning asosiy ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (27,3 %), sanoat (13,5 %), savdo (11,0 %), qurilish (9,5 %) va ta'lim (8,2 %) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.

Kadrlar salohiyati - bu, mehnat zahirasi yoki imkoniyatidir. U jamiyat mehnat potensialining tarkibiy qismi hisoblanadi. Unda mehnat resurslarining umumiy soni va tarkibi, ma'lumot darajasi, professional ko'nikmasi va ishlab chiqarishning u yoki bu sohasida mehnat kilish qobiliyati aks etadi.

BMT statistika komissiyasi 1966 yilgi 14 sessiyasida «Iqtisodiy faol aholi» tushunchasini joriy qilgan. Ularga moddiy ne'matlar ishlab chiqarishida va xizmat qilishda qatnasha oladigan shaxslar majmuasi kiradi deb aytilgan.

Mehnat resurslari deganda mehnatga qobiliyatli yoshdagi (ayollar 16-54, erkaklar 16-59 yoshda) ishchilar soni tushuniladi. Bu chegara qonun orqali belgilangan. Mehnat resurslari chegaralangan, lekin hayotda nogironlar, nafaqaxo'rlar, yosh bolalar mehnat qobiliyatidan (ish kuchidan) foydalaniladi.

Har bir korxonada xodimlar siyosati ishlab chiqiladi va quyidagi maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi:

- sog'lom va ishlash qobiliyatiga ega jamoani shakllantirishga;
- korxonada ishchilarining malaka darajalarini oshirishga;
- jinsi va yoshiga hamda malaka darajasiga ko'ra optimal tuzilgan mehnat jamoasini shakllantirishga;
- o'zgarib borayotgan holatlarni angelaydigan, yangi va ilgor ishlab chiqarishni sezadigan va uzoqni ko'ra oladigan yuqori mahoratga ega rahbarlarni tanlashga.

Xodimlar siyosati o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- xodimlar tanlash va yuqori lavozimlarga ko'tarish;
- kadrlar tayyorlash va uzluksiz ularning malakasini oshirish;
- to'liq bandlik sharoitida xodimlarni yollash;
- shakllangan ishlab chiqarish tizimiga muvofiq ishchilarni joylashtirish;
- mehnatni rag'batlantirish;
- mehnatni tashkil etishni takomillashtirish;
- korxonada ishchilari uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish va boshqalar.

Gorvard universitetining prezidenti D.Bok ushbu holatga ishora bilan qayd etadiki: Agar siz bilim olishni qimmat deb hisoblasangiz, unda bilimsizlikdan keladigan zararni xisoblang. Savodsizlik va insoniy kapitalning etarli darajada sifatli emasligi uchun biz qiladigan xarajatimiz juda yuqori. shuning uchun kadrlarni o'qitish bu xarajat emas, balki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun, korxonada ishini doimiy takomillashtirib borish uchun zarur bo'lgan omili deb qarash zarur.

Xodimlarni tanlashda odatda asosiy e'tibor uning ixtisoslashtirilgan bilimiga qaratiladi. Bu esa tez eskiradi. shuningdek, xodimlar va ishga kirmoqchi bo'lganlarning qaysilari o'z bilimini doimo oshirib borish qobiliyatiga ega ekanligiga e'tibor berilmaydi.

Yaponiyada korxonalar va firmalarning kadrlar siyosati birinchi o'ringda universitetlar va ilmiy markazlar bilan aloqalarni kuchaytirishga, ikkinchidan, sanoatni robotlashtirish sohasida mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan bo'lib, bu ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishning o'sishidan tashqari, ishchi va mutaxassislar o'rtasida raqobatchilik muhiti yaratilishiga ham xizmat qiladi.

Germaniyada iqtisodiyot va ishlab chiqarish sohasidagi deyarli barcha o'zgarishlar kadrlar siyosati bilan bog'liqdir. Korxonalarining kadrlar salohiyatini shakllantirishda xodimlar malakasi va ma'lumot darajasi asosiy omil hisoblanadi.

Kadrlar siyosati Fransiya va Italiya korxonalarida ham etakchi o'rinni egallaydi. Gretsiyada raqobatchilik tufayli kompaniya va firmalar ishlab chiqarishni doimiy ravishda modernizatsiya qilishlari, yangi texnologiyalarni qo'llashga yirik miqdordagi mablag'larni sarflashlariga to'g'ri keladi. Biroq modernizatsiyalashning yakuniy maqsadlariga xodimlar malakasi ishlab chiqarishning texnik darajasiga mos kelgan holdagina erishish mumkin. Shu sababli ko'plab sanoat korxonalarida ishchi va mutaxassislarning malakasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini keng ravishda amalda qo'llaydilar.

2. Kadrlar, ularning tarkibi va strukturasi

Kadrlar (xodimlar) — bu muayyan kasbni egallash bo'yicha tayyorgarlikni o'tgan, amaliy tajriba va mehnat ko'nikmasiga ega, ishlab chiqarish sohasida ish bilan band bo'lgan kishilardir.

Ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatida qatnashishiga qarab sanoat tarmog'ida band bo'lgan barcha kadrlar ikki guruhga bo'linadi:

- sanoat ishlab chiqarishi xodimlari;
- nosanoat ishlab chiqarishi xodimlari;

- **sanoat-ishlab chiqarish personali** (S.ICH.P) - asosiy va yordamchi sexlar, zavod boshqaruvi, laboratoriya, ilmiy-tadqiqot va tajriba-loyihalashtirish bo'limlari (IT va TL.I), hisoblash markazi xodimlari;

- **noishlab chiqarish personali** - uy-joy, kommunal va yordamchi xo'jaliklarda, sog'liqni saqlash, profilaktika va ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi xodimlar;

- **rahbarlar** - direktor, direktor o'rinbosarlari, bosh mutaxassislar, bo'lim va xizmat boshliqlari, ya'ni muhandis-texnik personal (MTP);

- **xizmatchilar** - hujjatlarni tayyorlash, hisob-kitob va nazorat qilish, xo'jalik xizmati xodimlari (agentlar, g'aznachilar, ish yurituvchilar, kotiblar, statistlar va hokazo).

**Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi
(2017 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
sub'ektlaridan tashqari)¹¹²**

	Korxonada va tashkilotlar soni, birlik	Xodimlar soni, ming kishi	Ish haqi fondi, mlrd. so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
Respublika bo'yicha - jami	55 294	2 580,8	45 005,4	1 453,2
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	619	479,6	12 038,4	2 091,7
Qurilish	310	59,6	1 294,2	1 808,4
Savdo	476	59,0	1 168,0	1 650,7
Tashish va saqlash	215	114,4	2 670,7	1 945,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	161	7,4	91,5	1 035,3
Axborot va aloqa	234	28,5	855,5	2 498,5
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	139	64,9	2 097,7	2 694,1
Ta'lim	19 034	982,1	13 671,6	1 160,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 420	420,4	4 948,2	980,8
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	2 111	27,3	448,6	1 367,0
Boshqa faoliyat turlari	30 575	337,6	5 021,6	1 239,4

Xodimlar soni deganda korxonada band bo'lgan barcha ishchi va xizmatchilarning umumiy soni tushuniladi¹¹³. Bu ikki ko'rinishda bo'ladi:

1. Ro'yxatdagi xodimlar soni.
2. Ishga kelgan xodimlar soni.

Ro'yxatdagi xodimlar soni deganda korxonada ro'yxatiga kiritilgan doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlaydigan hamda shu korxonadan maosh oladigan barcha xodimlar tushuniladi.

Amaliyotda, ayniqsa, taxlil qilishda **o'rtacha ruyxatdagi xodimlar soni** degan ko'rsatkich ham ishlatiladi. Bu bir oygacha, bir chorakka, yarim yilga, to'qqiz oyga va bir yilga hisoblanishi mumkin.

¹¹²Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi /www.stat.uz

¹¹³Abdulkarimov I.T. va boshqalar. Korxonada iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2015, – 256 b.

Ishga kelgan xodimlar soni bir taqvim kunida faqat ishga kelgan xodimlardan iboratdir.


Mutaxassislik insonda ma'lum bir turdagi ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmuasining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Masalan, iqtisodchi, buxgalter, moliyachi yoki texnik tilda - mexanik, quruvchi, energetik, geolog va boshqalar. Ishchilarning bilim va qobiliyatlariga bo'lgan talab Yagona tarif-malakaviy ma'lumotnomasida (YATMM) va xizmatchilarga esa lavozimlar malakasi ma'lumotnomada aks ettirilgan. Bu hujjatlar asosida korxonalar ishchi va xizmatchilar tariflariga o'zgartirishlar kiritadilar.

Kasb—faoliyatning maxsus va tor ko'rinisdagi turi bo'lib, mutaxassislik kabi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talab qilsada, mutaxassislikdan farqli ravishda ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qo'shimcha ko'nikmalarni ham talab qiladi.

Malaka deganda biron-bir kasb yoki mutaxassilik bo'yicha murakkab ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat ko'nikmalari va bilimlar darajasi tushuniladi. Ishchilar malakasi darajasini baholashda o'rtacha tarif koeffitsienti va o'rtacha tarif razryadi hisoblanadi. Tarif razryadlari va koeffitsientlari bir vaqtning o'zida bajarilayotgan ishlar murakkabligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi.

3. Mehnat salohiyatidan foydalanish ko'rsatkichlari tizimi, va aniqlash yo'llari

Mehnat salohiyatini baholash va tahlil qilish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy jihatdan turli guruhlarga mansub, chunki mehnat salohiyatining u yoki bu jihatlarini ifodalaydi.



2-rasm. 2017 yil yanvar-dekabr oylarida sanoatda mehnat unumdorligi (sanoatda band bo'lgan 1 kishiga ming so'm)¹¹⁴

¹¹⁴Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi /www.stat.uz

Sanoat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha amalga oshirilgan choralar natijasida sanoatda band bo'lgan 1 kishiga mehnat unumdorligi 2017 yil yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilga nisbatan 5,6% ga ko'payishi ta'minladi. shu bilan birga, respublikada o'rtacha ko'rsatkichidan (68690,2 ming so'm) mehnat unumdorligi ko'proq ekanligi Toshkent shahrida (122498,6 ming so'm), Sirdaryo (100165,8 ming so'm), Qashqadaryo (99299,1 ming so'm), Navoiy (94884,4 ming so'm) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (81524,6 ming so'm) kuzatildi.

Mehnat salohiyatini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlar iqtisodiy mazmunga qarab uch guruhga bo'linadi:

- mehnat salohiyati holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
- mehnat salohiyati bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar.
- mehnat salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Mehnat salohiyati holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Mehnat salohiyatining o'rtacha soni.
2. mehnat salohiyatining tarkibi.
3. mehnat salohiyatining oboroti.
4. mehnat salohiyatining qo'nimsizligi.
5. mehnat salohiyatining turg'unligi.

Mehnat salohiyatining o'rtacha soni tahlil qilinayotgan hisobot davrida aniqlanadi. Buni hisoblash uchun mehnat salohiyatining davr boshidagi (Ms.db) va oxiridagi (Ms.do) soni qo'shib, ikkiga bo'linadi:

$$Ms = (Ms.db + Ms.do) / 2$$

Mehnat salohiyati tarkibini tahlil qilganda xodimlarni alohida kategoriyalari bo'yicha aniqlash lozim. Masalan, umumiy mehnat salohiyatida oliy ma'lumotli xodimlar (Omx) ulushini yoki o'rta maxsus ma'lumotli xodimlar (O'mx) ulushi kabi ko'rsatkichlarni aniqlash mumkin.

$$Ms.t = O'mx / Ms$$

$$Ms.t = Omx / Ms$$

Bulardan tashqari, umumiy mehnat salohiyatida boshqaruv xodimlari ulushi, muhandis-texnik xodimlar ulushi kabi ko'rsatkichlarni ham aniqlash mumkin.

$$Ms.t = Msi / Ms$$

bunda: Msi- mehnat salohiyatining alohida guruhlari.

Mehnat salohiyati oborotini tahlil qilish ham hozirgi davrda katta ahamiyatga ega. ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun barcha ishga qabul qilingan xodimlarga (Ms.q) ishdan bo'shatilgan xodimlarni (Ms.b) qo'shib, umumiy mehnat salohiyati soniga bo'lamiz.

$$Ms.ob = (Ms.q + Ms.b) / Ms.$$

Ushbu ko'rsatkichni alohida ishga qabul qilingan va ishdan bo'shatilgan xodimlar bo'yicha ham aniqlash mumkin:

$$Ms.obk = Ms.q / Ms ; \quad Ms.ob.b = Ms.b / Ms$$

Mehnat salohiyatining ko'nimsizligi umumiy mehnat salohiyatida salbiy oqibatlar natijasida ishdan bo'shatilgan xodimlarning ulushini ifodalaydi. Salbiy sabablar bilan ishdan bo'shaganlar tarkibiga o'z arizasi bilan bo'shaganlar ham kiradi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Ms.kun = Ms.salb / Ms.$$

Mehnat salohiyatining turg'unligi ham uning holatini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Buni shu korxonada (firmada, kompaniyada) uch yildan ortiq ishlagan xodimlar sonini ((Ms 3 yildan ko'p ishlaganlar) mehnat salohiyatining umumiy miqoriga bo'lish yo'li bilan aniqlash mumkin:

$$Ms.tur = Ms \text{ 3 yildan ortik ishlaganlar} / Ms.$$

Mehnat salohiyati bilan ta'minlanganlikni ifodalash uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi:

- Mehnat salohiyati bilan shtat jadvalining ta'minlanganligi.
- mehnat salohiyati sig'imi.
- mehnat salohiyatining qurollanganligi.
- aylanma mablag'larning mehnat salohiyati bilan ta'minlanganligi.

Mehnat salohiyati bilan shtat jadvalining ta'minlanganligini (Ms.shj.t)aniqlash uchun bir qancha hisob- kitoblar qilish mumkin. Eng avvalo bu bo'yicha umumiy ko'rsatkichni aniqlash lozim. Buning uchun mehnat salohiyatiining haqiqiy miqdori (Ms.x) uning shtat jadvalidagi miqdoriga (Ms.shj) bo'linadi:

$$Ms.shj.t = Ms.x / Ms.shj.$$

Mehnat salohiyatining sig'imi (Ms.sg') ham ushbu guruhga kiruvchi muhim ko'rsatkichlardan biri. Uning aniqlash uchun mehnat salohiyati miqdorini (Ms) yaratilgan (sotilgan) mahsulot (ish, xizmat) hajmining (Q) miqdoriga bo'linadi:

$$Ms.sg' = Ms / Q$$

Mehnat salohiyatining qurollanganligi yoki asosiy vositalar faol qismining mehnat salohiyati bilan ta'minlanganligi ni aniqlash uchun asosiy vositalarning faol qismi (Av.f) mehnat salohiyati miqdoriga (Ms) bo'linadi yoki teskarisi:

$$Ms.qur = Av.f / Ms \text{ yoki } Ms.t = Ms / Av.f.$$

Aylanma mablag‘larning mehnat salohiyati bilan ta‘minlanganligi (Aym.Ms) ham mehnat salohiyatini tahlil qilishda va boshqa ko‘rsatkichlar o‘zganishiga shu bilan bog‘liq omillarning ta‘sirini aniqlashda qo‘llaniladi. Buni aniqlash uchun mehnat salohiyati miqdorini (Ms) aylanma mablag‘lar hajmiga (Aym) bo‘lish lozim:

$$\text{Aym.Ms} = \text{Ms/Aym.}$$

Mehnat salohiyatidan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- mehnat salohiyatining natijaviyligi;
- mehnat salohiyatining rentabelligi;
- mehnat salohiyatining daromadliligi.

Ushbu ko‘rsatkichlarning har birini aniqlash yo‘llarini alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mehnat salohiyatining natijaviyligi (Ms.n) natijaning mehnat salohiyatiga nisbati bilan aniqlanadi.

Agar natijani «Q» deb belgilasak, uning mehnat salohiyatiga (Ms) nisbati, ya‘ni mehnat salohiyatining natijaviyligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Ms.n} = \text{Q/Ms.}$$

Buni boshqacha so‘z bilan mehnat unumdorligi deb ham atash mumkin..

Mehnat salohiyatining rentabelligi (Ms.r) har bir mehnat salohiyati birligiga to‘g‘ri keladigan foyda (F) miqdorini ifodalaydi. Uni aniqlash uchun foyda summasining mehnat salohiyatiga (Ms) nisbati olinadi:

$$\text{Ms.r} = \text{F/Ms.}$$

Mehnat salohiyatining daromadliligi (Ms.d) ham uning samaradorligini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Uni aniqlash uchun yalpi daromad summasini (D) mehnat salohiyati miqdoriga (Ms) bo‘linadi:

$$\text{Ms.d} = \text{D/Ms.}$$

4. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish

Kadrlarni tanlash, ularni joy-joyiga qo‘yish, ulardan oqilona foydalanish va tarbiyalash masalasi kadrlar siyosatining, umumiy iqtisodiyotning, shu jumladan, makro va mikroiqtisodiyotning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Kadrlarni tanlashda, joy-joyiga qo‘yish va tarbiyalashda, ulardan foydalanish quyidagi tamoyillarga alohida e‘tibor berish kerak:

- aql-idrok, did va farosat;
- qat‘iylik, matonatlilik, prinsipiiallik, o‘z vazifasiga puxtalik;
- rahbarlik sohasini juda yaxshi bilish;
- o‘z eliga, yurtiga, Vataniga sadoqatli bo‘lish.

Kadrlar siyosatining eng muhim masalalaridan biri ularni attestatsiya qilish masalasidir.

Kadrlar attestatsiyasi — bu, xodimlarning malakasini bilim va ko‘nikmalari darajasini, faoliyatining samaradorligini, ishdagi, xizmatdagi va boshqa sohalardagi fazilatlarini, egallab turgan lavozimiga to‘g‘ri kelishi yoki kelmasligini aniqlab olish bo‘yicha bajariladigan jarayon va ish tartibidir.

Kadrlar attestatsiyasi xodimlarning sifat tarkibini yaxshilash, ularni oqilona joy-joyiga qo'yish, xodimlarni topshirilgan ish uchun javobgarligini kuchaytirishga qaratiladi. Attestatsiya xodimlar egallab tutgan lavozimlariga qanchalik munosib ekanligini aniqlaishing asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi.

Respublikada bozor iqtisodiyoti davrida kadrlar tayyorlash borasida bir qator yangi talablar yuzaga keldi. Ular orasida eng muhimlari quyidagilardir:

- ijtimoiy-psixologik diagnostika;
- kadrlarni boshqarish tizimini axborot bilan ta'minlash;
- bandlikni boshqarish;
- zaruriy bo'sh lavozimlarga nomzodlar tanlash;
- kadrlar salohiyati va xodimlarga bo'lgan ehtiyojlarni taxlil etish;
- kadrlar marketingini belgilash;
- xizmat martabasini rejalashtirish va nazorat qilish;
- xodimlarning kasbiyva psixologik moslashuvi, ko'nikishi;
- mehnat-huquqiy munosabatlar masalalari;
- mehnat etikasi va estetikasi.

Boshqaruvning barcha darajalarida inson rolining ortib borishi, iqtisodiyotda, shu jumladan, sanoatda keng qamrovli tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'lishi va raqobat darajasining o'sishi kadrlarni boshqarishga yondashuvni o'zgartirishni taqozo etadi. Bunday yondashuvlar quyidagilardan iborat:

- xodimlarning samarali ishlashlarini, faoliyat ko'rsatishlarini tashkil etish;
- lavozimlar darajasini optimallashtirish, zaruriy mahorat va malakalar tizimini yaratish;
- ishlab chiqarish madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish;
- instituksional maqsadlarga erishish;
- o'z jamoasi va xodimlarining manfaat va ehtiyojlarini to'laroq qondirish.

5. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Sanoatda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarining bilim va ilm darajasini ko'tarish, kasb mahorati va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tarmoq va korxonalarda bu borada olib borilgan faoliyat natijalariga ko'ra, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

Sanoatda kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatida yangicha tarkib, mazmun hamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish;
- yuqori malakali o'kituvchi - mutaxassis kadrlar tayyorlash va sohani ular bilan to'ldirib borishni ta'minlash;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni kayta tayyorlash tizimining bu sohada raqobatga asoslangan muhitini shakllantirish va samarali faoliyat olib borishni ta'minlovchi normativ bazasini yaratish;

- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlari, mulkchilikning turli shaklidagi tashkilot va muassasalarning talab-extiyojlariga muvofiq kadrlar va mutaxassislarni ildam kayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlovchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashish;

- professional treningning ilg'or texnologiya va uskunalarini, shuningdek, murakkab, fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jarayonlari imitatorlarini ishlab chiqish, yaratish va amaliy o'zlashtirib olish.

Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida halqaro hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

6. Mehnatga haq to'lashning funksiyalari va tamoyillari

Mehnat — har bir shaxs va umuman, jamiyat ehtiyojlarini kondirish uchun zarur bo'ladigan moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish sohasidagi maqsadga muvofiq faoliyatdir.


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2017 yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 453,2 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan 12,3 % ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi eng yuqori moliyaviy va sug'urta faoliyatida 2 694,1 ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 85,4 % ga ko'p), axborot va aloqada 2 498,5 ming so'mni (71,9 %), sanoatda 2 091,7 ming so'mni (43,9 %), tashish va saqlashda 1 945,8 ming so'mni (33,9 %), qurilishda 1 808,4 ming so'mni (24,4 %) tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2016 yilga nisbatan o'rtacha oylik ish haqining yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy va sug'urta faoliyatida (25,9 %), axborot va aloqada (22,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (13,3 %) kuzatildi.

Ish haqining mohiyati uning ijtimoiy ishlab chiqarish bosqichlari bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish, uni taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishda bajaradigan funksiyalari (vazifalari)da namoyon bo'ladi:

1. Takror hosil qilish funksiyasi.
2. Rag'batlantiruvchi funktsiya.
3. O'lchov - taqsimlash funksiyasi.
4. Resurslarni joylashtirish funksiyasi.
5. Aholining to'lovga qodir talabini shakllantirish funksiyasi



3-rasm. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o'sish sur'ati (2017 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)¹¹⁵

Yuqorida aytib o'tilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi eng muhim tamoyillarga rioya qilinishi zarur:

1. Ishlab chiqarish va mehnat samaradorligi yuksalib borgan sari real ish haqining ortib borishi.
2. Mehnat unumdorligi o'sishini o'rtacha ish haqining o'sish sur'atlaridan ilgarilovchi sur'atlarini ta'minlash (yoki mahsulot ishlab chiqarish hajmlari sur'atining nste'mol fondlari o'sishi sur'atlaridan ortib ketishi).
3. Xodimning korxonada faoliyati natijalariga qo'shgan mehnat xissasiga, mehnat mazmuni va sharoitlariga, korxonada joylashgan mintaqaga, uning qaysi tarmoqqa mansubligiga qarab ish haqini tabaqalashtirish.
4. Barobar (teng) mehnat uchun barobar haq to'lash.
5. Mehnatga haq to'lashni davlat yo'li bilan boshqarish va tartibga solib turish.
6. Mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlarining oddiyligi, mantiqiyli va qulayligi.

Ish haqini tashkil etishning qayta qurilishi bozor talablariga muvofiq quyidagi vazifalar hal etilishini nazarda tutadi:

- har bir xodimning o'z mehnati samaradorligi rezervlarini aniqlash va foydalanishdan manfaatdorligini oshirish, ishlamasdan pul mablag'lariga ega bo'lish imkoniyatlariga barham berishini;

¹¹⁵Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika qo'mitasi /www.stat.uz

- mehnatga haq to'lashda tekischilik hollarini bartaraf etish, ish haqining ham yakka tartibdagi, ham jamoa mehnati natijalariga bevosita bog'liqligiga erishishni;
- turli toifadagi va kasb-malakali guruhlarga mansub bo'lgan xodimlar mehnatiga haq to'lash nisbatlarini optimallashtirish, bunda bajariladigan ishlarining murakkabligini, kasblarning noyobligini e'tiborga oladigan mehnat sharoitlari, shuningdek, pirovard natijalarga erishishga intilayotgan turli xodimlar guruxlari va ishlab chiqarish raqobatbardoshligining ta'sirini hisobga olishni.

7. Mehnatga haq to'lashning tarif tizimi va uning elementlari

Korxonalarda mehnatga haq to'lashni tashkil etishning asosiy elementlari - mehnatni normalash, tarif tizimi, ish haqining shakllari va tizimlaridir. Har bir element qat'iy belgilangan vazifasiga egadir¹¹⁶.

Mehnatni normalash - bu ilmiy asoslangan mehnat xarajatlarini va uning natijalarini: vaqt normalari, soni, xizmat ko'rsatishning boshqarilishi, mahsulot ishlab chiqarish normalangan topshiriqlari normalarini aniqlashdir. Bular bo'lmasa, mehnat miqdorini, har bir xodimning umumiy natijalarga qo'shgan alohida hissasini hisobga olib bo'lmaydi.

Ish haqining shakllari va tizimlari - bu mehnatning miqdor natijalari va sifatiga (uning murakkabligi, intensivligi, shart-sharoitlariga) bog'liq ravishda ish haqini belgilash mexanizmidir.

Tarif tizimi turli normativ materiallar majmuidan iborat bo'lib, ular yordamida korxonadagi xodimlarning ish haqi darajasi ularning malakasiga, mehnat sharoitlariga, korxonalar o'rnatilgan jo'g'rofiy joyi va boshqa tarmoq xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Tarif tizimining asosiy elementlariga tarif setkalari, tarif stavkalari, tarif-malaka ma'lumotnomalari, lavozim maoshlari, xizmatchilar lavozimlarining tarif ma'lumotnomalari, tarif stavkalariga ustama va qo'shimcha haqlar, ish haqiga doir mintaqaviy malaka koeffitsientlari kiradi.

Tarif setkasi - razryadlar shkalasidan iborat bo'lib, ularning har biriga o'z tarif koeffitsienti berilgan .

Tarif stavkasi - ish vaqti birligi hisobiga mehnatga haq to'lashning pul bilan ifodalangan mutlaq miqdoridir.

¹¹⁶Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov SH.R., Bakieva I.A., Qurbonov S.P. Mehnat iqtisodiyoti (o'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2016. -105-108 bet.

Tarif setkasi yoki tarif tizimi shunday tizimki, unda kasblar va lavozimlarning razryadiga qarab lavozim maoshini hisoblash uchun miqdorlar, koeffitsientlar keltirilgan bo‘ladi. Butun respublikada shunday turdagi va bir xil razryaddagi kasb, lavozim uchun mehnat haqi miqdori shu tarif setkadan kelib chiqib hisoblanadi.

Mehnatga haq to‘lashning Yagona tarif setkasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 21 iyuldagi “Mehnatga haq to‘lashning Yagona tarif setkasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 206-son qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan bo‘lib, u quyidagicha:

2-jadval

Mehnatga haq to‘lashning Yagona tarifsetkasi¹¹⁷


Mehnatga haq to‘lash razryadlari	Tarif koeffitsientlari
1	2,476
2	2,725
3	2,998
4	3,297
5	3,612
6	3,941
7	4,284
8	4,640
9	4,997
10	5,362
11	5,733
12	6,115
13	6,503
14	6,893
15	7,292
16	7,697
17	8,106
18	8,522
19	8,943
20	9,371
21	9,804
22	10,240

Tarif koeffitsienti tegishli razryaddagi kasb yoki lavozimga to‘lanadigan mehnat haqining eng kam oylik ish haqiga nisbatini bildiradi. Masalan, 15-razryaddagi kasb yoki lavozimning koeffitsienti 7,292 ekan. Demak, bu kasb yoki

¹¹⁷ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 21 iyuldagi “Mehnatga haq to‘lashning yagona tarif setkasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 206-son qarori// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009 y., 30-31-son, 344-modda; 2012 y., 2-son, 17-modda

lavozimga eng kam oylik ish haqining 7,292 baravari miqdorida haq to‘lanishi kerak.

Mamlakatimizda barcha kasblar Yagona klassifikatorga keltirilgan bo‘lib, bu klassifikator Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 19 iyundagi 164-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Unda har bir kasbning tegishli razryadi belgilangan. Masalan, o‘rash mashinasi operatori (klassifikatoridagi tartib raqami: 3088) kasbi uchun tarif razryadi 4 ga teng.



4-rasm. Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2017 yil yanvar-dekabr, respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)¹¹⁸

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini respublika hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Toshkent shahrida 1 986,5 ming so‘mni (respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 136,7 %), Navoiy viloyatida 1 926,5 ming so‘mni (132,6 %) va Toshkent viloyatida 1 559,7 ming so‘mni (107,3 %) tashkil etgan bo‘lsa, Namangan viloyatida 1 140,5 ming so‘mni (78,5 %), Samarqand viloyatida 1 157,3 ming so‘mni (79,6 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

¹¹⁸Manba: O‘zbekiston Respublikasining statistika qo‘mitasi /www.stat.uz

I razryad bo'yicha ishchining tarif maoshi, eng kam ish haqi miqdorini I razryad koeffitsientiga ko'paytirish yordamida hisoblanadi.

2017 yil yanvarda EKIH 149 775 so'm bo'lganda ishchiing oylik ish haqi quyidagiga teng:

$149\,775 \times 2,476 = 370\,842,9$ so'm,

bu erda:

2,476 - YATSGa asosan 1-razryad uchun tarif koeffitsienti.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash Yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2017 yil yanvar-dekabr oylarida 354,3 ming so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.11.2017 yildagi PF-5245-son "**Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida**"gi Farmoniga asosan, 01.12.2017 dan mamlakatimizda eng kam ish haqi — oyiga 172 240 so'mni tashkil etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Siz davlatning kadrlar siyosatini yaxshilash bo'yicha nima deb uylaysiz?
2. Siz kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va ularni tarbiyalashda nimalarga etibor berish kerak deb o'ylaysiz?
3. Siz mehnat unumdorligini oshirishning zamonaviy yo'llari bo'yicha nimalarni taklif etardingiz.
4. Siz mehnat tushunchasining mohiyati va ahamiyatini nimada ko'rasiz.
5. Siz mehnatga haq to'lash tamoyillari va shakllari farqini nimada deb bilasiz?
6. Tarif tizimi va uning unsurlarini tushuntiring .

15 mavzu: ishlab chiqarishining asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari

Reja:

1. Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, tarkibi va tuzilishi
2. Asosiy fondlarni baholash.
3. Asosiy fondlarning eskirishi va amortizatsiyasi
4. Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari
5. Ishlab chiqarish quvvati va ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llari

1. Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, tarkibi va tuzilishi

Mamlakatning qudrati, iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanishi, jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirish shu mamlakat resurslari, ayniqsa, asosiy va aylanma fondlarining miqdori va sifati bilan belgilanadi. Mamlakat va uning sanoati, boshqa tarmoqlari, korxonalari qanchalik ko'p resurslarga ega bo'lsa, u shunchalik qudratli va rivojlangan bo'ladi. Agar u ana shu resurslardan to'la – to'kis, oqilona foydalana olsa, albatta, buyuk davlatga aylanadi.

Sanoat ishlab chiqarishi faoliyatida asosiy fondlarning alohida o'rni bor. Chunki ularsiz birorta ishni bajarish, xizmat ko'rsatish va mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas.

Ma'lumki, har qanday ishlab chiqarish jarayonida mehnat buyumlari, mehnat qurollari (mehnat vositalari) va inson mehnati ishtirok etadi. Mehnat buyumlariga xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg'i, elektr quvvati, ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar va h.k.lar, mehnat vositalariga esa, mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar, yuk tashuvchi va uzatuvchi vositalar, komp'yuter va laboratoriya anjomlari, bino va inshootlar kiradi.

Mehnat buyumlari va vositalarining birgalikda qiymat shaklida ifodalanishi ishlab chiqarish fondlarini tashkil etadi. Ular ishlab chiqarish jarayonida qatnashish darajasiga ko'ra, asosiy va aylanma fondlarga ajratiladi. Mehnat qurollari asosiy fondlarni, mehnat buyumlari esa aylanma fondlarni tashkil etadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari deb, ishlab chiqarish jarayonida uzoq davr bevosita va bilvosita qatnashadigan, moddiy boyliklar yaratishda ishtirok etadigan xamda tabiiy shaklini saqlagan holda o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga asta-sekin, tuzishiga qarab o'tkazib boradigan mehnat vositalariga aytiladi. Ular ish bajarishda, xizmat ko'rsatishda va mahsulot ishlab chiqarishda qatnashadilar, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun sharoit yaratadilar, mehnat buyumlari va tayyor mahsulotlarni saqlash va ularni bir o'rindan ikkinchi o'ringa tashish kabi ishlarni bajarish uchun xizmat qiladi.

Asosiy fondlarni hisoblash, tahlil qilish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni prognoz qilish maqsadida ularni guruhlariga ajratish kerak bo'ladi.

Hozirgi kunda asosiy fondlar turli tasnifga muvofiq va ishlab chiqarish vazifasining xilma-xilligi va tabiiy-moddiy belgilarga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Zarur mehnat sharoitlarini ta'minlaydigan bino va me'morlik-qurilish ob'ektlari. Binolarga tsexlarning ishlab chiqarish korpuslari, depolar, garajlar, omborxonalar, ishlab chiqarish xonalari va laboratoriyalar kiradi.

2. Inshootlar-ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur va mehnat buyumlari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lmagan birorta texnik vazifalarga belgilangan muhandislik-qurilish ob'ektlari (nasos stansiyalar, tunnellar, ko'priklar va x.k.).

3. Har xil energiya, suyuq va gazsimon moddalar uzatadigan uzatuvchi uskunalalar.

4. Mashinalar va asbob-uskunalar; shu jumladan:

-energiyani, suyuq va gazsimon moddalarni ishlash va almashtirishga mo'ljallangan ko'chma shinalari va asbob-uskunalar (generatorlar va gazogeneratorlar, elektrogeneratorlar, bug' qozonlari, havo kompressorlari);

- ishchi mashinalari va asbob-uskunalar. Ular mehnat buyumlariga bevosita ta'sir o'tkazadilar. Bularga dastgohlar, presslar, konveyerlar va boshqa turli yordamchi asbob-uskunalar: o'lchov va to'g'rilash asbob-uskunalari, laboratoriya asboblari, hisoblash mashinalari, kompyuterlar kiritiladi.

5.Transport vositalari.

6.Har xil asboblar.

7.Ishlab chiqarish inventarlari.

8.Xo'jalik inventarlari.

9.Boshqa asosiy fondlar.

Mehnat buyumlariga ta'sir etish darajasiga qarab asosiy ishlab chiqarish fondlari aktiv va passiv fondlarga bo'linadi.

Aktiv asosiy ishlab chiqarish fondlariga mehnat buyumlari shaklini o'zgartiruvchi, ya'ni bevosita ta'sir etuvchi fondlar (mashinalar, asbob-uskunalar, texnologik liniyalar, o'lchov va to'g'rilash asboblari, transport vositalari) kiradi.

Passiv asosiy ishlab chiqarish fondlariga mehnat buyumlariga bilvosita ta'sir etuvchi, ya'ni ishlab chiqarish jarayonining normal o'tishiga kerakli sharoit yaratuvchi ishlab chiqarish fondlari kiradi (bino va inshootlar, h.k.).

Asosiy fondlar tarkibini o'rganishda ularning strukturasi (tuzilmasi) masalasiga xam e'tibor berish kerak.

Asosiy fondlarning strukturasi deb, uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar va guruhlardan har birining umumiy qiymatidagi nisbatiga aytiladi. 2016 yilning oxiriga asosiy fondlarning umumiy qiymatida binolar ulushi 15,7 foizni, inshootlar - 22,6, uzatuvchi qurilmalar - 13,3, mashina va jihozlar - 43,4, transport vositalari - 5,9, qolganlari esa 3 foizni tashkil etdi (10.1-jadval).

**Sanoat tarmoqlari bo'yicha sanoat– ishlab chiqarish asosiy fondlarining
tuzilishi
(2016 yil oxiriga, foizda)**

Sanoat va uning tarmoqlari	Binolar	Inshootlar	Uzatuvc hi qurilmalar	Ishchi mashina , asbob-uskunal ar	Transport vositalari	Boshqa fond - lar
Butunsanoat	11,5	22,6	13,3	45,4	5,9	1,3
Shu jumladan:						
1. Elektrenergetika	7,1	9,4	42,6	39,7	1,4	0,3
2. Yoqilg'I sanoati.	4,6	51,8	18,0	21,9	2,8	0,9
3. Qora metallurgiya	14,2	4,5	9,8	76,1	3,7	0,3
4. Rangli metallurgiya	9,5	15,5	6,2	52,5	15,9	0,4
5. Kimyo va neft sanoati	23,6	14,9	10,7	15,7	4,1	1,8
6. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	14	1,9	0,8	77,2	3,5	2,6
7. Qurilish materiallari sanoati	12,3	10,8	2,6	61,9	10,0	2,3
8. Yengil sanoat	27,6	5,7	2,5	60,1	1,9	2,3
9. Oziq-ovqat sanoati	24,2	4,6	2,2	59,7	5,2	4,1

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasima'lumotlari

Asosiy fondlar tuzilmasi quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Tarkibiy tuzilma
2. Texnologik tuzilma.
3. Tarmoq tuzilmasi.
4. Hududiy tuzilma.
5. Takror ishlab chiqarish tuzilmasi.

Tarkibiy tuzilma vaqt va fazoda o'zgarib turadi va uning bunday o'zgarishidan sanoatning texnik darajasini va asosiy fondlardagi kapital sarflashning samarasini tasavvur qilsa bo'ladi.

Asosiy fondlarning tuzilmasi ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, konsentratsiyalash, ixtisoslashtirish, diversifikatsiyalash, kooperativlashtirish, va kombinatlashtirish, yangi korxonalar qurish va qayta qurishga kapital sarflashning texnologik tuzilishi, korxonalarning hududiy joylashishi, tayyorlanadigan mahsulotlarning hususiyati va hajmi bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmi qancha ko'p bo'lsa, ishchi mashinalar va asbob-uskunalarning tutgan o'rni shuncha yuqori bo'ladi.

Tarmoq tuzilmasi sanoat tarmoqlari asosiy fondlarining ulushi bilan ifodalanadi (2-jadval).

Asosiy fondlarning tarmoq strukturasi (foiz hisobida)

Tarmoqlar	2010 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.
Elektroenergetika	7,8	13,4	13,8	12,8
Yoqilg‘I sanoati	15,1	21,3	28,9	30,7
Kimyo va neft sanoati	5,2	5,2	5,3	4,6
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	21,4	12,7	9,5	11,2
Qurilish materiallari sanoati	2,1	2,8	2,9	2,8
Yengil sanoat	11,5	10,8	8,4	7,1
Oziq-ovqat sanoati	8,6	6,9	4,6	4,2
Boshqa tarmoqlar	23,8	21,3	26,1	26,1

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari

Hududiy tuzilma asosiy fondlarining hududiy taqsimlanishi va ularning nisbati bilan belgilanadi. Takror ishlab chiqarish strukturasi yangi qurilish va qayta qurish, qayta qurollantirish va asosiy fondlarni kengaytirishning nisbati va tutgan o‘rnini ifodalaydi.

2. Asosiy fondlarni baholash

Amaliyotda asosiy fondlarni baholashning quyidagi turlari qo‘llaniladi: 1) dastlabki to‘la qiymat orqali belgilangan baho; 2) qiymatini qaytadan tiklash orqali belgilangan baho; 3) qolgan qiymati orqali belgilangan baho; 4) ishlab chiqarishdan chiqarib tashlash bahosi.

Dastlabki to‘la qiymat orqali belgilangan baho (Ob) asosiy fondlarning sotib olingan bahosi (Sb), asosiy fondlarni olib kelish uchun sarflangan transport xarajatlari (Xt) va montaj xarajatlari (Xm)ni o‘z ichiga oladi:

$$Ob = Sb + Xt + Xm$$

Bu baho korxonalar (firma)ning asosiy ishlab chiqarish fondlarini sotib olish va ishga tushirish uchun qilgan haqiqiy xarajatlarini ifodalaydi. Bu ko‘rsatkich korxonalar (firma) balansida hisobga olinadi. Ammo asosiy fondlarning dastlabki to‘la qiymat orqali belgilangan bahosi ularning hajmini va turli yillarda ko‘rib ishga tushirilgan korxonalar (firma)lar asosiy fondlarini taqqoslash uchun yetarli emas, shuning uchun asosiy fondlarni baholashda ularning qiymatini qaytadan tiklash orqali belgilangan bahodan foydalaniladi.

Baholashning bu usuli asosiy fondlarning har xil davrda ishlab chiqilgan va olingan baholarini hozirgi sharoitdagi bahoda ifodalash imkoniyatini beradi. Bu baho bir xil iste‘mol qiymatiga ega bo‘lgan asosiy fondlarni baxolashda bir xil qiymatlarda ifodalash, korxonalar ko‘rsatkichlarini taqqoslash va fondlar samaradorligini oshirish zahiralarini aniqlash uchun imkoniyat yaratadi. Qiymatni qaytadan tiklash orqali belgilangan baho amaldagi asosiy fondlarning jismoniy holati va ma‘naviy eskirishini hisobga olgan holda qayta baho qo‘yish orqali aniqlanadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etib, asta-sekin ishdan chiqa boradi. Shuning uchun bu fondlarga baho belgilashda ularning

ishdan chiqqan va eskirgan qismi hisobga olinadi. Bunda aynan shu sababli asosiy fondlarni qoldiq qiymati orqali baholash ham qo‘llaniladi. Ularning qoldiq qiymati ikki yo‘l bilan aniqlanadi: a) asosiy fondlarning ishdan chiqqan (to‘zigan) qismini ularning dastlabki to‘la qiymatidan ayirib tashlash orqali aniqlangan qiymat; b) asosiy fondlarning ishdan chiqqan (to‘zigan) qismini qaytadan tiklangan qiymatidan ayirib tashlash orqali aniqlangan qiymat.

Asosiy fondlar juda eskirib, yaroqsiz holga kelgan, qaytadan tiklash, kapital ta‘mirlash yoki modernizatsiya qilish natija bermaydigan hollarda ularni ishlab chiqarishdan olib tashlash zarur bo‘lib qoladi. Bunday hollarda asosiy fondlarni ishlab chiqarishdan olib tashlash bahosi aniqlanadi. Bu baho ishdan chiqqan, ishlab chiqarishdan chiqarib tashlanadigan asosiy fondlarni (temir-tersak narxida) realizatsiya qilish bahosidir.

3. Asosiy fondlarning eskirishi va amortizatsiyasi

Ishlab chiqarishda qatnashadigan asosiy fondlar yillar o‘tishi bilan eskiradi va o‘z sifatini yo‘qota boradi. Respublika sanoati asosiy fondlarining eskirish dinamikasi 19-jadvalda ko‘rsatilgan.

Asosiy fondlar jismoniy va ma‘naviy jihatdan eskirishi mumkin.

Jismoniy eskirish deganda, asosiy fondlarning ishlab chiqarish jarayonida qatnashishi natijasida butunlay yoki qisman tuzishi, yemirilishi tushuniladi. Ma‘lum vaqt o‘tgach, jismoniy jihatdan butunlay yoki qisman yaroqsiz bo‘lib qolgan mehnat qurollarini yangisiga almashtiriladi yoki bo‘lmasa modernizatsiya qilinadi yoxud ayrim qismlari kapital ta‘mirlanadi. Jismoniy eskirish natijasida asosiy fondlarning qiymati yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki tayyorlangan mahsulot qiymatiga ko‘chadi.

3-jadval

Sanoat tarmoqlari bo‘yicha sanoat-ishlab chiqarish asosiy fondlarini eskirishi (yil oxiriga fondlar umumiy qiymatidan, foiz hisobida)

	2005y	2010y	2014y	2015y	2016y
Jami sanoat	35,2	49,8	43,1	43,3	42,7
Shu jumladan:					
-elektr-energetika	28,5	48,3	47,5	48,9	46,6
-yoqilg‘I sanoati	23,1	31,4	32,5	32,7	34,2
-qora metallurgiya	48,4	56,2	43,0	44,0	44,3
-rangli metallurgiya	60,1	62,1	43,0	51,7	50,7
-mashinasozlik va metalni qayta ishlash	30,4	71,2	59,6	60,5	44,7
-kimyo va neft	30,4	63,1	45,6	45,8	47,8
-qurilish materiallari	36,7	56,7	41,6	41,8	47,6
-yengil sanoat	29,0	30,7	24,2	28,0	31,1
-oziq-ovqat sanoati	29,0	59,3	54,9	55,9	56,9

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi ma‘lumotlari

Korxonalarda faqat ishlayotgan mashina va asbob-uskunalarigina emas, balki bekor turganlari ham to‘ziydi (emiriladi). Mashina va asbob-uskunalarining

jismoniy eskirish darajasi ularning xizmat muddati va to'zish (emirilish) darajasiga nisbatan aniqlanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti va mehnat unumdorligi o'sishi tufayli ishlab turgan mashina va asbob-uskunalar qiymatining kamaytirilishi, nisbatan unumli va tejamli yangi mashinalarning va asbob-uskunalarining ishlab chiqarishga joriy qilinishi natijasida ishlatilayotgan mashinalarning jismoniy yeyilish muddati tugamasdan turib qadrsizlanishi-asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi, deb ataladi. Ma'naviy eskirish fondlarning bahosini vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqishni shart qilib qo'yadi. Eskirgan asosiy fondlarni yangilari bilan almashtirish rejali ravishda eng kam mehnat va mablag' sarf qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayonida asta-sekin eskirib, o'z qiymatining ma'lum qismini amortizatsiya sifatida ishlab chiqarilayotgan tayyor maxsulot qiymatiga oz-ozdan ko'chirib boradi.

Amortizatsiya- (lotincha *amortisatio* - qoplash), asosiy kapital (fondlar) amortizatsiyasi-asosiy kapital (mashina va mexanizmlar, jihozlar va uskunalar, binolar va inshootlar)ning ekspluatatsiya jarayonida eskirishi va ayni paytda ular qiymatining muayyan davr davomida ishlab chiqarilayotgan tayyor maxsulotga o'tib borishi.¹¹⁹

Asosiy vositalar moddiy yoki jismonan va ma'nau eskiradi. Moddiy eskirish mehnat vositalaridan foydalanish jadalligi va ularning korxonada ishlatilgan muddatlari bilan belgilanadi. Ma'naviy eskirish fan va texnika taraqqiyoti natijasida mehnat vositalarining arzonlashuvi hamda iqtisodiy jixatdan mukammal bo'lgan yangi mehnat vositalarining yaratilishi va joriy qilinishi bilan bog'liq. Amortizatsiya me'yori asosiy fondlar turiga, xizmat qilish muddatiga ko'ra tabaqalashtiriladi. Amortizatsiya qiymati ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxiga kiritib boriladi. Mahsulot sotilgach, bu qiymat amortizatsiya ajratmalari ko'rinishida eskirgan jihozlar o'rniga yangisini sotib olish uchun zarur bo'lgan mablag'lar summasi tarzida jamg'ariladi.

Amortizatsiya ajratmalari mahsulot tannarxiga kiritiladigan asosiy fondlar amortizatsiyasi summasi; asosiy fondlarni qisman tiklash (kapital ta'mir va yangilash) va to'liq tiklash (renovatsiya) fondlarini yaratishga xizmat qiladi. Amortizatsiya ajratmalari me'yorlari asosiy fondlar qiymatiga mutanosib, ya'ni taxminiy foydalanish muddatiga tekis taqsimlanishi yoki kamayib boruvchi balans usulida jadallashtirilgan tartibda hisoblanishi mumkin. Jadallashtirilgan tartibda foydalanishning birinchi yilida amortizatsiya me'yori 2 marta oshiriladi, ikkinchi yili qoldiq qiymatining 20 foizi miqdorida va shu tarzda ajratmalar nazarda tutiladi va bu ish shu tarzda davom ettiriladi. Natijada asosiy fondlar qiymatining 2/3 qismi ular xizmat muddatining yarmidayoq amortizatsiyalanadi. Amortizatsiya me'yorlarining pasaytirilishi asosiy fondlarning yangilanishini sekinlashtiradi, oshirilgan me'yorlar mahsulot tannarxini qimmatlashtiradi. Shu sababli amortizatsiya ajratmalari davlat tomonidan tartibga solinadi. Amortizatsiya ajratmalari ta'minlanishi kerak bo'lgan asosiy shart asosiy fondlar eskirishining to'liq qoplashi va ularning takror yaratilishiga erishishdir. Bozor iqtisodiyoti

¹¹⁹Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1- жилд. Т.: Давлат илмий нашриёти. 2000, 288 б.

rivojlangan mamlakatlarda davlat amortizatsiya ajratmalari normativlarini belgilab, jadallashtirilgan amortizatsiya orqali tadbirkorlarga soliqqa tortiladigan foyda summasini kamaytirishga imkoniyat yaratib beradi. Ayni paytda asosiy fondlar qiymatini hisobdan chiqarishni tezlatish tadbirkorni asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi bilan bog'liq ehtimoli bo'lgan zarar ko'rishdan saqlaydi, yangi texnika va texnologiyani tezroq joriy etishga rag'batlantiradi.

Amortizatsiya ajratmalari asosiy fondlarning o'zini yoki uning ba'zi qismlarini yangilash vaqti kelguncha shu shaklda ma'lum fondga jamg'arilib turiladi va bu fondni amortizatsiya fondi deb ataydilar. Demak, amortizatsiya fondi amortizatsiya ajratmalari hisobiga shakllanadigan maxsus fonddir.

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan moddiy aktivlar amortizatsiyasi degan tushuncha ham mavjud.

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalarining summasi (hisoblangan eskirish);

- lizing bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar, qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, jadallashtiriladigan amortizatsiya summasi.

Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar eskirishi, har oyda xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan natijali foydalanish muddatidan (biror xujalik faoliyati yurituvchi sub'ekt muddatidan ortiq emas) kelib chiqib hisoblanadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga tegishli bo'ladi. Natijali foydalanish muxlatini aniqlash imkoni bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirish me'yori 5 yilga hisoblanadi.

4. Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari

Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish, rejalashtirish, hisob-kitob qilish, ulardan foydalanishning samaradorligini ifodalash uchun juda ko'p ko'rsatkichlar kerak bo'ladi. Ularni bir necha guruhlariga bo'lish mumkin:

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymatini ifodalovchi ko'rsatkichlar;

Ulardan foydalanish darajasini, ularning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;

Ishlab chiqarish fondi bilan qurollantirish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar;

- integral ko'rsatkichlar.

Bu ko'rsatkichlar tizimida ayniqsa, fond qaytimi ko'rsatkichi va fond rentabellik ko'rsatkichi alohida o'rin egallaydi.

Fond qaytimi bir so'mlik asosiy fond ishtirokida qancha mahsulot ishlab chiqarish mumkinligini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Fk = Q/Fas,$$

Bu erda: Fk-fond qaytimi (so'm hisobida);

Q-ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati (so'm hisobida);

Fas-asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati.

Fond sig'imi fond qaytimiga teskari ko'rsatkich bo'lib, ma'lum miqdordagi mahsulot ishlab chiqarish uchun qancha asosiy fond kerakligini ifodalaydi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$F_s = F_{as}/Q$$

Mehnatning fond bilan ta'minlanganligi har bir ishlovchi hisobiga qanchadan asosiy vositalar to'g'ri kelishini bildiradi va u quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$F_{bt} = F_{as}/X_{ym},$$

Bu erda: X_{ym} -xodimlarning yillik o'rtacha miqdori (kishi hisobida).

Asosiy fondlardan foydalanishni ifodalaydigan ko'rsatkichlardan yana biri jihozlardan foydalanish ko'rsatkichlaridir. U jihozlardan ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsiyentlarini o'z ichiga oladi:

a) ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti (K_e). U jihozlarning rejali ish vaqti fondida (T_{jr}) haqiqiy ishlagan vaqti (T_{jx}) darajasini ko'rsatadi:

$$K_e = T_{jx}/T_{jr},$$

b) intensiv foydalanish koeffitsiyenti (K_{in}). U jihozlarning minimum mahsulot ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan miqdoriga (M_{ch}) nisbatan haqiqiy ishlab chiqargan mahsulot miqdori (M_x) darajasini ko'rsatadi:

$$K_{in} = M_x/M_m.$$

5. Ishlab chiqarish quvvati va ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llari

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri mavjud ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashdir. Ulardan samarali foydalanish masalasi ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida yanada dolzarblashadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda ulardan har taraflama unumli foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan qanchalik to'la va unumli foydalanilsa, ko'proq mahsulot ishlab chiqariladi, mahsulotning tannarxi kamayadi, korxonaning foydasi va samaradorligi oshadi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati vaqt birligi ichida belgilangan assortiment va nomenklatura, mavjud dastgohlar, ishlab chiqarish maydonlaridan to'liq foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini ifodalaydi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati natura birligida o'lchanadi. Masalan, metallurgiya sanoatida ishlab chiqarish quvvati tonnada, to'qimachilikda yigirilgan ip tonnada, gazlamalar metrda, avtotraktor tarmoqlarida avtomobillar va traktorlar donalab o'lchanadi.

Ishlab chiqarish quvvati korxonaning texnik darajasi, unumdorligi, kadrlar malakasi, xom ashyolarning sifati va mahsulotlarning assortimentiga qarab o'zgarib boradi.

Korxonalarda ishlab chiqarish quvvatini hisoblash uchun quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

a) mavjud uskunalar va agregatlarning soniga ta'mirlashdagi uskunalar, rejalashtirish davrida yangidan kiritilgan uskunalar qo'shiladi. Lekin jismoniy va tabiiy sharoit ta'sirida yemirilgan uskunalar hisobga kiritilmaydi;

b) korxonalar va tsexlarning ishlab chiqarish maydonlari haqidagi ma'lumot;

v) korxonalarining ish rejimi, ya'ni smenalar soni (ta'mirlashga to'xtash vaqtisiz), ish vaqti fondi;

g) uskunalar, agregatlarning unumdorlik normasi.

Ayrim tarmoqlarning korxonalar va tsexlarida yig'uv, quyuv, mebel, konserva ishlab chiqarish quvvati, maydon bo'yicha quyidagi formulaga asosan hisoblanadi:

$$Q = (M : Mn) * (F : Vt),$$

Bu erda: M-korxonaning yoki tsexning ishlab chiqarish maydoni (kv.m);

Mn-norma bo'yicha ish joyiga taalluqli ishlab chiqarish maydoni (kv.m);

F-ish joyining yillik rejali ish vaqti fondi (soat);

Vt-mahsulotning mehnat talabchanligi-texnologik vaqt (soatda).

Yil boshida belgilangan ishlab chiqarish quvvati, kirish quvvati, yil oxiridagisi esa, chiqish quvvati, deyiladi. O'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Ko'r = Kk + (Km * P_2) / 12 - (Kch * P_1) / 12,$$

Bu erda: Kk-kirish davridagi (rejalashtirilayotgan yil boshidagi) quvvat;

Kt-yil davomida ishga tushirilgan quvvat;

Kch-chiqish davridagi (yil oxiridagi) quvvat;

P₁-rejalashtirilayotgan davrdagi ishlab chiqarish quvvatidan foydalanilmagan oylar soni;

P₂-rejalashtirilayotgan davrda ishga tushirilgan ishlab chiqarish quvvatidan foydalanilgan oylar soni.

Asosiy fondlardan va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni yaxshilash ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, kapital mablag' sarflamay, qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishga, mehnat unumdorligi va samaradorlik o'sishiga hamda mahsulot tannarxini kamaytirishga imkon yaratadi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda respublikada ulardan unumli foydalanishga katta e'tibor berilmoqda.

Sanoat asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari samaradorligini oshirishda korxonalarda texnologik uskunalarning ish smenasini ko'paytirish katta ahamiyatga ega.

Uskunalardan intensiv foydalanishni yaxshilash uchun korxonaning texnika va texnologiyasini takomillashtirish, mashinalarning ish tezligini oshirish, metall quyishga, kimyoviy jarayonlarga sarflanadigan vaqtni qisqartirish, shuningdek, kadrlar malakasining texnikaviy saviyasini oshirish, korxonalarini yiriklashtirish, ixtisoslashtirish va diversifikatsiya qilish asosida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish zarur.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy jarayonlarni o'rganishning qanday an'anaviy usullarini bilasiz?
2. Iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtirishni zarurligi nimalardan iborat?
3. Matematik usullar va modellarning ahamiyatini nimalarda ko'rish mumkin?
4. Iqtisodiy-matematik usullarga ta'rif bering?

1. Sanoatda xom ashyo, uning xususiyatlari va turkumlanishi
2. Sanoat ishlab chiqarishning mineral xom ashyo manbai
3. Resurslar tejankorligining strategiyasi va taktikasi.

1.Sanoatda xom ashyo, uning xususiyatlari va turkumlanishi

Qayta ishlovchi barcha sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi elementlardan biri xom ashyodir, chunki xom ashyosiz hech qanday mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas.

Xom ashyo deb, qazib olish yoki ishlab chiqarish uchun ma’lum darajada mehnat sarflangan va shu mehnat natijasida bir qadar o‘zgargan mehnat buyumiga aytiladi. Ishlab chiqarish jarayonida xom ashyo tayyor mahsulot yoki yarim fabrikat hosil qiladi. Natijada xom ashyoning to‘la qiymati tovar shaklini olgan yalpi mahsulotga o‘tadi.

Xom ashyo asosiy va yordamchi materiallarga bo‘linadi.

Asosiy xom ashyo tayyor mahsulotning moddiy asosini tashkil qiluvchi mehnat buyumidir. Tayyor mahsulot tarkibiga kiruvchi yoki asosiy xom ashyoni qayta ishlashga zarur sharoit yaratib beruvchi qolgan barcha mehnat buyumlari yordamchi materiallar deb ataladi.

Mehnat buyumlarining mahsulot ishlab chiqarishda qay tarzda qatnashishiga qarab ular ham xom ashyo (asosiy xom ashyo), ham yordamchi material bo‘lishi mumkin. Masalan, neft yoqilg‘I sifatida yordamchi material bo‘lsa, benzin yoki kerosin ishlab chiqarishda esa xoma shyodir.

Xom ashyo keng miqyosda iste’mol buyumlari hamda ishlab chiqarish mahsulotlari olish uchun ishlatiladigan tabiiy materiallardan iborat. U quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- miqdori jihatidan yetarli bo‘lishi;
- qazib olish arzon va oson bo‘lishi;
- texnologik jarayonlar oson borishi kerak.

Har bir xom ashyo mehnat buyumidir, lekin har bir mehnat buyumi xom ashyo emas. Mehnat buyumi mehnat vositasi bilan ma’lum darajada o‘zgargandan keyingina xom ashyoga aylanadi. Yer ostidagi foydali qazilmalar, yovvoyi hayvonlar, daraxtlar va hokazolar xom ashyo bo‘lmay, balki potensial tabiiy boyliklardir.

Mehnat vositasi yordamida ovlangan hayvonlar, qazib olingan ma’danlar, kesilgan daraxtlar va boshqalar xom ashyo hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida bir yoki bir necha bosqichda qayta ishlangan bo‘lsa-yu, lekin tayyor mahsulot sifatida iste’mol qilina olmasa, uchala mahsulot, ya’ni yarim fabrikat deb ataladi.

Xom ashyo resurslarini xom ashyodan farq qilmoq kerak. Xom ashyo resurslariga mamlakatdagi foydali qazilmalar konlari, o‘rmon maydonlari, uy hayvonlari va shu kabi tabiiy boyliklar kirsam, ular qazib chiqarilgan yoki ishlab chiqarish uchun mehnat sarflangandagina xom ashyoga aylanishi mumkin.

Xom ashyo ishlab chiqarish jarayonining asosiy elementi sifatida sanoat ishlab chiqarishiga va uning iqtisodiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlarida xom ashyo va yoqilg'Il xarajatlari ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar hajmida eng katta salmoqqa egadir. Shuning uchun sanoat korxonalarini faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari ko'p jihatdan tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan xom ashyo va yoqilg'Il xarajatlari darajasiga bog'liq bo'ladi. Sanoat mahsuloti tannarxida xom ashyo, yordamchi materiallar va yoqilg'Il xarajatlari butun sanoat bo'yicha o'rtacha 70 foizni tashkil etadi. Shuning uchun xom ashyoni tejab ishlatish sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirishda, ishlab chiqarish quvvatlaridan yaxshi foydalanishda va ishchilar mehnatining unumdorligini oshirishda katta rol o'ynaydi.

Material ko'p sarflanadigan tarmoqlarda xom ashyo va materiallardan oqilona foydalanish mahsulot tannarxini pasaytirishning asosiy manbaidir. Mashina va uskunalarning unumli ishlashi va tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun vaqtning sarflanish darajasi xom ashyo sifati va uning turiga bog'liq.

Xom ashyolar xilma-xil bo'lib, ular quyidagi turlarga bo'linadilar:

- sanoat xom ashyosi;
- qishloq xo'jaligi xom ashyosi.

Sanoat xom ashyosi turli belgilariga ko'ra quyidagicha turkumlanadi:

- kelib chiqishiga ko'ra - tabiiy va sun'iy;
- agregat holatiga ko'ra - qattiq, suyuq hamda gazsimon;
- kimyoviy tarkibiga ko'ra – organik va anorganik;
- ishlatilishiga ko'ra – ozuqa bop va texnik.

Qishloq xo'jaligi xom ashyosi ikki turga - o'simliklardan olinadigan xom ashyolar va hayvonlardan olinadigan xom ashyolarga bo'linadi.

Yer ostidan qazib olinadigan mineral birikmalar mineral xom ashyolar deyiladi. Ular uch turga bo'linadi: a) rudali; b) rudasiz; v) yonuvchi mineral xom ashyolar. Bu minerallarning ko'pi qattiq holda bo'ladi. Suyuq mineral boyliklarga faqat neft hamda tuz eritmalari, gaz holdagisiga esa tabiiy gaz kiradi.

Rudali mineral xom ashyolar foydali jinslar bo'lib, metallar olish uchun asosiy manbadir.

Rudasiz mineral xom ashyolar ham tog' jinslaridir. Ular metall olish uchun ishlatilmaydi. Bunday mineral xom ashyolar kimyoviy qayta ishlanmasdan to'g'ridan-to'g'ri xalq xo'jaligida yoki metalsiz ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida ishlatiladi. Rudasiz minerallar shartli ravishda quyidagi turlarga bo'linadi:

-qurilish materiallari -to'g'ridan-to'g'ri yoki fizik-kimyoviy qayta ishlangandan so'ng qurilishishlarida ishlatiladigan mineral xom ashyo;

-industriya xom ashyolari-kimyoviy qayta ishlanmasdan sanoatning turli tarmoqlarida ishlatiladigan xom ashyo;

-kimyoviy mineral xom ashyolar-kimyoviy qayta ishlash uchun ishlatiladigan minerallar;

-qimmatbaho va rudasiz minerallar-tabiiy holda yoki mexanik qayta ishlangandan so'ng bezak uchun ishlatiladigan minerallar.

Yonuvchi mineral xom ashyolar yoqilg'ini sifatida ishlatiladigan foydali qazilma boyliklardir. Bularga tosh ko'mir va qo'ng'ir ko'mir, torf, yonuvchi slanetslar, neft hamda tabiiy yonuvchi gazlar kiradi. Yonuvchi gazlar, neft va ko'mir eng arzon hamda foydalanish uchun qulay yoqilg'igina bo'lmay, balki kimyo sanoatida qimmatbaho xom ashyo hamdir.

O'simlik va hayvonot xom ashyolariga yog'och, zig'ir, kanop, yog'lar, o'simlik moylari, hayvonot terilari va shunga o'xshashlar kiradi. Bular xalq xo'jaligida ishlatilishiga ko'ra, oзуqabop va texnik xom ashyolarga bo'linadi. Oзуqabop xom ashyolarga oзуqa sifatida ishlatiladigan birikmalar- o'rmonchilik, baliqchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari kiradi.

O'simlik va hayvonlardan olinadigan texnik xom ashyolarga yuqorida ko'rsatilgan xalq xo'jaligi tarmoqlarining oziq uchun yaramaydigan mahsulotlari kiradi. Ularni mexanik va kimyoviy qayta ishlab, ulardan turmushda va sanoat ishlab chiqarishida ishlatiladigan xom ashyolar olinadi.

Bunday xom ashyo turlarini kimyoviy qayta ishlab, turli mahsulotlar olish mumkin. Manbalari ko'pligi, amaliy jihatdan bitmas-tuganmas zahiraga egaligi ular asosida ko'pgina yangi kimyoviy korxonalar tashkil etishga imkon beradi.

Umuman, ilm-fan, texnika va texnologiyaning nihoyatda tezlik bilan rivojlanishi yangidan-yangi materiallarni, shuningdek, yangi xom ashyo materiallarini qidirib topish masalasini dolzarblashtirmoqda. Bu masala asosan olti yo'l bilan amalga oshiriladi:

- iloji boricha arzon xom ashyolarni qidirib topish va ishlatish;
- xom ashyodan kompleks foydalanish;
- konsentrlangan xom ashyo va mahsulotlar ishlatish;
- juda toza mahsulotlar ishlatish;
- texnika maqsadlari uchun ishlatiladigan oзуqabop xom ashyolarni nooуqabop xom ashyo bilan almashtirish;
- iloji boricha mahalliy xom ashyolardan foydalanish.

Hozirgi vaqtda kimyo va kimyoviy texnologiya yutuqlari muhim texnika xo'jalik mahsulotlarini nooуqabop xom ashyolardan olishga imkon beradi. Bunday xom ashyolar sifatida tosh-ko'mir, torf, slanets, neft, tabiiy gaz, yog'och, o'simlik va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining chiqindilari ishlatilmoqda. Masalan, sovun yuvuvchi mahsulotlar, izolyatorlar ishlab chiqarishda, to'qimachilik sanoatida, rezina mahsulotlari ishlab chiqarishda, charm sanoatida, korroziyaga qarshi kurashishda, betonlarni suv o'tkazmaydigan qilishda, metallarni silliqlashda, qirqishda sovutgichlar sifatida har yili bir necha ming tonnalab qimmatbaho oзуqabop moylar ishlatiladi.

Sanoatning ko'pgina tarmoqlarida keng miqyosda ishlatiladigan etilspirti ishlab chiqarish uchun ham juda ko'p miqdorda yuqori sifatli don va kartoshka ishlatiladi. Un, kraxmal, sut kabi mahsulotlardan texnik maqsadlar uchun foydalaniladi. Masalan, kazein-oqsil modda sutda bo'ladi, kazein yelim ishlab chiqarishda, qog'oz va charm sanoatida bo'yoqchilikda hamda muqovalar qilishda asosiy mahsulot sifatida ishlatiladi. Bu maqsadda kazein ishlab chiqarish uchun har yili bir necha yuz ming tonna yog'sizlangan sut sarflanadi.

Kraxmal to'qimachilik sanoatida, rezina va kimyo sanoatida, gugurt sanoatida, elektrodlar olishda keng qo'llaniladi. Hozir sanoatda kraxmal poliakrilamid hamda tsellyulozaning suvda eruvchan efirlari-karboksil metil tsellyuloza (KMK) bilan muvafaqqiyatli almashtirilgan. Shu bilan birga KMK ko'p miqdorda kraxmal o'rnida to'qimachilik, qog'oz va gugurt sanoatlarida esa ozuqabop un o'rnida ishlatilmoqda.

Hozir etilendan va yog'ochdan olinayotgan sintetik etil spirt tarkibi va sifati jihatidan ozuqabop xom ashyolardan olinadigan etil spirtidan farq qilmaydi va ancha arzon hisoblanadi. Shuning uchun xalq xo'jaligining ko'p tarmoqlarida bunday etil spirt ko'p ishlatilmoqda. Shuningdek, gaz va neftni qayta ishlash mahsulotlaridan sirka kislota, glitserin va yog'lar ishlab chiqarilmoqda. Mahsulotlarni bu yo'l bilan ishlab chiqarishda ko'p miqdorda ozuqabop xom ashyolar tejab qolinadi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi birmuncha arzonlashadi.

Sanoatni yanada rivojlantirish, texnika taraqqiyoti sur'atlarini jadallashtirish va sanoat mahsulotlarining turlarini ko'paytirish vazifalari sun'iy materiallar ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirishni taqozo etadi.

Sun'iy materiallar ishlab chiqarish va ularni sanoatda qo'llash quyidagi hollarda iqtisodiy samarali hisoblanadi:

a) sun'iy material yagona xom ashyo bo'lgan tarmoqda ishlab chiqarishning jadal sur'atlari bilan va keng ko'lamda rivojlantirishga;

b) qayta ishlovchi tarmoqlar texnika bazasining mukammallashtirishiga;

v) iste'molchi tarmoqlar mahsulotining sifatini yaxshilashga va assortimentni kengaytirishga;

g) qayta ishlash tarmoqlarida texnologik jarayonlarni jadallashtirishga va uskunalarni mukammallashtirishga;

d) tayyor sanoat mahsuloti ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xarajatlarni kamaytirishga sabab bo'lsa;

s) sun'iy materiallardan ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxini kamaytirsa.

Sun'iy materiallar ishlab chiqarish va qo'llashning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda vaqt omilini, ya'ni qisqa vaqt ichida kerakli miqdorda sanoat mahsuloti ishlab chiqarishga erishish mumkinligini e'tiborga olmoq lozim.

Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, sun'iy materiallar behad afzalliklarga ega, chunki tabiiy xom ashyo bo'lgan paxta, jun, teri va boshqalarni ishlab chiqarishga oylab vaqt ketsa, sun'iy materiallarni ishlab chiqarishga atigi bir necha kun va soat kifoya qiladi.

Sun'iy materiallar ishlab chiqarishga tabiiy materiallarga nisbatan ancha kam ijtimoiy mehnat sarflanadi. Masalan, 1 tonna yuvilgan jun ishlab chiqarishga 7000 kishi/soat sarflansa, sintetik tolaga 225-1400 kishi/soat sarf etiladi.

Sun'iy materiallar sanoatning qo'shimcha xom ashyo bazasi bo'lib xizmat qiladi. Ular ishlab chiqarishda jarayonlarni kimyolashtirish, ayniqsa, organik sintezni rivojlantirish katta rol o'ynaydi. Turli tarmoqlarda kimyoviy usullarni qo'llash tabiatda ko'p tarqalgan mahsulotlardan sifati tabiiy materiallardan

ancha ustun bo'lgan juda ko'p yangi tur sun'iy materiallar ishlab chiqarish imkonini beradi.

Zamonaviy texnika sintetik materiallarga turlicha talablar qo'yadi. Ular o'ziga xos qator afzalliklarga ega: uzoq vaqt o'ta yuqori va o'ta past haroratga, yuqori bosim va juda katta elektr kuchlanishlariga chidamli. Sun'iy materiallar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, shu jumladan sanoatni rivojlantirish va sanoat xom ashyo bazasini kengaytirishning asosiy vositalaridan biridir.

Sanoatni rivojlantirishda plastmassalar, sintetik kauchuk, sun'iy va sintetik tolalar, sun'iy charmalar va charm o'rnini bosuvchi materiallar, sintetik yuvish vositalari va ozuqa xom ashyosi o'rnini bosuvchi sun'iy materiallar muhim rol o'ynamoqda.

Plastmassalar-keng nomenklaturaga ega bo'lgan sun'iy polimer mahsulotlardir. Ular sifat jihatidan tabiiy materiallar bilan tenglashibgina qolmay, balki ko'p hollarda ulardan ustunlik ham qiladi: o'ta mustahkamlik, elektr o'tkazmaslik, engillik, qattqlik, egiluvchanlik, tiniqlik, korroziyaga, kislotaga, issiqlikka chidamlilik, kamediruvchanlik kabi sifatlarga ega va mexanik ishlashning turli usullariga engil moslashadi.

Mamlakatimiz plastmassalar ishlab chiqarish uchun keng xom ashyo resurslariga ega, chunki plastmassalar uchun tabiiy va neft gazi, neftni qayta ishlash va kokso kimyo sanoati chiqindilari, yog'ochni kimyoviy ishlash mahsulotlari, engil va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligining turli xil chiqindilari xom ashyo bo'lib xizmat qiladi.

Sun'iy va sintetik tolalar sanoatning xom ashyo bazasini kengaytirish bilan birga, turli texnik va kiyim-kechak gazlamalari, elektr izolyatsiya materiallari, kabellar va kanatlar, baliq tutish to'rlari va boshqa buyumlar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Iqtisodiyotda charm o'rnini bosuvchi sun'iy materiallar katta ahamiyatga ega. Poyabzal sanoatining o'sish sur'atlarini amalga oshirish uchun tabiiy charm resurslari yetarli bo'lmagan sharoitda bu juda ham muhim. Sun'iy charm va charm o'rnini bosuvchi materiallardan poyabzalning ayrim bo'laklarini ishlab chiqarish mumkin.

2.Sanoat ishlab chiqarishning mineral xom ashyo manbai

Mineral xom ashyo-konlardan qazib chiqariluvchi turli foydali qazilmalardir.

O'zbekistonning yer qa'ri foydali qazilma turlariga juda boy. Hozirgacha saqlangan ko'xna konlar va ularning qoldiqlari O'zbekiston hududida konchilik qadimdan rivojlanganidan dalolat beradi .

Hozirgi kungacha mamlakatda 3000 dan ortiq foydali qazilma koni aniqlangan bo'lib, ularning 1100 tasi qazib olishga tayyor, xususan olganda, ularning 50 tasi asl, 41 tasi rangli, nodir radioaktiv va qora metallar, 187 tasi

¹²⁰O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 12 – jild. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2006 yil. 17 - bet

yoqilg'i-energetika, 19 tasi kon-kimyoy, 45 tasi konchilik xom ashyosi, shuningdek, qurilish materiallari, yer osti suvlari va boshqa foydali qazilma konlaridan iborat¹.

O'zbekiston yer osti boyliklari istiqboli juda ulkan. Respublika hududining faqat 20-25 % maydonida geologik qidiruv ishlari olib borilgan.

O'zbekiston hududida sanoat ahamiyatiga ega 90 ga yaqin neft konlari ochilgan bo'lib, ulardan 36 tasi neft, 24 tasi neft-gaz va gaz-neft, 26 tasi neft-gaz kondensat konlari toifasiga kiradi. Mamalakatdan neft va gaz Farg'ona, Surxondaryo, Hisor, Buxoro, XIVa va Orol-Ustyurt regionlarida topilgan.

Asl metallarga oltin, kumush, ruteniy, radiy palladiy, osmiy, iridiy va platinalar kiradi. O'zbekistonda shulardan faqat oltin va kumush toza holda qazib olinadi, boshqalari esa turli rudalardan ajratib olinadi.

Aniqlangan oltin zahiralari bo'yicha O'zbekiston jahonda to'rtinchi, qazib olish darajasi bo'yicha to'qqizinchi o'rinda turadi. Bu yerda oltinning 50 dan ortiq konlari qidirib topilgan. Uning asosiy zahiralari Markaziy Qizilqumdagi Muruntov oltin koni butun Yevro osiyo qit'asida ma'lum va mashhur. Uning rudasi tarkibida oltin miqdori yuqori hisoblanadi.

Keyingi yillarda Toshkent, Samarqand viloyatlarida yangi oltin ruda konlari qidirib topildi. O'zbekistondagi hozirgacha qidirib topilgan oltin zahiralari 4 ming tonnadan oshadi.

Respublikada umuman olganda 26 ta kumush koni aniqlangan. Ular asosan Qizil qum va Chotqol-Qurama tog'lari hududlarida to'plangan.

Rangli metallarning eng muhim turlari hisoblangan uran va mis zahiralari bo'yicha O'zbekiston jahonda yettinchi o'rinni egallaydi. Uranning razvedka qilingan zahiralari aniqlangan, vulkonogen jinslarda topilgan bo'lib, mezozoyning qum toshli tipiga mansub.

Uran bilan yo'ldosh reniy, skandiy va boshqa metallar uchraydi. Shuningdek, mis, qo'rg'oshin, qalay, volfram va litiy kabi muhim strategik ahamiyatga ega nodir va rangli metallarning yirik konlari bor.

Respublikamizda har yili 90 ming tonnaga yaqin mis ishlab chiqariladi. Amaldagi ishlab turgan konlar misni yana 40-50 yil, qo'rg'oshin va qalayni 100 yil mobaynida ishlab chiqarishni ta'minlashga qodir.

Rangli metallar zahiralari asosan Olmaliq kon rayonida joylashgan. Qalmoqqir mis koni noyob hisoblanadi. Bu konning rudasini qayta ishlash mamalakatdagi eng yirik korxonalaridan biri Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida amalga oshiriladi. Shuningdek, bu sanoat rayonida mis, molibden, oltin, kumush, reniy, tellur, selen va boshqa katta zahiralarga ega bo'lgan Dalniy koni bor.

Mamlakat hududida 100 dan ortiq qo'rg'oshin va ruh konlari mavjud bo'lib, ular asosan Olmaliqdagi Qo'rg'oshin kon, Jizzax viloyatidagi Uchquloch va Surxondaryo viloyatidagi Xondiza konlaridan olinadi. Bu konlarda yana yo'ldosh metallar – mis, kumush, kamdiy, selen, oltin va indiy ham uchraydi. O'zbekistonda molibdenli formatsiyalar ham bor. Chotqol-Quramatog'lari vismutga boy. Janubiy Farg'ona belbog'ining o'zidan 100 dan ortiq simob va 10 dan ortiq surma rudalanishlar aniqlangan.

Respublika nodir metallarning eng muhim turi hisoblanadigan volframning 7 ta koni va 200 dan ziyod ruda belgilari mavjud yerlari aniqlangan. Volfram ob'ektlari Toshkent oldi, Samarqand va Qizilqum hududlarida to'plangan.

Qorametallardan eng ko'p tarqalganlari temir, titan, marganets, magniy, xrom va boshqalardir. Temirning bir necha konlari va ruda ko'rinishlari aniqlangan. Ular orasida muhimi Qoraqalpog'iston Respublikasida Tebin buloq titan-magniy koni hisoblanadi. Marganets konlari Zarafshon, Qora tepa, Lola buloq va boshqa joylarda mavjud. Magmatik xrom Qizilqumda, Farg'onada, ayniqsa, Tomdi tovva Sulton Uvaysda ko'plab uchraydi.

O'zbekistonda nometall xom ashyo-glaukonit, dalashpati, vallastonit, grafit, asbest, talk, talktoshi, abrazivlar, qimmatbaho va ishlov beriladigan toshlar konlari ko'p. Vallastonitning 5 ga yaqin ko'rinishi va konlari aniqlangan. Grafitning 30 dan ortiq ruda-rudalanishi va konlari ma'lum. Qimmatbaho va ishlov beriladigan toshlardan topaz, feruza, ametist, tog' xrustali, xalsedon, yashma, nefrit, lazurit, amazonit, rodonit, agalmatalit, marmar oniksi va boshqalarning ancha yirik zahiralari qayd etilgan.

Geologik tadqiqotlar natijasida Buxoro-Qarshi, Surxondaryo, Ustyurt va Farg'ona artezian xavsazining yer osti suvlarida yod, brom, litiy, seziy, stransiy va boshqa sanoat Konsentratsiyalari aniqlangan. 2005 yildan boshlab Kruk konida yod olinmoqda.

O'zbekiston xududida 500 dan ziyod g'isht, sement, gips, ohak tosh, beton to'ldiruvchiliklari va boshqa qurilish materiallari konlari razvedka qilingan va ulardan keng foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Potensial resurslardan oqilona foydalanish va foydali qazilmalarni qazib olishning iqtisodiy samarali usullarini qo'llash uchun konlar zahirasining miqdorini iqtisodiy jihatdan to'g'ri aniqlash va sanoat ko'lamida ekspluatatsiya qilish navbatini belgilash alohida ahamiyatga ega.

Zahiralarni o'rganish va aniqlash geologiya-qidiruv ishlari davlat rejasi asosida olib boriladi. Sanoatning mineral xomashyoga bo'lgan talabini aniqlashda konlarning o'rganilganlik darajasi muhim o'rin tutadi.

Mineral xomashyo zahiralarni qidirish va sanoat ekspluatatsiyasiga tayyorlik darajalari bo'yicha bir necha kategoriyalarga bo'linadi.

Ular ma'lum bir davr uchun texnik – iqtisodiy jihatidan foydalanish mumkinligi darajasiga qarab balansdagi va balansdan tashqaridagi zahiralarga bo'linadi.

Balansdagi zahiralarga sanoat talablariga va foydalanishning texnik shartlariga javob beruvchi va hozirgi kunda ularni qazib chiqarish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan zahiralarga kiradi. Balansdan tashqari, zahiralarga esa tarkibida foydali komponentlari, qazilmalar miqdori kam bo'lgan yoki ekspluatatsiya sharoitlari og'ir bo'lgan, xomashyosini sanoat usullari bilan qayta ishlash hozircha mumkin bo'lmagan zahiralarga kiradi.

Korxonalar faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish va rejalashtirish ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish va uni tashkil etishning turli norma va normativlarini tuzishga asoslanadi. Norma va normativlar asosida ishlab chiqarish-

ga kerakli xomashyo va materiallar, jihoz va asbob-uskunalar miqdori aniqlanadi, ishlab chiqarish jarayonida xodimlar joylashtiriladi va ishlab chiqarish resurslarining ratsional zahiralari rejalashtiriladi. Mahsulot sifati bo'yicha qo'yiladigan shartlar ham normalarning bir turi hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishida xomashyo va materiallarni tejashning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat:

- mashina va mahsulotlar konstruksiyasini yaxshilash;
- yangi texnika va progressiv texnologiyani joriy etish;
- texnologik jarayonlarni yaxshilash;
- xomashyoni kompleks qayta ishlash usullarini rivojlantirish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishni yaxshilash.

Istiqlol va bozor iqtisodiyotiga kirib borish mamlakatning xomashyo resurslarini ko'paytirishga va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga keng yo'l ochdi. Davlatning respublika sanoati xomashyo bazasi borasidagi xo'jalik siyosati qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarining yuqori sur'atlar bilan taraqqiy etishini ta'minlovchi xomashyo resurslarining jadallashtirilgan rivojlanishini ta'minlashdir.

Sanoat xomashyo bazasi rivojining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- yangi xomashyo manbalarini aniqlash bo'yicha geologik-qidiruv ishlarini kengaytirish;
- undiruvchi sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining sanoat uchun yetarli darajada mahsulot etishtirishini va uning tovarдорlik qobiliyatini kuchaytirish;
- sun'iy materiallar va ular o'rni bosuvchi turli xil buyumlari yaratish va h.k.lar.

3. Resurslar tejamkorligi strategiyasi va taktikasi

Ma'lumki, har bir davlat va xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun resurslar tekin emas. Ular o'z maqsadlariga erishishda strategiya va taktikadan foydalanadilar. Bundan ko'zlangan maqsad, ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xomashyo xarajatlarini kamaytirish va shu orqali foydani ko'paytirishdir. Izlanishlar qo'llanilgan strategiya va taktikaning xomashyo xarajatlarini kamaytirishdagi so'nggi bosqichi va muqobil yo'li resurslar tejamkorligi ekanligini ko'rsatmoqda.

Resurslarni tanlash muqobilligi undan foydalangan sohalarda quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- xarajatlarning kamayishi va ishlab chiqarilgan mahsulot sifatining oshishi;
- alohida tovarlar va mahsulotlar assortimenti bilan bozorga kirib borish va o'z o'rni egallash;
- mahsulot sifatida aniq ustunlikka erishish;
- iqtisodiyotdagi kabi texnologiyada ham peshqadamlik mavqeining o'sishiga intilish;
- dinamikani hisobga olgan holda mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish va xo'jalik faoliyatidan foydaolish.

Muqobilik (bir-biriga zid ikki yo‘ldan birini – yo unisini, yo bunisini tanlab olish zaruriyati) shuningdek, resurslardan foydalanish strategiyasi va taktikasining tarkibiy qismi hisoblanib, ishlab chiqarishda iqtisodiy tejamkorlik va samaradorlik oshishiga olib keladi.

Modomiki, strategiya va taktika har qanday ishda, shuningdek, moddiy, moliyaviy va boshqa resurslardan foydalanishda birinchi navbatda, xodimlardan tegishli bilim va ish malakani, resurslardan foylanishda mas’ullikni, bozor iqtisodiyoti sharoiti shartlarini va fan-texnika yangiliklaridan voqiflikni, ilmiy tadqiqot va ularning yechimlarini teran anglashni talab qiladi.

Rejali iqtisodiyot sharoitida resurslar davlatga qarashli bo‘lib, ularni bepul va qaytarib olmaslik qoidasi asosida hududlarga, tarmoqlarga va korxonalariga taqsimlanardi. Bozor iqtisodiyoti sharoiti resurslarga va ulardan foydalanishga bo‘lgan talab kuchayayotganligi bois bunday vositalarni tejamkorlik bilan ishlatishni taqazo etmoqda.

Sobiq ittifoqda barcha resurslar davlat tomonidan bepul taqsimlanganligi uchun resurslar amaliyotda emas, balki hujjatlarda «tejalardi». Endilikda bu masala oldingidek, “yuqori”ning ko‘rsatmasi bilan emas, har bir xo‘jalik yurituvchi sub’ektning samaradorlikni oshirishga bo‘lgan qiziqishi asosida hal etilmoqda.

Hozirgi sharoitda qaysi mahsulotni, qancha va kimga ishlab chiqarishgina emas, shu bilan birga bu mahsulotni ishlab chiqarishga qancha resurs va mablag‘ talab qilinishi ham ko‘pgina korxonalar uchun asosiy masalaga aylanmoqda. Bu har bir korxonani bir tomondan, talabni qondirish, ikkinchi tomondan esa, resurslar xarajatining kam chiqimli yo‘llarini axtarishga undaydi. Bulardan tashqari, har bir korxonaga uchun xarakterli bo‘lgan normalashtirish va resurslarning pulliligi ham aynan shuni taqazo etadi.

Xom ashyodan ratsional foydalanish sanoat xom ashyo bazasini kengaytirish va mustahkamlashning muhim manbaidir. Iqtisodiy nuqtai nazardan xom ashyodan maqsadga muvofiq va ratsional foydalanishda ko‘p jihatdan qayta ishlovchi sanoat tarmog‘i yoki korxonaga uchun xom ashyoni to‘g‘ri tanlash katta ahamiyatga ega.

Xom ashyo mahsulot xususiyatini va sifatli texnologik jarayonni tanlashga va uning progressivlik darajasiga, mashinalardan va vaqtdan foydalanish darajasiga, ishlab chiqarish tsiklining uzunligi va umuman ishlab chiqarishning barcha texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi paytda har bir sanoat tarmog‘ida bir necha turdagi xom ashyo qo‘llaniladi. Ayrim tarmoq uchun qaysi xom ashyoni tanlash maqsadga muvofiq ekanligini aniqlash uchun turli xom ashyolarni quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha solishtirmoq zarur: solishtirma kapital xarajatlari; mehnat unumdorligi; mahsulot tannarxi; mahsulot sifati; mahalliy xom ashyodan maksimal foydalanish; kamyob bo‘lmagan xom ashyodan foydalanish; ishlatilmaydigan chiqindilardan foydalanish mumkinligi; sun’iy materiallardan foydalanish mumkinligi; xom ashyoning progressiv texnologiya talablariga javob berishi; xom ashyoning bo‘lg‘usi tayyor mahsulot sifat ko‘rsatkichlariga javob berishi; ma’lum davrda muayyan tarmoqda qo‘llashning iqtisodiyot nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqligi; ayrim

hududlarning o‘ziga xos xususiyatlari; ayrim tarmoqlardagi texnika taraqqiyoti va innovatsion faoliyat.

Xom ashyodan to‘liq va har tomonlama foydalanib, uning turli qismlaridan turli xil mahsulotlar olish uchun undan kompleks foydalanmoq kerak.

Xom ashyo resurslarini kengaytirish va tejashning yana bir yo‘li xom ashyo va materaillardan qayta foydalanishdir. Masalan, yedirilgan mashinalar, binolar va eski texnikalarning metall qismlari, qog‘oz materiallari va boshqalardan sanoatda qayta foydalanish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida tasdiqlangan 2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish» ga alohida muhim o‘rin berilgan¹²¹.

Iqtisodiyot tizimining raqobatbardoshligini yanada oshirish, aholi farovonligini yuksaltirish, birinchi navbatda, xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, elektr va energiya resurslaridan tejimli foydalanilishiga bog‘liqdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Xom ashyo tushunchasi va uni guruhlashning qanday an’anaviy usullarini bilasiz?
2. O‘zbekiston sanoatining xom ashyo bazasi va uning rivoji qanday?
3. Sun’iy materiallar ishlab chiqarishning rivojini nimalarda ko‘rish mumkin?
4. Sanoat xom ashyosidan foydalanishning oqilona usullariga ta’rif bering?

17-mavzu. ISHLAB CHIQRISHINING AYLANMA MABLAG‘LARI

1. Aylanma fondlarning mohiyati va ahamiyati.
2. Aylanma mablag‘lar va ularning aylanishini tezlashtirish.
3. Aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish.

1. Aylanma fondlarning mohiyati va ahamiyati

Sanoat sohasida turli mahsulotlarni tayyorlash jarayonida moddiy va moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojlar doimo oshib boradi. Sanoat korxonalarida asosiy fondlar bilan bir vaqtda mehnat buyumlari ham harakatda bo‘ladi. Shu sababli ularni aylanma fondlar deb aytiladi. Aylanma fondlar – ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashib, o‘z qiymatini tayyor mahsulotga o‘tkazib,

¹²¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni. 7 fevral 2017 yil. <http://press-service.uz/uz/document/5482/>.

o'z shaklini ham o'zgartiradigan, butunlay yo'qotib yuboradigan mehnat buyumlaridir.

Aylanma fondlarga ishlab chiqarish jamg'armalari va ishlab chiqarishdagi mablag'lar, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr xarajatlari kiradi.

Ishlab chiqarish jamg'armalari aylanma fondlarning asosiy qismini tashkil etadi. Ular korxonalariga keltirilgan, lekin ishlab chiqarish jarayonida hali foydalanilmagan mehnat buyumlari, xususan, xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg'i, asosiy va yordamchi materiallar, energiya, ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar, xo'jalik jihozlari va tez yemiriluvchi buyumlardan iborat.

Aylanma fondlarning yana bir qismini tugallanmagan ishlab chiqarish tashkil etadi. Ular ishlab chiqarish jarayoniga allaqachon tushgan, lekin ishlov berish tugamagan mehnat buyumlaridir. Bularga korxonaga o'ziyaratgan, lekin chala tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishlar kiradi.

Aylanma fondlarning yana bir qismi kelgusi davr xarajatlari hisoblanadi. Ular yangi turdagi mahsulotlarni loyihalash, tayyorlash va o'zlashtirish, mutaxassislarni o'qitish va qayta tayyorlash xonalarini ijaraga olish, tog'-sanoat korxonalariga taaluqli xarajatlardan iboratdir. U xarajatlarning hammasi tayyor mahsulotning tannaxtiga kiritish evaziga qoplanadi.

Aylanma fondlarning tarkibi turli tarmoqlarda turlicha bo'ladi. Ularni iqtisodiy tahlil etish va ularning tarkibiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning ta'sir kuchi natijalarini topish sanoat taraqqiyotini belgilashga katta yordam beradi.

2. Aylanma mablag'lar va ularning aylanishini tezlashtirish.

Sanoat korxonalarini faoliyatining asosiy va aylanma fondlar hamda aylanma mablag'lar bilan uzviy bog'liqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Muomalada ishlab chiqarish fondlarining yig'indisi aylanma mablag'larni ifodalaydi. Aylanma mablag'lar 2 ta fondni o'z ichiga oladi:

- aylanma fondlar;
- muomala fondlari.

Aylanma fondlar, o'z navbatida ishlab chiqarish jamg'armasi, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari va omborlardagi tayyor mahsulotlardan iborat bo'ladi.

Muomala fondlariga jo'natishga yuklangan mahsulotlar va banklardagi pul mablag'lari kiritiladi.

Korxonaning aylanma mablag'lari kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Chunki ular ishlab chiqarish jarayoning uzluksizligiga sharoit yaratib beradilar. Agarda sanoat korxonalarining aylanma mablag'lari kamayib ketsa, ular bankrotlikka yuz tutadilar.

Aylanma tuzilmalarni rejalashtirish va boshqarishning hozirgi paytdagi amaliyotida ushbu mablag'larning tarkibi va tuzilmasini baholash va tahlil qilishga, shuningdek, ularning funksional roli va harakatiga katta e'tibor qaratiladi. Aylanma ishlab chiqarish fondlari korxonaga aylanma mablag'larining eng faol qismi bo'lsa, muomala fondlari ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok

etmaydi hamda yangi iste'mol qiymatini yaratmaydi. Bu yerda umumiy qoida shundayki, aylanma mablag'lar doimo aylanishda bo'lishi zarur – ularning samaradorligi va korxonada iqtisodiyotiga ta'siri aynan shunda ko'zga tashlanadi.

Aylanma ishlab chiqarish fondlari korxonada aylanma mablag'larining asosiy va salmoqli qismi sifatida o'z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi:

- ishlab chiqarish zahiralari – bu ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarishga kiritish uchun tayyorlangan hamda xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, xarid qilinuvchi yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, qadoqlash va o'rov materiallari, asosiy fondlarni ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar, yoqilg'i-moylash materiallaridan tashkil topuvchi mehnat predmetlari;

- tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar – bu, ishlab chiqarish jarayonida foydalanishga topshirilgan hamda ishlov berish va yig'uv jarayonida bo'lgan, lekin ishlab chiqarish jarayoni to'liq tugallanmagan hamda ushbu korxonada keyinchalik ishlov berilishi lozim bo'lgan mehnat predmetlari;

- kelgusi davr xarajatlari – ayni paytda ishlab chiqarilayotgan, lekin kelajakdagi mahsulotlarga mansub bo'lgan yangi turdagi mahsulotlarni tayyorlash va o'zlashtirish xarajatlari (masalan, asbob-uskunalarni qayta rejalashtirish, mahsulotlarning yangi turlarini tayyorlash va loyihalashtirishga sarflanuvchi xarajatlar va boshqalar).

Aylanma ishlab chiqarish fondlari alohida tarkibiy qismlari yoki elementlari o'rtasidagi foizlarda ifodalanuvchi o'zaro munosabatlar aylanma ishlab chiqarish fondlarining tuzilmasini tashkil qiladi. Aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlari o'rtasidagi xuddi shunday foizlardagi munosabatlar korxonada aylanma mablag'larining tuzilmasi deb ataladi.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi korxonalarining aylanma mablag'lari ishlab chiqarishning texnologik tashkil etish xususiyatlariga ko'ra, bir-biridan farq qiladi. Bu xususiyatlarning xarakteri ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va murakkabligi, ixtisoslashtirish darajasi, mahsulotni realizatsiya qilish sharoitlari va shu kabilar bilan izohlanadi. Aylanma mablag'lar tuzilmasining tarmoqlar bo'yicha farqlanishini quyidagi jadval orqali bilib olish mumkin.

Aylanma fondlar tuzilmasina faqat sanoatning turli tarmoqlarida, hattoki bir tarmoq va bir korxonaning o'zida ham farqlanadi. Bunday farqlanishga turli xildagi xomashyo va materiallar, ishlab chiqarish texnologiyasi va texnikasidagi farqlar, korxonalarining geografik joylashuvi, ishlab chiqarishning tashkil etilishi va mehnat taqsimoti, moddiy-texnika ta'minoti sabab bo'lishi mumkin.

Korxonalar aylanma mablag'lari tarkibi va tuzilmasiga xo'jalik yuritish qobiliyati va uning samaradorligiga rioya qilish qoidalari katta ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni korxonada ishlab chiqarish zahiralarni va aylanma mablag'larning ta'minlanganligini haddan tashqari oshirishga intilmasligi zarur. Amaliyotning guvohlik berishicha, bu, resurslarning halok bo'lishiga va sun'iy tanqislikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu sababli xomashyo va materiallarni sarflashning texnologik normalariga rioya qilish, ularni saqlashni to'g'ri yo'lga qo'yish, chiqitlar va yo'qotishlarni kamaytirish, zamonaviy va arzon

materiallardan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Biroq arzon materiallardan foydalanish doim ham korxonada imkoniyatlari va xohishidan kelib chiqavermaydi va tashqi muhit, birinchi o'ringda ishlab chiqarishdagi hamkorlar, bahoni shakllantirish, umumiy iqtisodiy barqarorlik va boshqa omillar bilan ham bog'liq bo'ladi.

Korxonada iqtisodiyotiga aylanma mablag'larning tarkibi va tuzilmasidan tashqari, ularni ishlab chiqarish, takror ishlab chiqarish va muomalaning turli bosqichlarida izlab topish katta ta'sir ko'rsatadi. Aylanma mablag'larning to'liq aylanishi uch bosqichdan iborat bo'lib, bu jarayonda mahsulot ishlab chiqariladi va sotiladi.

Birinchi bosqichda aylanma mablag'lar pul shaklidan moddiy boyliklarning ishlab chiqarish zahiralarga aylanadi, ya'ni pul - tovar (P-T).

Ikkinchi bosqich ishlab chiqarish, ya'ni mahsulotni tayyorlash jarayonini o'z ichiga oladi. Bu bosqichda aylanma mablag'lar va birinchi o'ringda aylanma fondlar tugallanmagan ishlab chiqarish va yarim tayyor mahsulotlar holiga keltirilib, tovar shaklini oladi (T).

1-jadval

Aylanma mablag'larning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi

Aylanma fondlarning guruh va elementlari	Butun sanoat	Qora metallurgiya	Mashinasozlik	Energetika	Yengil sanoat	Oziq-ovqat sanoati
1. Ishlab chiqarish zahiralari - jami	70,2	65,0	55,3	98,3	90,0	78,8
Jumladan:						
Xom ashyo va asosiy materiallar, yarim tayyor mahsulotlar	46,2	23,8	37,5	-	76,7	52,2
Yordamchi materiallar	6,6	11,0	2,3	24,1	5,7	6,1
Yoqilg'i	1,7	2,0	0,7	37,4	0,5	1,6
Ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar	3,9	11,0	2,0	23,0	1,7	2,0
Qadoqlash va o'rov materiallari	3,0	0,5	0,6	0,3	1,2	11,3
Instrumentlar, xo'jalik asboblari va qimmat bo'lmagan, tez eskiruvchi boshqa predmetlar	9,8	16,7	12,2	19,5	3,2	5,6
2. Tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar	24,0	18,3	42,2	0,5	9,8	19,5
3. Kelgusi davr xarajatlari va boshqa mehnat predmetlari	5,8	16,7	2,5	1,2	0,2	1,7
Jami aylanma ishlab chiqarish fondlari	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Uchinchi bosqichda aylanma mablag'lar tovar mahsuloti shaklida muomalaga kiritilib, sotiladi va yana pul shaklini oladi (T-P).

Shu tariqa aylanma mablag‘lar barcha bosqichlardan o‘tib, to‘liq aylanishni amalga oshirishini quyidagi tarzda aks ettirish mumkin:

- 1-bosqich - pul-tovar (P-T);
- 2-bosqich – ishlab chiqarish (I.Ch);
- 3-bosqich - tovar-pul (T-P).

Shuni qayd qilib o‘tish muhimki, korxonaning aylanma mablag‘lari bir vaqtning o‘zida uchala bosqichda ham pul mablag‘lari, ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ko‘rinishida mavjud bo‘lishi mumkin. Korxonaning aylanma mablag‘lari harakati ma‘lum bir iqtisodiy qonunlar asosida ishlashi hamda ulardan ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida oqilona foydalanishni ko‘zda tutishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qonunlardan va aylanma mablag‘lardan foydalanish qoidalaridan chetga chiqish aylanma mablag‘larning etishmasligiga yoki samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

3.Aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish

Sanoat ishlab chiqarishining uzluksiz va barqaror rivojlanishini ta‘minlash, yuqori sifatli va arzon xilma-xil mahsulotlarni ko‘plab ishlab chiqaradigan korxonalarining raqobatbardosh bo‘lishiga erishish, ularning moliyaviy ahvolini yaxshilash ko‘p jihatdan aylanma mablag‘larning xajmiga, sifatiga va ulardan oqilona foydalanishga bog‘liq. Shu sababli ham Respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1997 yil 9 iyulda “Aylanma mablag‘larning saqlanishi va o‘z vaqtida to‘ldirib turilishi uchun ma‘suliyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi maxsus farmonga qo‘l qo‘ydi.

Ushbu farmonda Respublikaning ayrim vazirliklari, idoralari va korxonalarida moliyaviy ahvol qoniqarsiz bo‘lib qolayotganligi, o‘z aylanma mablag‘larini saqlashga e‘tiborsiz bo‘lishi, shuningdek katta miqdordagi mablag‘lar debitorlik qarzlariga ishlatib yuborilayotgani, tayyor mahsulotning normativdan ortiqcha qoldiqlari tarzida o‘lik xolatga keltirilayotganligi qayd etildi.

Keyingi 15 yil ichida bu kamchiliklarga barham berildi. Natijada aylanma mablag‘larning aylanishi tezlashtirildi va ulardan samarali foydalanishga erishildi.

Kelgusida yalpi ichki mahsulotning yuqori sur‘atlar bilan o‘shishiga erishish, diversifikatsiya qilingan va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish va uning rivojini jadallashtirish aylanma mablag‘lardan yanada yaxshiroq foydalanishni taqozo etadi.

Bu borada sanoat ishlab chiqarishi oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish quyidagilarni malga oshirishni talab qiladi:

- fan-texnika taraqqiyoti va innovatsion faoliyat natijalarini keng qo‘llashni;
- ishlab chiqarishning barcha jarayonlarida ilmiy jihatdan asoslangan me‘yor va me‘riylar (normativlar) tizimini yaratishni;
- korxonalar o‘rtasidagi uzoq muddatli xo‘jalik aloqalarini yanada yuqori darajaga ko‘tarish va ishlab chiqarish kooperatsiyasidan keng foydalanishni;

- korxonalarining moddiy-tovar boyliklarida band bo'lgan yirik miqdordagi pul mablag'larini tegishli va adresli maqsadlarga sarflashni;
- ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etishni takomillashtirish optimal shakllarini keng qo'llash.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aylanma mablag'larning mohiyati, ahamiyati va mazmuni nimalardan iborat?
2. Aylanma mablag'larning tarkibi va tuzilmasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Aylanma mablag'lardan samarali foydalanish mexanizmi nimalarni o'z ichiga oladi?
4. Aylanma mablag'larning aylanish tezligini oshirishning ahamiyati nimalardan iborat?
5. Aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish yo'llarini izohlab bering.

18-mavzu.

MAHSULOTLARNING SIFATI VA ULARNING RAQOBATBARDOSHLIGI

Reja:

1. Sifat tushunchasi va sifatni oshirish zaruriyati
2. Mahsulotning sifat ko'rsatkichlari va ularni baholash usullari
3. Mahsulot sifatini boshqarish va uni oshirish yo'llari
4. Standartlashtirish, sertifikatlashtirish, Attestatsiya va nazorat qilish

1. Sifat tushunchasi va sifatni oshirish zaruriyati

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti ishlab chiqariladigan mahsulot sifatiga qat'iy talablar qo'yadi. Chunki hozirgi zamonda har qanday korxonaning omon qolishi, uning tovarlar va xizmatlar bozoridagi mustahkam mavqei raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Raqobatbardoshlik ikki ko'rsatkich – baho va mahsulot sifatining darajasi bilan bog'liqdir.

Ishlab chiqarishni erkinlashtirish davrida ikkinchi omil birinchi o'ringa ko'tarilmoqda. Chunki sifat korxonaning obro'si va yanada gullashi hamda sifatni boshqarish - bu, barcha xodimlar, rahbardan tortib aniq ish bajaruvchi uchun ishning alfa va omegasi, ya'ni avvali va ohiridir. Shu tufayli davlatning iqtisodiy, shu jumladan, sanoat siyosatida sifat masalasi muhim o'rin egallaydi. Mahsulot sifatini oshirish - bu, oqibat-natijada uning miqdori, resurslarni tejash, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni to'laroq qondirish masalasi hisoblanadi. Ya'ni, har qanday mahsulot eng yuqori texnikaviy-iqtisodiy va estetik hamda boshqa bir qator talablarga muvofiq kelishi, jahon bozorida raqobat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Agar sifat muammosi hal etilmasa, ijtimoiy ishlab chiqarish va aholining tovarlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirib bo'lmaydi.

Sifat nima?

Mahsulot (ish, xizmat) sifati – muayyan shu mahsulotning har tomondan foydalanishga mukammal ekanligini belgilovchi xususiyatlar yig'indisidir.

Mahsulot sifati - bu, shu mahsulotdan ma'lum maqsadda foydalanish uchun uning yaroqlilik darajasi, mahsulotning xalq xo'jaligi ehtiyojlarini, iste'molchilarning talab va didlarini qondirish qobiliyatidir.

Sanoat mahsuloti sifati tarmoqning, korxonalar (firma)ning faoliyatini rejalashtirishda va uni aniqlashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Unda mehnatni tashkil qilish, uning jihozlanish darajasi, mutaxassislarining malakasi, ishlab chiqarishni boshqarishning holati ifodalanadi. Mahsulot sifati iqtisodiy jihatdan iste'mol qiymatining o'lchovi va foydalanish darajasi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Mahsulot sifati iqtisodiy kategoriya bo'lib, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning munosabatlarini, sifatli mahsulot ishlab chiqarish, reja topshiriqlarini bajarish hamda mahsulotga baho belgilash bo'yicha korxonaning davlat bilan munosabatlarini ifoda etadi. Undan tashqari, mahsulot sifati korxonalar o'rtasidagi sifatli mahsulot uchun moddiy rag'batlantirish va sifatsiz mahsulot ishlab chiqarilgani uchun moddiy javobgarlikka tortish bo'yicha munosabatlarni ifodalaydi.

Mahsulot sifati texnika taraqqiyotining sur'atlarini, mehnat unumdorligini va shu orqali ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ta'riflovchi iqtisodiy kategoriyadir. Mahsulot sifatini muntazam ravishda yaxshilash iqtisodiyotni rivojlantirishning zarur sharti, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xalq farovonligini o'stirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Mahsulotning miqdori va sifati o'zaro dialektik bog'liqdir. Yuqori sifatli mahsulot sifatsiz tayyorlangan mahsulotga nisbatan jamiyat ehtiyojlarini yuqoriroq darajada qondirishga qodir. Demak, mahsulot sifatini yaxshilash ishlab chiqarish hajmini qo'shimcha xarajatlarsiz oshirish, demakdir. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati va miqdorining o'zaro bog'liqligi mahsulot sifatini oshirish, jamiyat ehtiyojlarini to'la qondirishga imkon beradi, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchi kuchlari o'sishining muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Sifatli mahsulot doimo o'z xaridorlariga ega. Hozirgi davrda mazkur talab qondirilgandagina mahsulotni dunyo bozoriga chiqarish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatga eksportdan keladigan valyuta tushumini ko'paytirish orqali yangi texnika va texnologiyalar sotib olish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, samaradorligini oshirish imkonini beradi. Yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga va uni sotishga erishgan korxonalar o'z ishlab chiqarish salohiyatini yanada yuksaltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday sub'ektlarning ko'payishi esa mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotining taraqqiy etishi esa, uning aholisini daromadlari va demak, turmush darajasining ham yuksalishiga olib keladi. Natijada sifatli mahsulot va yuqori darajada ko'rsatilgan xizmatlarga talab ko'payadi. Ya'ni, sifatli mahsulot (taklif) o'zining sifatli iste'molchisi (talab)ni yaratadi. Pirovardida jamiyatda yanada yuqoriroq darajada iqtisodiy o'sish ta'minlanadi.

2. Mahsulotning sifat ko'rsatkichlari va ularni baholash usullari

Sanoat ishlab chiqarishi o'z mahsulotlarining g'oyat turli-tumanligi bilan tavsiflanadi. Bu mahsulotlar tabiiy xususiyatlariga ko'ra, har xil me'yor va xilma-xil sifat ko'rsatkichlariga ega. Lekin, ma'lum sanoat mahsulotlarining muayyan guruhi uchun umumiy ko'rsatkichlar ishlatilishi, boshqa guruhi uchun esa o'ziga xos ko'rsatkichlar qo'llanilishi mumkin.

Mahsulot sifatiga va uning texnikaviy xususiyatlariga baho berish uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi:

Iste'mol qilish xususiyatlari bo'yicha talabni qondirish ko'rsatkichlari. Bunday ko'rsatkichlar mahsulotdan tayinli, belgilangan ravishda foydalanish natijasida kerakli (zaruriy) samarani tavsiflaydi. Ishlab chiqarish – texnik vazifani bajaruvchi mahsulot uchun mehnat unumdorligi ko'rsatkichi xizmat qilishi mumkin. U baholanayotgan mahsulot yordami bilan qanday hajmdagi mahsulotni tayyorlash yoki ma'lum davr ichida qanday hajmdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishi mumkinligini ifodalaydi.

Mustahkamlik ko'rsatkichlari – buyumlarning buzilmasligi, yaxshi saqlanishi, ta'mirlashga qulayligi, shuningdek, chidamliligidir. Mashina va o'lchov asboblarning sifati ularning mustahkamligiga va o'z oqishlash qobiliyatiga qarab aniqlanadi. Har bir buyumning mustahkamligi mo'ljallangan muddatda, o'z xizmat parametrlarini o'zgartirmay, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni boshqarish, vositaning, ya'ni qurolning ishlash muddati - mo'ljallangan vaqtda ishlash qobiliyatini o'zgartirmaslik xususiyatidir.

Texnologik ko'rsatkichlar mahsulotni tayyorlash va ta'mirlash jarayonida yuqori mehnat unumdorligini ta'minlash uchun konstruktor - texnologik yechimlar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardir. Aynan texnika va texnologiya yordamida mahsulot ishlab chiqarishning ommaviyligi, material xarajatlarini, mablag'lar, mehnat va vaqtni oqilona taqsimlash ta'minlanadi.

Standartlashtirish va unifikatsiyalash ko'rsatkichlari – mahsulotning standartli, unifikatsiyalashgan va original, ya'ni ajoyib, ajralmas qismlar bilan qondirilganligi, to'ydirilganligi, shuningdek, boshqa buyumlarga nisbatan unifikatsiyalashganlik darajasi. Ular traktorni boshqarish uchun kerak bo'lgan kuchlar, muzlatgichda dastakning joylashishi, harorat, namlik, yorug'lik, shovqin, vibratsiya, nurlanish, yonuvchi mahsulotlarda uchar gazi va suv bug'ining yig'ilishi bo'lishi mumkin.

Ergonomik ko'rsatkichlar insonning buyum bilan munosabatini va bu buyumdan foydalanishda ro'y beradigan gigiyenik, fiziologik va ruhiy xususiyatlar majmuini aks ettiradi.

Estetik ko'rsatkichlar buyumlarning badiiy – konstruktorlik xususiyatlarini ifodalaydi. Ular buyumning tovar qiyofasi jonliligini, shaklining ma'qulligini, kompozitsiyaning butunliligini, mukammal bajarilganligini va barqarorligini tavsiflaydilar.

Transportabellik ko'rsatkichlari mahsulotning tashish uchun moslashganligini ifodalaydi.

Patent – huquqiy ko‘rsatkichlar mahsulotning patentli himoyasini va patentli sarxilligini (asilligini) tavsiflaydi va raqobatbardoshligini aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Patent – huquqiy ko‘rsatkichlarni aniqlashda buyumlarda yangi texnik omillar borligini, shuningdek, mamlakatda patentlar bilan himoyalangan yechimlarni hisobga olish kerak bo‘ladi.

Ekologik ko‘rsatkichlar atrof – muhitga xavfli ta‘sir ko‘rsatish darajasi. U mahsulotni ekspluatatsiya qilish yoki iste‘mol qilishda yuzaga keladi. Masalan, zararli qotishmalarning bo‘lishi, mahsulotni saqlash, tashish va iste‘mol qilishda zararli qismlar, gazlar va nurlarni chiqarish mumkinligi.

Xavfsizlik ko‘rsatkichlari – xaridor va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning xavfsizligi uchun mahsulot xususiyatlarini tavsiflaydi, ya‘ni mahsulotni montaj qilish, xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash, saqlash, tashish, iste‘mol qilishda xavfsizlikni ta‘minlaydilar.

Yuqorida qayd qilib o‘tilgan ko‘rsatkichlarning yig‘indisi mahsulot sifatini tashkil etadi. Buyum mustahkam (pishiq), estetik jihatdan ko‘zni qamashtiradigan, o‘z vazifasini yaxshi bajaradigan bo‘lishi lozim. Lekin, yuqorida qayd etilgan ko‘rsatkichlardan tashqari buyumning bahosi ham muhim. Chunki iqtisodiy optimal sifat masalasi baho bilan chambarchas bog‘liqdir. Xaridor buyum sotib olganda buyum bahosi u ega bo‘lgan xossalar to‘plamini qoplashini bilish uchun ularni doimo taqqoslaydi.

Iqtisodiy muqobil sifat deganda, sifat va xarajat nisbati yoki sifat birligining bahosi tushuniladi va u quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$IMS = Bs / X_e$$

Bu yerda: IMS – iqtisodiy muqobil sifat;

B_s – buyum sifati;

X_e – buyumni sotib olish va ekspluatatsiya qilish xarajatlari, so‘m.

Formulaning maxrajini aniqlash murakkab emas, chunki u buyumning sotish bahosini, ekspluatatsiya, ta‘mirlash va utilizatsiya qilish xarajatlarini o‘z ichiga oladi. Formula suratini aniqlash esa, qiyinroq kechadi, chunki buyumning sifati juda ko‘p va turli – tuman ko‘rsatkichlardan iborat. Bu bilan alohida fan «Kvalometriya» shug‘ullanadi. U sifatni son jihatdan, ya‘ni bir so‘mlik xarajatta buyum sifati birligi o‘rishini baholashning yetarli darajada ma‘qul usulini ishlab chiqqan.

Demak, hozirgi zamon ishlab chiqarishi sharoitida mahsulot sifati – korxonalar samaradorligining, rentabelligining muhim tarkibiy qismidir. Shu sababli unga doimo e‘tibor bermoq zarur. Sifat bilan barcha korxonalar direktoridan tortib, aniq ish bajaruvchigacha shug‘ullanishi kerak.

Sifatni ta‘minlash, loyihalash, saqlash bo‘yicha barcha jarayonlar sifatni boshqarish tizimiga birlashtirilgan.

3. Mahsulot sifatini boshqarish va uni oshirish yo‘llari

Har qanday ishlab chiqarishni rivojlantirish va yuksak darajaga ko‘tarish uchun uni boshqarish kerak. «Boshqarish» iborasini mahsulot sifatiga qo‘llaganda, mahsulot sifati va uning raqobatbardoshligini doimiy nazorat qilish, uning belgilovchi shartlari va omillarini maqsadga muvofiq ta’sir qildirish yo‘llari bilan mahsulot sifatini loyihalashtirish, ishlab chiqarish va foydalanishda uning zaurur darajada o‘rnatilishini, ta’minlanishini va saqlanishini tushunmoq kerak.

Mahsulotning sifatini boshqarish operatsiyalari muhandis-texnik, tashkiliy-texnologik, nazorat va boshqa jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi majmuasini tashkil etuvchi tartib doirasida olib boriladi.

Mahsulot sifatini boshqarish jarayoni quyidagi operatsiyalardan iborat:

- mahsulot sifati darajasini belgilash;
- mahsulot sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi buyum va uni ishlab chiqarish jarayonining faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni yig‘ish va o‘rganish;
- mahsulot sifatini boshqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish va ob‘ektga ta’sir ko‘rsatishga tayyorlanish;
- boshqaruvga tegishli buyruqlarni berish;
- boshqarish natijasida mahsulot sifatining o‘zgarishi haqidagi axborotlarni yig‘ish va tahlil qilish.

Mahsulot sifatini boshqarishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- mahsulotning texnikaviy darajasi va sifatini uzoq muddatlarga chamalash;
- mahsulot sifatini oshirishni rejalashtirish va bashorat qilish;
- mahsulot sifatini attestatsiya qilish;
- mahsulot loyihasini chizish va ishlab chiqarishga joriy etish;
- mahsulot sifatini moddiy-texnik tomondan ta’minlash;
- ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash;
- mahsulot sifatini o‘lchashni tashkil etish;
- mutaxassislarni tanlash, joylashtirish, o‘qitish va tarbiyalash;
- sifatli mahsulot ishlab chiqarish darajasini bir tekisda olib borish;
- ishlab chiqarish vositalarini saqlash, ta’minlashni tashkil etish;
- mahsulot sifatini oshirishni rag‘batlantirish;
- mahsulot sifatini nazorat qilish;
- standartlarga, o‘lchash vositalariga va texnik shartlarga rioya qilish;
- mahsulot sifatini boshqarish huquqini ta’minlash.

Mahsulot sifatini boshqarish uning xossalari, texnologik jarayonlarning ixtisoslashtirish xususiyatlari, ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari va usullarini hisobga olgan holda bajariladi.

Mahsulot sifatini yaxshilashga oid vazifalar va tadbirlar tuzilayotganda ularni amalga oshirish imkoniyatlari va maqsadga muvofiqligi texnikaviy-iqtisodiy jihatdan asoslanadi.

Buning uchun quyidagilar asos qilib olinadi:

- ishlab chiqarilgan mahsulot sifatiga bo‘lgan talablar va kelgusida uni takomillashtirish imkoniyatlari;
- mahsulotning sifat darajasini baholash;

- ishlab chiqarilgan mahsulotda uchragan nuqsonlarni yuzaga chiqarish va tahlil etish;

- laboratoriyadan o'tkazilgan sinov natijalari, iste'molchilar tomonidan yuborilgan norozilik xujjatlari, texnikaviy nazorat va ma'lumotlar;

- ilg'or korxonalarining mahsulotlari bilan taqqoslash.

Mahsulot sifatini yaxshilashga oid tadbirlar majmuasiga quyidagilar kiradi:

- mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan asosiy tajriba va loyihalashtirish ishlari hamda tashkiliy-texnikaviy tadbirlar;

- ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasini takomillashtirishga oid tadbirlar;

- xomashyo va materiallar sifatini oshirish bo'yicha ta'minlovchilarga qo'yiladigan talablar;

- mahsulot sifatini oshirish bo'yicha o'tkaziladigan ilmiy-tadqiqot, tajriba va loyihalashtirish yuzasidan ilmiy-tekshirish, loyihalashtirish tashkilotlariga beriladigan topshiriqlar;

- texnikaviy xujjatlarni yaxshilash tadbirlari:

- texnologik intizomga rioya qilishni tekshirish sharoiti, ishlab chiqarishni o'lchov asboblari bilan ta'minlash, ularning aniq ishlashini kuzatib turish tadbirlari;

- standartlarni o'zlashtirish, ularga rioya qilish, buyumlarni unifikatsiyalashtirish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, nuqsonlarning oldini olish va iste'molchilar tomonidan bo'ladigan noroziliklarni kamaytirish bo'yicha tadbirlar.

Bu kabi tadbirlar o'z vaqtida bajarilishini to'la-to'kis ta'minlash uchun ularning bajarilish muddatlari, mas'ul kishilar, muayyan xarajatlar va ularning iqtisodiy samaradorligi, raqobatbardoshligi hamda boshqa ko'rsatkichlar aniqlanadi.

Ma'lumki, raqobat va raqobatbardoshlik o'rtasida dialektik aloqadorlik mavjud bo'lib, biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Raqobat korxonalarini raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga va xizmatlar ko'rsatishga undaydi.

Raqobatbardoshlik nisbiy o'lchov bo'lib, xususiyati shundan iboratki, uni raqobat predmeti (mahsulot raqobatbardoshligi)ga nisbatan ham qo'llash mumkin.

Mahsulotning raqobatbardoshligi deganda, iste'molchining aniq ehtiyojlarini qondirish va uni xarid qilish hamda keyinchalik undan foydalanish uchun sarflanadigan xarajatlar darajalari bo'yicha uni, ya'ni mahsulot boshqa shunday tovarlardan ajralib turadigan tavsiflar yig'indisi tushuniladi.

Mahsulotning raqobatbardoshligi – biror bir firma tomonidan ishlab chiqarilgan, raqobatchi firmalarning xuddi shunday tovarlariga qaraganda yaxshiroq iste'mol xususiyatlari va texnik-iqtisodiy parametrlariga ega bo'lgan tovarlarning iste'molchilar tomonidan ajratib olinish «qobiliyati»dir.

Raqobatbardoshlik aynan bozorda kuzatiladi va tovarlarning iste'molchi ehtiyojlariga muvofiq kelishi solishtirib va tekshirib ko'riladi. Ana shunda tovarning raqobatbardoshligi real xaridni amalga oshirayotgan xaridor uchun jozibadorlik darajasini ko'rsatadi.

4. Standartlashtirish, sertifikatlashtirish, attestatsiya va nazorat qilish.

Mahsulot sifati muammosiga tegishli masalalardan biri standartlashtirishdir.

Standartlashtirish – standartlarni belgilash va qo‘llash jarayoni. U normal ijodiy faoliyat bo‘lib, sifatning optimal ko‘rsatkichlarini, mahsulotning parametric qatorlarini, nazorat qilish, sinash usullari va xokazolarni ishlab chiqishni va qat’iy belgilashni o‘z ichiga oladi.

Standartlashtirish mahsulot sifatini boshqarishning tashkiliy va normative asosi hisoblanadi. U barcha normalarni standart, yo‘riqnoma, mahsulotni asoslash uchun kerakli shartlar usuli kabi xujjatlarda aks ettiradi.

Standartlashtirishdan maqsad – mahsulot va xizmatlarning xavfsizligini, raqobatbardoshligini ta‘minlash, iste‘molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilishdir.

Standartlashtirishning eng muhim ahamiyati shundaki, u ishlab chiqarishning rivojlanish sur‘ati va darajasiga zaruriy ta‘sir ko‘rsatadi. Buning uchun esa standartlash fan va texnika hamda amaliy tajribalarning oxirgi yutuqlariga tayanadi.

O‘zbekistonda standartlashtirish milliy iqtisodiyotni boshqarish va tashkil etish bilan chambarchas bog‘liq. Standartlashtirishdan maqsad – mahsulot va xizmatlarning xavfsizligini, raqobatbardoshligini ta‘minlash, iste‘molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilishdir. Standartlashning asosiy, eng muhim vazifasi xalq xo‘jaligi, aholi, mamlakat mudofaasi uchun tayyorlanadigan mahsulotlarga yuqori talablar belgilovchi normativ-texnik hujjatlar tizimini yaratish hamda ushbu xujjatdan to‘g‘ri foydalanishni nazorat qilishdan iborat.

Harakatdagi, mavjud standartlashtirish tizimi quyidagilarni ishlab chiqishga va doimiy faol holatda bo‘lishiga imkoniyat yaratadi:

- yagona texnik til;
- mahsulotning muhim texnik tavsifining unifikatsiyalashgan qatorlari, ya‘ni o‘lcham ayirmasi (qo‘yish va tushish, kuchlanish, tez-tez qaytalanish va boshqalar);
- umum mashinasozlikda ishlatiladigan buyumlarning tiporazmer qatorlari va namunali konstruksiyalari (podshipniklar, krepej, kesuvchi asboblar va boshqalar);
- texnik-iqtisodiy axborotlar klassifi qatorlari tizimi;
- materiallar va moddalar xossalari to‘g‘risida aniq ma‘lumotlar beradigan dalillarni.

O‘zbekiston standartlash tizimi xalqaro, regional va milliy tizimlar bilan uyg‘unlashishi va quyidagilarni ta‘minlashi lozim:

- sifat va mahsulot nomenklaturasi, xizmat va jarayonlar, insonlarning hayoti va sog‘lig‘i, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha iste‘molchilar va davlat manfaatlarini;
- mahsulot mos kelishining o‘zaro almashuvi, ya‘ni bir-birini almashtira olishini;
- mehnat va moddiy resurslarni tejashga ko‘maklashish hamda ishlab chiqarishning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashni;

- ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar va yirik loyihalarning normativ-texnik bazasini yaratishni;

- ishlab chiqarishda va savdoda texnik to'rsiqlarni bartaraf etishni, dunyo bozorida mahsulot raqobatbardoshligini, xalqaro mehnat taqsimotida samarali qatnashishini va h.k.larni ta'minlashi kerak.

Standartlashtirish bir qator tamoyillarga asoslanadi:

- tarmoqlanish – umumiy xususiyatga ega bo'lgan narsalar, jarayonlar, munosabatlar tatbiq etish mumkin bo'lgan ob'ektlar doirasini aniqlaydi;

- variantlilik – oqilona xilma-xillik, rang-baranglikni yaratish – standartlashgan ob'ektga kiruvchi standart elementlarning oqilona turlari minimumini ta'minlaydi;

- tizimlilik – standartga tizim elementi sifatida qaraydi;

- o'zaro almashuvchanlik – texnikaga muvofiq turli vaqt-makonning turli nuqtalarida tayyorlangan bir xil detallarni yig'ish yoki almashtirishni nazarda tutadi.

Standart deganda nima tushuniladi?

Standart inglizcha «standard» so'zidan olingan bo'lib, norma, namuna, o'lcham ma'nosini bildiradi. U boshqa ob'ektlarni taqqoslash uchun dastlabki ob'ekt deb qabul qilingan namuna, etalon, model, standartlanadigan ob'ektga quyiladigan va vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlangan normalar, qoidalar, talablarni belgilovchi normativ-texnik xujjat. Standart inson faoliyatining barcha sohasiga, ilm-fanga, texnikaga, sanoat, qishloq xo'jaligiga, qurilishga, transport va aloqaga, ta'lim va boshqa sohalarga taalluqlidir.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining Davlat standartlash tizimi (DST) shakllandi va u O'zbekistonda standartlar tuzish, izohlash va tarqatish jarayonlarini tartibga keltirdi. Bu borada O'zbekiston Standartlashtirish, meteorologiya va sertifikatlantirish agentligi («O'zstandart») olib borayotgan keng ko'lamli ishlarni alohida e'tirof etish joiz.

«O'zstandart» agentligi bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotning sifat darajasini belgilovchi, ko'rsatkichlar raqobatdoshligini ta'minlovchi, ishlab chiqaruvchilarga yetarli miqdorda axborotlar yetkazib beruvchi markazdir.

«O'zstandart» agentligi tomonidan ishlab chiqilgan «Sifat menejmenti va mahsulotlarni sinash» tizimi mahsulot sifat ko'rsatkichini baholash bilan birga me'yoriy xujjatlar asosida to'g'ri ma'lumotga ega bo'lish talablarini o'rnatadi.

Hozirgi kunda Davlat standartlash tizimi (DST) beshta asosiy standartni o'z ichiga oladi:

1. O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish tizimi. Asosiy qoidalar;
2. Tarmoq standartlari;
3. Texnik shartlarni kelishish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi;
4. Korxonaning standartlari. Umumiy qoidalar;
5. Xalqaro (davlatlar aro, mintaqaviy) standartlar.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan Xalqaro standartlashtirishning roli, ahamiyati beqiyos darajada kuchaydi. Chunki, xalqaro standartlashtirish ilmiy-texnika va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga katta imkoniyat yaratadi.

Ular xalqaro aloqalarni kengaytirishga, mavjudlarini takomillashtirishga yordam beradi. Hozirgi kunda jahonda 400 dan ortiq Xalqaro va regional (hududiy) tashkilotlar mavjud (2000 yil). Standartlashtirish sohasida yirik xalqaro tashkilotlar – BMTga qarashli Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YeYeKoon), standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilot (ISO) ishlab turibdi.

Mahsulot sifati nazariyasi va amaliyotida mahsulotni sertifikatlashtirish masalasi muhim o'rin tutadi.

Mahsulotni sertifikatlashtirish uning aniq belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash usullaridan biri hisoblanadi.

Mahsulot yoki bajarilgan ishning belgilangan talablarga muvofiqligiga oid faoliyat uchun tegishli hujjat beriladi. Uni «sertifikat» deb ataydilar.

Sertifikat lotincha «certifikatis» so'zidan olingan bo'lib, tasdiqlangan degan ma'noni bildiradi. Birinchidan, u biror faktni tasdiqlovchi hujjat (masalan, malaka oshirilganligi to'g'risidagi hujjat); ikkinchidan, maxsus obligatsiyalar va aksiyalarning nomi; uchinchidan, sug'urta shartnomasida uning shartlari yoziladigan hujjat; to'rtinchidan, maxsus idoralar (savdo palatasi, Davlat inspeksiyasi va boshqalar) beradigan va mahsulot, tovar, buyum, mol sifatini tasdiqlaydigan hujjat; beshinchidan, qishloq xo'jaligida urug'lik navini va sifatini tasdiqlaydigan hujjat. Sertifikati bo'lmagan taqdirda urug'lik (oddiy) navsiz don sifatida qabul qilinadi.

Muvofiqligini tasdiqlash jarayonida bajariladigan operatsiyalar, ya'ni har bir ayrim ish faoliyatlarini quyidagi chizmada ko'rish mumkin:

Respublikada sertifikatlashishlarini yaxshilash maqsadida 1993 yilning 28 dekabrda Oliy Majlis tomonidan «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida» gi qonun qabul qilingan. Mazkur qonun sertifikatlashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini, shuningdek, majburiyatlar va javobgarliklarni belgilab beradi. Ushbu qonun 4 ta bob va 23 moddadan iborat bo'lib, ularda umumiy qoidalar, sertifikatlashtirish faoliyatiga doir umumiy talablar, mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish, nizolarni qarab chiqish, sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlik masalalari bayon etilgan.

Standartlashtirish va sertifikatlashtirish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston Davlat standartlash, metrologiya va sertifikatsiya agentligi «O'zstandart», Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash va Mudofaa vazirliklari zimmasiga yuklatilgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Sifat kategoriyasining mohiyati va ahamiyati qanday?
2. Mahsulot sifati ko'rsatkichlari nimalardan iborat?
3. Standartlashtirish va standartlarning ahamiyatini nimalarda ko'rish mumkin?
4. Sertifikatsiyalash va sertifikatlarga ta'rif bering?

1. Qiymat va tannarx nazariyasi, ishlab chiqarish sarflarini kamaytirishning ilmiy asoslari
2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlarni guruhlash
3. Foyda va rentabellik
4. Mahsulot tannarxini pasaytirishning manbalari va omillari

1. Qiymat va tannarx nazariyasi, ishlab chiqarish sarflarini kamaytirishning ilmiy asoslari

Iqtisodiyot nazariyasida qiymat va tannarx masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, qiymat tushunchasi borasida bir qator munozarali fikrlar mavjud. Ayrim iqtisodchi olimlar tovarning qiymatini uning natijaliligi bilan bog'lasalar, ayrimlari tovar qiymati –tovar ishlab chiqaruvchilarning tovarda gavdalangan va unda moddiylashgan ijtimoiy mehnati, deb hisoblaydilar. Boshqalari esa, tovarning qiymatini ushbu tovarga bo'lgan talab va taklif, ya'ni tovarning noyobligi belgilaydi, deyiladi.

Umuman olganda, tovarning qiymati uning boshqa tovarga ayirboshlana olish darajasini aniqlash uchun zarurdir. Narx (baho) va qiymat tushunchalari orasida deyarli farq yo'q. Faqatgina narx (baho) - bu, tovar qiymatining puldagi ifodasidir halos.

Iqtisodiyotda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi kategoriyasidan ham keng foydalaniladi. Qiymat va ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut ishlab chiqarish sub'ektining daromadi yoki foydasi hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi – mahsulotni ishlab chiqarish, ya'ni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning puldagi ifodasidir.

Sanoat oldida turgan asosiy vazifalardan biri - mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishdir. Bu vazifaning bajarilishi natijasida ishlab chiqarishni rivojlantirishga va aholining turmush darajasini oshirishga imkoniyat yaratiladi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha resurslardan bekamu-ko'st foydalanish bu ko'rsatkichlarning rolini oshirishni taqozo etadi. Shu sababli «tannarx» atamasining mohiyati, ahamiyati, mazmuni va shakllarini yaxshi bilish hamda uni pasaytirish masalasiga katta e'tibor berish kerak.

Biron –bir mahsulot ishlab chiqarish uchun ma'lum miqdorda xomashyo va materiallar, mehnat va ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan boshqa yuklama xarajatlar sarflanadi. Mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot ishlab chiqarish tannarxi deb ataladi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatkichi ishlab chiqarishni rivojlantirishda va uni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish ishlab chiqarish rentabelligini oshirish, ya'ni foydani ko'paytirishning, mavjud resurslar bilan ishlab chiqarish

hajmini o‘stirishning muhim omili hisoblanadi. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ko‘rsatkichi ishlab chiqarish sifat ko‘rsatkichlari orasida alohida o‘rin tutadi.

Ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etish, texnika va materiallardan foydalanish, moddiy-texnika ta‘minotini takomillashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash borasidagi hamma o‘zgarishlar xarajatlar darajasida aks etadi. Shu sababli ham biz mahsulot tannarxi ishlab chiqarish samaradorligining sifat ko‘rsatkichlari tizimida muhim o‘rin egallaydi, deya olamiz. Binobarin, shuning uchun ham mahsulot ishlab chiqarish tannarxini xosil qiluvchi xarajatlarni ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra guruhlash muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlarni guruhlash

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini aniqlash va uni hosil qiluvchi xarajatlarni turkumlash mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54 – sonli qarori bilan tasdiqlangan. «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom»ga muvofiq amalga oshiriladi.

Mahsulot (ishlar, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, quyidagi elementlar bilan guruhlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarilib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

I. Ishlab chiqarish bilan bog‘liq moddiy xarajatlar.

Ularga quyidagilar tegishli bo‘ladi:

1.1. Ishlab chiqariladigan mahsulot asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlar ko‘rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan chetdan sotib olinadigan xomashyo va materiallar.

1.2. Normal texnologiya jarayonini ta‘minlash va mahsulotlarni o‘rash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o‘tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish), ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan, xarid qilinadigan materiallar, shuningdek, asbob-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlar, instrumentlar, moslamalar, inventar, priborlar laboratoriya asbob-uskunalari va asosiy fondlarga kirmaydigan boshqa arzon baho ashyolarning eskirishi.

1.3. Sotib olinadigan, kelgusida ushbu xo‘jalik yurituvchi sub’ektda montaj qilinadigan yoki qo‘shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar.

1.4. Tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi sub’ektning ichki tarkibiy bo‘linmalari tomonidan bajariladigan, faoliyatning asosiy turiga tegishli bo‘lmagan, lekin ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan ishlar va xizmatlar.

Ishlab chiqarish xarakteriga ega bo‘lgan ishlar va xizmatlarga mahsulot tayyorlash bo‘yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, xom ashyo va materiallarga ishlov berish, iste‘mol qilinayotgan ashyo va materiallar sifatini aniqlash uchun sinovlar o‘tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini tuzatish va boshqalar tegishli bo‘ladi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ichida tashqi yuridik shaxslarning transport xizmatlari (xom ashyo, materiallar, detallar, instrumentlar, inventarlar, yuklarning boshqa turlarini bazis (markaziy) ombordan tsexga keltirish va tayyor mahsulotni saqlash uchun omborga keltirish) ham ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan xizmatlarga tegishli bo‘ladi.

1.5. Tabiiy xom ashyo (yer rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan yerni rekultivatsiya qilish ishlariga haq to‘lash), ildizi bilan beriladigan daraxtga haq to‘lash, sanoat korxonalarini tomonidan suv xo‘jaligi tizimidan belgilangan limitlar doirasida va undan ortiqcha olinadigan suv uchun haq to‘lash. Sanoatning xom ashyo tarmoqlari uchun-yog‘och-taxta materiallardan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanishga huquqlarning amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof-muxitni tiklash xarajatlari.

1.6. Texnologik maqsadlarga, energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg‘ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha transport ishlari.

1.7. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish hamda xo‘jalik ehtiyejlariga sarflanadigan barcha turdagi xarid qilinadigan energiya. (Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning o‘zi tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyasi va energiyaning boshqa turlariga, shuningdek, xarid qilinadigan energiyani iste‘mol joyigacha transformatsiya qilish va o‘zgarish xarajatlari xarajatlarning tegishli elementlariga kiritiladi).

1.8. Ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo‘qolish normalari doirasida va ulardan ortiqcha yo‘qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi.

1.9. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni yetkazish bilan bog‘liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlagacha kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to‘lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar).

1.10. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan moddiy resurslarni yetkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi.

1.11. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati, idish va o‘rash joylash materiallari qiymati

ularning amalda sotilishi, foydalanishi, ishlatilishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo'yicha chiqarib tashlanadi.

1.12. «Moddiy xarajatlar» elementi bo'yicha aksettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, jumladan, barter bitishuvlarida, qo'shimcha narx (ustama)dan, ta'minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, xususan, brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yig'implardan, transportda tashishga haq to'lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va yetkazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakllanadi.

II. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari tarkibiga quyidagi moddalar kiritiladi:

2.1. Xo'jalik yurituvchi sub'ektda qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajariladigan narx navolar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan, amalda bajariladigan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ish haqi, shu jumladan, bajarilgan ishni hisobga olish bo'yicha dastlabki xujjatlarda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlar.

2.2. Kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar.

2.3. Ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensatsiya tusidagi to'lovlar, shu jumladan:

- texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo'shimcha haq;

- ko'p smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

- hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'ixati bo'yicha og'ir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, xususan, ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ustamalar;

- aloqa, temir yo'l, dars, avtomobil transporti va katta yo'llar xodimlari doimiy ishi yo'lda o'tadigan yoki qatnov tusiga ega bo'lgan boshqa xodimlarning ish haqiga, xo'jalik yurituvchi sub'ekt joylashgan joydan jo'nagan paytadan boshlab shu joyga qaytib kelgan paytigacha to'lanadigan yo'lda o'tgan har bir sutka uchun to'lanadigan ustamalar;

- qurilishda, rekonstruksiya qilishda va mukammal ta'mirlashda bevosita band bo'lgan, shuningdek, qonun xujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaxta usuli bilan ishlarni bajargan xodimlarga ishning ko'chma va qatnov xususiyati uchun ustama;

- doimiy ravishda yer osti ishlarida band bo'lgan xodimlarga ularning shaxtada (konda) ish joyiga jo'nab ketishlaridan va orqaga qaytishlarigacha o'tadigan normativ vaqt uchun qo'shimcha haq;

- mehnatga haq to'lashning rayonlar bo'yicha tartibga solinishiga, shu jumladan, rayon koeffitsiyentlari va amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq cho'l,

suvsiz va yuqori tog' joylarida ishlaganlik uchun koeffitsiyentlar bilan belgilangan to'lovlar;

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt joylashgan joydan (yig'ilish punktidan) ish joyiga va orqaga qaytadigan yo'lda o'tadigan kunlar uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan, shuningdek, xodimlarning meteorologiya sharoitlariga ko'ra va transport tashkilotlari aybi bilan yo'lda tutilib qolingan kunlar uchun tarifstavkasi.

2.4. Ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom etishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish(ortiqcha ishlagan ish vaqti uchun dam olish) kunlari uchun haq to'lash.

2.5. Ishlamagan vaqt uchun haq to'lash:

- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yilgi) va qo'shimcha ta'tillar, navbatdagi (har yilgi) foydalanilmagan va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalar, o'smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek, tibbiy ko'rikdan o'tash bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash;

- majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga asosiy ish haqini qisman saqlab qolgan holda haq to'lash;

- donor xodimlarga qonini tekshirish, topshirish kunlari uchun va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;

- davlat vazifalarini bajarganlik uchun (harbiy yig'inlar, favqulodda vaziyatlar bo'yicha yig'inlar va boshqalar) mehnat haqi to'lash.

2.6. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik huquqi ishdagi tuzilgan shartnomalar bo'yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to'lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan amalga oshirilsa, pudrat shartnomasi ham shu jumlagi kiradi.

2.7. Belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash fondiga kiritiladigan to'lovlarning boshqa turlari.

III. Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar. Ularga quyidagilar kiradi:

3.1. Qonun hujjatlari bilan belgilangan normalar bo'yicha mehnatga haq to'lash fondiga ijtimoiy tUSDagi majburiy ajratmalar.

3.2. Nodavlat pensiya jamg'armalariga, ixtiyoriy tibbiy sug'urtaga va ixtiyoriy sug'urtaning boshqa turlariga ajratmalar.

IV. Asosiy fondlar ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi. Ularga quyidagilar kiradi:

4.1. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summasi (hisoblangan eskirish), lizing bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar, qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ham shu jumlagi kiradi.

4.2. Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar eskirishi har oyda xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan foydali foydalanish muddatidan (biroq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati muddatidan ortiq emas) kelib chiqib hisoblanadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga tegishli bo'ladi. Foydali foydalangan muddatini aniqlash imkoni bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirish normasi besh yil hisobiga belgolanadi, biroq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati muddatidan ortiq emas.

V. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar. Ularni hisobga olishning navbatdagi kompleks moddalari *I, II, III, IV* –bandlarda keltirilgan xarajatlar elementlari bo'yicha ajratiladi.

5.1. Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari:

- ishlab chiqarishni xom ashyo, materiallar, yonilg'i, energiya, instrument, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta'minlash xarajatlari;

- asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, joriy va mukammal tuzatish xarajatlari). Asosiy ishlab chiqarish vositalarini barcha turda (joriy, o'rtacha, mukammal) tuzatishlarni xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z kuchi bilan o'tkazish xarajatlari ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlari (moddiy xarajatlar, mehnat haqi to'lash xarajatlari va boshqalar) bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmat)lar tannarxiga kiritiladi.

Zarurat bo'lganda ayrim tarmoqlarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ruhsati bilan mukammal tuzatish ishlarini o'tkazish uchun mablag'lar zahirasini tashkil qilishlari mumkin. Ushbu zahiraga ajratmalar «Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar» elementi tarkibida aksettiriladi va ko'zda tutilayotgan xarajatlar qiymati hamda asosiy vositalar har bir ob'ektini mukammal tuzatishlarning davriyligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Zahiraga ajratmalar normasi har bir hisobot yili ohirida qayta ko'rib chiqiladi va zarur bo'lganda yangi moliya yili uchun ajratmalar miqdori ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Agar mukammal tuzatishga zahira mablag'lari summasi ushbu ob'ektni tuzatishga qilingan haqiqiy xarajatlar summasidan oshib ketsa, oshib ketgan summa bo'yicha tuzatish kiritilishi kerak: agar haqiqiy xarajatlar zahiradagidan oshib ketsa, u holda oshib ketgan summa «Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar» elementi tarkibida aks ettiriladi.

- yong'indan saqlash va qo'riqlashni hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni texnikaviy foydalanish qoidalari, nazarda tutilgan boshqa maxsus talablar bilan ta'minlash ular faoliyatini nazorat qilish xarajatlari.

Idoradan tashqari, qo'riqlash xarajatlari bunday qo'riqlash mavjud bo'lishini talab qiluvchi mazkur ishlab chiqarishga maxsus talablar mavjud bo'lgan taqdirda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritilishi mumkin.

- ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli bo'lgan asosiy vositalarni joriy ijaraga olish bilan bog'liq xarajatlar;

- tabiatni muhofaza qilish maqsadlaridagi fondlarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq joriy xarajatlar, jumladan, ifloslantaruvchi moddalarni atrof-muxitga yo'l qo'yiladigan normalar doirasida va undan ortiqcha chiqarganlik uchun to'lovlar;

- ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan mehnatning normal sharoitlari va texnika xavfsizligini ta'minlash xarajatlari;

- xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashishi bilan bog'liq bo'lgan sog'liqni muhofaza qilish tadbirlari;

- tekin ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar, oziq-ovqat, ayrim tarmoqlar xodimlariga oziq-ovqatlar qiymati, xo'jalik yurituvchi sub'ekt xodimlariga beriladigan tekin uy-joy haqini to'lash xarajatlari (yoki uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqalar uchun pul kompensatsiyasi summasi).

- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tekin beriladigan va shaxsiy foydalanishda qoladigan buyumlar qiymati (shu jumladan, formal kiyim-bosh, mahsus ovqatlar yoki ular pasaytirilgan narxlar bo'yicha sotilishi munosabati bilan imtiyozlar summasi);

- ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan boshqaruvning texnik vositalarini, aloqa o'zellarini, signalizatsiya vositalarini, boshqaruvning boshqa texnik vositalarini, hisoblash markazlarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari;

- qonun xujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazganlik uchun tibbiy muassasalarga haq to'lash.

5.2. Ishlab chiqarish xodimlarini belgilangan ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan xizmat safarlariga yuborish bo'yicha normalar doirasida va ulardan ortiqcha xarajatlar.

5.3. Ishlab chiqarish ishchilarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy sug'urta qilish xarajatlari.

5.4. Yaroqsiz (Brak) tufayli kelib chiqadigan yo'qotishlar.

5.5. Ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko'ra bekor turishlar tufayli yo'qotishlar.

5.6. Kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlari.

5.7. Mahsulot (xizmatlar)ni majburiy sertifikatlash qilish xarajatlari.

5.8. Ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo'qotilishi munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarisiz to'lanadigan nafaqalar.

5.9. Umumiy foydalaniladigan yo'lovchilar transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'nalishlarda xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog'liq xarajatlar.

Mahsulot tannarxi nazariyasida **mahsulot tannarxi strukturasi** degan muhim tushuncha mavjud. U ayrim xarajatlarning mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan jami xarajatlar summasidagi nisbatini ko'rsatadi. Odatda, struktura foiz hisobida o'lchanadi.

Tannarx strukturasi tarmoqlar va korxonalarining xususiyatiga, ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlab chiqarishning tashkil qilinishiga bog'liqdir.

Mahsulot tannarxining strukturasi o'zgarmas miqdor hisoblanmaydi. Sanoatning o'sishi, texnika va ishlab chiqarish texnologiyasi takomillashishi, asosiy va aylanma fondlardan foydalanishning yaxshilanishi, ish haqi miqdorining

o'zgarishi, iste'mol buyumlari baholarining tartibga tushishi va transport tariflarining o'zgarishi bilan mahsulot tannarxi strukturasi ham o'zgaradi.

Mahsulot tannarxida qaysi guruhdagi xarajatlar asosiy o'rin tutishiga qarab, sanoat tarmoqlari bir-biridan farq qiladi-ko'p mehnat, ko'p material, ko'p energiya, ko'p mablag' talab qiladigan bo'ladi.

Ishlab chiqarishning tarmoq xususiyatlarini hisobga olish, tannarx strukturasi va ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy tahlil qilish ishlab chiqarishda yuz beradigan asosiy texnik-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish, ishlab chiqarishdagi chiqimlarni kamaytirishning asosiy yo'llarini belgilashga imkon beradi.

3. Foyda va rentabellik

Sanoat va uning barcha bo'g'inlari ishini tavsiflovchi muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri foyda va rentabellikdir. Foyda bozor munosabatlarining muhim kategoriyasi sifatida iqtisodiyotda ma'lum funktsiya (vazifa)larni bajaradi:

- ishlab chiqarish faoliyatining natijasidan olingan iqtisodiy samarani tavsiflaydi, chunki u so'nggi moliyaviy natijani ifodalaydi;
- turli darajadagi buyujetlarni shakllantiradi;
- xodimlarning manfaatlarini himoya qiladi va bu borada iqtisodiy dastak va stimullarni o'ynaydi;
- ilmiy-texnikaviy, tashkiliy va ijtimoiy ishlarni amalga oshirishga imkoniyat beradi.

Foyda sanoat, tarmoq va korxonaning hamma ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati natijalarini umumlashtiruvchi ko'rsatkichdir. Balansdagi foyda yoki foydaning umumiy summasi korxonada balansdagi mavjud ishlab chiqarish va ishlab chiqarishdan tashqari, xo'jaliklarning moliya xo'jalik faoliyatlari natijasida olingan foyda summasidir. Foydaning umumiy summasi tovar mahsulotini sotishdan, ishlab chiqarishdan tashqari, bajarilgan ishlar va xizmatlardan olingan daromadlardan, korxonada yordamchi xo'jaliklarining mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlardan, realizatsiyadan tashqari foyda va uy-joy kommunal xo'jaligi, har xil jarimalar, penya va hokazolardan tashkil topadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

- mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda (YaF), bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

$$YaF = SST - MIT,$$

Bu erda: YaF -yalpi foyda;

SST -sotishdan olingan sof tushum;

MIT -sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

- asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda - bu, mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va qo'shimcha asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$AFF = YaF - DX + BD + BZ,$$

Bu erda: *AFF*-asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DF-davr xarajatlari;

BD-asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ-asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar.

- xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar) - bu, asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$UF = AFF + MD - MX,$$

Bu erda: *UF*-umum xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD-moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX-moliyaviy faoliyat xarajatlari.

- soliq to‘lagungacha olingan foyda-bu umum xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda, plus favqulodda (ko‘zda tutilmagan) vaziyatlardan ko‘rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$STF = UF + FP - FZ.$$

Bu erda: *STF*-soliq to‘lagungacha olingan foyda;

FP-favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ-favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar.

UF - yilning sof foydasi - bu, soliq to‘langandan keyin xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ixtiyorida qoladi, o‘zida daromadi (foydasi)dan to‘lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to‘lovlarni chiqarib tashlangan holda soliqlar to‘lagunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$SF = STF - DS - BS.$$

Bu erda: *SF*-sof foyda;

DS-daromad (foydadan)dan to‘lanadigan soliq;

BD-boshqa soliqlar va to‘lovlar.

Har bir korxonaga yashashi va ravnaq topishi uchun foyda olishi kerak. Korxonaga foydani o‘z rivojini ta‘minlovchi birinchi muhim omil deb biladi. Foydani maksimallashtirish bilan shug‘ullanmaydigan korxonaning yashab ketish imkoniyati kam bo‘ladi. Makroiqtisodiyot sohasida uzoq muddatga foydani maksimallashtirish masalasiga katta e‘tibor berilishi shunday iboratki, shu asosda firma faoliyati oldindan bashorat qilinadi,

Mulk egasini o‘zi boshqaradigan, unchalik katta bo‘lmagan korxonada, ularni yuritish bilan bog‘liq bo‘lgan hamma qarorlarda foydani ko‘paytirish asosiy o‘rin tutadi. Juda katta va yirik korxonalarda rahbar (boshqaruvchi)lar kundalik qarorlarni qabul qilishda mulk egalari har doim ham boshqaruvchilar faoliyatini nazorat ostida saqlay olmaydilar. Shuning uchun boshqaruvchilarda va korxonaga rahbarlik qilishda ma‘lum darajada erkinliklar bo‘lib, ular foydani maksimallashtirish bilan yetarli shug‘ullanmasliklari, mulk egasi bo‘lmaganliklari uchun uzoq muddatli manfaat o‘rniga qisqa manfaatni afzal ko‘rishlari mumkin. Boshqaruvchilar ko‘pincha foydani maksimallashtirish o‘rniga daromadni ko‘paytirish yoki aksiyadorlarni qiziqtirish uchun dividendni oshirishga harakat qilishlari mumkin. Bundan tashqari, ular yuqori lavozimga erishish yoki katta mukofotlar olish maqsadida foyda keyinchalik kamayib ketsa ham hozirgi kunning

o'zida oshirishga harakat qiladilar. Shu tufayli bunday rahbarlar o'z lavozimlaridan chetlashtirilishi va korxonani boshqa rahbarlarga topshirish zaruriyati yuzaga keladi.

Yuqorida keltirilgan foyda turlaridan tashqari, uning yana bir qancha turlari mavjud:

- haqiqiy foyda;
- o'rtacha foyda;
- monopol foyda yoki iqtisodiy renta;
- maksimal foyda.

Haqiqiy foyda - bu, haqiqatda hisobot ma'lumotlari, ya'ni haqiqiy xarajatlar asosida aniqlangan foyda hisoblanadi. Bu foyda korxonada moliyaviy faoliyatini tashkil etishda asosiy manbadir.

O'rtacha foyda deganda, boshqa hamma korxonalar kabi sarflangan kapitalga bir xil foyda olish yoki bir xil rentabellikka ega bo'lish tushuniladi. O'rtacha foyda korxonada (firma)ning faoliyat ko'rsatayotgan sohada, tarmoqda qolishini ta'minlaydi. Bunday foydaning yuzaga kelishi bozorning uzoq muddatli barqarorlikka erishganidan dalolat beradi. O'rtacha foydani ko'pincha iqtisodiy foyda deb ataydilar.

Monopol foyda yoki iqtisodiy renta - bu, cheklangan ishlab chiqarish omillaridan foydalanish natijasida sodir bo'lgan foyda hisoblanadi. Masalan, ikkita korxonada bir xil yerga ega bo'lib, yerni olish bilan bog'liq xarajatlar bir xil bo'lishgan sharoitida birinchi yer transport tarmog'iga yaqin bo'lganligi uchun mahsulotni tashishga 10 mln. so'm kam sarf qilishi mumkin, ana shu 10 mln. so'm uning qo'shimcha foydasi hisoblanadi. Iqtisodiy renta ishlab chiqarish omillari cheklanganligidan kelib chiqadi va u yoki bu ishlab chiqarish omiliga berish holatini bildirgan baho bilan shu omilning eng kam bahosi o'rtasidagi farqdan iborat bo'ladi.

Maksimal foyda - bu, bir birlik qo'shimcha mahsulotni sotishdan olingan daromadni shu bir birlik qo'shimcha mahsulotga qilingan xarajat miqdori bilan bab-barobar kelishi natijasida olingan foyda. Shu holda rentabellikning eng yuqori darajasiga erishilgan bo'ladi. Shunga ko'ra, foydani maksimalashtirish degani, eng yuqori rentabellikni ta'minlash, deganidir.

Rentabellik sanoat va uning tarmoqlarining moliyaviy faoliyatini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Rentabellik nazariyasida uning bir qancha turlari mavjud. Ulardan eng muhimi mahsulot rentabelligi ko'rsatkichi hisoblanadi va quyidagicha ifodalanadi:

$R_a = \text{mahsulot sotishdan olingan foyda} / \text{mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari}$

Rentabellik darajasi ko'rsatkichining yuqori bo'lishi korxonada ixtiyoridagi asosiy va aylanma fondlardan oqilona foydalanilayotganini va korxonaning ma'lum miqdorda foyda (daromad) olayotganligini ko'rsatadi.

Rentabellik darajasini ko'tarish uchun sanoatning barcha tarmoqlari va korxonalarini sotilgan mahsulot hajmini oshirishga, uni ishlab chiqarish uchun

sarflanayotgan xarajatlarni kamaytirishga, ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishlari zarur.

4. Mahsulot tannarxini pasaytirishning manbalari va omillari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida “Birinchisi – islohotlarning qay darajada samara berayotganini ko‘rsatadigan maqsadli dasturlarni amalga oshirish natijadorligi. Bular qatorida sanoat va boshqa tarmoqlarni rivojlantirishning quyidagi iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlarini keltirish mumkin: ishlab chiqarish quvvatlarining ahvoli, xarajatlarni va tannarxni pasaytirish, mahalliyashtirish va rentabellik darajasini, mahsulot raqobatdoshligini so‘zsiz oshirish. Tarmoqlar bo‘yicha tannarx o‘rtacha 10 foizga qisqartirilgan bo‘lsa-da, kimyo va engil sanoat, avtomobilsozlik, qurilish materiallari va boshqa bir qator tarmoqlarning ayrim mahsulotlari qimmatligi sababli tashqi bozorlarda raqobatdosh bo‘la olmayapti. Ayrim korxonalar zarar bilan ishlamoqda.»-deb tannarxni kamaytirish muammosiga katta e‘tibor zarurligi ta‘kidlandi¹²².

Mehnat unumdorligini oshirish, xom ashyo va material, yoqilg‘I va elektr energiya xarajatlarini kamaytirish, xizmat ko‘rsatish va boshqarish sarflarini qisqartirish, ishlab chiqarishdan tashqari, xarajatlarni kamaytirish sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirishning eng muhim manbalari hisoblanadi.

Mehnat unumdorligini oshirish uchun esa ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish hamda ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etishning ilg‘or usullarini joriy qilish orqali har bir mehnatchi tomonidan tayyorlanayotgan mahsulotni ko‘paytirish kerak. Bu holda har bir mahsulot birligiga sarflanadigan ish haqi qisqaradi, ammo ishchining umumiy ish haqi esa ortib boradi. Mehnat unumdorligi ish haqiga nisbatan jadal o‘sgandagina tannarx pasayadi.

Mehnat unumdorligining o‘shish mohiyati shundan iboratki, bunda mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan jonli mehnat ulushi kamayadi, ilgari sarflangan mehnatning ulushi esa ortadi, biroq mahsulot birligi uchun ketadigan mehnat sarfi qisqaradi.

Material, yoqilg‘I va elektr energiya xarajatlarini kamaytirish uchun ularni tejab sarflash, qimmatbaho materiallarni arzon, lekin yaxshi materiallar bilan almashtirish, ularni sotib olish va korxonaga keltirish bilan bog‘liq bo‘lgan sarflarni qisqartirish kerak bo‘ladi.

Xizmat ko‘rsatish va boshqarish uchun ketadigan xarajatlarni qisqartirishga esa tarmoq va korxonalaridagi ma‘muriy-boshqaruv apparatining sarflarini

¹²²Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 34 b.

kamaytirish, asbob-uskuna, bino va inshootlarni saqlash, yoritish, isitish uchun ketadigan mablag'larni tejab-tergab sarflash orqali erishiladi.

Unumsiz xarajatlarni (jarima to'lash, penya va hokazolar) tugatish mahsulot tannarxini pasaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni ratsional joylashtirish, ishlab chiqarish va mehnatni korxonaning ichida uyushtirishni yaxshilash mahsulot tannarxini pasaytirishni ta'minlovchi omillar hisoblanadi. Masalan, texnika taraqqiyoti mahsulot tannarxini pasaytirishning barcha manbalariga ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishni elektrlashtirish va elektronizatsiyalash hamda kompleks avtomatlashtirish, kimyolash mahsulot tayyorlash uchun sarflanadigan solishtirma xarajatlarni kamaytiradi.

Har bir korxonada mahsulot tannarxini pasaytirish darajasini hisoblash uchun, eng avvalo, undagi zahira, foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash kerak. Ular ko'zga tashlanadigan, yuzaki, juda murakkab, ko'z ilg'amaydigan bo'lishi mumkin. Faqat chuqur, har taraflama iqtisodiy-texnik tahlildan keyin ularni aniqlash, topish mumkin bo'ladi.

Zahiralar har xil belgilarga qarab guruhlariga ajratilishi mumkin. Ular, eng avvalo, to'planish joyiga ko'ra, ichki ishlab chiqarish va tashqi rezervlarga ajraladi.

Tashqi rezervlarga tarmoqlar bo'yicha rezervlar, regional (hududiy) va tabiiy-ekologik rezervlar kiradi.

Rezervlar safarbar etilishi muddati bo'yicha joriy va istiqbolli rezervlarga ajraladi.

Rezervlarni ishlab chiqarish jarayonlarining elementlari bo'yicha ham guruhlariga bo'lish mumkin. Bunda y rezervlarga mehnat, moddiy va asosiy fondlardan foydalanish rezervlari kiradi.

Korxonalar yoki tarmoq faoliyatini tahlil etish uchun rezervlarni ikkiga bo'lib ko'rish mumkin:

- tashkiliy-texnikaviy rezervlar;
- ijtimoiy – iqtisodiy rezervlar.

Yuqorida keltirilgan barcha rezervlar, ya'ni foydalanilmayotgan imkoniyatlarni safarbar etish, ishga solish hamda shu asosda tannarxni keskin pasaytirish uchun bir qator omillardan keng foydalanish va ularni hisoblab chiqish kerak. U ishning metodikasi, usulini «Korxonalar faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish» fani bo'yicha ma'ruzalarda, amaliy mashg'ulotlarda chuqurroq va har tomonlama tushuntirib beriladi.

Mahsulot tannarxini rejalashtirish mehnat, moddiy va moliyaviy mablag'lardan oqilona foydalanish asosida ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishishga qaratilgan. Tannarx rejasi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Mahsulot tannarxini pasaytirish rejasi;
2. Mahsulot tannarxini kalkulyakiyalash;
3. Ishlab chiqarish xarajatlari smetasi;
4. Tovar va sotiladigan mahsulot tannarxining hisobi.

Tannarx rejasi, ikki bosqichda ishlab chiqiladi. Birinchi bosqichda, eng avvalo, hisobot yilida rejalarning bajaralishi tahlil etiladi, mahsulot tannarxini pasaytirish, foyda va rentabellikni oshirish rezervlari aniqlanadi va aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlari belgilanadi, reja loyihasi ishlab chiqiladi. Ikkinchi bosqichda esa rejaning o‘zil-kesil loyihasi ishlab chiqiladi va bu reja topshiriqlari korxonaga bo‘limlariga yetkaziladi.

Mahsulot tannarxi va uni pasaytirish topshiriqlari davlat va korxonaga rejasida yuqoridan belgilanmaydigan, aksincha, korxonalarining o‘zida hisob qilinadigan ko‘rsatkich hisoblanadi. Shunga qaramay, mahsulot tannarxi sanoat ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib qolaveradi. Chunki sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirish ishlab chiqarishning rentabellik darajasini oshirish rezervlaridan biri hisoblanadi. Mahsulot tannarxi qanchalik past bo‘lsa, albatta, boshqa shart-sharoitlar bir xil bo‘lgan holda (masalan, xuddi o‘sha mahsulotning narxi barqaror bo‘lganda) uni sotishdan kelgan foyda ham shunchalik ko‘p bo‘ladi.

Shu sababli yaqin va uzoq kelajakda ham ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxining pasaytirish inqirozga qarshi choralar dasturida belgilangan vazifalardan biri hisoblanadi.

2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida 2017 yilda sanoat tarmoqlaridagi yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxini o‘rtacha 8 foizga qisqartirish va raqobatdoshligini oshirishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilab berilgan¹²³. Shu jumladan, ma‘nan va jismonan eskirgan uskunalarni yangilash hamda modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish, texnologik jarayonlarni optimallashtirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Bu yo‘nalishga korxonalarining mablag‘lari va tijorat banklar kreditlari hisobidan 602 000,0 mln. so‘m investitsiyalar yo‘naltiriladi, bu esa mahalliy mahsulotlarning, birinchi navbatda, tashqi bozorlarda raqobatdoshligini va tarmoqlarning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tannarx va qiymat muammolarini o‘rganishning qanday an’anaviy usullarini bilasiz?
2. Tannarxning tarkibi, strukturasi va uni pasaytirish yo‘llari nimalardan iborat?
3. Foyda va uni maksimallashtirish masalalarining ahamiyatini nimalarda ko‘rish mumkin?
4. Rentabellik va uni hisoblash usullariga ta’rif bering?
5. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida tannarx masalalariga berilgan e‘tibor nimalardan iborat?

¹²³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni. 7 fevral 2017 yil. <http://press-service.uz/uz/document/5482/>.

20-mavzu. IQTISODIYOT TARMOQLARIDA BAHO VA BAHONI SHAKLLANTIRISH

1. Baho-bozor munosabatlarining iqtisodiy kategoriyasi
2. Bahoning funksiyalari va turlari

1. Baho – bozor munosabatlarining iqtisodiy kategoriyasi

Baho kuchli ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor kategoriyasi bo‘lib, tovarlar ayirboshlanganda yuz beradigan munosabatlarni anglatadi. Oqilona, ilmiy jihatdan asoslangan baho va baholash iqtisodiyotning ilmiy va amaliy vositalaridan biri hisoblanadi.

Baho siyosati davlat iqtisodiy siyosati va iqtisodiy strategiyasining muhim ajralmas qismidir. Shu sababli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda, mehnatkashlarning tashabbusi va omilkorligini rivojlantirishda baho belgilash siyosati alohida o‘rin egallaydi. Bahoni ho‘jalik mexanizmi va o‘zini o‘zi pul bilan ta‘minlashning ustuni deyish mumkin. Jamoaning va ayrim xodimning daromadlari, ular iqtisodiy manfaatlari narxning, ya‘ni bahoning to‘g‘ri belgilanishiga bog‘liq.

Baho bamisoli barometr kabi bozor holatini ko‘rsatib turadi, u pasayib ketsa, tovar bozori kasodga uchraydi, tovar nafsiz bo‘lib, uni boshqa tovar bilan almashtirish yoki sifatini yaxshilash zarurligi kun tartibiga qo‘yiladi.

Baho pul muomalasi holati, kreditlash samaradorligi va iqtisodiyotning moliyaviy sog‘lomligi bilan bog‘liq. Davlatning, korxonalar va ularda ishlovchilarning, umuman, aholining o‘zaro bog‘lanishi baho yordamida amalga oshiriladi, ijtimoiy resurslardan foydalanish ta‘minlanadi, yalpi ichki mahsulotni hisobga olish va taqsimlash amalga oshiriladi. Bahoni tovar qiymati belgilaydi, ammo bozor iqtisodiyoti sharoitida u aniq qiymatdan yuqori yoki kam bo‘lishi mumkin. Bu esa, bozordagi o‘sha mahsulotga bo‘lgan talab va taklifga bog‘liq. Tovar bahosining darajasi, shuningdek, tovarning ijtimoiy foydaliligi darajasi va boshqa tovarlar o‘rnini bosa olishi, muomaladagi pulning xarid quvvatiga ham bog‘liq bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baho yordamida korxonalar ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy muammolaridan biri, nima ishlab chiqarish foydali ekanligini hal etishdir. Baho tovar taklifi, aholining to‘lov qobiliyati, ishlab chiqarish resurslarining oshib yoki kamayib ketishi to‘g‘risida korxonaga egalariga axborot beruvchi vosita hamdir. Bahoning yana bir vazifasi qiymat o‘lchovidir.

Nazorat jihatdan olib qaralganda, baho-tovar qiymatining puldagi ifodasidir. Amaliy jihatdan qaralganda esa, baho-muhim iqtisodiy vosita, dastak hisoblanadi.

Bunda qilingan xarajatlar va olingan natija ma‘lum bir narx yordamida hisob-kitob qilinadi.

Ma‘lumki, qiymat ishlab chiqarish kategoriyasi bo‘lib, ishlab chiqarishdagi mehnat sarflanishi bilan bog‘liq munosabatlarni ifoda etadi. Tovarining yaratilishida moddiylashgan va jonli mehnat sarf etiladi. Ularning majmuasi - qiymatdir. Ammo qiymat har qanday mehnat sarfi emas. Qiymat tovarni yaratishga ketgan ijtimoiy zarur mehnat sarfi, aniqrog‘i, ehtiyojni qondira olgani sababli bozorda tan olingan mehnat sarfidir, chunki mehnatning bir qismini, agar u kerakli

bo'lsa, bozor inkor etadi va shu qismi qiymatni yaratishda ishtirok etmaydi. Muayyan baho sharoitida ko'proq foyda olish uchun xarajatlarni kamaytirish zarur.

Baholar tovar-pul munosabatlari muomalasining shakli va sotiladigan mahsulot turiga ko'ra farqlanadi. Bahoning turlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ular yagona tizimni tashkil etadi. Mazkur tizimning muhim elementlari quyidagilardir:

- *ulgurji baholar.* Ular firmalar o'z mahsulotlarini katta hajmda boshqa firmalarga yoki vositachilarga va ulgurji savdo tashkilotlariga sotayotganlarida qo'llaniladi. Ulgurji baho korxonalariga ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashni, zarur foyda olishni ta'minlanishi zarur;

- *chakana baholar.* Ulardan tovarlarni bevosita iste'molchilarga sotishda foydalaniladi. Bu baholarga davlat savdosi, xususiy shaxsiy mulk egalari do'konlari va bozorda yuzaga kelayotgan baholar kiradi. Chakana baho darajasi aholining peal daromadlari bilan belgilanadi.

- *Xarid baholari* qishloq xo'jaligi mahsulotlarining davlat tomonidan sotib olinishida ishlatiladi.

- *Dunyo baholari* xalqaro savdo munosabatlarida qo'llaniladi.

Baholar tovar ishlab chiqarishning rivojlanishiga o'z vazifalari orqali ta'sir etadi. Bozorda turli mehnat sarflari umumiy, ya'ni ijlimoiy zarur mehnat sarfiga keltiriladi va shu sarfning pulda ifodalanishi bahoni hosil qiladi.

Bozorda sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi iqtisodiy munosabat bo'lganidan narxning shakllanishida har ikki tomon ishtirok etadi. Xaridor deganda, biz tovar va xizmatlarni iste'mol etuvchilar - fuqarolar, ishlab chiqarishni yurgizish uchun resurslarni sotib oluvchi korxonalarni tushunamiz. Baholarning shakllanishida tovarni ishlab chiqarishdan tortib, iste'molga yetgungacha bo'lgan mehnat sarflari ishtirok etadi. Jamiki xarajatlar baho tarkibiga kiradi.


Bahoni shakllantiradigan asosiy omillar esa quyidagicha:

- Iqtisodiy xarajat darajasi;
- Tovarlarining naflilik darajasi;
- Tovarga bo'lgan talab va uning taklifi;
- Raqobat shakllari va usullari;
- Tovarni iste'mol qilish vaqti.

Raqobat cheklangan bozorlarda (sof monopoliya, monopolistik raqobat, oligopoliya) ishlab chiqaruvchilarning o'rni bozor narxlarini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Monopoliya sharoitida bozorda bir turdagi mahsulotlar taklif qilinishi sababli baho ustidan to'liq nazorat amalga oshiriladi. Bu degani monopolist ishlab chiqaruvchilarning narx belgilashdagi hukmronligi, iste'molchi daromadlari cheklanganligi bilan to'qnash qiladi. O'rni bosuvchi tovarlarning mavjudligi hamularning baho belgilashdagi mutlaq imkoniyatini cheklaydi.

Oligopoliya sharoitida esa alohida ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) bir-biriga bog'liq bo'lganliklari sababli baholarni mustaqil belgilashga botina olmaydilar. Faqat baho belgilashda yashirincha kelish ishlari mumkin.

Bahoning shakllanishini quyidagicha ifodalash mumkin:



1-chizma. Bahoning shakllanishi¹²⁴

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida bahoning roli va ahamiyati beqiyosdir. Ma'lumki, hozirgi zamon iqtisodiyoti bozor iqtisodiyotidir. Bu iqtisodiyot yer yuzidagi ko'pgina davlatlarda turli darajada va o'ziga xos xususiyatlar bilan rivojlanib bormoqda. Uning mohiyat belgilarini eng rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ko'rish mumkin. Shunday belgilaridan biri, narxlarning liberallasuvi, narx-navoning erkin shakllanishidir. Tovarlar narxini davlat yuqoridan belgilamaydi. U bozordagi talab va taklifga qarab, xaridor bilan sotuvchining savdolashuvi asosida yuzaga keladi. Kelishilgan narxlar esa bozor munosabatlariga xizmat qiladi. Narx pul bilan o'lchanadi. Bozor iqtisodiyoti pulsiz bo'lishi mumkin emas. Pul esa, iqtisodiy munosabatlarning asosiy vositasi bo'lib, iqtisodiyotda o'ta muhim ro'l o'ynaydi. Pul munosabatlari bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Pul oboroti, pul emissiyasi, qadri-qimmati, inflyasiya, valyuta kursi kabi hodisalar iqtisodiy vaziyatning ko'zgusi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotida tovar taqchilligi bo'lmaydi, shu sababdan bozorda ishlab chiqaruvchi emas, balki iste'molchi (xaridor) o'z izmini o'tkazadi, tovar va xizmatlarni sifati va narxiga qarab tanlab olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Baho shakllanishida raqobat muhim o'rin tutadi. Raqobatda yutib chiqish yoki yutqazish bahoni belgilashga ham bog'liq. Raqobatlashuv jarayonida xaridor ko'p bo'lsa, yuqori narx tashkil topadi. Agar sotuvchilar ko'p bo'lib, ular raqobatlashishsa, past baholar vujudga keladi.

Raqobat kurashida xarajatlarni qoplamaydigan, binobarin, zarar keltiradigan o'ta past baholar ham paydo bo'ladi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish,

¹²⁴Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.: "Sano-standart", 2014., 215- bet.

xo'jalikni oqilona yuritish esa moliyaviy aloqalar va qiymat qonunlaridan foydalanishni talab qiladi.

Ayrim buyumlarning bahosini o'zgartirish evaziga davlat ularga bo'lgan ehtiyojni hamda ularni xarid qilishni boshqaradi. Jumladan, inson sog'lig'iga putur yetkazuvchi mahsulotlarning narxini oshirish evaziga ularning xarid qilinishini chegaralash va aksincha, ba'zi oziq-ovqat mahsulotlarining narxini me'yorda ushlab turish orqali ehtiyojlarni to'laroq qondirish mulohazamizga dalil bo'la oladi.

2. Bahoning funksiyalari va turlari

Bahoning iqtisodiy mazmunini uning funksiyalari yaqqol ko'rsatib beradi. Baho nimaga tegishli bo'lishidan qat'I nazar (tovar, xizmat, ish kuchi, qarz puli narxini buning farqi yo'q) besh asosiy funksiyani bajaradi:

1. Bozor muvozanatini ta'minlash funksiyasi. Bunda baho bozordagi talab va taklifning hajmi va tarkibiga ta'sir etish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi.

2. Hisob-kitob, o'lchov funksiyasi. Baho qiymatning puldagi ifodasi, chunki bajarilgan ish xajmi, foyda-zararning barchasi baho asosida hisob-kitob qilinadi.

3. Iqtisodiy regulyator funksiyasi. Baho bozor iqtisodiyotining asosiy vositalaridan biridir. Undagi o'zgarish bozor holati (kon'yukturasi)ni bildiradi.

4. Raqobat vositasi funksiyasi. Raqobat bozor iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi kuch, baho vositasida bellashuv raqobatning asosiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Korxonalar o'z raqiblarini yengish, ularni bozordan siqib chiqarish uchun bahoni o'zgartirib turadilar.

5. Ijtimoiy himoya funksiyasi. Baho ayrim aholi toifalarini kambag'allikdan saqlash vazifasini o'taydi. Odatda, aholining nochor va muhtoj qatlamlariga tovarlar arzonlashtirilgan baholarda sotiladi.

Bular ijtimoiy dotatsiyalangan baholar bo'lib, ularni moliyaviy jihatdan davlat budjeti yoki budjetdan tashqari mablag'lar ta'minlaydi. Dotatsiyalangan baholarni davlat belgilaydi.

Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos tizimi borki, u o'zaro bog'langan, bir-birini taqozo etuvchi, ammo turli maqsadlarda qo'llanuvchi baholar majmuasidan tashkil topadi. Bahoning shakllanish jarayoni murakkab bo'lib, uning ishtirokchilari g'oyat ko'pchilikni tashkil etadi. Baholar turli vazifalarni bajarganligi sababli ham ularning turi ko'p.

Baholarning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

1. Ulgurji baholar. Tovarlar ko'tarasiga katta miqdorda sotilganda bu baholardan foydalaniladi. Bunday bahoni asosan ulgurji savdo-sotiq olib boriladigan savdo markazlarida uchratish mumkin.

2. Chakana baxolar. Tovarlar bevosita iste'molchilarga sotilganda foydalaniladi. Bu baho o'z ichiga tovar ulgurji narxini, chakana savdo tashkilotchilarining xarajati va foydasini oladi.

3. Nufuzli baholar. Bu baholardan obro' talab iste'molchilarga tovarlar sotilganda va xizmatlar ko'rsatilganda foydalaniladi.

4. Dotatsiyali baholar. Bunda tovarlar davlat buyujeti hisobidan arzonlashtirilgan baholarda olinadi.

5. Davlat baholari. Bu ishlab chiqaruvchilarga davlat tomonidan buyurtma berilganda qo'llaniladi.

6. Mavsumiy baholar. Bu mavsumiy ishlab chiqariladigan tovarlarga belgilanadi.

7. Milliy va jahon baholari-alohida tovarning baynalmilal xarajatlari. Bunda jahon bozoridagi talab va taklif nisbati hisobga olinadi.

8. Standart baholar. Xaridor cho'ntagidagi pulga qarab, ma'lum davrgacha o'zgarmaydigan qat'iy standart narxlar qo'llaniladi.

9. Preyskurant baholar. Bu baholar sotuvchi uchun muljal baho, xaridor uchun bildirishlik yoki ma'lumot baho hisoblanadi.

10. Ishlab chiqargan mahsulotni sotish uchun muzokaralarga tayyorgarlik ko'rish mobaynida tadbirkor eng avvalo, o'zi uchun maqbul bo'lgan baho ko'rsatkichlarini aniqlashga harakat qiladi. Shu maqsadda u bahoni uchga ajratadi. Ya'ni maksimal (eng yuqori), minimal (eng past) va ob'ektiv baho.

Maksimal baho- (sotuvchi nuqtai nazaridan) – bu muzokaralarni shu bahodan boshlash mumkin bo'lgan ko'rsatkichidir.

Minimal baho- (qo'shilishi mumkin bo'lgan eng past baho) – bu tovar narxining shunday ko'rsatkichiki, tadbirkor muzokaralar davomida undan tushmaslikka harakat qiladi.

Ob'ektiv baho-bu, tarkibida o'rtacha sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan u yoki bu tovarning o'rtacha bahosidir.

Bahoning iqtisodiyotdagi o'rni beqiyos bo'lganidan uning har bir turidan oqilona foydalanish tadbirkorlik uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli korxonalar va firmalar narx belgilashga katta e'tibor beradilar. Ular o'zlarining narx strategiyasini ishlab chiqishda quyidagi maqsadlarni ko'zlaydilar:

- tovar sotishni ko'paytirish;
- ko'proq foyda olish;
- o'rni, muayyan mavqeini saqlab qolish.

Tovar sotishni ko'paytirishdan uch natija kutiladi: a) tovar sotishni ko'paytirish orqali bozorda o'z xissasini oshirish, imkon bo'lganda bozorni o'z nazoratiga olish; b) har bir tovarni (tovar birligini) sotishdan tushadigan foydaning kamayishiga rozi bo'lgan holda tovarlarni ko'plab sotish orqali keladigan yalpi foydani oshirish; v) tovarni ko'p sotish natijasida uning hajmiga nisbatan savdo-sotiq xarajatlarini qisqartirish.

Bozordan raqiblarni surib chiqarib, o'z mavqeini mustaxkamlash uchun firmalar maxsus narx qo'llaydilar, uni bozorga kirib olish narxi yoki demping narx deb ataladi.

Bu narx raqibni sindirishga qaratilganligidan davlat uni ta'qiqlaydi, shu sababli firmalar uni yashirin qo'llaydilar va bu ish rasmiy narxning bir qismini kechib yuborish shaklida bo'ladi. Bunday narx raqibni sindirishga qaratilganligidan uni davlat ta'qiqlaydi. Baholash borasidagi kamchilik va nuqsonlarga barham berish uchun narx belgilashning yagona tizimini yaratish

zarurligini hisobga olib Vazirlar Mahkamasini 2010 yilning 28 oktyabrda “tovar (ishlar, xizmatlar)ga tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni deklaratsiyalash (tasdiqlash) va belgilash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, moliya vazirligi va mahalliy idoralar tomonidan ushbu qaror ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tufayli narxlarni tartibga solishning yagona tizimi amal qila boshladi.

Shu sababli mustaqillik yillarida narxlarni erkinlashtirish, baholash mexnazimini takomillashtirish va bozor regulyatori bo‘lgan bahoning rolini mustahkamlash borasida ham nazorat, ham amaliy ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, oxirgi o‘n yil mobaynida baholashning metodologiyasi va metodikasini takomillashtirish tufayli moliyaviy menedjerlar ishlab chiqarishning samaradorligini variantli tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar, faoliyat turlari bo‘yicha xarajatlarni chuqur detalizatsiyalash asosida bahoni aniq hisoblashga erishdilar. Oqibat natijada 2010 yilga kelib narx belgilashning yagona tizimi yaratildi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Baho va baholashning mohiyati, ahamiyati va mazmuni qanday?
2. Baho funksiyalari nimalardan iborat?
3. Bahoning turlariga ta’rif bering?
4. Sanoat ishlab chiqarishida baholash tizimini yaxshilash yo‘llarini nimalarda ko‘rish mumkin?
5. Xorijiy mamlakatlarda baho va baholash qanday va nimalardan iborat?

21-mavzu. Tarmoqlarda ishlab chiqarishini joylashtirish

1. Sanoatni joylashtirish tamoyillari
2. Sanoatni joylashtirish omillari
3. Ayrim sanoat tarmoqlarini joylashtirishdagi o‘ziga xos xususiyatlar
4. Ayrim korxonalarini joylashtirishni iqtisodiy asoslash usuli
5. Sanoatni joylashtirishdagi siljishlarning iqtisodiy samaradorligi

1. Sanoatni joylashtirish tamoyillari

Sanoatni mamlakat hududida oqilona joylashtirish – jamiyat qurilishining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, respublika va har bir iqtisodiy rayon xalq xo‘jaligini yuqori darajaga ko‘tarish va rivojlantirishning zaruriy shartidir.

Ma’lumki, ishlab chiqaruvchi kuchlar va uning eng muhim elementi bo‘lgan sanoatni joylashtirishning asosiy qonuniyatlari ishlab chiqarish usuli bilan belgilanadi. Shu sababli hozirgi bozor munosabatlarini shakllantirishda, uning barcha tarmoqlarini joylashtirishda iqtisodiy islohotni davlat amalga oshirmoqda va bu uning tarkibiy qismi hisoblanadi hamda uni amalga oshirish milliy iqtisodiyotimizning hozirgi holati va strategik vazifalari bilan belgilanadi.

Sanoatni joylashtirish deganda, uni yer shari hududida, shuningdek, ayrim mamlakat yoki iqtisodiy rayonlarda taqsimlanishi tushuniladi.

Sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish uning hududiy tashkil etish shakllarini ifodalaydi va u korxonalar (firma)larni ma'muriy va iqtisodiy rayonlarda joylashtirishda namoyon bo'ladi.

Milliy iqtisodiyotning bu real sektorini joylashtirish ham bevosita hududiy mehnat taqsimoti bilan bog'liq. Ijtimoiy mehnat taqsimoti unsuri bo'lgan hududiy mehnat taqsimoti (HMT) soddaroq qilib aytganda, turli joylarning mamlakat yoki viloyatlar, tumanlar, shaharlarning har xil mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashishidir. Natijada ana shu joylarning iqtisodiy «bashorati» shakllanadi va ularning hududiy tizimdagi o'rnini o'z ifodasini topadi.

HMT keng ma'noda – bu ishlab chiqarish sohalarini (tarmoqlarini) hududning tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisi, mehnat va boshqa resurslari kabi hamda mintaqa bozorining hajmi, aholisining sotib olish qobiliyati, infratuzilma va kommunikatsion tizimning rivojlanganligi darajasi kabi omillarga qarab joylashtirilishini nazarda tutadi.

Sanoat ishlab chiqarishini oqilona joylashtirish – kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini yuqori sur'atlarda amalga oshirish, mamlakat tabiiy boyliklaridan har tomonlama samarali foydalanish va buning natijasida ijtimoiy mehnat unumdorligini yuksaltirish, har bir korxonada mahsulot tannarxini pasaytirish, mamlakat barcha iqtisodiy hududlarini bir tekis rivojlantirish, shahar va qishloq hamda sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi tafovutni yo'qotish, mamlakat mudofaa qobiliyatini oshirish imkonini beradi.

Sanoatning oqilona joylashishi transport va qishloq xo'jaligining joylashishiga hamda yangi shahar va qishloqlarning paydo bo'lishiga, ayrim iqtisodiy hududlarning muayyan mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashuviga olib keladi.

Sanoatni iqtisodiy hududlar bo'ylab joylashtirish ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish jarayoniga uzluksiz erishish, tejamkor ijtimoiy mehnat unumdorligi o'sishi hamda aholining moddiy va madaniy faravonligining ko'tarilishi sanoat ishlab chiqarilishini joylashtirishning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi mezonidir.

Ishlab chiqarishni joylashtirishning fundamental qoidalari, ya'ni tamoyillari mavjud bo'lib, ular ishlab chiqarish kuchlarini, xususan, sanoatni mamlakat bo'yicha oqilona joylashtirish, iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Sanoat ishlab chiqarishini avvalambor xom ashyo, yoqilg'i-energetika manbalariga yaqin va nihoyat, sanoat mahsulotlarini iste'molchi hududlarga tobora yaqinroq joylashtirish;

- Iqtisodiy hududlar o'rtasida mehnatni oqilona taqsimlash va iqtisodiy hududlar xo'jaligining majmualari rivojlanishini ta'minlash;

- Har qaysi viloyat va tumanlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini baravarlantirishga intilish;

- Sanoat tarmoqlarini joylashtirishda respublikaning mudofaa strategiyasiga asoslanish;
- Mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarda o‘zaro teng manfaatli munosabatlarni o‘rnatish, xalqaro mehnat taqsimoti negizida samaradorlikka erishish, jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvni jadallashtirish;
- Sanoat korxonalarini joylashtirishda hududning ekologik vaziyatini hisobga olish, atrof – muhitga chiqindilar chiqarishning me‘yoriy normalariga asoslanish va hokazo.

Yuqorida keltirilganlardan ma’lumki, sanoat ishlab chiqarishini xom ashyo manbaiga va iste’molchi hududlarga yaqin joylashtirish sanoatni oqilona joylashtirishning eng muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Sanoatning xom ashyo bazasiga yaqin bo‘lishi qayta ishlashning barcha tadrijiy bosqichlarida ushbu resursni qayta ishlashdan tortib, yarim fabrikatdan tayyor mahsulot olishga qadar, mehnatning eng kam sarflash imkoniyatini nazarda tutadi. Masalan, elektro energetika ko‘pincha suv yoki yoqilg‘I bazasida rivojlanadi, to‘qimachilik sanoati xom ashyo manbaiga yaqinlashtiriladi, oziq-ovqat sanoati esa ko‘proq iste’molchi hududlarda joylashtiriladi. Sanoatni xom ashyo va yoqilg‘i-energetika manbaiga yaqinlashtirish hududlarda mavjud resurslarni qayta ishlash sohasiga jalb etish, korxonalar (firma)larning oqilona o‘lchamini (razmerini) belgilash imkoniyatini beradi. Xom ashyo, yoqilg‘I va tayyor mahsulotni uzoq masofaga tashishni kamaytiradi va shu asosda ijtimoiy mehnatni anchagina tejashga olib keladi.

Sanoatning xom ashyo, yoqilg‘i-energetika manbalari va iste’molchilarga yaqin joylashtirilishi sanoat ishlab chiqarishini mamlakat bo‘ylab bir tekis taqsimlanishini ta’minlamaydi. Chunki mamlakat bo‘ylab ishlab chiqarish resurslari notekis taqsimlangan.

Sanoatni bir tekisda joylashtirish sanoat taraqqiyotining bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos sifat xususiyati. Lekin uning barcha sohalarini duch kelgan hududga majburan joylashtirish tavsiya etilmaydi. Hududlarning sanoat rivojlanishi orasida bunda y tenglikka erishish ko‘p hollarda bir qator sanoat korxonalarini ularga tegishli shart-sharoitlar yo‘q hududlarga sun‘iy ravishda joylashtirishga, ijtimoiy mehnatning ortiqcha xarajatlariga olib kelishi mumkin.

Sanoatni xom ashyo va yoqilg‘i-energetika manbaiga yaqinlashtirish va ishlab chiqarishni mamlakat hududi bo‘ylab bir tekis joylashtirish intensiv ravishda ruy beradigan fan-texnika taraqqiyoti imkoniyat tug‘diradi. Elektronizatsiyalashtirishning har taraflama rivojlanishi, ishlab chiqarishni kompyuterlashtirish, yangi texnologiyalardan keng foydalanish, sanoat ishlab chiqarishining tabiiy jug‘rofiy (geografik) muhitga tobeligini, qaramligini susaytiradi, sanoatni joylashtirish punktlarini ancha erkin (puxta) tanlab olishga moddiy-texnik shart-sharoitlar yaratib beradi. Elektronizatsiyalash va ximiyalashtirish ishlab chiqarish sohasiga yangidan-yangi materiallarni, ishlab chiqarish chiqindilarini, ikkilamchi resurslarni jalb etadi. Xom ashyodan majmualiy foydalanish turli xildagi ishlab chiqarishlarni birlashtiradi.

Fan-texnika taraqqiyoti geologik – qidiruv ishlarini kengaytirishga, mamlakatning turli hududlarida mineral xom ashyoning yangi konlarini ochishga

imkoniyat tugʻdiradi. Sanoatni joylashtirish rejasi, yangi korxonalar va hududiy ishlab chiqarish majmualari joylashtiriladigan hududlar va punktlari tanlanishining har tomonlama iqtisodiy asoslanishini talab qiladi.

Sanoatni joylashtirishning iqtisodiy samaradorligi ijtimoiy mehnat unumdorligida namoyon boʻladi. Iqtisodiy rayonlar oʻrtasida mehnatni oqilona taqsimlash va iqtisodiy rayonlar xoʻjaligining majmualiy rivojlanishi sanoatni joylashtirishning muhim tamoyili boʻlib xizmat qiladi.

Iqtisodiy rayonlar xoʻjaligining majmualiy rivojlanishi hududlarning oʻzaro mehnat taqsimoti natijasida oʻziga xos ixtisoslashuviga olib keladi. Ayrim iqtisodiy rayonlarning ixtisoslashuvi ularda mavjud boʻlgan tabiiy boyliklarga va ushbu boyliklardan xalq xoʻjaligi miqyosida oqilona foydalanish darajasiga bogʻliq boʻladi.

Mamlakat ichki resurslaridan toʻliq va samarali foydalanish har bir hududning respublika miqyosida ayrim bir turdagi mahsulot ishlab chiqarishiga ixtisoslashuvini talab qiladi va shu bilan birga har bir hududda shu hudud talablarini qondiradigan tarmoqlar rivojlanishiga olib keladi.

Ishlab chiqarishni joylashtirishning yana bir muhim tamoyili – mamlakatlararo doʻstlik va oʻzaro iqtisodiy yordam asosida tashkil topgan xalqaro mehnat taqsimotidir. Bunday mehnat taqsimoti har bir mamlakatda oqilona iqtisodiyot tarkibini barpo etish va rivojlanishi uchun tabiiy va iqtisodiy jihatdan qulay sharoitga ega boʻlgan sanoat tarmoqlarining ixtisoslashuvini taʼminlaydi.

2. Sanoatni joylashtirish omillari

Yuqorida qayd qilingan tamoyillarni amalga oshirishda korxonalar va hududiy ishlab chiqarish majmualari joylashtiriladigan joylarni tanlashga taʼsir koʻrsatuvchi omillar eʼtiborga olinadi.

Sanoatni joylashtirishga tabiiy va texnik-texnologik, demografik, iqtisodiy, ekologik omillar, ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllari, transport vositalari, ishlab chiqarishni joylashtirish xarakteri taʼsir koʻrsatadi.

Tabiiy omillarga: foydali qazilmalar, gidro energetika va oʻrmon boyliklarining miqdor va sifat koʻrsatkichlari, hududning iqlim sharoitlari, tabiiy suv yoʻllari hamda mehnat resurslarining joylashishi kiradi. Yuqoridagi barcha omillar ekologik omil bilan hisoblashishlari shart. Hozirgi ekologik vaziyat shuni taqozo etadi. Togʻ-kon sanoati va gidro energetika tarmoqlarida tabiiy sharoit korxonalarining texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlariga taʼsir koʻrsatadi va bu tarmoq korxonalarini joylashtirish foydali qazilmalar va gidravlik resurslar joylanishiga bogʻliq boʻladi. Qora metallurgiya va kimyo sanoati korxonalarining joylashishi asosan suv resurslariga bogʻliq.

Aholi va ishlab chiqarishning joylashishi oʻrtasida oʻzaro mustahkam aloqa mavjud. Mehnat resurslarining geografik joylashishi, avvalo, koʻp mehnat sarflanadigan sanoat tarmoqlarining joylashishiga taʼsir etadi. Shuning uchun aholi siyrak boʻlgan hududlarda koʻp mehnat talab qiladigan sanoat tarmoqlari (asbobsozlik, radiotexnika, engil sanoat) joylashtirilmaydi.

Sanoat tarmoqlarini joylashtirishda ayrim hududlar mehnat resurslarining tarkibi va tuzilishi hamda malakaviy darajasi muhim ahamiyatga ega. Masalan, mashinasozlikning (avtomobilsozlik, asbobsozlik, aniq mashinasozlik) yuqori malaka talab qiluvchi tarmoqlari shunday malakali kadrlar bor yerda joylashtiriladi, xotin-qizlar mehnatini talab qiluvchi engil sanoat aholining zich va ayollar ishchi kuchi taklifi yuqori bo'lgan hududlarda rivojlantiriladi.

Fan-texnika taraqqiyoti hamma sanoat tarmoqlarini joylashtirishning asosiy omili hisoblanadi. Kimyolashtirish sanoatni joylashtirishga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Kimyoviy usullarni qo'llash sanoatning joylashishiga iqlim ta'sirini kamaytirmoqda, natijada sanoatning respublika hududi bo'ylab bir tekis joylashuviga sharoit yaratmoqda. Sanoatning joylashishiga texnologik jarayonlar xarakteri ham ta'sir etadi. Birinchidan, ishlab chiqarish texnologiyasi talab qilinadigan xom ashyo va energiya xarakteri, ishlab chiqaruvchi tayyor mahsulot turi va xususiyatlari, xom ashyo va tayyor mahsulotni tashish sharoitlarining o'zgarishiga bog'liq. Ikkinchidan, hududning o'ziga xos xususiyatlari joylashtirilayotgan korxonalarining texnologik jarayonini tanlashda hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

Yer osti boyliklarini qazib chiqarish va xom ashyo hamda yoqilg'ini boyitish texnologiyasining takomillashuvi tog'-kon sanoatini tekis joylashtirish imkonini beradi. Ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish mahsulotga sarflanadigan mehnatni kamaytiradi. Shu tufayli kompyuter texnologiyasiga asoslangan korxonalar (firma)larni aholi siyrak hududlarga joylashtirilsa, katta samara olish mumkin.

Sanoatni joylashtirishda – Konsentratsiyalash, ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlashtirish kabi ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilishning progressiv shakllari katta ro'l o'ynaydi. Ishlab chiqarishning Konsentratsiyalashuvi natijasida korxonalar iste'mol qilishi uchun juda katta xom ashyo va energetika bazasini vujudga keltirish, korxonalar mahsulotini iste'mol qiluvchi hududni kengaytirish talab qilinadi. Natijada transport xarajatlari oshib ketadi, korxonalarini joylashtirish nuqtasi va maydonini tanlash masalasi ancha qiyinlashadi. Shu sababli hozirgi bozor sharoitiga o'tishda yirik korxonalarini joylashtirish o'rniga o'rta va kichik korxonalarini asoslashda transport omilini hisobga olish kerak bo'ladi.

Ixtisoslashtirish ham sanoatni joylashtirishga xuddi Konsentratsiyalash kabi ta'sir ko'rsatadi, chunki ixtisoslashtirish bir turdagi mahsulot ishlab chiqarishni mujassamlashtirishdan iboratdir. Shuning uchun ixtisoslashtirish darajasi oshgan sari transportga talab ortib boradi. Korxonalar (firma)larni u yoki bu hududga joylashtirishda bunday xarajatlarning miqdorini albatta, hisobga olish kerak.

Korxonalarini kooperativlashtirishning sanoatni joylashtirishga ta'sirini hududiy ishlab chiqarish majmualarini barpo qilish misolida ko'rish mumkin. Hududiy sanoat majmui uzoq vaqt o'zaro kooperativlashgan aloqa qiluvchi har xil sanoat tarmog'iga xos bo'lgan bir qator korxonalardan iborat. Kooperativlash

omilini hisobga olmay turib joylashtiriluvchi ob'ekt yoki majmualarning iqtisodiy samaradorligini to'g'ri aniqlash mumkin emas.

Ishlab chiqarishni kombinatlashtirish sanoatni joylashtirishga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Kombinatlarda – yuqori mujassamlashgan korxonalar. Shuning uchun ularni joylashtirish mujassamlashtirishga o'xshashdir.

Respublika mudofaa qobiliyatini yanada yuqori darajaga ko'tarish sanoatni joylashtirishni tashkil etishda albatta e'tiborga olinishi kerak bo'lgan muhim omillardan biri hisoblanadi.

Sanoatni joylashtirishga oldindan meros qolgan ishlab chiqarishni joylashtirish xarakteri ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, dastlab tashkil etilgan hunarmandchilik markazlari, ular infrastrukturasi shu yerning o'zida yoki shu hududga yaqin bo'lgan joylarda barpo etilishi zaruratini tug'diradi.

3. Ayrim sanoat tarmoqlarini joylashtirishdagi o'ziga xos xususiyatlar

Ayrim sanoat tarmoqlarining o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari ishlab chiqarishni joylashtirishga aloqadordir. Shuning uchun ayrim tarmoqlarni joylashtirishni rejalashtirish va iqtisodiy asoslashda ularning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish zarur.

Elektrstansiyalarini joylashtirishda mineral yoqilg'ilarni tashish mumkin bo'lgan holda, suv resurslarini ko'chirish mumkin emasligi hisobga olinadi.

Qora metallurgiya sanoati korxonalarini joylashtirishda uning xom ashyo bazasi, ishlab chiqariladigan mahsulot nomenklaturasi, korxonalar turi, tarmoqning suvga talabi hamda yirik metallurgiya kombinatlarining boshqa tarmoqlar joylashishini va yirik shaharlar paydo bo'lishini e'tiborga olish zarur.

Kimyo sanoatining turli tarmoqlarini joylashtirishda zamonaviy kimyo texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni kimyo sanoatiga tegishli xom ashyoning ko'pligi, energetika resurslari hamda ko'p tarmoqlarning chiqindilarini majmuali tarzda qayta ishlash, bir turdagi xom ashyodan turli va bir turdagi mahsulotlarni har xil xom ashyodan olish, sintetik materiallarni barcha iqtisodiy hududlarda ishlab chiqarish mumkinligi hisobga olinadi.

Mashinasozlik sanoatini joylashtirishda ishlab chiqariladigan mahsulot xususiyatlari, tarmoqning metallga bo'lgan talabi, ularni tashish masalalari, ayrim iqtisodiy rayonlar sanoatining ixtisoslashuvi, iqtisodiy hududlarning industrial rivojlanish darajasi, mashinasozlik korxonalarida ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kooperativlashtirish, mashinasozlik sanoati mahsulotlariga barcha hududlarda talabning doimiyligi e'tiborga olish zarur.

Yengil sanoat, oziq-ovqat sanoatining ko'pgina tarmoqlari mamlakatning barcha iqtisodiy rayonlari, bir qator tarmoqlar esa muayyan hududlarda joylashadi. Bular – tikuvchilik, trikotaj, poyafzal, qandolat, un-yorma, makaron mahsulotlaridir. Non va alkogolsiz ichimliklar sanoati esa har bir aholi punktida joylashtirilishi kerak.

Yuqorida ko'rsatilgan tarmoqlar va to'qimachilik sanoati iste'mol bozori doirasi keng hududlarda joylashadi. Bunga sabab xom ashyoni tayyor mahsulotga

nisbatan tashish osonroq, tayyor mahsulot assortimenti iste'mol qiluvchi ma'lum hudud aholisining jinsi va yosh jihatdan tarkibiga, milliy mentalitetiga bog'liq bo'lishidir. Xom ashyo bazasiga yaqin joyda esa shakar, yog'-moy, konserva, spirt, vinochilik, paxta tozalash va shu kabi tarmoqlar joylashadi. Shunday qilib, korxonalarni joylashtirishni rejalashtirish va iqtisodiy asoslash paytida har bir tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini to'g'ri hisobga olish, ishlab chiqarishni joylashtirishning umumiy tamoyillariga tayanish butun sanoatni joylashtirishning yuqori samaradorligini ta'minlash imkonini beradi. Natijada ijtimoiy mehnat unumdorligi oshadi. Bu esa milliy iqtisodiyotning rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi.

4. Ayrim korxonalarni joylashtirishni Iqtisodiy asoslash usuli

Sanoat korxonasini joylashtirish hududi va joyini tanlash yangi quriladigan korxonaning hajmi va ixtisoslashishini hamda yangi qurilayotgan korxonalarining ishlab turgan, loyihalananayotgan korxonalar bilan aloqalarini aniqlash sanoat korxonalarini faqat to'g'ri jug'rofik joylashtirishning muhim masalalarigina bo'lib qolmay, balki yangi va ishlab turgan korxonalarni rekonstruksiya qilishni loyihalashning ham muhim masalasidir. Loyihaning yuqoridagi masalalariga bag'ishlangan qismi qolgan barcha qismlarining ishlashi uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Bu qismda korxonani mazkur joyda qurishning maqsadga muvofiqligi, xom ashyo, yoqilg'i, energiya va suv manbalari, loyihalananayotgan korxonaning qiymati va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari aniqlanadi:

a) korxonalarni joylashtirish hududini tanlash;

Sanoat korxonasini qurish uchun tanlangan hudud (iqtisodiy hudud) quyidagi talablarga javob bermog'I lozim: hududda xom ashyo, yoqilg'i, asosiy va yordamchi mahsulotlar mavjud bo'lmog'I kerak hamda loyihalashtirilayotgan korxonaning mahsulotiga yetarli talab bo'lishi zarur. Bundan tashqari, qurilayotgan korxonaning uchun tanlangan hudud ishlab chiqarish kuchlari majmuas irivojlanishini va mahalliy xom ashyo, energetika resurslaridan to'la foydalanishni ta'minlashi lozim. Tanlangan hududda quriladigan korxonalar ular mansub bo'lgan tarmoqlarning mamlakat hududi bo'ylab bir tekis joylashishini ta'minlanmog'I kerak.

b) korxonani joylashtirish punktini asoslash;

Yangi korxonani joylashtirish hududi har tomonlama iqtisodiy asoslanib bo'lgach, shu hudud ichida korxonaning qurilish o'rni (punkti) belgilanadi. Korxonani joylashtirish punkti to'g'ri tanlanganligi qurilishning qancha davom etishiga, uning qiymatiga va korxonaning istiqbolda iqtisodiy samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Korxonani joylashtirish punktini asoslashda yirik shaharlarda sanoatning haddan tashqari, mujassamlashib ketishiga yo'l qo'yib bo'lmashligiga, korxonalarni yagona energetika va umumiy kommunikatsiyalarga ega bo'lgan ishlab chiqarish shaklida qurish maqsadga muvofiqligiga, aholi joylarining rivojlanishini hamda qabul qilingan sanitariya-gigiyena talablari va normalariga rioya qilinishi zarur.

Tanlangan qurilish punkti transport xarajatlari kam bo'lishi uchun xom ashyo manbaiga va iste'mol joylariga maksimal yaqin bo'lmog'I lozim. Punktni

tanlashda korxonani qurish uchun maydonni tanlash va uni iqtisodiy baholash alohida ahamiyat kasb etadi. Maydon gorizontal yuzaga ega bo‘lmog‘i lozim. Barcha binolar, inshootlar, korxonalar, transport xo‘jaligini maydonda ratsional joylashtirish, kelajakda kengaytirish, temir yo‘l magistraliga oson qo‘shilish, suv bilan oson ta‘minlanish va ortiqcha suvlarni oqizib yuborish, yaqin oraliqda joylashgan aholi punktiga ega bo‘lgan sanitariya-gigiyena talablariga javob berishi zarur.

5. Sanoatni joylashtirishdagi siljishlarning iqtisodiy samaradorligi

Mustaqillik yillarida sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishda yirik o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ayrim hududlar o‘rtasida yangidan-yangi aloqalar o‘rnatildi, ularning o‘zgarishlar davrigacha bo‘lgan ixtisoslanishi tubdan o‘zgardi. Sanoatda qayta ishlash uchun yangi hududlarda joylashgan bir qator foydali qazilma konlari ishga tushirildi. U yerlarda kuchli sanoat majmualari tashkil topdi. Bu o‘zgarishlar yuqorida aytib o‘tilgan sanoatni joylashtirish tamoyillari O‘zbekiston davlatining iqtisodiy strategiyasi va taktikasi asosida ro‘y berdi va bu ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining oshirilishiga olib keldi.

Sanoatni joylashtirishda ro‘y beradigan tub o‘zgarishlarning iqtisodiy samaradorligi ko‘pgina ko‘rsatkichlar yordamida hisobga olinadi. Lekin, bu o‘zgarishlarning bir qismini miqdor jihatdan o‘lchash mumkin emas, chunki ular siljishlarning sifat jihatidan natijasini ko‘rsatadi. Bular qatoriga yangi hududlarning juda katta foydali qazilma resurslarini sanoatda foydalanish uchun ishga tushirish, ilgari nisbatan qoloq hududlarning industrial va agrar hududlarga bo‘linishini yo‘qotish va shu kabilar kiradi.

Sanoat joylashishidagi siljishlarning iqtisodiy samaradorligini miqdor jihatdan hisoblashda birinchi navbatda xalq xo‘jaligiga sarflangan capital mablag‘lar samaradorligini oshirish ko‘zda tutiladi.

Sanoatni joylashtirishdagi siljishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning muhim ko‘rsatkichlaridan yana biri mehnat unumdorligining oshishidir. Respublikaning markaziy hududlarida joylashgan bir qator tarmoq korxonalari boshqa hududlardagi korxonalariga nisbatan yuqoriroq mehnat unumdorligiga ega. Lekin boshqa hududlarda qurilayotgan korxonalar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muammolarni hal etadilar.

Sanoatni joylashtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlaydigan yana bir ko‘rsatkich mahsulot tannarxidir. Boshqa hududlarda joylashgan korxonalar mahsulotining tannarxi rivojlangan hududlardagi korxonalaridan birmuncha past bo‘lishi mumkin. Lekin bunday yo‘qotish mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan iqtisodiy – ijtimoiy taraqqiyot tufayli barham topadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan amalga oshirilgan anchagina siljishlar bilan birga, mustaqillikka erishilguncha mamlakat sanoatini joylashtirishda yo‘l qo‘yilgan bir qator kamchiliklar hali ham to‘la barham topgani yo‘q. Hududlar ichra va hududlararo kooperativlashtirishda ham bir qator muammolar mavjud. Bularning barchasi sanoat mahsulotlarining asosiy turlarini xom ashyo va yoqilg‘ini nihoyatda uzoq va qarama-qarshi taraflarga tashish

zaruriyatini tug‘dirishi natijasida ijtimoiy mehnat unumdorligining ko‘tarilishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bois bozor iqtisodiyotining keying bosqichiga o‘tish davrida sanoatni oqilona joylashtirish masalasiga katta e‘tibor berish kerak bo‘ladi.

Sanoatni joylashtirish borasidagi muammolarni hal etish uchun quyidagi masalalarga alohida e‘tibor berish kerak:

- Respublikada ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish bozor sharoitiga mos ravishda olib borilishi, uning tabiiy boyliklaridan oqilona va samarali foydalanish hamda kooperativlashtirish afzalliklaridan to‘la-to‘kis foydalanish;

- Kichik va o‘rta biznesga tegishli sanoat korxonalarini qishloqlarda yaratish, ayniqsa qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini olib kirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi;

- Sanoat ob‘ektlarining qurilish muddatini qisqartirish va ulardan foydalanish xarajatlarini keskin kamaytirish;

- Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish sharoitlarini yaratish va h.k.

Sanoat ob‘ektlarini joylashtirish samaradorligini aniqlashda capital qo‘yilmaning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning rasmiy usulidan foydalanish mumkin. Bu usulga binoan sanoat korxonasini joylashtirishning iqtisodiy jihatdan eng qulay loyiha-mahsulot birligiga sarflanadigan ijtimoiy mehnat kamayishini ta‘minlovchi variant tanlab olinadi. U quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$X_h = T + e_k \cdot K,$$

Bu erda:

T – konkret hudud sharoitida tayyorlanadigan mahsulotning to‘la tannarxi;

Ye_k – capital qo‘yilmaning normative qiyosiy samaradorlik koeffitsiyenti;

K – ishlab chiqarish quvvatini yaratish uchun lozim bo‘lgan capital quyilma miqdori.

Sanoat ob‘ektlarini joylashtirishning qiyosiy samaradorligini aniqlash capital quyilma va mahsulot tannarxini hisoblashni va boshqa sharoitlarni ham batafsil aniqlash hamda har tomonlama taqqoslashni va barcha imkoniyatlarni nazarda tutishni taqozo etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1.Sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishning mohiyati va ahamiyati nimada?

2.Sanoatni joylashtirishning tamoyillari (fundamental qoidalari)nimalardan iborat?

3.Sanoatni joylashtirishga ta‘sir etuvchi shart-sharoitlarni nimalarda ko‘rish mumkin?

4. Tarmoqlarni joylashtirishdagi o‘ziga xos xususiyatlarga ta‘rif bering?

5.Sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishdagi siljishlar va istiqboldagi vazifalar nimalardan iborat?

22-mavzu. Tarmoqlarda investitsiya jarayoni

Reja:

1.Investitsiya tushunchasi, mazmuni va ahamiyati.

2.Investitsiya manbalari va ularni tarmoqlarga joylashtirish.

3. Investitsiya loyihalar samaradorligi ko'rsatkichlari va ularni aniqlash.

1. Investitsiya tushunchasi, mazmuni va ahamiyati.

Ishlab chiqarish faktorlaridan biri bo'lib kapital hisoblanadi. Ishlab chiqarish vositalari (mashinalar, jihozlar, transport vositalari, barcha instrument turlari, binolar, qurilmalar, inshootlar kabilar) investitsion tovarlar yoki investitsion resurslar deb ataladi.

Investitsion resurslar (tovarlar) va kapital sanoat korxonasida sinonim sifatida ishlatiladi. Ushbu terminlar mazmuniga pul kiritilmaydi, chunki u, o'z-o'zidan hech narsa ishlab chiqarmaydi, ishlab chiqarish resursi sifatida ishlatilmaydi. Pul ishlab chiqarish resurslarini sotib olish uchun manbaa bo'lib hisoblanadi. Shunday qilib investitsion tovarlari (resurslari) bu uzoq muddatda foydalanadigan ishlab chiqarish vositalari bo'lib, u ko'plab tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish va foyda olish maqsadida foydalaniladi.

Investitsiya lotincha “investire” (kiyintirish, yasantirish), nemischa “investition” so'zidan kelib chiqib, qisqacha uzoq muddatga ishlab chiqarishni kengaytirish, daromadni orttirish, foyda olish uchun qandaydir ishga yoki korxonaga kapital mablag' qo'yishni bildiradi. Investitsiyaga kengroq ma'noda ta'rif bersak, u foyda yoki boshqa foydali maqsadga erishish uchun biron-bir tadbirkorlik ob'ektiga (korxonaga) yoki boshqa faoliyatni yuritish uchun pul mablag'larini; qimmatbaho qog'ozlarni; pulda baholanuvchi mol-mulkni, jumladan mulkiy yoki boshqacha huquqlarni yo'naltirish deb tushunish zarur.

Investitsiya so'zidan investor - omonatchi so'zi kelib chiqib, u omonat (qarz, kredit) beruvchi shaxs, tashkilot (korxonaga) yoki davlatni anglatadi. Investor investitsion faoliyatni ob'ekti hisoblanadi. Investorlar qatoriga qimmatli qogozlarni sotib oladigan va bu bilan o'zlarining bo'sh mablag'ini joylashtiradigan yuridik hamda jismoniy shaxslar ham kiradi. Investitsion faoliyat deb - mablag' qo'yishdan boshlab to mablag'ni daromad bilan birga qaytarib olish davrigacha amalga oshirilgan jarayonlar majmui tushuniladi.

Investitsion faoliyat alohida bosqichlardan iborat bo'ladi.

Boshlang'ich bosqich - jahon amaliyotida pul mablag'ini ajratish davri hisoblanadi. Bunda investor investitsiya ob'ektiga biron-bir faoliyatni masalan, jihoz sotib olish uchun) bajarish uchun pul mablag'i ajratadi.

Ikkinchi bosqich - ajratilgan mablag'ni qaytarilishi. Mablag'ni ajratilishi biron muddatda amalga oshiriladi, mablag'ni qaytarilishi investitsion sikl davrida masalan, yilma-yil mobaynida amalga oshiriladi.

Korxonalar investitsion faoliyatni amalga oshirishda investitsiyani ko'proq foyda keltiradigan joyga yo'naltirish muammosiga duch keladi. Ushbu muammolar - investitsiyalar qo'yish yo'nalishlarini aniqlash, joriy va perspektiv rejalar ishlab chiqish jarayonida aniqlanadi. Ushbu jarayon investitsion siyosatni ishlab chiqishda belgilanadi. Korxonaning investitsion siyosati bir qator omillar

ta'sirida aniqlanadi. Ular ichida ayniqsa zaruriyroqlari, asosiylari desak ham bo'ladi quyidagilardan iborat:

- Investitsiya ob'ektining mulk shakli;
- Korxonaning faoliyatining hayot bosqichlari;
- Iqtisodiy faoliyat turi;
- Strategik ustuvorliklar;
- Ishlab chiqarishning texnik-texnologik jarayoni;
- Korxonaning ishlab chiqarayotgan mahsulotning raqobatbardoshligi, bozorligi;
- Korxonaning bozordagi o'rni (nishasi);
- Korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holati va boshqalar.

Investitsion siyosatda avvalom bor mablag' quyiladigan korxonaning investitsiya uchun ustuvor ob'ekti aniqlanadi. Keyin investitsiyadan samarali foydalanish yo'llari ishlab chiqiladi. Bunda investitsiyadan samarali foydalanishga ta'sir qiladigan barcha ob'ektiv va sub'ektiv omillar o'rganiladi, salbiy holatlar bartaraf etiladi.

Investitsiya ikki xil shaklda amalga oshiriladi. Birinchisi, yangi korxonalar barpo qilish va ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, jihozlar sotib olish, litsenziya olish, ko'chmas mulk xarid qilish. Ikkinchisi, mablag'ni qimmatbaho - qog'ozlarga qo'yish. Birinchisi real investitsiya deb tushuniladi, ikkinchisi portfelli investitsiyalash deb yuritiladi. Portfelli investitsiyalar litsenzion va franchayzing kelishuvlari, marketing xizmati haqidagi kontraktlar asosida tashkil qilinsa investorga korxonani boshqarish huquqini beradi.

Investitsiya - pul mablag'lari, kredit, qimmatbaho qog'oz shaklida olib boriladi va ko'chma, ko'chma bo'lmagan mol-mulkga, intellektual mulkga, ne'matlarga bo'lgan huquqqa va boshqa qiymatliklarga qo'yiladi, ya'ni korxonaning barcha aktivlariga ishlatiladi.

Nomoliyaviy aktivlarga, ya'ni real kapitalga qo'yilgan investitsiya asosiy kapitalni yangilash va takror ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Moliyaviy (pul) kapitaliga (moliyaviy mablag'larga kredit sifatida, qimmatbaho qog'ozlarga) qo'yilgan investitsiyani bir qismi tezlik bilan real kapitalga aylanishi mumkin, ikkinchisi - kengroq, ya'ni qandaydir vaqt o'tgandan keyin, uchunchisi esa - umuman real kapitalga aylanmasligi mumkin (Masalan: chiqarilgan yoki sotib olingan qimmatbaho qog'oz o'z qiymatini yo'qotsa, oddiy so'z bilan aytganda sinsa). Shu sababli moliyaviy investitsiyada investorga moliyaviy xatar ko'proq bo'ladi.

Investitsiya moliya bozorining elementi hisoblanadi. Moliya bozori muayyan moliya muassasalari orqali o'zaro aloqada bo'ladigan mulk egalari bilan sarmoya, qarz oluvchilari o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Aksiya va obligatsiyalar investitsiya qimmatli qogozlari deb yuritiladi. Moliya bozorida qimmatli qogozlarning boshqa turlari - xazina majburiyatlar; depozit sertifikatlar; veksellar; varrantlar va hokazolar muomalada yuradi. Investitsiya jamiyatni iqtisodiy rivojlanishiga va har bir jamiyat a'zosini moddiy farovonligini oshirishga ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi. Investitsiya korxonaning

aktiviga, yangi mahsulot ishlab chiqish, ularni sifatini oshirish, mahsulotni sotishni va foydani ko'paytirish uchun qo'yiladigan mablag. Shu sababli investitsiya ishlab chiqarishni kengaytirishni, kapitalni oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni, yangi ish joylarini tashkil qilishni, ish haqini va aholini sotib olish quvvatini oshirishni, davlat va mahalliy byudjetga tushumlarni ko'paytirishni ta'minlaydi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan investitsiya asosiy va aylanma mablaglarni jamgarishni anglatadi. Moliyaviy nuqtai nazardan moliyaviy resurslarni daromad (foйда) olish uchun to'plashni ko'rsatadi. Buxgalteriya hisobi nuqtai nazardan hisobotning aktiv va passivining bir necha moddalariga ishlatilgan kapital xarajatlarni birlashishini ifodalaydi.

Investitsiyani bir turi bu - annuitet. Annuitet aholining shaxsiy investitsiyasi bo'lib, omonatchiga qandaydir bir davr ichida yoki doirasida unga daromad beradi. Annuitet asosan sugurta va pensiya jamgarmalariga mablag qo'yishni anglatadi.

Investitsiya muassasalariga moliya brokerlari, investitsiya kompaniyalari (dillerlar), investitsiya sohasi bo'yicha maslahatchilar, investitsiya fondlaridan iborat bo'lib, ular investitsiya bo'yicha vositachilik, qimmatli qogozlarni chiqarishni yo'lga qo'yish, ularni uchinchi shaxslar foydasiga joylashtirish bo'yicha kafolatlar berish, aksiyalar chiqarish kabi ishlar bilan shug'ullanadi.

2. Investitsiya manbalari va ularni tarmoqlarga joylashtirish.

Investitsiya resurslari iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlanishini boshqarishning iqtisodiy omili vazifasini bajaradi. Investitsiya mablaglari ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish jarayonlarida hamda aholining foydalanilmayotgan mablaglarini to'planish natijasida, ularni boshqa jarayonlarda ishlatilishini ta'minlaydi.

Korxonalar nuqtai nazaridan investitsiya manbalari ular o'z mablaglari (foйда, amortizatsiya, boshqa pul jamgarmalari); qarzga olingan mablaglar (bank krediti va boshqa tashkilotlarni omonatlari); boshqa jalb qilingan mablaglar (aksiya va boshqa qimmatbaho qogozlarni sotishdan kelgan daromadlar); byudjet va byudjetdan tashqi mablaglar tashkil qiladi.

Investitsiya tarkibida uning manbalari o'z aksini topadi. Investitsiya manbalarini uning tarkibidan kelib chiqib moliyaviy va moddiy resurslarga ajratish mumkin.

Moliyaviy manbalarga - naqd pul; chet el valyutasi; xalqaro to'lov pullari; aksiyalar; zayomlar; korxonalar mablaglari; amortizatsiya fondi kiradi.

Moddiy resurslarga - xom-ashyo resurslari; ko'chmas mulk; jamoa-shirkat-xo'jalik mulki; fermerlar mulki; dehqon xo'jalik mulki; tadbirkorlar mulki kiradi.

Investitsiya manbalarini shakllantirishda moliya bozori va uning infratuzilmasi muhim ahamiyatga egadir. Moliya bozorining asosiy maqsadi muamoladagi ortiqcha bo'lgan pul resurslarini aktiv kapital sifatida ishlab chiqarishga jalb qilishdan iboratdir.

Moliya bozori juda keng ma'noli tshuncha bo'lib, u doimo paydo bo'ladigan jamgarmalardan samarali foydalanish jarayonini o'zida ifodalaydi. Moliya bozori hayotda vujudga kelgan jamgarmalarni (oilada, korxonada) bir turdan (jamgarmalanishi) ikkinchi turga (real kapitalga aylanishi) o'tishini ta'minlovchi mexanizmdir.

Hozirgi zamon moliya bozorining asosini moliya muassasalari va vositachilar tashkil qiladi. Ular sotuvchilar va xaridorlar, hamda sotiladigan va sotib olinadigan tovar, pul va boshqa moliya aktivlari mavjud bo'lgan bozordir.

Investitsiyalarni ob'ektlarga qo'yish sohalariga qarab quyidagilarga ajratish mumkin:

- kam qo'llaniladigan investitsion mablaglar, ya'ni, qo'riq (bo'sh yotgan) yerlarni o'zlashtirish, mehnat resurslaridan vaqtincha foydalanish (mutaxassislar va rahbarlardan) va h.k.;
- ma'lum hajmda talab qilinadigan investitsiya mablaglari;
- rejalashtirilgan investitsiyadan olinadigan daromadga ta'sir etuvchi boshqa investitsion sharoitlar, ya'ni rejalashtirilgan asosiy investitsiya mablaglariga qo'shimcha investitsiya mablaglarini jalb etish yo'li bilan investitsiyadan keladigan foydani oshirish;
- faoliyatga qo'yilgan shakliga qarab, investitsiya o'z harakatida daromadlarni oshirish yoki kamaytirish, xavf-xatarni kamaytirish, mehnat jamoasini manfaatdorligini oshirish, ish sharoitini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirishga yo'naltirilishini ta'minlash zarur;
- qo'shimcha investitsiyalar xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish, mahsulot ishlab chiqishni va sotishni oshirish, qo'shimcha daromad olishni ta'minlashga yo'naltirilish kerak;
- ma'lum ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibi ishlab chiqarishni ixtisoslashuviga qarab taqsimlanishi darkor;
- investitsiyalar resurslarni tejash, yangi mahsulot ishlab chiqish, korxonada imdjini oshirish, tabiatni muhofaza qilish va hokazolarni ta'minlashi ham zarur.

3. Investitsiya loyihalar samaradorligi ko'rsatkichlari va ularni aniqlash.

Investitsiya faoliyati alohida tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, investitsiya strategiyasini aniqlash, strategik rejalashtirish, investitsiyaviy loyihalashtirish, loihalarni tahlil qilish hamda investitsiyani samarasini aniqlash kabilardan iborat bo'ladi. Korxonada misolida investitsiya strategiyasini aniqlash - bu kelajak davrga korxonalarni asosiy faoliyatlarini rivojlantirish yo'llarini aniqlash, shu jumladan o'z mablaglari hisobidan va boshqa investorlar hisobidan xarajatlarni

qoplanish miqdorini aniqlash. Korxonada aktivlarini hajmini va rentabelligini prognoz qilish. Strategik rejada aktivlarga bo'lgan ehtiyoj va uni ta'minlash resurslari uzoq muddatga aniqlanadi.

Investitsion loyiha bu investitsiyani texnik-iqtisodiy asoslash bo'lib, u investitsion faoliyat ishtirokchilarini (mulkdor, tadbirkor, bankir, davlat va xalqaro tashkilotlar kabilar) iqtisodiy axborotnomasi, ularni o'zaro aloqalarini bog'laydi hamda tushuntiradi. Qisqa qilib aytganda investitsiya loyihasi investitsiyadan foydalanish rejasini anglatadi. Investitsiya loyihasini samaradorligini hisoblash - bu investitsiyadan keladigan samara ko'rsatkichlarini aniqlashni anglatadi.

Investitsiya loyihasini asosi bu kapital qo'yilmalarga bo'lgan ehtiyojni aniqlashdan iborat. Shu sababli Investitsiya loyihasi samaradorligi kapital qo'yilmalar samaradorligi orqali aniqlanadi. Investitsiya samaradorligini aniqlashda uning o'zini qoplash muddati, xavf darajasi, inflyatsiyani oshish tempi, kelajakda soliqlar miqdorini o'zgarishi kabilar hisobga olinishi shart. Chunki investitsiyani qulay va samarali sohaga qo'yish investorlar uchun muhim ahamiyatga ega. Jahon amaliyotidan shu ma'lumki pulni banklarda saqlash eng qulay hisoblanadi, chunki omonatchi undan protsent oladi.

Pulni investitsiya qilish (ishlab chiqarishga qo'yish yoki qimmatbaho qogozlar sotib olish) investorga faqatgina unga bank tomonidan beriladigan protsentsdan ko'proq daromad keltirsagina foydaliroq bo'ladi. Bu investorlar uchun birinchi qoida bo'lib hisoblanadi.

Investorlarning ikkinchi qoidasi - investitsiya rentabelligi inflyatsiya darajasidan yuqori bo'lishi kerak.

Shunday qilib, investitsiya samaradorligini hisoblaganda yuqorida keltirilgan qoidalarda keltirilgan ko'rsatkichlarni solishtirma tahlili katta ahamiyatga ega. Investitsiya loyihasini baholashda xarajatlar va daromadlarini har xil davrga solishtirma tahlili katta ahamiyatga ega. Chunki xarajatlar biron davrda ishlatiladi, daromad esa nafaqat biron davrdan kegin, u asosan xarajatlar amalga oshirgandan keyin kela boshlaydi. Shu sababli davriy pul qiymati degan tushuncha ishlatiladi. Ushbu ko'rsatkich oldin olingan 1 so'm keyin olingan 1 so'mdan qimmatroq turishini anglatadi.

Shu sababli iqtisodiy va moliyaviy tahlilda so'mning joriy va kelajakdagi qiymatini hisoblaydi, tahlil qiladi. Bunday hisob-kitoblar diskontirovaniya deb yuritiladi. Diskontlashtirish investitsiya yoki pul oqimlarini kelgusidagi qiymatining joriy bahoda ifodalanishi tushuniladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Investitsion faoliyat nima?
2. Investitsiyaning moliya bozoridagi ta'sirini tushuntiring.
3. Hozirgi zamon moliya bozorining asosini nima tashkil etadi?
4. Investitsion loyihani izohlab bering.

23-mavzu. Tarmoqlarning moliyaviy resurslari

Reja:

1. Moliyaviy resurslar va ularning tavsifi.
2. Tarmoq moliyaviy resurslari va ularni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish.
3. Moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiya qilish.

1. Moliyaviy resurslar va ularning tavsifi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida bozor munosabatlarining tezlik bilan o'zgarishishiga moslashish har bir korxonada faoliyati muvaffaqiyatining garovidir. Bunda mahsulotlar va xizmatlarning bozorda tutgan o'ri (mavqei), shuningdek, xarajatlarni nazorat qilish bilan cheklanmasdan, balki qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samaradorligini muttasil tekshirish, o'zgaruvchan bozor sharoitida korxonaning o'z huquq va imkoniyatlaridan qay darajada foydalanayotganini tahlil qilish ham zarur.

Moliyaviy resurslar bu korxonaning moliyaviy mablag'lari hisoblanib, korxonaning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'laridan samarali foydalanish usullaridan biri – bu ularni qimmatli qog'ozlar sotib olishga yo'naltirishdir. Mablag'larni qimmatli qog'ozlarga yo'naltirish o'z tavsifiga ko'ra yuqori tavakkalchilik faoliyati bilan bog'liq bo'lib, tavakkalchilik darajasini imkoni boricha pasaytirish maqsadida moliyaviy holatni va bozor konyukturasini bilish fond birjasi ma'lumotlarini muntazam ravishda monitoring qilib turishni taqozo etadi.

Ma'lumki, qimmatli qog'ozlar muomala jarayonida uchta bosqichdan o'tadi: birinchisi, emissiya bosqichi bo'lib, unda qimmatli qog'ozlar birlamchi joylashtiriladi va o'zining birinchi egasiga o'tadi. Ikkinchisi, ularning ikkilamchi, ya'ni aktiv bozordagi harakati tushuniladi. Uchinchisi, qimmatli qog'ozlarning so'ndirilishi amalga oshiriladi.

Ushbu muomala jarayonida qimmatli qog'ozlar harakati fond birjalarida amalga oshirilib, vaqtga teskari proporsional ravishda nominal va haqiqiy (bozor) narxlari o'zgaradi. Ushbu o'zgarish iqtisodiyotda bozor kotirovkasi deb ham ataladi.

Bozor kotirovkasiga ega qimmatli qog'ozlar deganda, fond birjalari va birjadan tashqari bozorlarda faol savdo qilinadigan aksiyalar va obligatsiyalar tushuniladi, ularning kotirovkasi esa kehg chop etiladi. Bunday qimmatli qog'ozlarning ro'yxati qimmatli qog'ozlar (fond) birjasi ekspert komissiyasi tomonidan e'lon qilinadi. Bunda qimmatli qog'ozlar javob berishi kerak bo'lgan quyidagi mezonlarga qaraladi: birja savdosiga ruxsat etish shartlariga mos kelish; bitta fond birjasida rasmiy kotirovka qilishga ruxsat etish.

Qimmatli qog'ozlar bilan birjaga savdo qilishga ruxsat etish uchun korxonada ishlab chiqarish jarayonlari va boshqaruvining eng muhim sohalarini tahlil qilish zarurligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bunda tahlil quyidagi axborotlarni umumlashtirish va ishlashga tayanadi. Ustav kapitalining miqdori, bitta aksiyaga to'g'ri keladigan daromad, xavf xatarni baholash, bozorning holati, ishlab chiqarish samaradorligi, to'lov qobiliyati va pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik.

Xavf xatarni baholash iqtisodiyot uchun mazkur tarmoq ahamiyatidan kelib chiqib kuzatiladigan tendentsiyalar, “boshlang’ich” rivojlanishning oson yoki qiyinligi, daromad negizining xilma xilligi, davlat tomonidan tartibga solib turishni hisobga olgan holda aniqlanadi. Shuningdek, korxonalar mahsulotlarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligi, inflyatsiya o’sishining kutilayotgan sur’atlarini va ishlab chiqarish tashkiliy – texnik darajasining ko’rsatkichlari, kapital sig’imi, xom ashy ova mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik, ishlab chiqarishning kontsentratsiyalashuvi va ixtisoslashganligini ham inobatga olish zarur. Ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilishda birinchi navbatda, xarajatlar va natijalar nisbati, bu nisbatni bir me’yorda tutib turish va yaxshilash layoqati baholanadi. Ishlab chiqarish xarajatlari strukturasi batafsil tahlil qilinganidan so’ng asosiy ishlab chiqarish fondlarining faoliyati, material va mehnat resurslari ko’rib chiqiladi.

Boshqaruv samaradorligini baholashda ishlab chiqarish va moliyaviy muomalalar natijalari puxta tahlil qilinadi. Korxonalar faoliyatini strategic va joriy rejalashtirishning sifati, ichki boshqaruv, moliyaviy, shuningdek, tashqi nazorat ham baholanadi. Korxonaning firmalar bilan qo’shib ketishi, boshqa kompaniyalarni o’ziga qo’shib olish, boshqa firmalarni sotib olish hisobiga kengayish imkoniyatlari ko’rib chiqiladi. Nomoddiy aktivlar, boshqaruv, tashkiliy resurslar, firmaning bozordagi amaliy shuxrati (goodwill), sotish shoxobchalarini nazorat qilish va shu kabilar alohida baholanadi. Hisobni tahlil qilishda hisob yuritish siyosati, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashda qo’llaniladigan metodlar, moddiy qiymatliklarni baholash, daromadlarni aniqlash va boshqalar umumiy tarzda baholanadi. Shuningdek, firma moliyaviy ahvolini aks ettirishning to’laligi ko’rib chiqiladi.

Daromadlilikni tahlil qilish korxonaning uzoq kelajakdagi daromadlilikini, soliqlarni to’lashda oldingi va keying kapitalga to’g’ri keladigan daromadlarni tavsiflaydigan asosiy ko’rsatkichlarni ko’rib chiqishni nazarda tutadi. Inflyatsiya va o’z-o’zini moliyalashtirish imkoniyatlari o’sishining ta’siri baholanadi. To’lovga layoqatlilikni tahlil qilish korxonalar qisqa muddatli va uzoq muddatli qarzlari tarkibini, kreditor qarzlarni o’rganib chiqish, o’z aylanma mablag’larining tarkibi va manbalarini qo’shimcha o’sishini o’rganishdan iborat. Korxonalar jami qarzlarning o’z kapitaliga nisbati dinamikasining, ya’ni capital tuzilishi koeffitsientlari, pul mablag’lari, va boshqa joriy aktivlarning joriy majburiyatlariga nisbati, ya’ni tez va mutloq likvidlik koeffitsientlari aniqlanadi va baholanadi.

Pul mablag’lari bilan ta’minlanganlik korxonaning barcha ehtiyojlarini o’z mablag’lari bilan qondira olish imkonini bildiradi. Bunday imkoniyatni baholash bir necha yillardagi naqd pullar harakati rejasini va hisobotini, shuningdek, capital investitsiyalarga bo’lgan ehtiyojni va boshqalarni tahlil qilish yo’li bilan amalga oshiriladi. Ko’rinib turibdiki, o’z qimmatli qog’ozlarini birjaga chiqarish haqida qaror qabul qilgan korxonalar bozorda yaxshi sharoitlarga, shuningdek, yaqin kelajakdagi rivojlantirishning aniq strategiyasi, mahsulot ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyasi, ishlab chiqarish va menejmentning yuqori saviyada tashkil etilishiga ega bo’lishi lozim.

2.Tarmoq moliyaviy resurslari va ularni auditorlik tekshiruvdan o'tkazish.

Moliyaviy resurslarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazishda foydalaniladigan axborot manbalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- moliyaviy resurslarni buxgalterlik hisobida aks ettirish va soliqqa tortishni hamda auditorlik tekshiruvdan o'tkazishni tartibga soladigan me'yoriy hujjatlar;
- buxgalteriya hisobotlari;
- korxonaning hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'i;
- moliyaviy resurslarni hisobga oladigan sintetik va analitik hisob registrlari;
- moliyaviy resurslarni aks ettiradigan dastlabki hujjatlar.

Korxonaning hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'I bo'yicha auditor quyidagilar bilan tanishishi mumkin:

- boshqa korxonalarining ustav kapitalida ishtirok etishda olingan daromadlarni oddiy operatsion faoliyatdan olingan daromadlar qatorida tan olish;
- moliyaviy resurslarni aks ettirish uchun foydalaniladigan schyotlar rejasi;
- qo'llaniladigan buxgalteriya hisobi shakli va korxonada buxgalteriyasida tuziladigan hisob registrlari ro'yxati;
- moliyaviy resurslarni hisobga olish bilan bog'liq dastlabki hujjatlarning hujjatlar aylanishi (hujjatlar aylanish grafigi);
- korxonaning moliyaviy resurslari qarz shartnomalarini rasmiylashtirishga ruxsat etilgan shaxslar ro'yxati;
- moliyaviy resurslarni hisobga olish uchun korxonadan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan dastlabki hujjatlar shakllaridan foydalaniladi.

Moliyaviy resurslarni hisobga olishda kompyuter dasturlaridan foydalanilganda schyotlar bo'yicha debet kredit oborotlarining bosmadan chiqarilgan yozma nusxasining ma'lumoti tuziladi.

Moliyaviy resurslarning analitik hisob registry sifatida "Qimmatli qog'ozlarni hisobga olish daftari" tavsiya etiladi. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha muomalalar quyidagi hujjatlarga asosan amalga oshiriladi: ta'sis shartnomasi, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi shartnomasi qarz shartnomasi, deposit jamg'arma uchun shartnoma, qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yish shartnomasi, oddiy shirkat shartnomasi va boshqalar.

Auditor ushbu ko'rsatilgan shartnomalar qoidalarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq muomalalarni tartibga soladigan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga mos kelishini tekshirishi lozim.

Moliyaviy resurslar auditida ma'lumot ma'nosi sifatida foydalaniladigan dastlabki hujjatlarga quyidagilar kiradi: qimmatli qog'ozlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hamkorlikdagi faoliyatga qo'shiladigan ulushni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, umumiy ishni yurituvchi hamkor tomonidan mulklarni qabul qilish to'g'risidagi avizo, pul shaklidagi ulushlarni o'tkazish to'g'risidagi to'lov topshiriqnomasi va bank ko'chirmasi (naqd pullik hisob kitoblarda), qimmatli qog'ozlar qiymatini to'lash uchun beriladigan mulklar (aktivlar) ni rasmiylashtirish schyot fakturasi va nakladnoyi, qimmatli qog'ozlar va

qat'iy hisobda turadigan blankalarning inventarizatsiya ro'yxati va boshqa hujjatlar kiradi.

3.Moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiya qilish.

Shuni ta'kidlash joizki, moliyaviy resurslarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish metodikasi hali respublikamizda to'liq ishlab chiqilmagan. Moliyaviy hisobotlar investitsion faoliyatning miqyoslari yo'nalishlari va tavsifini, uning korxonalar moliyaviy faoliyati, istiqboliga ta'sirini ochib berish uchun xizmat qiladi. Ulardan zarur axborotlarni olish tashqi foydalanuvchilarda va analitiklarda korxonaning mulkiy va moliyaviy faoliyati haqida to'liq va aniq ma'lumot shakllanishiga yordamlashadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Moliyaviy resurslar deganda nimani tushunasiz?
2. Bozor kotirovkasiga ega qimmatli qog'ozlarga izoh bering.
3. Moliyaviy resurslarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish nimani beradi?
4. Moliyaviy resurslar auditi nima?

24-mavzu. Tarmoqlarda qayd va hisobotni tashkil etish

Reja:

- 1.Tarmoqlarda qayd va uning zarurligi.
- 2.Hisobotning mohiyati va turlari.
- 3.Tarmoqlarda yillik hisobot, uning tarkibi va mazmuni.

1.Tarmoqlarda qayd va uning zarurligi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir tarmoq o'zining ishlab chiqarish va uning natijasidan kelib chiqib ko'proq daromad olishga intiladi. Tarmoqda nafaqat foyda, balki zarar ham tarmoq xo'jalik faoliyatining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi salbiy omillardan biri hisoblanadi.

Shunday ekan, tarmoqlarda qayd (hisobga olish) ni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Hozirgi xo'jalik yuritishda barcha tarmoqlarda foyda ko'rsatkichi muhim hisoblanadi. Buning uchun tarmoqning asosiy va oborot mablag'laridan samarali foydalanish va o' o'mida bozordagi talabga qarab ishlab chiqarishni y'lga qo'yish talab etiladi.

Agar tarmoqda samara bermaydigan ishlab chiqarish usullaridan foydalanilsa yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste'molchilar talabini qondirmasa, unda tarmoq asta sekin zarar ko'ra boshlaydi va oxir oqibat inqirozga yuz tutadi.

Bu albatta, tarmoq uchun achinarli holatdir. Suning uchun ham tarmoqlarda foyda va zarar hamda tegishli faoliyatni o'z vaqtida hisob (qayd) ga olish va uni to'g'ri yo'lga qo'yib borish zarur hamda muhim hisoblanadi.

Barchamizga ma'lumki, har bir tarmoq faoliyat yuritishidan maqsad eng avvalo foydaga intilish va pirovard natijada unga erishishdir. Shunday ekan barch tarmoqlar uchun foyda va unga erishish muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tarmoqlar mahsulot sotishdan olgan mablag'dan o'zining hamma xarajatlarini qoplaydi va undan tashqari foyda ham oladi. Olingan foydaning bir qismi buyudjetga soliqlar hamda boshqa to'lovlarni to'lash uchun sarflanadi, qolgani esa tarmoq ixtiyorida qoladi va faoliyatni ilmiy-texnik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy manbai bo'lib hisoblanadi. Tarmoq ixtiyorida qolgan mablag'ni qahday maqsadlarga sarflashni uning o'zi mustaqil ravishda hal qiladi.

Foyda, qo'shilgan qiymat solig'I va aktsiz solig'I sof daromadning shakllari bo'lib hisoblanadi. Ularning har biri tashkil toppish mexanizmi va ulardan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Qo'shilgan qiymat solig'I va aktsiz solig'I davlat buyujetiga mahsulot sotilganidan keyin o'tkaziladi, bu mablag' umumdavlat hamda umumxalq maqsadlari uchun sarflanadi.

Foyda – korxonaning oxirgi moliyaviy natijasi hisoblanadi. U mehnatga haq to'lash fondi bilan birga (foydaning korxonada ixtiyorida qolgan qismi) korxonada daromadini tashkil qiladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida foyda ko'satkichini to'g'ri aniqlash juda muhim ahamiyatga ega. Mazkur daromad hisobidan maxsus maqsadlarga mo'ljallangan fondler, rezerv fondi tashkil bo'ladi, capital qo'yilmalar moliyalashtiriladi va ijtimoiy tadbirlar amalga oshiriladi.

Tarmoqlarning moliyaviy natijalari miqdoriga juda ko'p omillar ta'sir etadi. Masalan, inflyatsiya, valyutaning o'zgarib turishi, kredit siyosati va boshqalar. Tarmoqlarda ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi yuqorida sanab o'tilgan omillar ta'siri hisobga olingan holda moliya natijalari aniqlanishi lozim. Shuning uchun ham tarmoqlarda buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritish va olingan foyda miqdorini to'g'ri aniqlash talab etiladi.

Foyda miqdorining kamayishi davlat buyudjetiga to'lanish lozim bo'lgan mablag' miqdorining kamayishiga va bu o'z navbatida buyudjet hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar miqdorining kamayishiga olib keladi. Zararga ishlaydigan tarmoqlar esa oxir oqibatda "sinadi", ya'ni inqirozga yuz tutadi. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida amaldagi qonunlarga ko'ra yaxshi ishlaydigan tarmoqlar foydasini qayta taqsimlash ko'da tutilmagan. Shuning uchun ham zararga ishlaydigan tarmoqlar o'z xarajatlarini o'zlari qoplashlari, buning uchun uni qoplash yo'llarini izlab topishlari kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoqlar faoliyatini hisobga olish markaziy o'rinni egallaydi va uning hisobga olishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

-olingan foyda miqdorini, har oyda hamda yil boshidan o'z vaqtida va to'g'ri hisob-kitob qilish

-moliya natijalari bilan bog'liq operatsiyalarni va ularning taqsimlanishi buxgalteriya hisobi schyotlarida va tegishli registrlarda to'g'ri aks ettirish va boshqalar.

2.Hisobotning mohiyati va turlari.

Tarmoqlarning hisoboti umumlashgan ko'rsatkichlar tizimidan iborat bo'lib, unda tarmoq moliya – xo'jalik faoliyatining natijasi va ma'lum bir davrga reja ko'satkichlarining bajarilishi buxgalteriya, statistika va operativ-texnika hisobi ma'lumotlariga asoslanib tavsiflanadi. Hisobot kundalik nisob ma'lumotlarini hisoblash, guruhlash yo'li bilan tuziladi. U bir necha shaklda bo'ladi. Hisobot ma'lumotlarini tahlil qilish asosida faqatgina u yoki bu tarmoqning xo'jalik faoliyati natijasi baholanib qolmasdan, balki iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarining ish natijasi ham baholanishi mumkin.

Hisobot ma'lumotlarini o'rganish tarmoqlardagi ichki rezervlarni aniqlash va ularni ishga solish imkonini beradi. Ma'lumotlarning aniqligini ta'minlash maqsadida muhim reja ko'satkichlarining bajarilishi haqidagi hisobot tarmoq rahbarlari bilan bir qatorda bosh hisobchi tomonidan ham imzolanadi. Hamma tashkilotlar ko'rsatilgan muddatda va tasdiq qilingan hajmda yuqori tashkilot va boshqa boshqaruv organlariga hisobot topshishadi. Buxgalteriya hisoboti shakllari va tuzilish davrini Respublika Moliya vazirligi tasdiqlaydi. Xo'jalikka rahbarlik va reja topshiriqlarining bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish uchun hisobotga quyidagi talablar qo'yiladi:

1.Oddiylik va aniqlik. Hisobot shakllari shunday tuzilishi kerakki, toki unda hamma reja ko'rsatkichlari, mashina-uskunalaridan, moddiy, mehnat va moliya mablag'laridan foydalanish darajasi aniq aks ettirilgan bo'lsin. Hisobot ma'lumotlariga asoslanib, tarmoq ishi ustidan nazorat ishlari amalga oshiriladi. Nazorat ishlarining olib borilishi tarmoq faoliyatini yaxshilashda, ichki ishlar chiqarish rezervlarini ishga solishda katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda bu ishlarni amalga oshirish maqsadida tarmoqlarda xalq nazorati postlari hamda ijtimoiy byuro va iqtisodiy tahlil guruhlari ishlab turibdai.

2.Hisob ma'lumotlarini reja ko'rsatkichlari bilan taqqoslash mumkinligi. Reja va hisob ma'lumotlari o'z iqtisodiy mazmuni va hajmiga ko'ra bir xil bo'lishi kerak. Taqqoslashni ta'minlash uchun quyidagi sharoitlar zarur.

Xronologik davrning mos kelishi. Hisobotda reja va hisob ma'lumotlari ma'lum bir davrni yoki ma'lum bir vaqtni aks ettirishi kerak.

Reja hamda hisob ob'ektlarining guruhlanishi va ularning bir xil usulda aniqlanishi. Bunday bir xillikni ta'minlash uchun maxsus yo'riqnomalar ishlab chiqilgan.

Bahoning bir xilligi. Reja hamda hisob bir xil narxda baholanadi. Masalan, hisobda va rejada mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi bir xil bahoda ko'rsatiladi.

Tasdiqlangan reja ko'rsatkichlarini zarur bo'lib qolgan taqdirda qayta hisoblash. Qator reja ko'rsatkichlarining bajarilishiga to'g'ri baho berish uchun ishlab

chiqarilgan mahsulot tuzilishi va hajmining o'zgarish ta'sirini yo'qitish zarur bo'lib qoladi.

Hisobot davridagi reja ko'rsatkichlarining bajarilish darajasini o'tgan davrlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash. Hisob va hisobot ma'lumotlarining haqiqatga to'g'ri kelishi inventarizatsiya yo'li bilan tekshirilib turiladi. Bu ma'lumotlarning to'g'ri, aniq va ob'ektiv bo'lishini ta'minlaydi. Tarmoqlar hisoboti rejalashtirish, moliyalashtirish, kreditlash, nazorat va ularning moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish talablariga javob beradi. Tarmoqlar hisoboti qator belgilariga ko'ra guruhlanadi. Avvalo, hisobot ma'lumotlarni olish manbai bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi: buxgalteriya, statistika, va operativ hisobotlari.

Buxgalteriya hisoboti deb, hisobot ko'rsatkichlari uchun ma'lumotlar sintetik va analitik schyotlardan olinadigan hamda o'sha ma'lumotlat boshlang'ich hisob hujjatlari bilan tasdiqlanadigan hisobotga aytiladi. Buxgalteriya hisoboti shakllari hisob registrlari, mashinagrammalarda bitta yoki bir necha sintetik schyot ma'lumotlari asosida yoxud subschyotlar va analitik yozuvlar asosida to'lg'aziladi. Masalan, buxgalteriya balansi va unga ilova qilinadigan hisobot shakllarini olaylik: asosiy vositalar harakati haqidagi va boshqa hisobot shakllari. Ularda tarmoq moliya-xo'jalik faoliyatining hamma tomonlari o'z aksini topadi. Shuning uchun bu hisobot ma'lumotlari reja ko'rsatkichlarining bajarilishi, moddiy, mehnat, va moliya resurslarining oqilona sarflanishi bo'yicha belgilangan normative va limitlarga rioya qilinishi ustidan nazorat olib boorish imkoniyatini beradi. Buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari faoliyat turlari, tarmoqlar va butun iqtisodiyot bo'yicha umumlashtiriladi. Demak, ular faqat tarmoqlar faoliyatini nazorat qilib qolmay, balki ayrim tarmoqlar va butun iqtisodiyot bo'yicha reja topshiriqlarining bajarilishini ham nazorat qilish imkoniyatini beradi. Reja ko'rsatkichlarining bajarilishi nuqtai nazaridan buxgalteriya hisoboti mahsulotni ishlab chiqarish hamda sotish, foyda, mehnat va ish haqi, kapital, qurilish, ta'minot hamda sotish rejalarining bajarilishi haqidagi hisobotdir.

Tarmoqlar hisoboti iqtisodiyotda ularning nuqtai nazaridan umumdavlat handa tarmoq ahamiyatiga ega bo'lgan hisobotlarga bo'linadi. Umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan hisobot ko'rsatkichlari xalq xo'jaligi rejasining bajarilishi ustidan nazorat qilish uchun zarurdir. Tarmoq ahamiyatiga ega bo'lgan hisobot shakllari esa tarmoq rejasining bajarilishi haqidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Bunga asosan tsexlar va tarmoq boshqa bo'limlarining hisobotlari kiritiladi. Tarmoq ahamiyatiga ega bolgan hisobot tarmoqlardagi tsexlar, brigadalar va uchastkalarining ishi ustidan nazorat qilish uchun zarurdir.

Tuzilish davri nuqtai nazaridan yil davomida tuziladigan va yillik hisobotlar bo'ladi. Yil davomida tuziladigan hisobotga bir kunlik, besh kunlik, o'n kuhlik, oylik, chorak yoki yarim yillik hicobotlar kiradi. Yillik hisobot yilning oxirida tuziladi va uning ko'rsatkichlari hisobot yilidagi tarmoq faoliyatini tavsiflaydi.

Xo'jaliklarni o'z ichiga olish nuqtai nazaridan boshlang'ich va umumiy hisobotlar bo'ladi.

Statistika hisoboti esa faqat buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosidagina emas, balki statistika va operativ-texnika hisobi ma'lumotlari asosida ham tuziladi. Bu

hisobotni ikki toifaga bo'lish mumkin. Tarmoq xo'jalik faoliyatini har tomonlama tavsiflash uchun 1-toifa buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari yetarli bo'lmay, statistic ma'lumotlar ham zarur.

Operativ hisobot, asosan, tarmoq ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini kundalik nazorat qilish va boshqarish uchun zarurdir. Bu ma'lumotlar yordamida mahsulotning muhim turlari bo'yicha ishlab chiqarish rejasini bajarish, material jo'natishning borishi, mol yetkazib beruvchilar tomonidan shartnoma shartlariga rioya qilinishi xususidagi va boshqa ma'lumotlarni olish mumkin.

3. Tafmoqlarda yillik hisobot, uning tarkibi va mazmuni.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1997 yil 15 yanvardagi 5-son buyrug'iga asosan tasdiqlangan "Korxonalarining choraklik va yillik moliyaviy hisobot shakllarini to'lg'azish bo'yicha ko'rsatma" siga muvofiq yillik moliyaviy hisobotlar quyidagi shakllarda taqdim etiladi:

- buxgalteriya balansi – 1-shakl.
- moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot – 2-shakl.
- asosiy vositalarning harakati to'g'risida hisobot – 3-shakl.
- pul oqimlari to'g'risida hisobot – 4-shakl.
- xususiy capital to'g'risida hisobot – 5-shakl.
- balansga ilova – debitorlik va kreditorlik qarzlari xususida ma'lumotnoma – 2a shakl.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, yillik moliyaviy hisobotga tarmoq faoliyatining hisobot yilidagi yakuniy natijalarga ta'sir etuvchi asosiy omillar, tarmoqning yillik moliyaviy hisoboti va sof foydani taqsimlash hatijalari bo'yicha qaror, buxgalteriya hujjatlarining tekshirilganligi to'g'risidagi auditorlik xulosalari bayon etilgan tushuntirish xati ilova qilinadi. Agar kirim balansi yil boshiga o'zgartirilgan bo'lsa, u holda hisobotga ilova qilingan tushuntirish xatida o'zgartirish sabablari, shuninhgdek, unda qabul qilingan va keying yilga qabul qilinishi kerak bo'lgan hisob siyosati keltiriladi.

Hisobotning asosiy shaklini balans tashkil qiladi. Buxgalteriya balansida tarmoq mablag'lari tarkibi, miqdori va ularning tashkil topish manbalari ma'lum hisobot davriga pul shaklida aks ettiriladi. Hisobot davri boshlanishi va oxiriga balans ko'rsatkichlarini solishtirish mablag'lar tarkibi hamda ularning tashkil toppish manbalarida yuz bergan o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Balans tuzilayotgan vaqtda uning moddalarini baholashda yagona, ilmiy jihatdan asoslangan qoidaga rioya qilish zarur. Uning asosini tarmoqning barcha xo'jalik mablag'larini ularni sotib olish yoki tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar asosida baholash talabi tashkil etadi.

Tarmoq va birlashmalar davriy va yillik buxgalteriya balanslarini tuzayotgan vaqtda, ushbu ko'rsatmada belgilab o'tilgan qonun qoida va tartiblarga to'la rioya qilgan holda balahs moddalarini to'lg'azishlari lozim. To'lg'azilgan balans ma'lumotlari asosida quyidagilar va boshqalar aniqlanadi:

- tarmoqlar o'z aylanma mablag'lari bilan qay darajada ta'minlanganligi.
- davlat buyudjeti bilan hisob-kitobning holati/

-olingan kreditning belgilangan maqsadlar bo'yicha sarflanishi va uning tegishli mablag' bilan ta'minlanganligi.

-ma'lum maqsadlar uchun moliyalashtirilgan mablag'larning qoldig'i/

-debitorlik va kreditorlik qarzlari holati va boshqalar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tarmoqlarda qayd (hisobga olish) ni amalga oshirish deganda nimani tushunasiz?
2. Foyda miqdorining kamayishi va unga t'sir qiluvchi omillarni aytib bering.
3. Tarmoqlarda hisobot ma'lumotlarini o'rganish nimani beradi?
4. Hisobotning asosiy shaklini izohlab bering.

25-mavzu. Tarmoqlarni iqtisodiy tahlil qilish asoslari

Reja:

1. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda tahlilning ahamiyati va vazifalari
2. Asosiy fondlardan foydalanishda biznes-rejaning bajarilishi tahlili
3. Tarmoqda kapital qo'yilmalar kiritish va uni bajarilishi tahlili

1. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda tahlilning ahamiyati va vazifalari

Qurilish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari qatorida yetakchi o'rinlardan biriga ega, uning natijasi sifatida yangi va amaldagi asosiy fondlar (binolar, inshootlar, mashinalar, uskunalar) yaratilishi (kengaytirilishi, qayta tiklanishi va texnik qayta qurollanishi) hisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarishning ushbu tarmog'i samarali faoliyatiga ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadallashuvi, moddiy-texnika bazasining va ishlab chiqarish tuzilishining takomillashtirilishi sezilarli darajada bog'liq.

2014-yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSh dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yilmalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

Xususan, qurilishda tijorat mexanizmlarining yangi tamoyillarini qo'llagan holda obyektlarning muddatlarini sezilarli darajada kamaytirish va me'yordan ortiq tugallanmagan qurilishga barham berish, markazlashtirilgan kapital qo'yilmalarini qisqartirish, investitsiya jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasida tovar-pul munosabatlarini Karimov I.A. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. rivojlantirish va qurilishda shartnomaning rolini oshirish, asosan o'z mablag'laridan foydalanish va bank kreditlarining rolini oshirish zarur.

Kapital qo'yilmalar asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarish hisoblanadi. Ular yangi qurilishga, qayta tiklashga, amaldagi korxonalarni kengaytirish va texnik qayta qurollantirishga bo'lgan xarajatlarni o'z ichiga oladi. Kapital qurilish ikkita usulda amalga oshiriladi: pudrat va xo'jalik. Qurilishni olib borishning pudrat usuli asosiy hisoblanib, qurilish ishlarining ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishini ko'zda tutadi. Ular qatoriga qurilishi-montaj trestlari, qurilish-montaj konsernlari, uy-joy qurish kombinatlari kiradi. Ixtisoslashgan tashkilotlar qurilish buyurtmachilari bilan tuzilgan pudrat shartnomasiga asosan pudratchi hisoblanadi. Pudrat shartnomasi buyurtmachilar va pudratchilarning o'zaro munosabatlar me'yorini qat'iy belgilovchi va shartnomadagi majburiyatlarning bajarilmaganligi uchun iqtisodiy javobgarligini belgilab beruvchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Pudrat shartnomasi buyurtmachi tomonidan bosh pudratchi bilan kapital qurilish rejasiga kiritilgan va o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan titul ro'yxatlariga ega bo'lgan qurilishlarning butun davriga tuziladi. Zarur bo'lganda bosh pudratchi muayyan turdagi ishlarni bajarish uchun subpudratchi vazifasini o'taydigan ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb qilish huquqiga ega. Bunda ishlarning o'rnatilgan muddatlarda bajarilishi hamda sifati uchun bosh pudratchi javobgar hisoblanadi. Ishlarni xo'jalik usulida olib borishda buyurtmachi tashkilot butun qurilish ishlari majmuini o'zining quruvchi bo'linmalari kuchi bilan, begona tashkilotlarni jalb qilmasdan amalga oshiradi. Shunday qilib, qurilishni xo'jalik usuli bilan amalga oshirishda buyurtmachi bir vaqtning o'zida pudratchi ham hisoblanadi. Qurilishning bunday usulini amaldagi korxonalarda kichik hajmdagi ishlarni bajarishda, pudratchi tashkilotlarni jalb qilish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lgan paytda qo'llash maqsadga muvofiq. Iqtisodiy tahlilning obyekti bo'lib bosh pudratchi va buyurtmachi o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar hisoblanadi. Ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ularning faoliyatiga asos bo'luvchi tijorat tamoyillari bilan belgilanadi. Kapital qo'yilmalarning biznes-rejasini amalga oshirish va asosiy fondlarni ishga tushirish vazifasini yechish uchun turli funksiyalarni bajargan holda buyurtmachi va pudratchi qurilish tashkiloti iqtisodiy tahlilning alohida obyektlari sifatida tashkil topadi.

Buyurtmachi (yakka tartibdagi quruvchi) xo'jalik faoliyati tahlilining asosiy vazifalari quyidagicha:

- asosiy fond va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish biznesrejasining qiymat va natural ko'rinishdagi ishlar hajmi, tarkibi va muddatlari bo'yicha bajarilishini baholash;
- kapital qo'yilmalar biznes-rejasining bajarilishini hajmi, tuzilishi va moliyalashtirish manbalari bo'yicha tekshirish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini nazorat qilish va noishlab chiqarish xarajatlari hamda yo'qotishlarini aniqlash;
- tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi va tarkibini baholash;
- qurilishlarning moliyaviy ahvolini o'rganish, qurilishlarning loyiha-smeta hujjatlari, uskunarlar va moddiy resurslar bilan ta'minlanganligi;

- erishilgan ish natijalarini baholash va ichki imkoniyatlarini aniqlash. Qurilish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari qatorida yetakchi o'rinlardan biriga ega, uning natijasi sifatida yangi va amaldagi asosiy fondlar (binolar, inshootlar, mashinalar, uskunalar) yaratilishi (kengaytirilishi, qayta tiklanishi va texnik qayta qurollanishi) hisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarishning ushbu tarmog'i samarali faoliyatiga ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadallashuvi, moddiy-texnika bazasining va ishlab chiqarish tuzilishining takomillashtirilishi sezilarli darajada bog'liq.

2014-yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSh dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yimlarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Xususan, qurilishda tijorat mexanizmlarining yangi tamoyillarini qo'llagan holda obyektlarning muddatlarini sezilarli darajada kamaytirish va me'yordan ortiq tugallanmagan qurilishga barham berish, markazlashtirilgan kapital qo'yimlarini qisqartirish, investitsiya jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasida tovar-pul munosabatlarini Karimov I.A. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. rivojlantirish va qurilishda shartnomaning rolini oshirish, asosan o'z mablag'laridan foydalanish va bank kreditlarining rolini oshirish zarur. Kapital qo'yimlar asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarish hisoblanadi. Ular yangi qurilishga, qayta tiklashga, amaldagi korxonalarini kengaytirish va texnik qayta qurollantirishga bo'lgan xarajatlarni o'z ichiga oladi. Kapital qurilish ikkita usulda amalga oshiriladi: pudrat va xo'jalik. Qurilishni olib borishning pudrat usuli asosiy hisoblanib, qurilish ishlarining ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishini ko'zda tutadi. Ular qatoriga qurilishi-montaj trestlari, qurilish-montaj konsernlari, uy-joy qurish kombinatlari kiradi.

Ixtisoslashgan tashkilotlar qurilish buyurtmachilari bilan tuzilgan pudrat shartnomasiga asosan pudratchi hisoblanadi. Pudrat shartnomasi buyurtmachilar va pudratchilarning o'zaro munosabatlar me'yorini qat'iy belgilovchi va shartnomadagi majburiyatlarning bajarilmaganligi uchun iqtisodiy javobgarligini belgilab beruvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Pudrat shartnomasi buyurtmachi tomonidan bosh pudratchi bilan kapital qurilish rejasiga kiritilgan va o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan titul ro'yxatlariga ega bo'lgan qurilishlarning butun davriga tuziladi. Zarur bo'lganda bosh pudratchi muayyan turdagi ishlarni bajarish uchun subpudratchi vazifasini o'taydigan ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb qilish huquqiga ega. Bunda ishlarning o'rnatilgan muddatlarda bajarilishi hamda sifati uchun bosh pudratchi javobgar hisoblanadi. Ishlarni xo'jalik usulida olib borishda buyurtmachi tashkilot butun qurilish ishlari majmuini o'zining quruvchi bo'linmalari kuchi bilan, begona tashkilotlarni jalb qilmasdan amalga oshiradi. Shunday qilib, qurilishni xo'jalik usuli bilan amalga oshirishda

buyurtmachi bir vaqtning o'zida pudratchi ham hisoblanadi. Qurilishning bunday usulini amaldagi korxonalarda kichik hajmdagi ishlarni bajarishda, pudratchi tashkilotlarni jalb qilish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lgan paytda qo'llash maqsadga muvofiq. Iqtisodiy tahlilning obyekti bo'lib bosh pudratchi va buyurtmachi o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar hisoblanadi. Ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ularning faoliyatiga asos bo'luvchi tijorat tamoyillari bilan belgilanadi.

Kapital qo'yilmalarning biznes-rejasini amalga oshirish va asosiy fondlarni ishga tushirish vazifasini yechish uchun turli funksiyalarni bajargan holda buyurtmachi va pudratchi qurilish tashkiloti iqtisodiy tahlilning alohida obyektlari sifatida tashkil topadi. Buyurtmachi (yakka tartibdagi quruvchi) xo'jalik faoliyati tahlilining asosiy vazifalari quyidagicha:

- asosiy fond va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish biznesrejasining qiymat va natural ko'rinishdagi ishlar hajmi, tarkibi va muddatlari bo'yicha bajarilishini baholash;
- kapital qo'yilmalar biznes-rejasining bajarilishini hajmi, tuzilishi va moliyalashtirish manbalari bo'yicha tekshirish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini nazorat qilish va noishlab chiqarish xarajatlari hamda yo'qotishlarini aniqlash;
- tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi va tarkibini baholash;
- qurilishlarning moliyaviy ahvolini o'rganish, qurilishlarning loyiha-smeta hujjatlari, uskunalar va moddiy resurslar bilan ta'minlanganligi;
- erishilgan ish natijalarini baholash va ichki imkoniyatlarini aniqlash.

Qurilish tashkilotlarining faoliyatini baholashda qurilish obyektlarini ishga tushirish biznes-rejasining bajarilishi asosiy ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Obyektlarning o'z vaqtida foydalanishga topshirilishida manfaatdor bo'lgani holda buyurtmachilar, ayni paytda pudratchi tashkilotlar bilan birga ushbu obyektlarning o'z vaqtida va sifatli ishga tushirilishi uchun mas'uldirlar. Ishga tushirilayotgan obyektlarning natural o'lchovlari quyidagicha: sanoat korxonolari uchun – ularning quvvati; uy-joy qurilishi obyektlari uchun – yashash maydoni; madaniy-maishiy obyektlar uchun – bitta chiqish o'rni va h.k. Obyektlarning loyiha-smeta hujjatlari asosida aniqlanadigan narxi, ya'ni smeta narxi ishga tushirilayotgan obyektlarning qiymat o'lchovidir. Tahlil jarayonida ma'lumot manbalari sifatida loyiha-smeta, reja va hisobot hujjatlaridan foydalanish mumkin. Loyiha-smeta hujjatlari. Kapital qurilishda yaratilayotgan mahsulot (turar joylar, jamoat binolari, inshootlar, ishlab chiqarish obyektlari), ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot kabi, tovar tavsifiga ega, ya'ni uni shartnoma bo'yicha o'rnatilgan narxda buyurtmachiga sotish zarur. Qurilish mahsulotining narxi loyihalashtirish jarayonida tayyorlanadigan smeta hujjatlari tomonidan aniqlanadi. Reja hujjatlari. Titul ro'yxatlari qurilishda asosiy reja hujjati hisoblanadi. Obyektning titul ro'yxatlariga kiritilishi uning qurilishiga ruxsat berilganligini bildiradi. Titul ro'yxatlarida obyektlarning loyiha quvvatlari, kapital qo'yilmalarning hajmi, obyektlarni ishga tushirish muddatlari va boshqalar ko'rsatiladi. Ushbu titul

ro'yxatlari asosida kapital qurilishning rejasi (7-sonli shakl) tuzilib, unda kapital qo'yimalarning hajmlari bo'yicha (I bo'lim) va quvvatlarni ishga tushirish bo'yicha (II bo'lim) yillik rejalarni detallashtirish amalga oshiriladi. Moliyalashtirish rejasi (5-sonli shakl) asosida obyektlar qurilishini moliyalashtirishni rejalashtirish amalga oshiriluvchi hujjat hisoblanib, unda kapital qo'yimalarning ko'zlangan hajmlarini moliyalashtirish manbalarining tarkibi va tuzilishi aniqlangan bo'ladi. Kapital qo'yimalarini moliyalashtirish budjetdan ajratmalar, xususiy va qarzga olingan mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Hisobot hujjatlari. Buyurtmachining hisobot tizimiga quyidagi hujjatlar kiradi: - kapital qo'yimlar bo'yicha yillik balanslar (yakka tartibdagi quruvchining 1-sonli shakli);

- quvvatlarni, asosiy fondlarni ishga tushirish biznes-rejasining bajarilishi to'g'risidagi oraliq va yillik hisobotlar. Asosiy fond va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish biznes-rejasi tahlili uchun zarur ma'lumotlarni 2-sonli (yillik) hisobot shaklidan olish mumkin. Ushbu shakl bo'yicha hisobotni buyurtmachilar (yakka tartibdagi quruvchilar) tuzishadi. Bu shakl 10 ta bo'limdan iborat. Butun hisobot ma'lumoti buxgalterlik hisobi asosida shakllanib, bu uning yetarli ishonchliligini ta'minlashi lozim, bu esa, o'z navbatida, buyurtmachi ishining umumiy tahlili va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish biznes-rejasi bajarilishining tahlili uchun zarurdir. 2-ks-sonli hisobot shakli bo'limlarining ma'lumotlari o'zaro va boshqa hisobot shakllarining ko'rsatkichlari bilan bog'lanmagan bo'lsa, bunday ma'lumotlardan ularning shubhaliligi sababli tahlil uchun foydalanilmaydi. Ishlarni bajarishning xo'jalik usulida qurilish bo'yicha hisob va hisobot tuzilishi umuman olganda, yakka tartibdagi quruvchi tomonidan, ishlarni bajarishning pudrat usulida esa pudratchi tomonidan ham yuritiladi

2. Asosiy fondlardan foydalanishda biznes-rejaning bajarilishi tahlili

Asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish qurilish tashkilotlari va yakka tartibdagi quruvchilarning faoliyatlarini baholashda asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Buyurtmachi tomonidan pudratchi tashkilotdan o'rnatilgan tartibda solishtirish dalolatnomalari bo'yicha qabul qilib olingan ishlab chiqarish quvvatlari va tugallangan obyektlar va yurgizish majmualari ishga tushirilgan hisoblanadi.

Obyektlarning qiymati tasdiqlangan loyiha va titul ro'yxatlariga binoan qurilish boshlanishidan to obyekt ishga tushishigacha bo'lgan smeta narxlarida belgilanadi. O'z ichiga turli bino va inshootlar majmuasini olgan yirik obyektlarning ishga tushirilishi biznes-reja tomonidan o'rnatilgan ketma-ketlikda qismlari bo'yicha, shuningdek ishga solish majmualari bo'yicha ishga tushiriladi. Obyektning alohida qismlari topshirilishi majburiy ravishda qabul qilish dalolatnomasida ko'rsatiladi. Ishlab chiqarish yo'nalishidagi obyektlar bo'yicha ishga tushirilgan asosiy fondlar ishlab chiqarish quvvatining bahosi ishlab

chiqarilayotgan mahsulotning yillik hajmlarida ko'rsatiladi (beton - m³, mahsulot - t., elektr energiyasi - kVt.soati). Turarjoy binolarini ishga tushirishda o'lchov birligi bo'lib umumiy 12 va yashash maydonining m²i, kasalxonalarda esa – karavotlar soni bo'yicha va h.k.

Tahlil jarayonida ishga tushirilgan obyektlar yo'nalishi bo'yicha (sanoat qurilishi obyektlari, turarjoy obyektlari, maktablar va h.k.), shuningdek ularning bajarilish muddatlari va navbati bo'yicha guruhlanadi.

Tugallangan obyektlarni ishga tushirish biznes-rejasining bajarilish tahlili 2-ks-sonli hisobot shakli ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi (asosiy fondlarni va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish rejasining bajarilishi haqida hisobot). Ushbu hisobot shakli, titul ro'yxatlari asosida tahlil jadvali tuzilib, unda biznes-rejaning uy-joy qurilishi ajratilgan holda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish yo'nalishidagi obyektlar bo'yicha alohida bajarilishi ko'rsatiladi. Asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilishining bajarilganlik darajasi hisobot ma'lumotlarining biznes-reja bilan qiymat va natural o'lchovlarda taqqoslanish yo'li bilan aniqlanadi. Asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish qurilish tashkilotlari va yakka tartibdagi quruvchilarning faoliyatlarini baholashda asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Buyurtmachi tomonidan pudratchi tashkilotdan o'rnatilgan tartibda solishtirish dalolatnomalari bo'yicha qabul qilib olingan ishlab chiqarish quvvatlari va tugallangan obyektlar va yurgizish majmualari ishga tushirilgan hisoblanadi.

Noishlab chiqarish yo'nalishidagi asosiy fondlar bo'yicha reja 11,4 % ga ortig'i bilan bajarilgan, bunda uy-joy qurilishi obyektlari bo'yicha biznes-reja 100 %ga bajarilgan, demak, biznes-rejani ortig'i bilan bajarish boshqa noishlab chiqarish yo'nalishidagi obyektlar hisobidan amalga oshirilgan. Shuning uchun noishlab chiqarish asosiy fondlarining ishga tushirilishini har bir yo'nalish (maorif, madaniyat va san'at, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot muassasalari) bo'yicha alohida tahlil qilish lozim.

Asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish biznes-rejasining bajarilishi tahlili majburiy ravishda kapital qo'yilmalar hajmi ko'rsatkichlari bilan solishtirgan holda amalga oshirilishi lozim.

Buning uchun ma'lumotlar ham 2-ks-sonli hisobot shaklidan olinadi. Kapital qo'yilmalar hajmi ko'rsatkichlari bilan ishga tushirilishning nisbati har xil bo'lishi mumkin. Eng yaxshi variant bo'lib kapital qo'yilmalar rejasining va asosiy fondlarni ishga tushirish bo'yicha biznes rejasining to'liq bajarilishi hisoblanadi.

3. Tarmoqda kapital qo'yilmalar kiritish va uni bajarilishi tahlili

Kapital qo'yilmalar rejasi bajarilishining umumiy bahosi quyidagilar bo'yicha beriladi:

1. Xarajat turlari yoki tuzilishi bo'yicha.
2. Xarajatlar yo'nalishi bo'yicha.
3. Tugallangan obyektlarni foydalanishga topshirish bo'yicha.

Kapital qo'yilmalar bo'yicha biznes-reja bajarilishi tahlilida, ular pudrat yoki xo'jalik usuli bilan olib borilganda, yakka tartibdagi quruvchining 2-sonli ks-21 «Kapital qo'yilmalar va asosiy fondlarni ishga tushirish rejasining bajarilishi to'g'risida hisobot» o'rganiladi. Agar qurilish tashkiloti biznes reja bo'yicha ishlamasa uning ishini yaxshi deb bo'lmaydi, sababi biznes-rejaning ortig'i bilan bajarilishi, birinchi navbatda, qo'shimcha uskuna sotib olish bilan bog'liq, qurilish bo'yicha muhimroq ishlar esa oxirigacha qilinmagan. Natijada kapital qo'yilmalarning tuzilishi keskin o'zgargan.

Shunday qilib, biznes-reja bo'yicha uskunaning kapital qo'yilmalar umumiy miqdoridagi hissasi 20,4 %ni, haqiqatda esa 25,3 %ni tashkil qildi, qurilish ishlari bo'yicha esa tegishli 62,7 % va 57,2 %. Ijobiy jihati faqat montaj ishlari biznes-rejasining ortig'i bilan bajarilishi bo'lgan xolos. Qurilish ishlarining oxirigacha bajarilmasligi obyektlarni ishga tushirish muddatlarining buzilishiga olib keladi. Kapital qo'yilmalar tuzilishining tahlilidan tashqari, smeta narxlari bo'yicha kapital ishlarni smeta va haqiqiy qiymati bo'yicha taqqoslash lozim. Bunday turdagi farq, uskunalar bahosi o'zgarishi va yakka tartibdagi quruvchining zararlarini obyektning inventar qiymatiga qo'shishi hisobidan kelib chiqadigan ishlarni bajarishning haqiqatdagi va smetadagi hajmlari va usullari nomuvofiqligi natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Smeta qiymatidan ehtimoliy farqlar tahlilini alohida ob'ektlar bo'yicha o'tkazish lozim. Keyingi bosqichda tahliliy jadval tuzilib, unda kapital qo'yilmalari biznes-rejasining xarajatlar yo'nalishi bo'yicha bajarilish ko'rsatkichlari taqqoslanadi. Kapital qo'yilmalar tuzilishining tahlilidan tashqari, smeta narxlari bo'yicha kapital ishlarni smeta va haqiqiy qiymati bo'yicha taqqoslash lozim. Bunday turdagi farq, uskunalar bahosi o'zgarishi va yakka tartibdagi quruvchining zararlarini obyektning inventar qiymatiga qo'shishi hisobidan kelib chiqadigan ishlarni bajarishning haqiqatdagi va smetadagi hajmlari va usullari nomuvofiqligi natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Smeta qiymatidan ehtimoliy farqlar tahlilini alohida ob'ektlar bo'yicha o'tkazish lozim. Keyingi bosqichda tahliliy jadval tuzilib, unda kapital qo'yilmalari biznes-rejasining xarajatlar yo'nalishi bo'yicha bajarilish ko'rsatkichlari taqqoslanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tahlil qilish va uning maqsadi nimadan iborat?
2. Iqtisodiy tahlil deganda nimani tushunasiz?
3. Asosiy fondlar va ishlab chiqarish vositalarga izoh bering.
4. Smeta qiymati deganda nimani tushunasiz?

26-mavzu. Tarmoqlarda audit

Reja:

1. Tarmoqlarda kapital investitsiyalar hisobining vazifalari
2. Kapital investitsiyalarni turkumlash
3. Kapital investitsiyalarni baholash va hisobga olish
4. Tarmoqlarda kapital investitsiyalar va ularning auditi

1. Tarmoqlarda kapital investitsiyalar hisobining vazifalari

Kapital investitsiyalar hisobining vazifalari Kapital investitsiyalar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishlab chiqarish faoliyatining o'ziga xos shaklidir. U asbob-uskunalarni zamonaviylashtirish, ishlab chiqarish ob'ektlari va bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ob'ektlarni qayta qurish, ta'mirlash va asosiy ishlab chiqarish vositalarini kengaytirilgan holda qayta ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

Kapital investitsiyalar asosiy vositalarni, takror ishlab chiqarishni kengaytirish hamda ularning sifat tarkibini yaxshilash xarajatlarining majmuidir. Kapital investitsiyalar hajmi ishlab turgan korxonalarni qurish, kengaytirish, texnik qayta jixozlash va quvvatlarni saqlash, shuningdek, ishlab chiqarish va ishlab chiqarishga mo'ljallangan uskuna transport vositalari va asosiy vositalarning boshqa ob'ektlarini xarid qilishga mablag' bilan ta'minlashning barcha manbalari hisobiga qilingan xarajatlarning umumiy summasiga ko'ra belgilanadi.

Kapital mablag'lar hajmiga quyidagi soxalarga yo'naltirilgan xarajatlar kiradi:

- qurilish montaj, loyiha qidiruv, geologiya-razvedka, burg'ulash va boshqa ishlarga qilingan xarajatlar;
- ishlab turgan tarmoqlarni tiklash, texnik qayta jihozlash va texnika vositalarining quvvatini kengaytirishga qilingan xarajatlar;
- mashina va uskunalarni, ishlab chiqarish va xo'jalik inventarlari transport vositalari va asosiy vositalarning boshqa ob'ektlarini sotib olishga ketgan xarajatlar;
- tarmoq, tashkilot va muassasalar uchun yangi ob'ektlar qurishga ketgan xarajatlar;
- boshqa shu turdagi xarajatlar.

Kapital investitsiyalarni buxgalteriyada hisobga olishning dolzarb vazifalari quyidagilardan iborat:

- qilingan barcha kapital xarajatlarni ob'ektlarning turlari bo'yicha to'liq va o'z vaqtida aks ettirishni ta'minlash;
- kapital investitsiyalar rejasi ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy vositalar ob'ektlarini ishga tushirish rejalarining bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlash;
- sotib olingan asosiy vosita ob'ektlarining balans qiymatini to'g'ri belgilash va uning va uning o'z vaqtida kiritilishini ta'minlash.

Tarmoqlarda qanchalik kapital investitsiyalarni jalb qilish va ulardan o'z vaqtida samarali va tejamkorona foydalanilsa, bu tarmoq uchun o'zining ijobiy samarasini beradi. Buning hatijasida tarmoq o'zining istiqbolli rivojlanishiga ega bo'ladi.

2. Kapital investitsiyalarni turkumlash

Kapital investitsiyalar hisobini soddalashtirish uchun ularni turkumlab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kapital investitsiyalarni takror ishlab chiqarish tuzilmasi tarmoqning yangi qurilishga, amalda ishlab turgan tarmoqlarni kengaytirish, tiklash, texnik qayta jihozlash va quvvatlarni oshirishga qilingan xarajatlarning tarkibi va nisbatini

anglatadi. Yangi qurilish ob'ektlariga quyidagilar kiradi: yangidan bunyod etilayotgan tarmoqlarning asosiy, yordamchi va ishlab chiqarish ob'ektlarini, shuningdek, ishga tushirilganidan so'ng mustaqil balansda turadigan bo'linmalar va ayrim tarmoqlarni tiklash.

Kengaytirish deganda, ishlab turgan tarmoqda qo'shimcha ishlab chiqarishlarni qurish, shuningdek, tarmoq hududida va uning atrofidagi maydonchalarida asosiy, yordamchi va ishlab chiqarish ahamiyatidagi ayrim tsexlar va ob'ektlarni qurish hamda ishlab turganlarini kengaytirish tushuniladi.

Tiklash deganda, ishlab chiqarishni takomillashtirish va uning texnik-iqtisodiy darajasini yangi texnologiyalar asosida qayta qurish tushuniladi,

Texnik qayta jihozlash deganda, ilg'or texnika va texnologiyani joriy etish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish hamda ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirgan asosiy vositalarni zamonaviy, samarali asosiy vositalar bilan almashtirishga qaratilgan chora tadbirlar majmui tushuniladi.

Quvvatlarni oshirish deganda, ishlab chiqarish jarayonida ishdan chiqqan asosiy vositalarni yangilab turish hamda tiklashga oid ishlar tushuniladi.

Kapital investitsiyalarning texnologik tuzilmasi qurilish va montaj ishlari bilan bog'liq hamda asosiy vositalar ob'ektlarini sotib olishga, shuningdek, boshqa capital ishlar va xizmatlar uchun qilingan xarajatlar tarkibi va nisbatini anglatadi.

Qurilish ishlariga asosiy vositalar ob'ektlarini barpo etish, qurilgan binolar va inshootlarni yoki ularning ayrim qismlarini kengaytirish hamda tiklash va boshqa ishlar kiradi.

Montaj ishlari deganda, texnologiya, energetika, ko'tarish-transport va boshqa jihozlarni yig'ish hamda o'rnatish, ya'ni ularni yig'ib, poydevorga o'rnatgandan keyingina ishlatilishi mumkin bo'lgan ishlar tushuniladi.

Jihozlar, asbob-uskuna inventar xarajatlariga barcha turdagi jihozlar, texnologik jihatdan ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan transport vositalari, laboratoriya uchun jihozlar, ustaxonalar, tajriba uskunalari va shu kabilarning qiymati, ishlab chiqarish asbob-uskunalari va inventarning qiymati kiradi.

Jihozlar o'z navbatida, montaj talab qiladigan va montaj talab qilmaydigan hamda smeta qiymatiga kiradigan va meta qiymatiga kirmaydigan jihozlarga bo'linadi. Boshqa kapital xarajatlar tarkibi capital mablag'lar hisobidan o'tkaziluvchi loyiha-qidiruv, shuningdek, qurilayotgan tarmoqlar ma'muriyatini ta'minlashga ishchilarni uyushgan holda ishga olishga hamda smetada ko'zda tutilgan boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Kapital investitsiyalar vazifasiga ko'ra ishlab chiqarish maqsadlaridagi ob'ektlar qurilishiga (tarmoq, qishloq xo'jaligi, transport, aloqa va shu kabi sohalarga mo'ljallangan) va noishlab chiqarish maqsadlaridagi ob'ektlar qurilishiga (turar joy, communal xo'jalik, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi va kabi sohalarga bo'lingan) ajratiladi. Bular ayrim ob'ektlar o'rtasida smeta qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Ushbu xarajatlarning tegishli ulushi faqatgina qurib bitkazilgan ob'ektlar qiymatiga qo'shiladi.

Kapital investitsiyalarni hisobga oluvchi hisobbaraqlarning debeti bo'yich asosiy vositalar ob'ektlarining dastlabki qiymatiga o'rnatilgan tartibda kiritiladigan, quruvchilarning ushbu ob'ekt uchun haqiqatda sarflangan barcha xarajatlari, shuningdek, tarmoqning asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni xarid qilish va boshqa capital investitsiyalar bilan bog'liq xarajatlar aks ettiriladi.

Asosiy vositalarni sotib olish va qurilish bilan bog'liq, lekin o'rnatilgan tartibda asosiy vositalarning dastlabki qiymatiga kiritilmaydigan xarajatlar capital investitsiyalarni hisobga oluvchi hisobbaraqlardan sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi va kabi sohalariga mo'ljallangan ob'ektlarga ajratiladi, Kapital investitsiyalar ishlarni bajarish usuliga ko'ra pudrat va xo'jalik usulida bajariladigan capital investitsiyalarga bo'linadi.

Pudrat usulida qurilish montaj ishlarini ixtisoslashtirilgan pudrat qurilish-montaj tashkilotlari olib boradi. Bunda ikki tomon: bosh pydratchi va buyurmachi aloqaga kirishib, ularning o'zaro munosabatlari pudrat shartnomasi bilan belgilanadi. Xo'jalik usulida qurilish montaj ishlari tarmoq o'z kuchi va vositalari bo'yicha bajariladi. Kapital investitsiyalar mablag' bilan ta'minlash investitsiyalari (tarmoq foydasi, zahiralari va boshqalar) hisobidan, chetdan jalb qilingan qarz mablag'lari (bank krediti, turli xil yuridik va jismoniy shaxslarning qarz mablag'lari) hisobidan hamda chetdan jalb qilingan qaytarilmaydigan mablag'lar (davlat hamda xalqaro xorijiy tashkilotlarning grantlari va boshqa qaytarilmaydigan mablag'lar) hisobidan qoplanishi mumkin.

3. Kapital investitsiyalarni baholash va hisobga olish

Kapital investitsiyalar va ular bilan bog'liq barcha xarajatlarni buyurtmachi, o'zi uchun qurayotgan va shu qurilishni mablag' bilan ta'minlayotgan tarmoq hisobga olib boradi. Yangi tarmoq qurilayotganida qurilayotgan tarmoqning ma'muriyati ana shunday tashkilot bo'ladi, amalda ishlab turganda esa – capital qurilish bo'limi orqali ish tutayotgan tarmoqning o'zi ana shunday tashkilot bo'ladi.

Kapital investitsiyalarning hisobi amaldagi xarajatlar va meta qiymati bo'yicha ularning turlari asosida umuman qurilish bo'cha ham, ayrim ob'ektlar bo'yicha ham, qurilish boshlangan yildan e'tiboran o'sib boruvchi yakunlar bilan ob'ektlar ishga tushirilguniga qadar yoki tegishli ishlarning to'la-to'kis bajarilib, xarajatlarning hisobdan chiqarilgunigacha yuritiladi.

Kapital investitsiyalar bo'yicha xarajatlarning analitik hisoboti 18- "Kapital mablag' xarajatlari" qaydnomasida yuritiladi. Mazkur qaydnoma yil choragi, yarim yil yoki yil uchun ochiladi. Qaydnomaga barcha hisobvaraqlarni qo'shish, ishlab chiqarishga tegishli va ishlab chiqarishga tegishli bo'lmagan ob'ektlar bo'yicha xarajatlarni alohida ajratib ko'rsatish, bular ichida esa yangi qurilishni, kengaytirishni, tiklash va texnik jihatdan qayta jihozlashni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kapital investitsiyalar haqida qaror qabul qilish – loyihalarni investitsiya qilishga taalluqli bo'lgan uzoq muddatli qarorlar qabul qilishdir. Ushbu qarorlarni qabul qilish capital quyilmalar smetasini tuzish va ular xarajatlarini qoplashni

baholash jarayoni bilan bog'liq. Ushbu jarayon quyidagi yo'nalishlarda qo'llaniladi:

- kompaniya qaysi investitsiya loyihasini tanlash bilan bog'liq;
- ushbu loyiha amalga oshishi ushuni kompaniya sarflaydigan umumiy capital qo'yilmalar summasi;

- loyihalar portfelini qanday moliyalashtirish bilan bog'liq.

Kapital investitsiyalarni baholash jarayoni:

- tarmoq strategiyasiga mos keluvchi investitsiya va yo'nalishlarini izlab topish;
- keyingi ishlanmalar uchun eskiz loyilarini tayyorlash;
- dastlabki baholash va tadbiriq etiladigan variantlar asosida izchil loyihalar ishlab chiqish;

- variantlarni baholash;

- variantlarni qabul qilish yoki inkor etish to'g'risida qaror qabul qilish.

Xarajatlarni qoplash usuli capital quyilmalardan pul mablag'lari kelib tushish vaqtini belgilab beradi. Agar kapital qo'yilmalardan kelib tushuvchi sof pul tushumi har yili o'zgarimas bo'lsa, unda xarajatlarni qoplash davri dastlabki investitsiya qiymatini yillik sof pul tushumiga bo'lish bilan ahiqlanadi.

Xarajatlarning hisob koyeftsienti hisob daromadiga asoslangan bo'lib, loyiha bo'yicha o'rtacha yillik daromadni dastlabki investitsiyalar miqdoriga bo'lish bilan topiladi.

4. Tarmoqlarda kapital investitsiyalar va ularning auditi

Asosiy vositalarni ta'mirlashga doir muomalalarni tekshirish chog'ida auditor hujjarlar rasmiylashtirilishining to'g'riligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda dastavval, mazkur masala bo'yicha tarmoqda qanday hisob siyosati qabul qilinganligini aniqlash zarur. Bu narsa tekshiruvni davom ettirish ketma-ketligini belgilaydi. Tarmoqlarda asosiy vositalarni ta'mirlashga doir xarajatlar quyidagicha hisobdan o'chirilishi mumkin:

- xarajat me'yoriga qarab bevosita mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxiga;

- asosiy vositalarni ta'mirlash uchun yaratilgan fond hisobidan;

- xarajatlarni oldin 3190 – "Boshqa oldindan to'langan xarajatlar" schyotiga olib borib, keyinchalik bir me'yorda tannarxga qo'shib boorish.

Agar hisob siyosatiga muvofiq tarmoqda asosiy vositalarni ta'mirlash uchun rezerv tashkil etiladigan bo'lsa, unda auditor rezerv uchun ajratmalar summasining iqtisodiy asoslanganligini, asosiy vositalarning turlari bo'yicha (binolar, inshootlar, qurilmalar va boshqalar) ajratmalar miqdori ko'zda tutilganligi yoki ajratmalarining yagona normasi belgilanadi, har oyda rezerv hisoblash tamoyiliga rioya qilinishini aniqlaydi.

Ta'mirlash uchun qilingan haqiqiy xarajatlar yaratilgan rezerv hisobiga hisobdan o'chiriladi. Shuning uchun auditor yil oxirida (ta'mirlash ishlari tugallangan hollarda) ochiqcha hisoblangan rezerv to'g'rilanganligiga ishonch hosil qilishi lozim.

Asosiy vositalarni ta'mirlashga doir muomalalarning buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilishini tekshirish chog'ida auditor, ishlab chiqarishga doir

asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari tannarxga olib borilganligi, noishlab chiqarishga doir asosiy vositalarni esa o'z manbalari hisobiga hisobdan o'chirilganligiga ishonch hosil qilishi lozim. Shuningdek, auditor ta'mirlash ishlari qaysi usul bilan amalga oshirilganligini ham tekshiradi. Agar hisobot davrida lizingga olingan asosiy vositalar ta'mirlangan bo'lsa, ta'mirlash turini (joriy yoki kapital) lizing shartnomasiga capital ta'mirlash ko'zda tutilganligi va xarajatlar kimning hisobidan qoplanishini tekshirishi zarur.

Tarmoq asosiy vositalarni ta'mirlash bilan bog'liq barcha xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat) lar tannarxiga kiritadi. Bu pirovardida moliyaviy natijaning shakllanishiga, shuningdek, tarmoqning foydadan buyudjetga to'lovlar bo'yicha buyudjet bilan o'zaro munosabatlariga ham ta'sir etadi. Auditor eng avvalo, bu masala bo'cha ham tarmoqlar qanday hisob siyosati qabul qilinganligini aniqlash lozim. Ayrim tarmoqlar kelgusi yil uchun hisob siyosatini qabul qilishda ta'mirlash xarajatlarini har oyda haqiqiy xarajatlar hajmida hisobdan o'chiradigan tartibni qo'llaydilar. Boshqa tarmoqlar ta'mirlash fondi yaratadilar, haqiqatda bajarilgan ta'mirlash ishlari uchun qilingan xarajatlarni esa tashkil etilgan fond hisobiga hisobdan o'chiradilar.

Birinchi holatda ta'mirlashga doir barcha xarajatlar ta'mirlash qaysi hisobot davrida amalga oshirilgan bo'lsa, bevosita shu davrdagi ishlab chiqarish xarajatlariga qo'yilishi lozim; ikkinchi holatda tarmoq balansida turgan asosiy vositalarning dastlabki qiymatiga nisbatan foiz hisobida ta'mirlash fondiga ajratmalar normativi hisoblab chiqariladi.

Odatda, hisob yuritish siyosatining birinchi variantini kichik va o'rta biznes korxonalari, ikkinchisini esa asosiy vositalari mulklarning salmoqli qismini tashkil etadigan yirik korxonalar qo'llaydilar. Auditor ta'mirlash xarajatlarini ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shishning to'g'riligini tarmoqda qabul qilingan hisob yuritish siyosatidan kelib chiqib, uning o'zgarish hollarida esa sababini va ushbu vaziyatning moliyaviy natijaga ta'sirini tekshirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, asosiy vositalarni malakali auditorlik tekshiruvidan o'tkazish, sifatli auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi tuzish uchun ushbu hisob ob'ektini har tomonlama sinchiklab tekshirish, ma'lumotlarni tahlil qilish, shuningdek, bu ishga kirishishdan oldin asosiy vositalar hisobiga doir barcha me'yoriy hujjatlar hamda boshqa zarur manbalardan iborat ma'lumotlar to'plamini shakllantirish orqali auditor malakali tekshiruv o'tkazib, tarmoq (mijoz) ga sifatli xizmat ko'rsatishi va qimmatli maslahatlar berishga erishishi mumkin.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Kapital investitsiyalar asosiy vositalariga izoh bering,
2. Texnik qayta jihozlash deganda nimani tushunasiz?
3. Kapital investitsiyalar bo'yicha xarajatlarning analitik hisobotini tushuntirib bering.
4. Auditor va uning vazifalari nimalardan iborat?

TOPSHIRIQLAR

1-mavzu: “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fanining predmeti va uslubi

Reja:

1. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fanining ob’ekti, tarmoqning ta’rifi va tavsifi
2. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fanining predmeti va boshqa fanlar bilan bog’liqligi
3. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fanini o’rganish metodologiyasi va usullari

Qo’llaniladigan pedagogik texnologiyalar: Ma’ruza, «aqliy hujum», namoyish etish.

1-mavzu bo’yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so’zi, 2017 yil 23 dekabr.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O’zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida” 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasini keng jamoatchilik o’rtasida targ’ib etishga bag’ishlangan ilmiy-ommabop qo’llanma. /Nashr uchun mas’ul R.S. Qosimov. – T: “Ma’naviyat”, 2018. - 320 bet.
4. McConnell, Brue. Economics. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2013.
5. Tirole, Jean (Tir) The Theory of Industrial Organization. MIT Press, 1992.
6. Church J., and R.Ware. (CW) Industrial Organization. A Strategic Approach. Irwin. 2000.
7. Symeonidis, George. Industrial Economics. University of London Study Guide (SG), 1999 and Examiners’ reports (ER), various years.
8. Laffont J.J. and Tirole J. Theory of incentives for procurement and regulation. MIT Press, 1999.
9. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-304 b.

2-mavzu. Sanoat – moddiy ishlab chiqarishning yetakchi tarmog’i

Reja:

1. Sanoatning milliy iqtisodiyot rivojidadagi roli va o’rni.
2. Sanoat va uning rivojlanishi.
3. Sanoatda xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish masalalari.
4. Sanoatda fan-техника тараққиётининг моҳияти ва аҳамияти
5. Fan-техника тараққиётининг асосий йўналишлари
6. Fan-техника тараққиётининг самарадорлигини баҳолаш.

Qo’llaniladigan pedagogik texnologiyalar:Jamoada ishlash, baliq skeleti.

2-mavzu bo’yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so’zi, 2017 yil 23 dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.

Keys (muammoli vaziyatdan farqli ravishda) talabalarni muammoni ifodalash, muammoli vaziyatni tahlil qilish va baholash, uni maqsadga muvofiq yechim variantlarini qidirishga yo'naltiruvchi tashkilotlar, insonlar guruhi yoki alohida individlarni hayotining muayyan sharoitlarini yozma ravishda taqdim etilgan bayonini o'z ichiga oladi.

Keysni yechish jarayoni quyidagi bosqichlarini o'z ichiga olish muhim:

- muammoni yakka tartibda tahlil qilish va yechish,
- yakka tartibda topilgan yechimni birgalikda (kichik guruhlarda) tahlil qilish, o'zaro maqbul yechim variantini rasmiylashtirish,
- guruh ishini taqdimoti,
- muammoni yechish usul va vositalarining eng maqbul variantini jamoaviy tarzda tanlash.

Fikrlash jarayoni, muammoli vaziyatni yechish jarayonida paydo bo'lingan, mustaqil topilgan dalillar joriy entirlarni, kasbiy boyliklarni topishga va mustaqamlashtirishga, kelgusi kasbiy faoliyati bilan aloqani anglashga ko'maklashadi.

O'quv loyihalarning taqdimoti va baholanishi

Ushbu o'quv mashg'ulotini tayyorlashda o'qituvchining roli quyidagilardan iborat: loyiha topshirig'ini ishlab chiqish; talabalarga ma'lumotlarni izlashda yordam berish; o'zi axborot manbai bo'lishi; butun jarayonni muvofiqlashtirish; ishtirokchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; uzluksiz qayta aloqani amalga oshirish; maslahat berish.

Ushbu o'quv mashg'ulotida guruhlar o'z faoliyatining natijalari to'g'risida ma'ruza qilishadi va uni

	<p>belgilangan shaklda taqdim etishadi (loyihaviy faoliyatning natijalarini, hamda loyiha maxsulotini tasviriy va og‘zaki taqdimot ko‘rinishida). O‘qituvchi guruhlarning o‘zaro baholanishini tashkillashtiradi va loyiha ishtirokchining faoliyatini baholaydi.</p>
<p>Talabalarni nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish va baholash</p>	<p>Kollokvium. O‘qituvchining talabalar bilan kollokviumlari (suhbatlashuvi) odatda kursning u yoki bu mavzusi bo‘yicha bilimlarini aniqlash, uni chuqurlashtirish maqsadida olib boradi. U ko‘pincha 1) dasturda ko‘zda tutilmagan, lekin talabalarda qiziqish uyg‘otgan qo‘shimcha mavzular bo‘yicha; 2) fanning alohida murakkab, lekin talabalar tomonidan yetarli darajada o‘zlashtirilmagan mavzulari bo‘yicha qo‘shimcha darslar mobaynida; 3) ohirgi seminar mashg‘ulotlarida javob bermagan talabalarni bir ish darajasini aniqlash uchun. Seminar-kollokvium mobaynida ma‘ruza, referat va boshq. Yozma ishlar tekshirilishi mumkin. Yozma (nazorat) ish. Talabalar nazorat savollariga javob beradilar/ testlarni yechadilar/ nazorat topshiriqlarini bajaradilar. Ularning to‘plamini to‘g‘ri tuzish muhim hisoblanadi: ular rejalashtirilayotgan o‘quv materialni o‘zlashtirish darajasiga mos kelishligi kerak va ularni tekshirishni ta‘minlashi kerak.</p>

2. Ma‘ruzava amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar

AQLIY HUJUM METODI

Aqliy hujum (breynstroming-aqllar to‘zoni) –amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g‘oyasini jamoaviy yuzaga keltirishda qo‘llaniladigan metod.

☞Metod chegaralangan vaqt oralig‘i ichida aniq muammo (savol, masala)ni yechishning noan’anaviy yo‘llarini izlash bo‘yicha o‘quvchilarni aqliy faoliyatini yo‘naltirishga asoslangan.

☞O‘quv mashg‘ulotidagi aqliy hujum uchun muammoni tanlash quyidagi tamoyillar bo‘yicha amalga oshiriladi:

- Tanlangan muammo nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi hamda o‘quvchilarda faol qiziqish uyg‘otishi kerak;
- ko‘p har xil ma‘nodagi yechim variantlariga ega bo‘lishi kerak.

O'qitish texnologiyasini ishlab chiqishda aqliy hujum metodi o'quv mashg'ulotining bir lavhasi yoki butun mashg'ulotni o'tkazish asosi sifatida rejalashtirilgan bo'lishi mumkin.

Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi 1-rasmda keltirilgan.



Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi

INSERT TEXNIKASI

INSERT (inglizcha so'zdan olingan bo'lib - **INSERT** – Interaktive- interfaol Noting – belgilash System - tizim for-uchun **E**ffective – samarali **R**eading – o'qish and – va **T**hinking – fikrlash degan ma'noni anglatadi).

1) Samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilar qo'yishning interfaol tizimi hisoblanadi.

Matni belgilash tizimi:

(√) – mening bilganimni tasdiqlovchi axborot;

(+) – men uchun yangi axborot;

(-) – menning bilganlarimga, zid axborot;

(?) – meni o'ylantirib qo'ydi. Bu bo'yicha menga qo'shimcha axborot kerak.

PINBORD TEXNIKASI

Pinbord – (inglizchadan: *pin* – mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) – o'quvchilarni tizimli va mantiqiy fikr bildirishga o'rgatadigan metod.

Pinbord texnikasi:

1) muammoli masalalar va vaziyatlar, aqliy hujum va amaliy o'qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) muammoni yechish variantlarini baholash hamda ular ichidan eng yaxshisini tanlash imkonini beradi;

2) aqliy hujum va amaliy o'qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) toifali sharh o'tkazish imkonini beradi.

Pinbord texnikasining texnologik chizmasi

KEYS–STADI METODI

KEYS – (ingl. sase – to‘plam, aniq vaziyat) – nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni yechish jarayonida qo‘llash imkonini beruvchi *o‘qitish vositasi*.

Keysda bayon qilingan vaziyatni o‘rganib va tahlil qilib, o‘quvchilar o‘zining kelgusidagi kasbiy faoliyatida o‘xshash vaziyatlarda qo‘llashi mumkin bo‘lgan tayyor yechimni oladi.

Keysda bayon qilingan vaziyatlar (kasbiy), amaliy mashg‘ulotlarda yechiladigan vaziyatli masalalardan tubdan farq qilinadi. Agar vaziyatli masalalarda har doim shart (nima berilgan) va talab (nimani topish kerak) berilgan bo‘lsa, keysda, qoidaga ko‘ra, bunday parametrlar mavjud emas.

O‘quvchiga taqdim etilgan ixtiyoriy keysda:

- Keysning belgilanishi va topshiriq/savollar aniq ifodalangan bo‘lishi kerak;

- Bayon qilingan muammoli vaziyatni yechish uchun kerakli va yetarli xajmda ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak

- keysni yechish uchun *uslubiy ko‘rsatmalar* bo‘lishi kerak.

Keys–stadi(ingl.sase– to‘plam, aniq vaziyat, stadi-o‘qitish)–amaliy o‘qitish vaziyatlar metodi.

Keys-stadi - o‘qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan o‘qitish texnologiyasidir.

Ushbu metod o‘quvchilarni quyidagilarga undaydi:

- muammoni shakllantirishga;
- amaliy vaziyatni tahlil qilish va baholashga;
- muammo yechimini eng maqbul variantini tanlashga.

O‘quv mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasini tanlashni ikki asosiy dalil belgilaydi:

1. Keysning hajmi (qisqa, o‘rtacha miqdordagi, katta)
2. O‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli:
 - savolli (savollar keysdan keyin keltiriladi)
 - topshiriqli (topshiriq keys kirish qismining oxirida keltiriladi)

O‘QUV LOYIHA METODI

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, ma’lum muddat ichida (bitta o‘quv mashg‘ulot doirasidan 2-3 oy muddat ichida) ta’lim oluvchi guruhli yoki yakka tartibda berilgan mavzu yuzasidan loyiha topshirig‘ini bajaradi. Uning vazifasi – muayyan foydalanuvchiga yo‘naltirilgan yangi ma’lumot olish, belgilangan muddat ichida berilgan u yoki bu muammoni ilmiy, texnikaviy yechimidan iborat.

O‘quv loyihasi tushunchasi:

- muayyan iste’molchiga mo‘ljallangan, muammolarni izlash, tadqiq qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan. Talablarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilish *usuli*;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o‘quv vositava qurollari;

- rivojlantiruvchi, ta’lim-tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan *didaktik vosita*.

GRAFIK TASHKIL ETUVCHILAR

KLASTER (klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li- barcha tuzilmaning mohiyatini umumlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish asosida aniq biror mazmuni keltirib chiqaradi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va keng jalb qilishda yordam beradi.

Klasterni tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma

1. Katta qog‘oz varag‘I markazida kalit so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat mavzu nomini aylana ichiga yozing.

2. Kalit so‘z bilan birlashdigan yon tomoniga kichkina hajmdagi aylana-“yo‘ldoshcha” ichiga mavzu bilan aloqador so‘z yoki so‘z birikmasini yozing. Ularni chiziq bilan “bosh” so‘zga bog‘lang.

3. Ushbu “yo‘ldoshcha”larda “kichik yo‘ldoshlar” ham bo‘lishi mumkin, ular ichiga yana so‘z yoki iboralar yozib ajratilgan vaqt tugagunga qadar yoki g‘oyalar tugamagunga qadar davom ettiriladi.

«**NIMA UCHUN?» SXEMASI** –muammoning dastlabki sababini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri bo‘lib, tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

«Nima uchun?» sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammo sababini aniqlash uchun:

1) Muammoni yozing va strelka chizig‘ini chiqarib «Nima uchun?» so‘rog‘ini yozing.


2) Savolga javob yozib nima uchun so‘rog‘ini takror yozib boravering. Bu jarayonni muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom ettiring

«**BALIQ SKELETI» CHIZMASI** – bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Baliq skeleti” sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammo maydonini tavsiflash uchun:

1.«Baliq skeletini” chizing:



2. «Suyak»ning chap qismida (yoki yuqori suyakda) muammo osti muammoni yozing, o'ng qismida (pastki suyakda) – muammo osti muammoni amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi dalillarni yozing.

«QANDAY?» IERARXIK DIAGRAMMASI – muammo to'g'risida umumiy tasavvurlarni olishga, uning yechimini topish usul va vositalarini topishga imkon beruvchi mantiqiy savollar zanjiridan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Qanday?» diagrammasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

«Qanday?» diagrammasini tuzishdan avval, siz quyidagilarni bilishingiz kerak: ko'p hollarda Sizga muammolar hal etishda «Nima qilish kerak?» haqida o'ylashga hojat bo'lmaydi. Muammo yechimini topish uchun asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo'ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

1. Doira chizing va uning ichiga yechilishi lozim bo'lgan muammoni yozing.

2. Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'ying va shu savolga javob bering. Shu tartibda savollarni ketma-ket berib boravering va javoblarni o'ylab o'tirmasdan, solishtirmasdan, baholamasdan, tez-tez yozishda davom eting.

Maslahat va tavsiyalar:

Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko'rinishida, yuqoridan pastga yoki chapdan o'ngga. Eng muhimi esda tuting: nisbatan ko'p miqdordagi foydali g'oyalar va muammo yechimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

Agarda siz muammoni yechimini topish uchun to'g'ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo'nalishini namoyon bo'lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi.

«NILUFAR GULI» CHIZMASI – muammoni hal etish vositasi. O'zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o'z navbatida to'qqizta kichik kvadratdan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

«Nilufar guli» sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammoni hal etish vositalarini topish uchun:

1) O'zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan sxemani chizing. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o'z navbatida to'qqizta kichik kvadratdan iborat;

	B			Z			C	
			B	Z	C			
	D		D	A	F		F	
			G	H	Y			
	G			H			Y	

2) Asosiy muammoni markaziy kvadratning markaziga yozing. Uni hal etish g'oyalarini markaziy kvadrat atrofida joylashgan qolgan sakkizta kvadratlarga yozing;

3) Har bir ushbu sakkizta g'oyani markaziy kvadrat atrofida joylashgan sakkizta katta kvadrat markaziga o'tkazing, boshqacha aytganda, nilufar gulidan uning gul bargiga o'tkazing. Shunday qilib, ular har biri, o'z navbatida, yana bir muammo sifatida qaraladi.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ta'limning asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

– Ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

– Berilgan mavzular bo'yicha axborot (referat, taqdimot) tayyorlash;

– Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;

– Maxsus adabiyotlar bo'yicha fanning bo'lim yoki mavzulari ustida ishlash;

– Talabalarning o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanning bo'lim va mavzularini chuqur o'rganish;

– keys-stadilar va o'quv loyihalarini mustaqil bajara olish;

– faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish;

– ilmiy maqola, tezislar, turli ilmiy anjumanlarga ma'ruza tayyorlash va h.k.

Mustaqil ishni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar, keys-stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqiladi. Unda talabalarga asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha amaliy topshiriq, keys-stadilar yechish uslubi va mustaqil ishlash uchun vazifalar belgilanadi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

1. Tarmoqlarning 2017-2021 yillardagi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.
2. Zargarlik sanoatini rivojlantirishining asosiy istiqbollari.
3. Tarmoqlarda mehnat salohiyatidan foydalanish ko'rsatkichlarini yaxshilash.
4. Tarmoqlar kooperatsiyasini rivojlantirish yo'nalishlari.
5. Tarmoqlarning innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish.
6. Tarmoqlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'nalishlari.
7. Tarmoqlar ishlab chiqarishida aylanma mablag'lardan samarali foydalanish yo'nalishlari.
8. Tarmoqlarda asosiy fondlarni modernizatsiyalash asosida mehnatning fond bilan qurollanish holatini yaxshilash yo'llari.
9. Tarmoqlarda mahsulotlar ishlab chiqarish raqobatbardoshligini oshirish istiqbollari.
10. Tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarishni oshirish va nomenklaturasini kengaytirish muammolari.
11. Tarmoqlar ishlab chiqarish xarajatlari va ularni kamaytirish yo'llari.
12. Tarmoqlar foydasining taqsimlanishi va ishlatilishi.
13. Tarmoqlar mahsulotlarining material va energiya sarfini kamaytirish yo'nalishlari.
14. Tarmoqlar boshqaruv tizimini keng joriy qilish muammolari.
15. Tarmoqlarning to'lov qobiliyatini oshirish muammolari.

16. Tarmoqlarda asosiy ishlab chiqarish fondlarining jismoniy va ma'naviy eskirishini oldini olish muammolari.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. McConnell, Brue. Economics. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2013.
2. Tirole, Jean (Tir) The Theory of Industrial Organization. MIT Press, 1992.
3. Church J., and R.Ware. (CW) Industrial Organization. A Strategic Approach. Irwin. 2000.
4. Symeonidis, George. Industrial Economics. University of London Study Guide (SG), 1999 and Examiners' reports (ER), various years.
5. Laffont J.J. and Tirole J. Theory of incentives for procurement and regulation. MIT Press, 1999.
6. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.: "Sano-standart", 2014.-304 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.// Xalq so'zi. 16 yanvar 2017 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 7 iyundagi "Har bir oila — tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risidagi Qarori// "Xalq so'zi", 2018 yil 8 iyun
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so'zi. 8 fevral 2017 yil.
4. Abdulkarimov I.T. va boshqalar Korxonalar iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2013, – 256 b.
5. Vahobov va boshq. Moliyaviy va boshqaruv tahlili: Darslik. – T.: "Sharq", 2013. – 480 b.
6. O'zbekiston Respublikasining 2014-2016 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. WWW/ stat.uz.

Internet saytlari

1. <http://www.mineconomy.uz> – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi rasmiy sayti
2. <http://www.mehnat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari Vazirligi rasmiy sayti
3. <http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi rasmiy sayti
4. <http://www.mfa.uz>- O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti

5. <http://www.gkk.uz> - O‘zbekiston Respublikasi xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi rasmiy sayti
6. <http://www.stat.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi rasmiy sayti
7. <http://www.invest.gov.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha Davlat Qo‘mitasi rasmiy sayti
8. <http://www.standart.uz> -O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi rasmiy sayti
9. <http://www.ima.uz> -O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi rasmiy sayti
- 10.<http://www.academy.uz>- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi rasmiy sayti
- 11.<http://www.cbu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti
- 12.<http://www.wta.org> – Xalqaro savdo tashkiloti sayti
- 13.<http://www.semi.rssi.ru>– Rossiya Federatsiyasi Markaziy-iqtisodiy matematika instituti sayti.
- 14.<http://www.nber.com>– AQSh iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi sayti.
- 15.<http://www.webofscience.com>- Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
- 16.<http://www.scopus.com> – Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
- 17.<http://www.elibrary.ru> – Rossiya ilmiy maqolalar indeksi.

GLOSSARIY

GLOSSARIY

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning o'zbek tilidagi ma'nosini ifodalaniishi
Aksiya	АКЦИЯ	Stock	– qimmatbaho qog'oz, u hissadorlik jamiyatini rivojlantirishga mablag' sarflanganligi dalolati bo'lib, uning egasiga hissadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividend tariqasida olish huquqini beradi.
Asosiy fondlar	Основные фонды	Fixed capital	– o'zining buyum shaklini o'zgartirmagan holda xo'jalik faoliyatida ko'p martalab foydalaniladigan mehnat vositalari.
Biznes	Бизнес	Business	– tadbirkorlik faoliyati yoki insonlarning foyda olishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir.
Bozor infra-tuzilmasi	Рыночная инфраструктура	Market infrastructure	– mahsulot (xizmatlar) ishlab chiqaruvchini iste'molchi bilan Yagona bozor makonida birlashtirib, ishlab chiqarish va iste'mol ko'lamlari o'rtasidagi ziddiyatli bartaraf etuvchi va uning barcha ishtirokchilari oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishishlarini ta'minlovchi muassasalar va vositachilik tarkiblari tizimi.
Daromad	Доход	The income	– tadbirkorlik yoki boshqa faoliyat natijasida pul yoki natura shaklida olinadigan mablag'lar.
Diversifikatsiya	Диверсификация	Diversification	– ishlab chiqarishni ko'pdan-ko'p, bir-biri bilan bog'lanmagan turlarini bir vaqtda rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turini kengaytirish.
Dividend	Дивиденд	The dividend	– hissadorlik jamiyati foydasining (soliqlar to'lanib, barcha qarz beruvchilar bilan hisob-kitob qilinganidan keyingi) hissadorlar o'rtasida ular qo'lidagi aktsiyalarga mutanosib tarzda taqsimlanadigan qismi.
Investitsiya	Инвестиция	The investment	– foyda olish maqsadida sarmoyani biror korxonaga uzoq muddatli

			sarflash.
Iqtisodiyot	Экономика	Economy	– mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo‘jaliklardan, xo‘jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo‘shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o‘rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o‘ta murakkab ijtimoiy tizim.
Iqtisodiy faoliyat	Экономическая деятельность	Economic activity	– cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste‘molchilarga etkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog‘liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar majmui.
Ishlab chiqarish	Производство	Production	– kishilik jamiyatining mavjud bo‘lishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy ne‘matlarni yaratish jarayoni.
Iqtisodiy resurslar	Экономические ресурсы	Economic resources	– tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarida foydalanish mumkin bo‘lgan barcha vosita va imkoniyatlar majmui.
Infratuzilma	Инфраструктура	Infrastructure	– takror ishlab chiqarish shart-sharoitlarini ta‘minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari majmui: transport, aloqa, konsalting, audit, injiniring.
Ijara	Аренда	Rent	– mulk egasi - ijarga beruvchi bilan ijaraga oluvchi o‘rtasidagi shartnoma bo‘lib, ijarachi mulkni muayyan to‘lov hisobiga to‘la yoki qisman egalik qilgan holda vaqtincha foydalanish uchun oladi, xo‘jalik faoliyati yoki boshqa maqsadlarni mustaqil amalga oshiradi. Amalda ijaraning <i>renting</i> – qisqa muddatli, <i>xayring</i> – o‘rta muddatli va <i>lizing</i> – uzoq muddatli turlari mavjud.
Ishlab chiqarish	Производство	Manufacture	– biznes korxonalarining asosiy faoliyat turi bo‘lib, bu jarayon cheklangan resurslardan foydalangan

			holda amalga oshiriladi.
Iqtisodiy-matematik usullar	ЭКОНОМИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ	Economic-mathematical methods	– kompleks iqtisodiy va matematik ilmiy fanlarning umumiy nomi bo‘lib, ular yordamida iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish vositalari ishlab chiqiladi.
Iqtisodiy resurslar	ЭКОНОМИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ	Economic resources	– iqtisodiy ne‘matlarni ishlab chiqarishda qatnashadigan elementlar (yer, mehnat, kapital, tadbirkorlik qobiliyati va axborot)
Iqtisodiy o‘sish	ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ	Economic growth	– mamlakat miqyosida yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga yildan-yilga barqaror o‘sib borish jarayoni.
Kichik korxonalar	Малое предприятие	Small enterprise	– «O‘zbekiston Respublikasida kichik korxonalar to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq, mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, yuridik shaxs huquqlariga ega bo‘lgan mustaqil xo‘jalik sub’ekti kichik korxonalar hisoblanadi.
Tasniflash	Классификация	Classification	– jarayon va hodisalarni ma’lum bir belgilar va xususiyatlar bo‘yicha ajratish.
Kontsern	Концерн	Concern	– ma’lum bir turdagi vazifalarni bajarish uchun vaqtincha tuzilgan ilmiy-texnikaviy, investitsion tarkibiy, moliyaviy va tashqi iqtisodiy siyosatni hamda tegishli resurslarni markazlashtiruvchi korxonalar birlashmasi.
Kon’yunktura	Конъюнктура	Conjuncture	– bozor mexanizmi sharoitlarida rivojlanishning qonuniyatli shakllari davlat tomonidan tartibga solinishi va raqobatning, iste’molchilar, korporatsiyalar hamda davlat muassasalari va korxonalar tomonidan qaror qabul qilishdagi mutaqillikning muvozanati bilan belgilanuvchi jarayonlar: muayyan iqtisodiy faoliyat omillari va shart-sharoitlari yig‘indisi.
Korporatsiya	Корпорация	Corporation	– hissadorlik jamiyati yoki hissadorlik birlashmasi ko‘rinishidagi huquqiy shaxs shakli. U chiqarilgan aksiyalar qiymati bilan cheklangan majburiyatlar bo‘yicha mas’uliyatli

			bo'ladi, o'z nomidan tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlarni bajarish, kontraktlar tuzish, qarz olish yoki berish, boshqa har qanday fuqarolik harakatlarini amalga oshirish huquqiga ega.
Korxonalar mulki	Собственность предприятия	The enterprise property	– korxonaga tegishli asosiy fondlar va aylanma mablag'lar, shuningdek, boshqa moddiy va moliyaviy resurslarni o'z ichiga oladi, ularning miqdori korxonaning mustaqil balansida aks etadi. Korxonaning mulki uning moddiy-texnika bazasi va mablag'larini tashkil etadi.
Litsenziya	Лицензия	The licence	– davlat organlarining chet elga mol chiqarishga yoki chet eldan mol keltirishga ruxsati.
Matematik modellashtirish	Математическое моделирование	Mathematical modelling	– o'rganilayotgan jarayonlarni matematik tenglamalar va tengsizliklar ko'rinishida ifodalash usulidir.
Materiallar	Материалы	Materials	– ishlab chiqarish jarayonida tayyor mahsulotga aylanadigan har qanday moddiy buyumlar.
Mehnat unumdorligi	Производительность труда	Labour productivity	– korxonada bitta ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi.
Raqobat	Конкуренция	Competition	– bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi firma va korxonalarning iqtisodiy musobaqasi.
Reja	План	The plan	– biror natijaga erishish uchun oldinda belgilab olingan sxemaga asosan bosqichma-bosqich harakat qilish jarayoni.
Resurslar	Ресурсы	Resources	– iqtisodiyotdagi ijtimoiy ishlab chiqarishda foydalaniladigan barcha zahiralalar va texnologik omillarning real oqimlari.
Sintez	Синтез	Synthesis	– tizimda faoliyat qilayotgan elementlarni bir butunga birlashtirib o'rganuvchi usul.
Tadbirkorlik qobiliyati	Предпринимательская способность	Enterprise capability	– o'ziga xos bo'lgan shunday inson resursi tushuniladiki, u o'zidan boshqa ishlab chiqarish resurslaridan samarali

			foydalana olish qobiliyatini mujassamlashtirgan.
Tahlil	Анализ	The analysis	– o‘rganiladigan ob‘ektlarni tashkil etuvchi elementlarga bo‘luvchi, ularning tizimdagi o‘rni va rolini tushuntirib beruvchi, shu bilan birga tizim tarkibini aniqlovchi usul.
Texnologiya	Технология	Technology	– tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi amaliy bilimlar.
Tizim tarkibi	Структура системы	System structure	– elementlar tarkibi va ularni birlashtirish usullari.
Umumiy xarajat	Общие издержки	Total costs	– qisqa muddatli oraliqda ma‘lum miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan o‘zgarmas va o‘zgaruvchan xarajatlar yig‘indisi.
Firma	Фирма	Firm	– ishlab chiqarish resurslari egalarning qarorlarini va manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi institutsional tuzilma.
Foyda	Прибыль	Profit	– umumiy daromaddan umumiy xarajatlarni chegirib tashlangan qismi.
Xususiy tadbirkorlik	Частное предпринимательство	Private business	– «O‘zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq xususiy tadbirkorlik alohida bir kishi yoki kishilar guruhi tomonidan shaxsiy daromad yoki foyda olish uchun o‘z mulkiy javobgarligi asosida, amaldagi qonunlar doirasida, yollanma mehnatni jalb qilgan holda amalga oshiriluvchi tashabbuskor xo‘jalik faoliyatini anglatadi.
Dastgox	Станок	Machine	metall, yog‘och, tosh, suyak va b. predmetga ishlov beradigan mashina
Texnika	Техника	Equipment	ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish va jamoatning turmush talablarini qondirish uchun yaratilgan vositalar majmui
Texnologik jarayon	Технологический процесс	Technological process	ishlab chiqarishning asosini tashkil etib, xomashyolarni ishlab chiqarish (iste‘mol) mahsulotlariga aylantirish jarayonida sarflanadigan ishlar majmuidan iboratdir

Texnologiya	Технология	Technology	tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida (xomashyo, material yoki yarim fabrikatlarga ishlov berish, tayyorlash) qo'llaniladigan usul va usullar majmui
Xomashyo	Сырё	Raw materials	mehnat ta'sirida o'zgargan, ammo yana ishlanishi lozim bo'lgan mehnat predmeti
Iqtisodiy faoliyat	Экономическая деятельность	economic activity	– cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga etkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar majmui.
Ishlab chiqarish	Производство	Production	– kishilik jamiyatining mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni yaratish jarayoni.
Yoqilg'i	Энергия	Energy	yonganda issiqlik ajratadigan, uglerodli va uglevodorodli moddalar, energiya manbai. qattiq, suyuq va gaz holatida bo'ladi, tabiiy va sun'iy xillarga bo'linadi
Ishlab chiqarish sikli	Производственный цикл	Production cycle	ma'lum sanoat korxonasi muayyan mahsulotni tayyorlash uchun zarur bo'lgan vaqt

FAN DASTURI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

_____A.Umarov.

202__ yil“ __ ” _____

“KELISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

202__ yil “ __ ” _____

Ro‘yhatga olindi: BD-5112600-3.01

202_ - yil “ __ ” _____

TARMOQLAR IQTISODIYOTI FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar

Ta'lim sohasi: 110000 - Pedagogika

Ta'lim yo'nalishi: 5112600 – Iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi

TOSHKENT – 2020

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020_yil "____" _____dagi ____-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020_yil "____" _____dagi ____-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Berdiyev B.S. - Nizomiy nomidagi TDPU “Iqtisodiy bilim asoslari” kafedrasida dotsent, i.f.n.

Mustafaqulov Ya.B. - Nizomiy nomidagi TDPU “Iqtisodiy bilim asoslari” kafedrasida katta o’qituvchisi

Allayorov I.X. – Nizomiy nomidagi TDPU “Iqtisodiy bilim asoslari” kafedrasida o’qituvchisi

Taqrizchilar:

M.Isakov

i.f.d., TDIU “Sanoat iqtisodiyoti” kafedrasida dotsent, i.f.n. (turdosh OTM).

X.S.Asatullaev

TMI “Iqtisodiyot” kafedrasida mudiri dotsent, i.f.n. (turdosh OTM).

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti o’quv-uslubiy Kengashida ko’rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2020_ yil ____dagi ____-sonli bayonnoma)

Kirish

Ushbu fan tarmoqning milliy iqtisodiyot rivojida roli, tarmoqning tuzilmasini belgilovchi omillari, tarmoqni ilmiy boshqarishning muhim muammolari, tarmoq korxonalarida rejalashtirishning mohiyati, ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, tarmoqning tuzilishida fan-texnika rivojining ta’siri, tarmoqda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllari, tarmoqda kadrlar, tarmoq ishlab chiqarishining asosiy fondlari, o‘zbekistondagi tarmoqlarning xom-ashyo manbai, tarmoq ishlab chiqarishining aylanma mablag‘lari, tarmoq mahsulotining sifati, tarmoqda tannarx, foyda va ishlab chiqarish rentabelligi, tarmoq ishlab chiqarishida baho va bahoni shakllantirish, tarmoq ishlab chiqarishini joylashtirish kabi masalalarni qamrab oladi. Tarmoq rivojlanishida mavjud iqtisodiy qonunlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo‘lishda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo‘lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

«Tarmoqlar iqtisodiyoti» fani ixtisoslik fani hisoblanib, IV va V semestrlarda o‘qitilishi maqsadga muvofiq. Bu dasturni amalda bajarish uchun talabalar

“Iqtisodiyot nazariyasi”, “Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot”, “Marketing”, “Menejment” fanlaridan yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lishlari lozim. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fani “Biznes rejalashtirish”, “Industrial korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish” fanlarini o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o‘rganishdan asosiy maqsad – talabalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat tarmoq iqtisodiyotining nazariy va amaliy masalalari to‘g‘risida talab qilinadigan bilimlarni shakllantirishdir.

“Tarmoqlar iqtisodiyoti”fanini o‘rganishning asosiy vazifalariga: tarmoq ishlab chiqarishini boshqarish, va uni izchil, barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun zarur zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish; talabalarga davlatning iqtisodiy siyosatini jumladan tarmoq siyosatini chuqur anglatish; tarmoq iqtisodiyotni boshqa iqtisodiy fanlar yutuqlari bilan o‘zaro hamkorlikda o‘rgatish; iqtisodiy qonunlar, tarmoq sohasida fundamental qoidalar va hodisalargning tarmoq sohasida amal qilish xususiyatlarini o‘rgatish va boshqalar kiradi.

Fan bo‘yicha talabalarining bilimiga ko‘nikmasiga va malakasiga qo‘yiladigan talablar

«Tarmoqlar iqtisodiyoti» fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

-mamlakat tarmoq tarkibini; va ularni rivojlantirish bo‘yicha qonunlar va qonuniyatlarni bilishi hamda qo‘llay olishni; tarmoq korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llarini asoslashni; agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlarda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning samarali usullarini joriy etishni; tarmoqdagi mahsulot va xizmatlariga talab va taklifni o‘rganish va ularni qondirish yo‘llarini bilishi; tarmoqlar o‘rtasidagi uzviy aloqalarning rivojlanish tendensiyalarini; ilm fanga oid iqtisodiy kategoriyalarning mohiyatini; mamlakat tarmoq iqtisodiyotdagi mavjud muammolar va ularni mo‘tadil yechimini topishning yo‘nalishlarini; O‘zbekiston Respublikasining tarmoq iqtisodiy siyosatining mohiyatini ***bilishi kerak***;

-talaba tarmoqda ijtimoiy-ekologik tizimlarni shakllanish jarayonlarini tahlil qilish bo‘yicha; tarmoq iqtisodiyotga oid iqtisodiy statistik va hisobot ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish bo‘yicha; milliy, tarmoqlar, hududiy va korxonalar iqtisodiyotini o‘zaro aloqadorligini tushunish bo‘yicha; sanoatda bozor muammolari bo‘yicha asosiy iqtisodiy talablarni shakllantira olish bo‘yicha ***ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak***;

-talaba tarmoqlar integratsiyasi, uning rivojlanishi va tarmoqlarning shakllanish qonuniyatlari; mamlakat tarmoqlarining tarkibi, uning rivojlanib borishi; tarmoqlarning hozirgi holati va uni rivojlantirish yo‘llari to‘g‘risida ilmiy asoslangan hulosalari; tarmoq ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun zarur bilimlar asosida uni boshqarish yuzasidan to‘g‘ri qarorlar qabul qilish tartiblari; tarmoqlar

infratuzilmasining rivojlanish qonuniyatlari to'g'risida; tarmoqlar rivojlanishining istiqbollarini to'g'ri belgilash tartiblari; rivojlangan davlatlarda tarmoqlar rivojlanishining umumiy xususiyatlari to'g'risida aniq *malakalarga ega bo'lishi kerak*.

Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

«Tarmoqlar iqtisodiyoti» fani yetakchi tarmoq va muhim soha fani hisoblanib, 3-4-5 semestrlarda o'qitiladi. Rejalashtirilgan gumanitar va ijtimoiy (iqtisodiy nazariya, iqtisodiy ta'limotlar tarixi), matematik va tabiiy-ilmiy (iqtisodiy-matematik usullar va modellar, iqtisodiy geografiya va ekologiya), umumkasbiy (mikroiqtisodiyot, statistika, marketing) va ixtisoslik fanlaridan yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Tarmoqlar – moddiy ishlab chiqarishning eng yirik yetakchi tarmog'I bo'lib, unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste'mol tovarlarining ko'pchilik qismi yaratiladi. Unda mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab chiqariladi, yer osti boyliklarini qazib olish amalga oshiriladi, mineral, o'simlik va hayvon xom ashyosiga ishlov beriladi hamda keng iste'mol mollari tayyorlanadi.

Tarmoqlar xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji tarmoqlarning taraqqiyot darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari taraqqiyotida tarmoqlarning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli uning rivoji va samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa, davlatning mavqei shunchalik kuchli bo'ladi va aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi.

Shuning uchun "Tarmoqlar iqtisodiyoti" umum kasbiy fanlar blokining asosiy fanlaridan biri hisoblanadi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning "Tarmoqlar iqtisodiyoti" fanini o'zlashtirishlari uchun ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmua, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar davomida "insert", "blits-so'rov", "klaster", "aqliy hujum" kabi usul va texnikalardan keng foydalaniladi. Shuningdek mashg'ulotlar

davomida “zig-zag”, “guruh bo‘lib ishlash”, “insert”, “koop-koop” va boshqa shu kabi pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

ASOSIY QISM

1-Modul. Tarmoqlar iqtisodiyotining umumiy tavsifi

1-mavzu. «Tarmoqlar iqtisodiyoti» fanining predmeti va uslubi

Fanning vazifalari. Tarmoqlar iqtisodiyoti – fan va o‘quv kursi sifatida. Ushbu fanning ob‘ekti. Tarmoqning ta‘rifi va tavsifi. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kursining predmeti. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fanining o‘rganish uslubiyati va usullari. Kursning tuzilishi va uning iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o‘rni hamda boshqa o‘quv fanlari bilan bog‘liqligi. “Tarmoqlar iqtisodiyoti” fanining bozor iqtisodiyoti sharoitiga va islohotlar talabiga xos vazifalari. O‘zbekistonda tarmoqlarni rivojlantirish to‘g‘risidagi qonunlar, farmonlar va nizomlar.

2-mavzu. Sanoat – moddiy ishlab chiqarishning yetakchi tarmog‘i

Sanoatning moddiy ishlab chiqarish rivojidadagi roli va o‘rni. Sanoat-moddiy ishlab chiqarishning eng yirik yetakchi tarmog‘i. Mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste‘moli tovarlarini ishlab chiqaruvchi soha. Sanoat va aholining ish bilan bandligi masalasi. Sanoatning tarixiy rivojlanish yo‘llari va asosiy yakunlari. O‘zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari va ularning dinamikasi.

Sanoatda iqtisodiy o‘shish. Sanoatning o‘shish tendensiyasi-elektr energiyasini ishlab chiqarish, neft va gaz qazib olish, po‘lat va prokat rangli metallar va kimyoviy mahsulotlar, ishlab chiqarishi mashinasozlik va metallga ishlov berish sohasining mahsulotlari qurilish materiallari engil va oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi. Jahon sanoat ishlab chiqarishida O‘zbekistonda sanoatning tutgan o‘rni va strategik hamkorlikni kuchaytirish muammolari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moddiy ishlab chiqarishni rivojlanishi va aholi bandligini ta‘minlashda sanoatning o‘rni va roli. Sanoat belgilari, funksiyalari va vazifalari. Sanoatni tasniflash. Sanoat tuzilmasi va uni belgilovchi omillar.

3-mavzu. Qishloq xo‘jaligi va agrosanoat majmui

Qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiy o‘shishini ta‘minlashning muhim sektori. Qishloq xo‘jaligini isloh etish orqali, qishloqlarda mulkdorlar sinfini shakllantirish. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishini ko‘paytirish – mamlakat aholisining moddiy farovonligini garovidir. Respublikamizning yer va suv resurslaridan samarali foydalanish va qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini muntazam ko‘paytirib borish dolzarb ahamiyatga ega.

Qishloq xo‘jaligida zamonaviy texnologiya, texnika va uskunalar. Mineral o‘g‘itlar. Yoqilg‘I va maxsus kimyoviy vositalar, kreditlar bilan ta‘minlash,

urug'chilik muammolarini o'rganish va yechish, mintaqaga xos urug'chilikni tashkil etish, urug' samaradorligini baholash, xo'jaliklarni urug' tayyorlovchi va saralovchi korxonalar va nav yaratuvchi muassasalar bilan aloqalarini ta'minlash, agroservisni yo'lga qo'yish va rivojlantirish, biznes maktablar, malaka oshirish markazlari. Fermerlarni o'qitish kurslari faoliyatini muvofiqlashtirish va talab darajasiga yetkazish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshiradi. Qishloq xo'jaligi boshqa tarmoqlar ishlab chiqarish faoliyatini chambarchas bog'ligini ham taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi va qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash, iste'molchiga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiyot tarmoqlariga agrosanoat majmuasining ta'siri.

4-mavzu. Qurilish majmuini rivojlantirish

Qurilishda tijorat mexanizmlarining yangi tamoyillarini qo'llagan holda obyektlarning muddatlarini sezilarli darajada kamaytirish. Me'yordan ortiq tugallanmagan qurilishga barham berish, Markazlashtirilgan kapital qo'yimlarini qisqartirish. Rivojlantirish va qurilishda shartnomaning rolini oshirish. Kapital qo'yimlar asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarish hisoblanadi. Ixtisoslashgan tashkilotlar qurilish buyurtmachilari bilan tuzilgan pudrat shartnomasiga asosan pudratchi hisoblanadi.

Asosiy fond va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish. Kapital qo'yimlar biznes-rejasining bajarilish hajmi, tuzilishi va moliyalashtirish manbalari. Ishlab chiqarish xarajatlarini nazorat qilish va noishlab chiqarish xarajatlari hamda yo'qotishlarini aniqlash. Tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi va tarkibini baholash. Qurilishlarning moliyaviy ahvolini o'rganish. Qurilishlarning loyiha-smeta hujjatlari, uskunalar va moddiy resurslar bilan ta'minlanganligi. Erishilgan ish natijalarini baholash va ichki imkoniyatlarini aniqlash. Qurilish tashkilotlarining faoliyatini baholashda qurilish obyektlarini ishga tushirish biznes-rejasining bajarilishi. Ishga tushirilayotgan obyektlarning natural o'lchovlari. sanoat korxonalar uchun – ularning quvvati. Uy-joy qurilishi obyektlari. Yashash maydoni. Madaniy-maishiy obyektlar. Obyektlarning loyiha-smeta hujjatlari.

5-mavzu. Iqtisodiyotni rivojlantirishda kommunikatsiya majmui

Kommunikatsiya – bu axborotlar almashinuvidir. Buning asosida rahbar tegishli axborot oladi. Qaror qabul qiladi, ijrochi yoki ishlab chiqaruvchilarga yonaltiradi. Kommunikatsiya murakkab jarayon bo'lib, o'zaro bog'liq ishlardan iborat.

Axborot yig'indisi boshqaruvning axborot tizimini tashkil etadi. Axborot o'z navbatida, to'g'ri, ob'ektiv, mazmunli va qarorlarni qabul qilish hamda tushunarli bo'lishi shart.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida axborot hajmi jihatidan kichik, mazmun jihatidan chuqur, matn jihatidan tushunarli va soda bo'lish lozim. Iqtisodiyotni

rivojlantirishda axborotlar kerakli qaror qabul qilishda muhim sanaladi. Rivojlanishning samaradorligi ko'p jihatdan axborotlar bilan bog'liq.

Axborotlar tarmoqlar ichida bosqichma bosqich, ya'ni vertical kommunikatsiyalar orqali o'tadi va yuqori boshqaruv organlaridan quyi organlarga yeti boradi. Aksincha, o'z vaqtida quyi organlardan yuqori boshqaruv bo'limlariga axborotlar oqimi keladi. Tarmoqlarda gorizontallik kommunikatsiyalar va ularning ahamiyati..

6-mavzu. Iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiy o'sish

Iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiy samaradorlikning ta'siri. Iqtisodiy o'sisga erishishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish muammolari. Mavjud resurslardan oqilona foydalanish. Kam xarajatli va sifatli mahsulotlarni ko'paytirish.

Mehnat unumdorligi va uni oshirish yo'llari. Yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash va ulardan samarali foydalanish. Mehnatni tashkil etish va mehnat haqi. FTT va ilg'or tajriba. Iqtisodiy o'sishning ikki turi. Intensiv iqtisodiy o'sish. Ekstensiv iqtisodiy o'sish.

Iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiy o'sishning muqobil yo'llari. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar.

7-mavzu. Iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar

Tuzilma siyosati, uning mohiyati va ahamiyati. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va tarmolarning shakllanishi. Tarmolar tuzilmasi va uni belgilovchi omillar. Tarmoqlarning bo'linishi va tarmoq tuzilishi. Tarmoqlar tuzilishining ko'rsatkichlari. Tarmoqlar tuzilmasining progressivlik mezonlari.

Tarmoqlarni tashkil etishning huquqiy asoslari va tamoyillari. Tarmoqlarni tashkil etish tartibi va bosqichlari. Tarmoqlarni tashkil etish uchun zaruriy ta'sis hujjatlari. Tashkil etilayotgan tarmoqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish. Tarmoqlar mulki va rekvizitlari. Yangidan tashkil etilayotgan tarmoqlar faoliyatining boshlanishi va uning asosiy vazifalari. Tarmoqlarni qayta tashkil etish va faoliyatini to'xtatish. Tarmoqlarni qayta tashkil etish va tugatishning asosiy tamoyillari. Tugatish hay'ati va uning vazifalari.

8-mavzu. Tarmoqlarda zamonaviy boshqaruv tizimi

Boshqaruv ob'ektiv zaruriyat va maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida. Tarmoqlarni va umumiy iqtisodni ilmiy asosda boshqarishni uyushtirish. Tarmoqlarni ilmiy boshqarishning muhim muammolari. Boshqaruvning mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Tarmoqlarda boshqaruvning asosiy tamoyillari va usullari. Bozor talablariga moslashtirilgan boshqaruvni ishlab chiqish. Tarmoqlarda barqarorlik tamoyili. Tarmoqlarda ishlab chiqarish va mehnatni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish. Boshqarishning ilmiylilik, tejamkorlik, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish tamoyillari. Tarmoqlar boshqaruvining iqtisodiy, ijtimoiy, ruhiy va huquqiy usullari. Boshqaruvning zamonaviy tuzilishi. Boshqarishni takomillashtirishning zamonaviy asosiy yo'nalishlari.

9-mavzu. Ishlab chiqarishni prognozlash va rejalashtirish

Prognozlash: mohiyati, ahamiyati, mazmuni. Tarmoqlarda rejalashtirishning mohiyati va ahamiyati, vazifalari va tamoyillari. Tarmoqlar va darajasida ishlab chiqarishni rejalashtirishning xususiyatlari va uslubiy asoslari. Tarmoqlarning joriy va istiqbolli faoliyatini rejalashtirishda shartnoma munosabatlarining ahamiyati va o‘rni. Rejalashtirishning tamoyillari va usullari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalar tizimi. Reja – birinchi hujjat va rejalashtirishning natijasi sifatida. Rejalarning turlari: indikativ, strategik, biznes-reja. Ishlab chiqarish rejasini tuzib chiqish va tasdiqlashni tashkil etish. Rejalashtirishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari.

10-mavzu. Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi

Samaradorlik tarmoqlar ishlab chiqarishining “ko‘zgusi” sifatida. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari va ko‘rsatkichlari. Ishlab chiqarishning umumiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi (umumlashtiruvchi va resurslar turi bo‘yicha differensiallashtirilgan) va ularni hisoblash usuli. Qiyosiy (nisbiy) iqtisodiy samaradorlik tushunchasi va ko‘rsatkichlari. Keltirilgan xarajatlar va ularni hisoblash usuli. Yillik iqtisodiy samara va uni hisoblash usuli. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari va yo‘llari. Texnik va texnologik omillar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, tashkiliy va xorijiy omillar. Tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jixozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish.

Tarmoqlarning moliyaviy-iqtisodiy axvoli monitoringi va taxlilini o‘tkazish mezonlari. Tarmoqlarning kapital tarkibi ko‘rsatkichlari. Tarmoqlarning to‘lov qobiliyati (likvidlik) ko‘rsatkichlari. Tarmoqlarning ish faolligi va bozor faolligi ko‘rsatkichlari.

11-mavzu. Fan-texnika taraqqiyoti va innovatsion faoliyat

Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati. Fan-texnika rivoji va tarmoqlar tuzilishi jihatdan qayta qurish. Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari. Ishlab chiqarishni elektrlashtirish va elektronizatsiyalashtirish. Elektrlashtirishning moddiy asosi bo‘lgan yoqilg‘i-energetika majmuasini rivojlantirish istiqbollari. Tarmoqlar ishlab chiqarishini har tomonlama avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish. Ishlab chiqarishni kimyolashtirish. Uning mohiyati, ahamiyati va asosiy yo‘nalishlari. Zamonaviy innovatsion texnologiyalar tushunchasi va ularni joriy etishning asosiy yo‘nalishlari. Eng so‘nggi texnologiyalar va chet el tajribasi. Fan-texnika taraqqiyotining samaradorligini baholash.

2-Modul. Iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishini ta‘minlash yo‘nalishlari

12-mavzu. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish

Tarmoqlarda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllari va ularning o‘zaro bog‘liqligi. Konsentratsiyalashtirish, uning shakllari va ko‘rsatkichlari. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda kichik va xususiy korxonalarining ustuvorligi. Mahalliyashtirish uning mohiyati va mazmuni.

Mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish – inqirozga qarshi choralar dasturining eng ko‘plab masalalaridan biri ekanligi.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, uning shakllari va ko‘rsatkichlari. Kooperativlashtirish tushunchasi, uning shakllari va darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar. Tarmoqlar o‘rtasidagi ishlab chiqarish iqtisodiy aloqalarining turlari va ularni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari. Diversifikatsiyalash. Uning mohiyati, ahamiyati va mazmuni. Iqtisodiyotni, jumladan, tarmoqlarni diversifikatsiya qilishning eng muhim ustuvor yo‘nalishi. Kombinatlashtirish: mohiyati, ahamiyati, shakllari va ko‘rsatkichlari. Kombinatlashtirishning hozirgi ahvoli va istiqboli.

13-mavzu. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va difersifikatsiyalash

Ixtisoslashtirish ishlab chiqarishni xarakterlaydi. Hudud yoki xo‘jalikning tarmoq tuzilishini aniqlaydi. Ishlab chiqarishni sifatini oshirishda ixtisoslashtirishning ta’siri. Ixtisoslashtirish xodimlarning kasbiy mahoratini o‘zgartiradi, kadrlarni malakasini va mehnat unumdorligini oshiradi. Qishloqlarda mehnat resurslaridan yanada samaraliroq foydalanishga ta’siri.

Ixtisoslashtirish kapital quyilmalar va asosiy vositalardan foydalanish sanaradorligiga ijobiy ta’sir etadi. Ishlab chiqarishda fan texnika taraqqiyoti va ilg‘or tajribalarni joriy qilishga imkoniyat yaratadi. Mahsulotlarni xarajatlarini pasaytiradi va rentabellikni oshiradi.

14-mavzu. Kadrlar va mehnatga haq to‘lash

